Astronomiyadan ma’lumotnomalar

Muzaffar Qosimov

© www.Orbita.Uz
www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.

Astronomiyadan ma'lumotnomalar

~ Yer ~ Quyosh ~ Oy ~ Sayyoralar ~ Tabiiy yo'ldoshlar ~
~ Asteroidlar ~ Kometalar ~ Yulduzlar ~ Galaktikalar ~

Orbita.Uz@gmail.com
Muzaffar.Qosimov@gmail.com

UMUMIY MA'LUMOTLAR

Astronomiyaga oid shartli belgilar.

Jadvalda astronomiyaga oid adabiyotlarda uchraydigan shartli belgilanishlar keltirilgan bo'lib, ulardan aksariyati, Quyosh, sayyoralar va boshqa osmon jismlarining ramziy ifodalanishi sifatida ancha qadimgi davrlarda yuzaga kelgan. Mazkur ramziy belgi-ifodalar ko'p hollarda, osmon jismining sxematik tasviri yoki, yulduzlar turkumining ramziy shakllarini o'zida namoyon qiladi.

Osmon jismlarining ramziy belgilari	
☉	Quyosh
☾	Oy
♂	Mars (Mirrix)
☿	Merkuriy (Utorud)
♃	Yupiter (Mushtariy)
♀	Venra (Zuxro)
♄	Saturn (Zuhal)
⊕	Yer
♆	Neptun
♅	Uran
♇	Pluton
✸	Yulduz
☄	Kometa
↙	Meteor
☄	Bolid
○	To'lin oy
●	Yangi oy

Burj (Zodiak[1])		
Ramzi	Nomi	Sana
♈	Qo'y (Hamal)	22 mart – 21aprel
♉	Buzoq (Savr)	22 aprel – 21 may
♊	Egizaklar (Javzo)	22 may – 22 iyun
♋	Qisqichbaqa (Saraton)	23 iyun – 22 iyul
♌	Arslon (Asad)	23 iyul – 22 avgust
♍	Parizod (Sunbula)	23 avgust – 22 sentyabr
♎	Tarozu (Mezon)	23 sentyabr – 22 oktyabr
♏	Chayon (Aqrab)	23 oktyabr – 22 noyabr
♐	O'qotar (Qavs)	23 noyabr – 22 dekabr
♑	Tog' echkisi (Jadiy)	23 dekabr – 21 yanvar
♒	Qovg'a (Dalv)	22 yanvar – 21 fevral
♓	Baliq (Xud)	22 fevral – 21 mart

**Qadimgi zamonlarda to XX asrgacha, odamlar, Yer o'z orbitasi bo'ylab yillik harakati davomi 12 ta zodiakdan o'tadi deb hisoblashgan. Hozirda Yer 12 ta emas, balki, 13 ta zodiakdan o'tishi ma'lum.*
13-chi zodiak – «Ilon eltuvchi» aniqlangan bo'lib, Yer ushbu zodiakdan,

Muchal nomi	Yaqin yillarda (XX-asr)						Yaqin yillarda (XXI-asr)							
Sichqon	1936	1948	1960	1972	1984	1996	2008	2020	2032	2044	2056	2068	2080	2092
Sigir	1937	1949	1961	1973	1985	1997	2009	2021	2033	2045	2057	2069	2081	2093
Yo'lbars	1938	1950	1962	1974	1986	1998	2010	2022	2034	2046	2058	2070	2082	2094
Quyon	1939	1951	1963	1975	1987	1999	2011	2023	2035	2047	2059	2071	2083	2095
Baliq	1940	1952	1964	1976	1988	2000	2012	2024	2036	2048	2060	2072	2084	2096
Ilon	1941	1953	1965	1977	1989	2001	2013	2025	2037	2049	2061	2073	2085	2097
Ot	1942	1954	1966	1978	1990	2002	2014	2026	2038	2050	2062	2074	2086	2098
Qo'y	1943	1955	1967	1979	1991	2003	2015	2027	2039	2051	2063	2075	2087	2099
Maymun	1944	1956	1968	1980	1992	2004	2016	2028	2040	2052	2064	2076	2088	2100
Tovuq	1945	1957	1969	1981	1993	2005	2017	2029	2041	2053	2065	2077	2089	2101
It	1946	1958	1970	1982	1994	2006	2018	2030	2042	2054	2066	2078	2090	2102
To'ng'iz	1947	1959	1971	1983	1995	2007	2019	2031	2043	2055	2067	2079	2091	2103

[1] Zodiak – so'zi qadimgi yunoncha «zoon» - so'zidan olingan bo'lib, u qadimgi yunon ilm-fani va madaniyatidan buyon fanda astrologiya fanida saqlanib kelayotgan ma'lum bir jonzot nomi bilan ataladigan yulduz turkumi nomini anglatadi. Bu yulduz turkumlari, Quyoshning yulduzlararo bir yillik bosib o'tadigan yo'li – ekliptika bo'yicha joylashgan 12 ta yulduz turkumlarining nomi bo'lib, mazkur yulduz turkumlariga qadimdayoq har bir tamaddun o'choqlarida o'ziga xos belgilar va nomlar berilgan. Mazkur ramzlar bilan, shuningdek yildagi 12 oy nomlari ham ifodalangan va atalgan. Jadvalda, qadimgi yunon va sharq tamaddunlarida falakkiyot sohasida qo'llanilgan va hozirgi kunda ham adabiyotlarda ko'p uchraydigan burj belgilarining nomlari keltrildi.

Astronomiyada qo'llaniladigan masofa birliklari.

Astronomiyada juda katta masofalarni o'lchash va ifodalash uchun quyidagi maxsus masofa birliklari qo'llaniladi: ***Astronomik birlik***, ***Yorug'lik Yili***, hamda, ***Parsek***.

- ***Astronomik birlik*** (a.b.) – Yer va Quyosh o'rtasidagi masofa.
- ***Yorug'lik Yili*** (yor.yil.) – yorug'likning bir tropik yil muddatda bosib o'tadigan yili.
- ***Parsek***[1] (pk) – yillik parallaksi bir soniyaga teng bo'lgan (boshqacha aytganda, yer orbitasining o'rtacha radiusi bir sekund burchak ostida ko'rinadigan masofa) masofa.

Jadvalda ushbu birliklar orasidagi munosabatlar keltirilgan.

Masofa birligi	km	a.b.	Yor.yili	pk	kpk	Mpk
Kilometr	1	$6.69\cdot10^{-9}$	$1.06\cdot10^{-13}$	$3.24\cdot10^{-14}$	$3.24\cdot10^{-17}$	$3.24\cdot10^{-20}$
Astronomik birlik	$1.496\cdot10^{8}$	1	$1.58\cdot10^{-5}$	$4.85\cdot10^{-6}$	$4.85\cdot10^{-9}$	$4.85\cdot10^{-12}$
Yorug'lik yili	$9.46\cdot10^{12}$	$6.32\cdot10^{4}$	1	$3.07\cdot10^{-1}$	$3.07\cdot10^{-4}$	$3.07\cdot10^{-7}$
Parsek	$3.08\cdot10^{13}$	$2.06\cdot10^{5}$	3.26	1	10^{-3}	10^{-6}
Kiloparsek	$3.08\cdot10^{16}$	$2.06\cdot10^{8}$	$3.26\cdot10^{3}$	10^{3}	1	10^{-3}
Megaparsek	$3.08\cdot10^{19}$	$2.06\cdot10^{11}$	$3.26\cdot10^{6}$	10^{6}	10^{3}	1

Izoh:

- 1 astronomik birlik = $1.49600\cdot10^{11}$ metr = 149 600 000 kilometr ;
- 1 yorug'lik yili = $9.4605\cdot10^{15}$ metr = $9.4605\cdot10^{12}$ kilometr ≈ 63239.7 a.b. ≈ 0.306595 pk ;
- 1 parsek = $3.0857\cdot10^{16}$ metr = $3.0857\cdot10^{13}$ kilometr ≈ 206265 a.b.

[1] «Parallaks» va «Sekunda» so'zlarining dastlabki bo'g'inlaridan keltirib chiqarilgan.
Yillik parallaks –yerdagi kuzatuvchiga nisbatan, uning yer shari bilan birgalikda quyosh atrofida aylanishi tufayli makon bo'ylab harakatlanishi natijasida, osmon yoritkichlarining fazo sferasidagi ko'rinish joyining o'zgarishi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

YER - ⊕

Yer – Quyosh tizimidagi sayyoralar ichida, tartib bo‘yicha uchinchi, o‘lchamlariga ko‘ra beshinchi o‘rinda turuvchi sayyoradir. Shuningdek, ona sayyoramiz, insoniyatga ma’lum bo‘lgan sayyoralar ichida, tiriklik mavjud bo‘lgan yagona sayyora. Ilmiy farazlarga ko‘ra, Yer, Quyosh tizimidagi boshqa sayyoralar singari, Quyosh gaz-chang tumanligidan, bundan taxminan 4.5 milliard yil avval paydo bo‘lgan.

Yer sayyorasi shakliga ko‘ra, yassi ellipsoidga o‘xshash bo‘lib, «Geoid» deb ataladi. Geoid va unga o‘xshash (approksimatsion) ellipsoid orasidagi farq 100 metr atrofida[1]. Sayyoramizning o‘rtacha diametri 12742 kilometr. Aylanasi esa ≈40000 kilometr. Yerning ekvatori, o‘ziga xos do‘nglikni hosil qilgan. Uning ekvatorial diametri, qutblar orasidagi diametridan 42.6 kilometr uzunroq. Yer sirtidagi eng baland nuqta, Everest cho‘qqisi (Jomolungma) bo‘lib, u dengiz sathidan 8848 kilometr balandlikda joylashgan. Eng chuqur botiqligi esa, Marianna botig‘i bo‘lib, u dengiz sathidan 994 metr pastda joylashgan. Ekvator do‘ngligi hisobiga, Yer markazidan eng uzoq joylashgan nuqta Everest cho‘qqisi emas, balki, ekvatorga yaqinroq joylashgan boshqa cho‘qqilar – Ekvadordagi Chimboraso vulqoni cho‘qqisi hamda, Perudagi Uaskaran tog‘i tepasi hisoblanadi.

Yer sirtining 70.8% qismini dunyo okeani egallagan. Qolgan qismi esa, materiklar va orollardan iborat quruqliklar tashkil qiladi. Quruqliklarda joylashgan ko‘llar, muzliklar, daryolar va yer osti suvlari, dunyo okeani bilan birgalikda gidrosferani tashkil qiladi. Yerdagi kabi tirik organizmlar uchun hayot sharoitiga muvofiq keluvchi suv, Yerdan boshqa sayyoralarda aniqlanmagan. Yerning qutblari qalin muz qatlamlari bilan qoplangan bo‘lib, u Arktika va Antarktika muz qalqonlarini, hamda, dengiz muzliklarini tashkil qiladi.

Yerning ichki qatlamlari ancha faol bo‘lib, u kimyoviy va fizik xossalariga ko‘ra, bir necha qatlamlarga bo‘linadi. Yer markazida ichki yadro va uni o‘rab turgan tashqi yadro mavjud. Yadroni o‘rab turgan qattiq qatlam Litosfera deb ataladi. Shuningdek, litosfera ostida Atenosfera qatlami mavjud bo‘lib, u, litosferaning o‘zidan yuqoridagi qatlamlarining harakatlanishi uchun omil bo‘ladi.

Yer sayyorasi, atrofini o‘rab turuvchi qalin gaz qobig‘i – atmosferaga ega. Yer atmosferasi bir necha qatlamlardan iborat. Atmosferaning yerdagi hayot va iqlimning barqarorligidagi o‘rni g‘oyat kattadir. Shuningdek, Yer sayyorasining gidrosfera, atmosfera, litosferasining tirik organizmlar yashaydigan barcha qismlari birgalikda – biosferani tashkil qiladi.

Yer yagona tabiiy yo‘ldosh – Oyga ega.

Appolon-17 fazoviy apparati tomonidan suratga olingan Yer fototasviri - «The Blue Marble». 1972 yil.

Qadim zamonlarda, ko‘plab tamaddunlarda Yer sayyorasi yassi shaklda tasavvur qilingan. Qadimgi Mesopotamiyaliklar, Yerni, okean sirtida suzib yuruvchi disk shaklida deb o‘ylashgan. Qadimgi xalqlarning aksariyatda Yerni xo‘kiz shohida tutib turishi, xo‘kizni esa uchta fil, fillarni esa ulkan kit ko‘tarib turishi haqida sodda tushunchalar hukm surgan. Yerning shar shaklida ekanligini ilk bor qadimgi yunon olimlari, xususan Pifagor ta’kidlagan edi. O‘rta asrlarga kelib, olimlar ikkilamchi belgilarga ko‘ra, xususan boshqa sayyoralarning ko‘rinayotgan shaklidan kelib chiqib, Yer ham aynan shar shaklida ekanligini nazariy isbot qilishgan.

Yer ilk marta 1959 yilda, Eksplorer-6 kosmik apparati orqali fotosuratga tushirilgan edi, biroq tasvir juda sifatsiz chiqqan. Ilk sifatli va yaxlit Yer fotosuratini, 1967 yilda «Lunar Orbiter-V» apparati olishga muvaffaq bo‘lgan. Yerni koinotdan turib ko‘rgan eng birinchi inson esa, rus fazogiri Yuriy Alekseevich Gagarin bo‘lgan. 1968 yilda «Apollon-11» ekipaji, Oy orbitasidan turib yerni kuzatishga muvaffaq bo‘lgan edi. «Apollon-17» ekipaji esa, 1972 yilda mashhur «The Blue Marble» (Moviy Marmar) fotosuratini olgan.

[1] Ushbu ma’lumotlar, global navigatsiya tizimi – GPSni joriy etish vaqtida, kata aniqlik bilan qayd etilgan: AQSH Milliy Geodeziya Axborotnomasi, Milbert, D. G.; Smit, D. A. «Converting GPS Height into NAVD88 Elevation with the GEOID96 Geoid Height Model»

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.



Yer sayyorasining g‘arbiy (yuqorida) va sharqiy (pastda) yarim sharlari

Yerning fizik parametrlari.

- Ekvatorial radiusi : R_{ekv} = 6378.16 km
- Qutbiy radiusi: R_{qutb} = 6356.777 km
- O‘rtacha radius: $R_{o‘rt}$ = 6371.032 km
- Ekvator aylanasi uzunligi: $c_{ekvator}$ = 40075.696 km
- Meridian aylanasining uzunligi: $c_{meridian}$ = 40008 km
- Yuzasi: $S = 5.10 \cdot 10^8$ km^2
- Quruqlik qismi yuzasi: $S_{qururqlik} = 1.49 \cdot 10^8$ km^2, umumiy yuzaning 29% qismi.
- Suv bilan qoplangan qismi yuzasi: $S_{suv} = 3.61 \cdot 10^8$ km^2, umumiy yuzaning 71% qismi.
- Yerning hajmi: $V = 1.083 \cdot 10^{12}$ km^3
- Yerning massasi : $m = 5.976 \cdot 10^{24}$ kg
- Yer massasining Quyosh massasiga nisbati: 1:332958
- Yerning o‘rtacha zichligi: $\rho = 5518$ kg/m^3
- Yer qobig‘ining o‘rtacha zichligi: $\rho_{qobiq} = 2800$ kg/m^3
- Yer markazidagi zichligi: ≈12500 kg/m^3
- Yer aylanishining burchak tezligi: $7.292 \cdot 10^{-5}$ rad/soniya
- Ekvator nuqtasidagi burchak tezlik[1]: 465.1 metr/soniya
- Ekvatordagi erkin tushish tezlanishi (dengiz sathida): 9.78049 metr/soniya^2
- Qutblardagi erkin tushish tezlanishi (dengiz sathida): 9.83235 metr/soniya^2
- Yerning o‘z o‘qi atrofida to‘liq aylanib chiqishi muddati: 23 soat, 56 daqiqa, 4.09 soniya.
- Yerning o‘z orbitasi bo‘ylab Quyosh atrofida to‘liq aylanib chiqishi muddati: 365 kun, 6 soat, 8 daqiqa, 38.4 soniya.
- Yerga tushadigan quyosh nurlarining quvvati: ≈$2 \cdot 10^{14}$ kVt
- Yer markazidagi bosim: ≈353 GPa ($3.6 \cdot 10^6$ kgk/sm^2)

- Yerdagi:
  - suv massasi: $1.4 \cdot 10^{21}$ kg
  - atmosfera massasi: $5.16 \cdot 10^{18}$ kg
  - yer qobig‘i massasi: $28.5 \cdot 10^{21}$ kg
  - yer mantiyasi massasi: $4913 \cdot 10^{21}$ kg
  - yer yadrosi massasi: $1934 \cdot 10^{21}$ kg

- Yerning taxminiy yoshi: ≈ $4.5 \cdot 10^9$ (4.5 milliard) yil
- Yer elippsoidining yassiligi: 1/298.25
- Yer tevarak-atrofi va koinot quyi chegarasi: yer sirtidan 60 – 65 km balandlikda
- Yer tevarak-atrofi va koinot yuqori chegarasi: yer sirtidan 930000* km balandlikda.
- Quruqlikning Okean sathiga nisbatan o‘rtacha balandligi: $h_{o‘rt}$=875 metr.
- Okeanlarning o‘rtacha chuqurligi: $h_{o‘rt}$=3.9 kilometr
- Okean sathiga nisbatan eng yuqori balandlik: Jomolungma (Everest) cho‘qqisi: h=8848 metr.
- Okeanning eng chuqur botig‘i chuqurligi: Marianna botig‘i (Tinch okeani): h=11022 metr.

[1] Yerning turli nuqtalaridagi burchak tezligi turlicha bo‘lib, u joyning geografik kengligiga bog‘liq. Muayyan joy uchun burchak tezligi *ω=465.1· cos φ (metr/soniya)* formula orqali hisoblash mumkin.

* Bu balandlik yer shari tevarak atrofining kosmik chegarasini, ya’ni yerning tortish kuchi ta’sir qilish sferasining maydon chegarasini belgilaydi. Bu hudud chegaralarida yerning gravitatsiya maydoning ta’siri quyosh va boshqa sayyoralar gravitatsiya maydonlarining ta’siriga nisbatan hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

- Yer magnit maydoning vertikal yo‘nalishi kuchlanganligi:
  - Magnit ekvatorida: 0 A/m (0 E)
  - Magnit qutblarida: 55.7 A/m (0.7 E)
- Yer magnit maydoning gorizontal yo‘nalishi kuchlanganligi:
  - Magnit ekvatorida: 23.9 – 31.8 A/m (0.3 – 0.4 E)
  - Magnit qutblarida: 0 A/m (0 E)

- Yerning elektr zaryadi: $57 \cdot 10^4$ Kulon.
- Yer atmosferasidagi elektr maydonining kuchlanganligi:
  - Yer sirtida: 130 V/m
  - 500 metr balandlikda: 50 V/m
  - 3 kilometr balandlikda: 30 V/m
  - 12 kilometr balandlikda: 2.5 V/m

- Yerning magnit qutblari koordinatalari:
  - Shimoliy magnit qutbi: $\varphi = 75.0 \pm 0.5°$ shimoliy kenglik; $\lambda = 99.0 \pm 1°$ g‘arbiy uzunlik.
  - Janubiy magnit qutbi: $\varphi = 66.5 \pm 0.5°$ janubiy kenglik; $\lambda = 140.0 \pm 1°$ sharqiy uzunlik.

Yerning orbital ko‘rsatkichlari.

- Perigeliy[1]: 147 098 290 km; 0,98329134 a. b.
- Afeliy[2]: 152 098 232 km; 1,01671388 a. b.
- Katta yarim o‘q (α): 149 598 261 km; 1.00000261 a. b.
- Orbita ekstsentrisiteti (e): 0,01671123.
- Siderik aylanish davri: 365,256366004 kun; 365 kun, 6 soat. 9 daqiqa, 10 soniya.
- Yerning Quyosh atrofida aylanish orbitasi bo‘ylab aylanishining o‘rtacha tezligi: 29.783 km/soniya
- Yerning Quyosh atrofida aylanish orbitasi bo‘ylab aylanishining eng yuqori tezligi (perigeliyda): 30.27 km/soniya
- Yerning Quyosh atrofida aylanish orbitasi bo‘ylab aylanishining eng past tezligi (afeliyda): 29.27 km/soniya
- Orbita aylanasi uzunligi (ya’ni, Yerning bir yilda bosib o‘tadigan yo‘li masofasi): 936250000 km
- O‘rtacha anomaliya (M_0): 357,51716°
- Peritsentr argumenti (ω): 114,20783°



Tarixda ilk marta olingan Yer sharining yaxlit kosmik fotosurati.

Tinch okeanining koinotdan ko‘rinish

[1] Yer Quyoshga eng yaqin masofa - Perigeliyga yanvar oyi boshida keladi.

[2] Yer Quyoshdan eng uzoqlashgn nuqtasi – Afeliyga iyul oyi boshida keladi. Perigeliy va Afeliy masofalari farqi 5 mln km atrofida ekanligidan, affeliyda Yer, Quyoshdan Perigeliydagiga nisbatan 7% ga kamroq energiya oladi. Shu sababli ham, shimoliy yarim sharda qish, janubiy yarim shardagidan iliqroq bo‘ladi. Bu ikki sana orasida, Quyoshning Yerdan ko‘rinadigan diametri taxminan 3% ga qisqaradi.

Lunar Orbiter –V 1967 yil

LITOSFERA

Litosfera – yunoncha λίθος — «tosh» va σφαῖρα — «shar, sfera» so‘zlaridan olingan bo‘lib, yer sayyorasining ichki tuzilishida, yer yadrosini o‘rab turuvchi qattiq qatlamga nisbatan ishlatilinadigan atama.

Yerning ichki tuzilishi.

Yer nazariy – faraziy jihatdan uch asosiy qismga bo‘lib o‘rganiladi: ***Qobiq***, ***Mantiya*** va ***Yadro***.

Yer qobig‘i ikki xil – Kontinental, va okeanosti qobiqlari. Yer qobig‘i qalinligi, okean chuqurliklariga nisbatan, 5 – 10 kilometr, tekisliklarda esa, 35 – 45 km, tog‘li hududlardan esa 70 kilometr va undan yuqori masofada o‘zgaradi. Umuman olganda esa, yer qobig‘ini o‘rtacha 33 kilometr qalinlikdagi bir jinsli qatlam sifatida, shartli ravishda tasavvur qilinadi. Qobiqdagi tog‘ jinslari harorati o‘rtacha har 33 metrda 1°C ga ko‘tariladi.

Qobiq qatlamida bir birini almashtirib takrorlanuvchi (qum, tuproq, gil, ohaktosh kabi) cho‘kindi jinslar qavati hamda, granit va bazaltdan iborat magmatik qavatlar mavjud. Cho‘kindi jinslar asosan organik moddalarning yig‘indisidan iborat bo‘lib, ularning ko‘pchiligi foydali qazilmalar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Cho‘kindi jinslar qavatidan keyin granit qatlami mavjud bo‘lib, u yer qobig‘ida magmaning yuqori bosim va haroratda otilib chiqishi va sovib, qattiq holatga o‘tishi tufayli vujudga kelgan. Granitdan keyin bazalt qatlami mavjud bo‘lib, u granitdan ko‘ra og‘irroq va unda temir, kalsiy va magniy moddalari ko‘proq.

Qobiqdan keyin, 33 – 29000 kilometr chuqurlik intervallarida Mantiya joylashgan. Mantiya yer massasining ~67% qismini va hajmining (atmosferani hisobga olmaganda) ~83% qismini tashkil etadi. Mantiya asosan Temir, Magniy va Qo‘rg‘oshindan tashkil topganligi va o‘rtacha harorati 2000 °C atrofidaligi taxmin qilinadi. Yer qobig‘i va mantiyasining yuqori qismi o‘zaro birgalikda yer litosferasini tashkil qiladi. Litosfera bir necha ulkan litosferik plitalardan iborat bo‘lib ular doimo bir biriga nisbatan harakatda bo‘ladi. Aynan shu litosferik plitalar chegaralari bo‘ylab zilzilalarning nisbatan ko‘p o‘choqlari paydo bo‘ladi. Mantiya va qobiq chegarasi – «***Moxrovich yuzasi***» deb ataladi va unda seysmik to‘lqinlar tarqalish tezligi 6,7–7,6 km/soniyadan, 7,9–8,2 km/soniyagacha keskin sakrashlar bilan kuchayadi.

Materiklardan 120 – 150 km, okeanlardan esa 60 – 400 km chuqurlikda «***Atenosfera***» deb nomlanuvchi qatlam joylashgan bo‘lib, bu qatlamdagi moddalar erish haroratiga yaqin va juda ham past qovushqoqlik xususiyatida ekanligini, va bu qatlam o‘zidan yuqorida joylashgan litosfera qatlamlarini o‘z sirti bo‘ylab sirpangan singari harakatga keltirishini soha mutaxassislari taxmin qiladilar.

Yerning markaziy qismini esa, 29000 – 6371 kilometrlik qatlamda yer Yadrosi joylashgan. Yadro ham o‘z navbatida ikki qismdan iborat deb taxmin qilinadi: Birinchi, tashqi qismi 2900 – 5000 kilometr qalinlikda bo‘lib, uning suyuq holda, ya’ni, erigan temir va uning aralashmalaridan iborat ekanligi, va ikkinchi – ichki yadro 5000 – 6731 kilometr qatlamda bo‘lib, qattiq qatlam deb faraz qilinadi. Yer yadrosining tuzilishi va fizik xususiyatlari hali to‘liq o‘rganib chiqilmagan. Uning markazidagi harorat 6000 °C gacha, zichlik esa, 12,5 t/m^3 gacha yetadi. Yer yadrosidagi bosim, taxminan 360 GPa (3.55 million atmosfera bosimi) atrofida. Yadroning massasi esa, $1{,}9354 \cdot 10^{24}$ kg deb baholanadi.



Yerning turli chuqurlik intervallaridagi zichligi.

Yerning zichligi, uning turli chuqurliklarida o‘zgaruvchan bo‘lib, qobiq va mantiya, mantiya va yadro chegaralarida birdaniga, keskin o‘zgaradi. Jadvalda yerning ichki qatlamlari zichliklarining taxminiy qiymatlari keltirilgan.

Qatlam	Chuqurlik intervallari, *km*	Zichlik intervallari, *kg/m*^{3}
Yer qobig'i	0 – 33	2700 – 3000
Mantiya	33 – 2900	3300 – 5600
Tashqi yadro	2900 – 5000	10600 – 11500
Ichki yadro	5000 – 6371	11500 – 12500

Yerning ichki qatlamlarida erkin tushish tezlanishi.

Chuqurlik, *km*	Erkin tushish tezlanishi, *metr/soniya*	Chuqurlik, *km*	Erkin tushish tezlanishi, *metr/soniya*	Chuqurlik, *km*	Erkin tushish tezlanishi, *metr/soniya*
0	9.81	800	9.84	3500	9.15
10	9.82	1000	9.90	4000	8.02
33	9.83	1500	9.85	4500	6.90
100	9.86	2000	9.86	5000	6.00
200	9.89	2500	10.05	5500	4.10
300	9.92	2900	10.40	6000	1.70
400	9.94	3000	10.20	6371	0
600	9.95				

Yerning turli chuqurliklaridagi bosim.

Chuqurlik, *km*	Bosim		Chuqurlik, *km*	Bosim	
	GPa	10^6 *kgk/sm*^{2}		GPa	10^6 *kgk/sm*^{2}
0	0	0	2900	136	1.36
10	0.	0.003	3000	140	1.4
33	0.9	0.009	4500	280	2.8
100	3	0.03	5000	320	3.2
600	20	0.2	5500	350	3.5
1000	40	0.4	6000	360	3.6
2000	90	0.9	6371	370	3.7

Yerning ichki qatlamlaridagi harorat.

Yer ichidagi harorat qanday marom va qonuniyatlar bo'yicha taqsimlanishi hali fanga to'liq ma'lum emas. Shu sababli, jadvaldagi ma'lumotlar, ilmiy farazlar asosidagi taxminiy qiymatlar bo'lib, Yerning yuza qatlamlari uchun ma'lumotlar aniqroq hisoblanadi. Yuza qatlamlar uchun harorat gradienti, ya'ni, chuqurlik ortishi bilan haroratning ko'tarilishini ifodalovchi kattalik, 20 *K/km* (yoki, 20 °C/*km*) ga teng.

Chuqurlik, *km*	Harorat, *K*	Chuqurlik, *km*	Harorat, *K*	Chuqurlik, *km*	Harorat, *K*
0	287	800	2800	3500	5000
10	460	1000	3000	4000	5500
33	700	1500	3500	4500	5800
100	1200	2000	3800	5000	6000
200	1700	2500	4100	5500	6200
300	2000	2900	4300	6000	6300
400	2200	3000	4500	6371	6400
600	2500				

Yer qobig'ida kimyoviy elementlarning tarqalishi.

Kimyoviy element	%	Kimyoviy element	%
Kislorod	49.5	Xrom	0.02
Kremniy	25.3	Vanadiy	0.015
Alyuminiy	7.5	Azot	0.01
Temir	5.08	Mis	0.01
Kalsiy	3.39	Nikel	0.008
Natriy	2.63	Rux	0.005
Kaliy	2.40	Qalay	0.004
Magniy	1.93	Kobalt	0.003
Vodorod	0.97	Qo'rg'oshin	0.0016
Titan	0.62	Mishyak	0.0005
Uglerod	0.1	Bor	0.0003
Marganes	0.09	Uran	0.0003
Fosfor	0.08	Brom	0.00016
Ftor	0.065	Yod	0.00003
Oltingugurt	0.05	Kumush	0.00001
Bariy	0.05	Simob	0.000007
Xlor	0.045	Oltin	0.0000005
Stronsiy	0.04	Platina	0.0000005
Rubidiy	0.031	Radiy	0.0000000001
Sirkoniy	0.02		

GIDROSFERA

Gidrosfera – yerning suv qatlami, bu tushuncha suyuq, bug', va muz holatidagi – yer sharida mavjud bo'lgan barcha suv miqdorini qamrab oladi. Gidrosfera so'zining ma'nosi yunoncha – Υδωρ – «suv» va σφαῖρα – «shar» so'zlaridan olingan.

Suvning gidrosfera bo'ylab taqsimlanishi.

Dunyo okeanida:	96.4 %;	Yerosti suvlari:	1.7 %
Muzliklarda:	1.8 %	Ko'llar, daryolar va botqoqliklarda:	0.01%

Dunyo okeani butun sayyora yuzasining 70.8 % qismini egallaydi. U materiklar orqali to'rtta okeanga ajraladi. Okeanlarning o'rtacha chuqurligi 3682 metr. Okean suvlarining o'rtacha sho'rligi, 1 kilogramm suv miqdori uchun 35 grammni (35 ‰) tashkil qiladi. Materiklarning okean qirg'oqlari bo'ylab, materik sayozligi yoki shelf yastanib yotadi. Uning chuqurligi 200 metrdan oshmaydi. Qirg'oqdan 200 mil masofadagi shelf, dengizbo'yi davlatining mulki hisoblanadi. Okeanlardagi jami suv miqdori $1{,}35 \cdot 10^{18}$ tonna, yoki, yer massasining 1/4400 qismini tashkil qiladi. Dunyo okeanining umumiy maydoni $3{,}618 \cdot 108$ km^2, o'rtacha chuqurligi esa 3682 metr. Yerdagi suv miqdorining atiga 2.5% qismi chuchuk suv bo'lib, ularning 68,7 % qismi muzliklarda jamlangan. Yerdagi suvning paydo bo'lishi taxminan 4 milliard yil deb baholanadi.

Okean suvlarida eng ko'p tarqalgan kimyoviy elementlar.

Okean suvida Mendeleyev davriy jadvalidagi deyarli barcha kimyoviy elementlarni uchratish mumkin. Shunday bo'lsa-da, undan faqat Natriy va Xlorni (osh tuzi ko'rinishida) sanoat miqyosida ajratib olish va qayta ishlashga yetarli miqdorda deb hisoblash mumkin. Okean suvi tarkibidagi erigan moddalarni olish (masalan oltin 1 km^3 okean suvida 4 kg erigan miqdorda bo'ladi) iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Kimyoviy element	Tarqalishi, km^3 da tonna
Suv	991 000 000
Xlor	19 600 000
Natriy	10 900 000
Magniy	1 400 000
Oltingugurt	920 000
Kalsiy	420 000
Kaliy	390 000
Brom	67 000
Uglerod	29 000
Stronsiy	8 300

ATMOSFERA

Atmosfera (yunoncha- «ἀτμός» — bug' va «σφαῖρα» — shar) – yerning gazsimon tashqi qobig'i bo'lib, u yer bilan birgalikda bir-butun holatda aylanadi va sayyorani kosmik nurlardan, meteoritlardan, hamda me'yoridan ortiq qizib yoki sovib ketishidan himoyalaydi. Atmosfera 78,08 % azot, 20,95 % kislorod, hamda, 0,93 % argon gazlaridan iborat. Shuningdek, 0,03 % karbonat angidrid gazi mavjud. Qolgan elementlar 0,1 % miqdorda, bular asosan: vodorod, metan, is gazi, oltingugurt oksidi va ho kazolardir.

Yer atmosferasi aniq ifodalanadigan ustma-ust qatlamlardan iborat. Atmosferani, yer sirtidan balandlik yuqorilagan sari harorat o'zgarishiga ko'ra, beshta asosiy sfera va ular orasidagi uchta o'tish qatlamlariga ajratiladi. Ular quyidagilar:

Sfera nomi	Sferaning o'rtacha balandligi	O'tish qatlami va uning balandligi, ***km***	Vertikal bo'yicha haroratning o'rtacha taqsimlanishi.
Troposfera	Yer sirtidan tropopauzagacha	Tropopauza: • qutblarda 8 – 10; • orta kengliklarda 10 – 12; • tropiklarda 16 – 18.	Har 1 km balandlikda o'rtacha 6.5 °C ga pasayadi.
Stratosfera	Tropopauzadan 50 – 55 km balandlikkacha	Stratopauza: 50 – 55 km qatlamda	Stratopauzada −2.5 dan −12 gacha yetadi.
Mezosfera	Stratopauzadan 80 – 85 km	Mezopauza: 80 – 85 km qatlamda	Har 1 km balandlikda 3 – 4 °C ga pasayadi.
Termosfera	80 – 85 km dan yuqori.	–	Muttasil ortib boradi va 120 km da ≈60 °C gacha, 150 km da esa 700°C gacha yetadi
Ekzosfera	800–1000 km dan baland	–	Balandlik ortishi bilan harorat ortadi.

- Troposfera – atmosferaning eng quyi qatlami. Uning yuqori chegarasi – tropopauza yil fasli va geografik kenglikka bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Troposferada yerning havo qobig‘i massasining deyarli 80% qismi hamda, suv bug‘larining 90% qismi jamlangan bo‘lib, unda Yerdagi ob-havoni belgilaydigan jarayonlar yuz beradi.

- Stratosfera – troposfera ustidagi qatlam. Unda butun atmosferaning taxminan 20 % massasi jamlangan. Stratosferaning quyi qismi (20 km balandlikkacha) balandlik ortsa ham haroratning deyarli o‘zgarmasligi bilan qiziq bo‘lib, unda o‘rtacha −56.5 °C saqlanadi, keyin esa, har 1 km balandlashda o‘rtacha 1 – 2 °C ga ko‘tarilishni boshlaydi va stratosferaning yuqori qatlamlarida deyarli 0°C ga yetadi. Stratosferaning yuqori qismida katta konsentratsiyadagi Ozon (O_3) qatlami bo‘lib, u Quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurlarining katta qismini yutib qoladi va yerdagi hayotni bu nurlarning salbiy ta’siridan himoya qiladi. Stratosferaning eng yuqori qatlamlarida Yer sharoitidagi eng yuqori shamol tezliklari kuzatiladi (360 km/soatgacha).

- Mezosferaga butun atmosfera massasining 0.3% ko‘p bo‘lmagan qismi to‘g‘ri keladi. Shamol tezligi 20 – 230 km/soat. Bu qatlamdan boshlab atmosferaning eng yuqori qatlamlari boshlanadi. Mezosferada havo juda siyrak, Kosmik nurlar ta’sirida, mezosfera havosi kuchli ionlashgan va elektr tokini o‘ta o‘tkazuvchanlik xususiyatiga ega. Aynan shu sferada qutb yog‘dusi paydo bo‘ladi.

- Termosferada butun atmosfera massasining 0.05% qismi to‘plangan bo‘lib, unda Quyoshdan keluvchi qisqa to‘lqinli nurlanishlarni yutilish jarayonlari yuz beradi. Shu sababli, 200 – 300 km balandliklarda haroratning keskin ko‘tarilishi kuzatiladi. Bu sferada harorat gradient o‘rtacha 3 – 8 °C/km bo‘ladi. Nisbatan yuqorida, 800 – 1000 km balandliklarda harorat taxminan ≈1000 K atrofida o‘zgarmas xususiyat saqlab qoladi. Chunki bu qatlamlarda o‘ta siyrak havo qatlami kosmik nurlarni juda ham kam miqdorda yutadi.

- Ekzosfera – Atmosferaning eng yuqori va eng siyrak qatlami. Uning quyi chegarasida protonlar konsentratsiyasi $\approx 10^{11}$ m^{-3} ni tashkil qiladi va zarrachalar to‘qnashuvi juda ham kam sodir bo‘ladi. Bu qatlamdagi havoning asosiy tarkibiy qismlari atom holatidagi kislorod, azot va vodoroddan tashkil topgan. Bu qatlamdagi ba’zi alohida zarrachalarning (asosan vodorod va geliyning atomlari) tezliklari kosmik tezliklardan ortiq bo‘lib, ular yer tortish kuchini yengib o‘tib, sayyoralararo bo‘shliqqa uchib chiqib ketishi mumkin. Bu jarayon «Dissipatsiya» - Yer atmosferasining tarqalishi deb ataladi.

QUYOSH - ⊙



Quyosh – Yerga eng yaqin yulduz. Quyosh uchinchi avlod yulduzlar sinfiga mansub yosh yulduz hisoblanadi. Uning yoshi, olimlar tomonidan, taxminan 4.59 milliard yil deb baholangan.

Quyosh, Quyosh tizimida markaziy o‘rin tutuvchi, eng asosiy obyektdir. Quyosh tizimidagi qolgan barcha osmon jismlari, aynan Quyosh atrofida aylanadi. Quyosh massasi, Quyosh tizimining umumiy massasining 99,866 % qismini tashkil etadi. U asosan vodorod (massa ulushi ~73 %, hajmiy ulushi ~92 %) va geliydan (massa ulishi ~25 %, hajmiy ulushi ~7 %) iborat. Shuningdek juda past konsentratsiyalarda, temir, nikel, kislorod, azot, oltingugurt, kremniy, magniy, uglerod, neon, kalsiy va xrom aniqlangan. Spektroskopik tahlillarga ko‘ra, Quyoshning kimyoviy tarkibida, 1 million dona vodorod atomiga, 98 000 dona geliy atomi, 851 dona kislorod, 398 dona uglerod, 123 dona neon, 100 dona azot, 47 dona temir, 38 dona magniy, 35 dona kremniy, 16 dona oltingugurt, 4 dona argon, 3 dona alyuminiy, kalsiy, natriy va nikellar atomlaridan ikki donadan to‘g‘ri kelar ekan. Quyoshning o‘rtacha zichligi 1409 kg/m^3. Spektral tasnifga ko‘ra Quyosh G2V (sariq karlik) sinfiga mansub. Quyosh sirtida harorat 6000 K gacha yetadi.

Quyosh va Yer orasidagi masofa ≈149 million 600 000 kilometr. Quyosh, o‘z galaktikasi – Somon yo‘li markazida 26000 yorug‘lik yili masofada joylashgan bo‘lib, uning atrofida taxminan, 200 million yilda bir marta aylanib chiqadi. Quyoshning orbital tezligi 217 km/soniya. Bundan kelib chiqadiki, Quyosh, bir yorug‘lik yilini, 1400 yer yilida, bir astronomik birlik masofasini esa, 8 yer kunida bosib o‘tadi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Quyosh, biz biladigan nurlanish to‘lqinlarining barcha diapazonida nurlanish taratadi. U, inson ko‘ziga ko‘rinadigan odatiy yorug‘lik diapazonidan tashqari, gamma, infraqizil, ultrabinafsha va rentgen nurlanishlari ham taratadi. Quyosh spektri ionlashgan va neytral metallar, shuningdek ionlashgan vodorod chiziqlaridan iborat. Quyosh nurlanishi, Yer va boshqa sayyoralar uchun asosiy energiya manbaidir. Quyoshdan Yerga yetib kelayotgan nurlanish energiyasi, Yerning Quyosh nurlariga perpendikulyar bo‘lgan maydon birligidan o‘tayotgan energiya miqdori bilan tavsiflanadi va quyosh doimiysi deb ataladi. Quyosh doimiysining qiymati, bir astronomik birlik (ya’ni, Yer orbitasida) masofada 1,37 kVt/m^2 ga teng. Yer atmosferasida o‘tib kelar ekan, Quyosh nurlanishi, o‘z energiyasining ma’lum qismini yo‘qotadi va ochiq ob-havoda, (Quyosh zenitda turgan vaqtda) Yer sirtiga taxminan 1000 kVt/m^2 qiymat bilan yetib keladi. Bu energiyadan, tabiat va insoniyat tomonidan, turli xil tabiiy va sun’iy jarayonlarda foydalaniladi. Masalan, Yerdagi biosferaning katta qismi, xususan o‘simliklar, aynan Quyosh energiyasi hisobiga (fotosintez) organik birikmalar sintez qiladi va kislorod ishlab chiqaradi.

Yerdan kuzatilganida, Quyoshning osmon sferasi bo‘ylab bosib o‘tadigan yo‘li, bir yil davriylikda takrorlanadi va u 8 raqami shaklida namoyon bo‘ladi. Bu yo‘l traektoriyasi analemma deyiladi.

Yer, Quyoshdan eng uzoq masofasi – afeliyni, iyul oyi boshida bosib o‘tadi va bu vaqtda, Yer Quyoshdan 152000000 km masofada bo‘ladi. Perigeliyda esa, 147000000 km gacha Quyoshga yaqinlashib boradi va bu ikki nuqta orasida, yerdagi kuzatuvchiga nisbatan Quyoshning ko‘rinadigan diametri 3% ga o‘zgaradi. Perigeliy va afeliy nuqtalarida masofalar farqi 5000000 km bo‘lganidan, afeliyda Yer Quyoshdan perigeliydagiga nisbatan 7% kamroq energiya qabul qiladi. Shu tufayli ham, Yerning shimoliy yarim sharidagi qish fasli, janubiy yarim shardagidan nisbatan iliqroq bo‘ladi.

Quyosh – magnitik faol yulduzdir. Uning o‘ta kuchli magnit maydoni, milliardlab kilometr masofaga yoyilgan bo‘lib, uning kuchlanganligi, davriy o‘zgarib turadi va har 11 yilda, Quyosh faolligi davrida, o‘zining yuqori qiymatiga erishadi. Bu vaqtda, Quyosh faolligi eng yuqori darajaga erishib, natijada, Quyosh shamoli, Quyosh dog‘lari, Quyosh chaqnashi kabi effektlarning ham turli yo‘nalishlardagi o‘zgarishlari aynan shu davrda yuz beradi. Natijada, bu effektlar, Yerda geomagnit bo‘ronlar keltirib chiqarishi, buning oqibatida esa, aloqa tizimlari va elektr uzatish tarmoqlarida nosozliklar paydo bo‘lishi kuzatiladi.

Quyoshning ichki tuzilishi.



Quyoshning markazi, ya’ni, radiusining 20-25% qismini tashkil qiluvchi, 150-170 ming km masofadagi qatlami – ***Quyosh yadrosi*** deyiladi. Quyosh yadrosida ulkan miqyosdagi to‘xtovsiz va uzluksiz termoyadro reaksiyali boradi. Yadro zichligi taxminan ≈150000 kg/m^3 (yerdagi zichligi eng katta bo‘lgan metall – osmiydan ham ~6.6 marta yuqori). Yadrodagi harorat, 14 million K dan ortadi. Quyosh yadrosi, uning boshqa qismlariga nisbatan, o‘z o‘qi atrofida juda tez aylanadi. Quyosh yadrosida, proton-proton termoyadro reaksiyasi kechadi va uning natijasida, to‘rtta protondan Geliy-4 elementi paydo bo‘ladi. Bunda, har bir soniyada, 4.26 million tonna modda nurlanish orqali sarflanib, tarqab ketadi. Biroq, bu raqam, Quyoshning umumiy massasiga $2\cdot10^{27}$ tonna bilan taqqoslaganda, deyarli sezilarsiz qiymatdir. Nazariy hisob-kitoblarga ko‘ra, Quyosh yadrosining eng markazidagi, ajralib chiqayotgan quvvat, 276.5 Vt/m^3 ga yetadi. Aynan yadro – Quyoshning butun energiya manbaidir. Faqat yadroda termoyadro reaksiyalari sodir bo‘ladi va uning energiyasi, Quyoshning boshqa qismlarini qizdirib, qatlamlar orasidan, fotosferagacha o‘tib boradi va u yerdan, Quyosh nurlari ko‘rinishidagi, kinetik energiya shaklida, butun koinotga nurlanib turadi.

Quyosh yadrosidan keyin, 0.2 – 0.7 Quyosh radiusi masofasida, ***nurlanishni o‘tkazish hududi*** nomli qatlam joylashgan. Bu hududda, asosan fotonlarning yutilishi va nurlanishi hisobiga, energiyaning yadrodan Quyoshning tashqi qismlariga uzatilishi yuz beradi. Bu hududda haroratlar farqi, 2 million K dan, 7 million K gacha bo‘lishi mumkin. Lekin, o‘tkazish hududida, konveksion jarayonlar kuzatilmaydi. O‘tkazish hududidan keyingi qatlamda, Quyosh plazmasining uyurmali harakati natijasida, energiyani Quyosh fotosferasiga uzatish jarayonlari yuz beruvchi, Quyosh ***Konvektiv hududi*** joylashgan. Nomidan ko‘rinib turibdiki, bu hududda, konveksiya jarayoniga asosan, energiya uzatilishi yuz beradi. Bu hududda harorat 5800 K gacha pasayadi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Quyosh atmosferasi.

Quyosh atmosferasi (quyoshning ko‘rinadigan qatlamlari) – bir necha ustma ust qatlamdan iborat. Ulardan eng ichkaridagisi va eng qisqa qalinlikdagisi – ***Fotosfera*** bo‘lib, u quyosh atmosferasining ko‘rinish spektridagi yagona qatlamidir. Fotosfera qatlami yuqori va quyi chegarasi masofasi, turli manbalarda, 100 dan 400 kilometrgacha masofalarda ekanligi qayd etiladi. Fotosfera takrorlanuvchi rangdor quyosh dog‘laridan iborat bo‘lib ko‘rinadi. Bu dog‘larning paydo bo‘lishini, Quyoshning ichki qatlamlarida sodir bo‘ladigan konveksiya hodisasi bilan bog‘lanadi. Fotosferada, Quyosh moddasi harorati 6600 K dan 4400 K gacha aylanib turadi.

Fotosferadan keyingi qatlam – ***Xromosfera*** (yunoncha χρομα – rang, va σφαίρα – shar so‘zlaridan) deb nomlanadi. Nomining kelib chiqishi, uning vodorod chiziqlaridagi H-alfa qizg‘ish rangli ko‘rinishidan paydo bo‘lgan bo‘lib, bu hududdagi harorat, masofa ortgan sayin, 4000 K dan 20 000 K gacha ko‘tariladi. Xromosferani Quyoshning to‘liq tutilishlari vaqtida to‘q rangli halqani o‘rab turgan och pushti rangda kuzatish mumkin. Uning qalinligi, 2000 km atrofida. Fotosferadan farqli ravishda, Xromosfera bir jinsli bo‘lmagan tarkibi bilan diqqatni jalb etadi. Tarkibning bir jinsli emasligining ikki xil ko‘rinishi mavjud: Yorqin va Qoramtir. Bularning har ikkalasi ham, yaqqol ajralib ko‘rinadigan rangdor dog‘lar shaklida ko‘rinadi. Bu dog‘larning o‘lchamlari Fotosfera dog‘laridan bir necha barobar katta. Xromosfera halqasining chetki qismlarida o‘ta yuqori zichlikda otilib chiqayotgan gazlarning yonishidan hosil bo‘luvchi olov tillari – Xromosfera spikulalarini kuzatish mumkin.

Quyosh atmosferasining eng chetki va eng siyrak qatlami – ***Quyosh toji*** hisoblanadi. Uni Quyoshning to‘liq tutilishi vaqtida, yoki, maxsus asbob – Koronograf bilan kuzatish imkoniyati mavjud. Quyosh tojida harorat million darajagacha yetadi va uning tashqi chetlari Quyoshning o‘z radiusidan bir necha o‘n barobar uzoqlikkacha yetishi mumkin. Quyosh tojining o‘rtacha harorati, 1000000 dan 2000000 K orasida bo‘lib, uning alohida qismlarida, harorat 8 milliondan 20 million K gacha yetishi aniqlangan. Bunday yuqori harorat diapazoniga qaramasdan, Quyosh tojini yerdan kuzatish faqat to‘liq Quyosh tutilishlaridagina imkonli bo‘lib, bu tojning o‘ta siyrak, ya’ni zichligi nihoyatda past ekanligi sababidandir.



«Hinode» sun'iy yo‘ldoshi bortidagi optik teleskop yordamida oilngan quyosh sirti va toji fotosurati. 2007 yil 12-yanvar.



Quyoshning rentgenografik tasviri.



Quyosh tojidan plazma otilib chiqishi

Quyosh tutilishi. 1999 yil.

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.

Quyosh shamoli.

Quyosh atmosferasining eng chetki qismi – Quyosh tojidan, Quyosh shamoli yuzaga keladi. Quyosh shamoli, mohiyatiga ko‘ra, ionlashgan zarrachalar, asosan, elektronlar, protonlar α-zarrachalar va ho kazolardan iborat oqim bo‘lib, Quyoshdan uzoqlashgan sayin, zichligi kamayib boradi. Manbalarga ko‘ra, Quyosh shamoli, geliosfera chetki qismlarigacha yetib borar ekan. Quyosh shamoli ikki komponentga ajratiladi – tezkor va sekin harakatlanuvchi Quyosh shamollari. Sekin harakatlanuvchi Quyosh shamoli, o‘rtacha 400 km/soniya tezlik bilan harakatlanib, harorati esa, $1{,}4\text{-}1{,}6\cdot10^{6}$ K atrofida bo‘ladi. Sekin harakatlanuvchi Quyosh shamolining tarkibi, Quyosh toji tarkibiga yaqin. Tezkor shamol esa, o‘rtacha 750 km/soniya tezlik bilan harakatlanib, tarkibiga ko‘ra fotosferaga yaqinroqdir. Sekin shamol, tezkor shamolga nisbatan, deyarli ikki barobar katta zichlikka ega va nisbatan murakkabroq turbulent struktura kasb etadi.

Quyoshning 2013 yil, 9-apreldagi fotosurati. NASA.

O‘rtacha olganda, Quyoshdan, o‘z shamoli orqali soniyasiga $1{,}3\cdot10^{36}$ dona zarracha uchib chiqadi. Bunday turdagi massa yo‘qotilishida, Quyosh har 150 million yilda, bir Yer massasiga teng massa yo‘qotadi. Yerdagi geomagnitik bo‘ronlar va shimol yog‘dusi kabi tabiat hodisalari, aynan Quyosh shamoli ta’siridan yuzaga keladi. Quyosh shamoli yuzasidan ilk to‘g‘ridan to‘g‘ri tadqiqotlar, 1959 yilda, sobiq SSRIga tegishli «Луна-1» fazoviy apparati bortidagi, gaz ionlari detektori yordamida olib borilgan. Uch yildan so‘ng, tadqiqotlarga AQSH olimlari, o‘zlarining Mariner-2 fazoviy apparatlari bilan kirishishgan.

Quyosh magnit maydoni.

Quyosh plazmasi, yetarlicha qiymatdagi elektr o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lib, unda elektr toki va doimiy ravishda katta kuchlanganlikka ega bo‘lgan kuchli magnit maydoni hosil bo‘ladi. Quyosh magnit maydoni, miqyosiga ko‘ra ikki turga ajratilib o‘rganiladi.

Birinchisi – yirik (global) miqyosli magnit maydoni, fotosfera miqyosida, o‘rtacha kuchlanganlikka ega bo‘lgan, magnit maydoni bo‘lib, Quyosh faolligining minimumi vaqtida, dipol struktura namoyon qiladi. Bunda Quyosh qutblaridagi kuchlanganlik maksimumga yetadi. Quyosh faolligi maksimumga yetganidan ikki-uch yil o‘tib, global miqyosli magnit maydonning kuchlanganligi, qutblarda nolga tenglashadi va qutb ishoralarining o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Bu jarayonda, Quyosh magnit maydoni yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki, uning strukturasi kvadrupol xarakterida namoyon bo‘ladi. Shundan so‘ng, Quyosh dipoli kuchlanganligi yana orta boshlaydi, lekin u avvalgisiga teskari ishorada bo‘ladi. Shu tarzda, Quyosh magnit maydonining o‘zgarishlari to‘liq sikli, ikki 11 yillik Quyosh faolligi sikldan iborat 22 yillik davrni o‘z ichiga oladi. Bu hodisa, fanda «Heyl qonuni» deb yuritiladi.

Ikkinchi tur Quyosh magnit maydoni, nisbatan kichikroq miqyosda va kamroq davriylikda sodir bo‘luvchi, biroq, kuchlanganligi eng yuqori bo‘lgan magnit maydonlari bo‘lib, Quyosh faolligining maksimumi davrlarida, Quyosh dog‘lari hududida kuzatiladi. Quyosh dog‘lari magnit maydoni, biqutbiy va ko‘p-qutbli strukturalarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek Quyosh fotosferasida, bir qutbli (unipolar) magnit maydonini ham kuzatiladi. Bunday magnit maydonning kuchlanganligi ancha past bo‘lib, lekin, juda katta hududga va uzoq hayotiy siklga egadir (Quyoshning bir necha aylanish davrigacha).

Quyosh faolligi.

Quyoshdagi kuchli magnit maydoni yuzaga kelishi va u bilan bog‘liq ravishda yuz beruvchi boshqa effektlar, hamda, hodisalar kompleksi, Quyosh faolligi deb yuritiladi. Bu magnit maydonlari, fotosferada Quyosh dog‘lari tarzida namoyon bo‘ladi va Quyosh chaqnashlari, tezkor zarrachalarning kuchli oqimining ajralib chiqishi va koinotga yo‘nalishi, Quyosh elektromagnit nurlanishlari darajasining deyarli barcha diapazonlarda kuchli o‘zgarishlarga uchrashi, Quyosh tojidan kuchli massa otilib chiqishi, Quyosh shamolining keskin qo‘zg‘alishi va galaktik va kosmik nurlanishlar oqimining o‘zgarishlariga sabab bo‘ladi. Odatda, Quyosh faolligi darajasi, uning yerdan ko‘rinayotgan yarim sferasidagi dog‘lari sonini ifodalovchi Volf soni bilan belgilanadi. Quyosh faolligining umumiy davriyligi, o‘ziga xos bo‘lgan, o‘rtacha 11 yillik sikl bo‘yicha takrorlanib turadi. Biroq, bu davriylik, har doim ham aniq 11 yil bo‘lmay, Quyosh faolligi ilmiy kuzatila boshlaganidan buyon, 7 yildan 17 yilgacha bo‘lgan muddatlarda takrorlanganligi qayd etilgan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Faollikning maksimumga yetish vaqti, 1767 yildan buyon, raqamlanib kelinmoqda, va o‘sha yildagi faollik eng birinchisi hisoblansa, hozircha so‘nggi 23-Quyosh faolligi sikli maksimumi, 2000 yilda qayd etilgan edi. Hozirgacha tarixda kuzatilgan eng yirik va ko‘p sonli Quyosh dog‘lari, demakki, Quyoshning faolligi maksimumi qiymatining eng katta bo‘lgan davri, 1947 yilning aprelida, Quyoshning janubiy yarim sharida kuzatilgan edi. O‘sha yillari, Quyosh dog‘lari, Quyosh botishiga yaqin bo‘lgan shom vaqtidagi soatlarda hatto qurollanmagan ko‘z bilan ham kuzatish mumkin bo‘lgan. 1947 yildagi Quyosh dog‘lari maydoni, Yer shari yuzasidan ~36 marta katta bo‘lgan.

Quyosh tutilishlari.

Quyosh tutilishi eng qadim zamonlardan beri, odamlarni o‘ziga jalb qiluvchi noyob tabiat hodisalaridan biridir. Quyosh tutilishi haqidagi ilk qaydlar, eng qadimgi tarixiy manbalarda ham ko‘plab topiladi. Xitoy, Musulmon sharqi va g‘arbiy Yevropa manbalarida hatto aniq sanalar bilan qayd etilgan qadimgi bitiklar mavjud. Qadimgi dunyo manbalarida Quyosh tutilishi asosan, mifologik va teologik nuqtai nazardan tahlil qilingan bo‘lsa, ilk o‘rta asrlarga oid manbalardan boshlab, Quyosh tutilishiga nisbatan, ilk ilmiy baho berish va tushuntirishlar uchraydi. Xususan, Quyosh tutilishi hodisasining hech qanday g‘ayritabiiy hol bo‘lmay, balki, aynan mutlaqo tabiiy jarayon ekanligini ilk bora, buyuk vatandosh bobokalonimiz Ahmad al-Farg‘oniy isbotlab bergan edi.

Quyosh tutilishi, Oyning Yer atrofidagi orbitasi bo‘ylab harakati jarayonida, Yer va Quyosh orasidagi fazoda bo‘lgan vaqtida, Yer yuzasining ma’lum qismlariga to‘liq yoki qisman Oyning soyasi tushishi tufayli sodir bo‘ladi. Ya'ni Oy, o‘z jismi bilan Quyoshni Yerdan to‘sib qo‘yadi. Oyning Yerga tashlaydigan ko‘lankasi diametri, 270 km dan oshmaydi, shu sababli ham, Quyosh tutilishi, Yer yuzasi bo‘ylab tor markaziy yo‘lak bo‘yicha kuzatiladi xolos. Shuning uchun ham, Quyosh tutilishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish imkoniyati mavjud bo‘lgan shaharlar miqdori cheklangandir. Ba’zan to‘liq Quyosh tutilishi markaziy yo‘lagi, faqat okean yuzasidan o‘tib, uni quruqlikdan kuzatish umuman imkonsiz bo‘lishi ham mumkin. Lekin, to‘liq tutilish vaqtida, Oyning yarimsoyasi, markaziy yo‘lakning har ikki tarafida, 3240 km gacha masofada tarqaladi. Ya’ni, shuncha masofada Quyosh tutilishini qisman kuzatish mumkin bo‘ladi. Quyosh tutilishi vaqtida, Oy soyasi Yer yuzasi bo‘ylab, kamida 1 km/soniya tezlik bilan o‘tib boradi. Shu tufayli, Quyosh tutilishi, uzog‘i bilan, 7.5 daqiqa davom etadi xolos.



Quyosh tutilishining to‘liq (yuqorida) va halqasimon (pastda) ko‘rinishlari sxematik tasviri.

Quyosh tutilishi, faqat, yangi oy boshida, Oyning o‘zi hali ko‘rinmagan vaqtda, uning Yerga yuzlangan tarafini Quyosh yoritmagan holatidagina sodir bo‘ladi. Quyosh tutilishlari ikki xil – to‘liq va qisman bo‘lishi mumkin. Agar Yerdagi kuzatuvchi, Quyoshning yuzasini Oy gardishi to‘liq to‘sib, natijada, Yerning kuzatuvchi turgan qismini qorong‘ulik qoplagan holatini kuzatsa, bunday Quyosh tutilishi, to‘liq tutilish hisoblanadi. Agar Oy gardishi, Quyoshning chetidan qisman qoplab, biroq uning yorug‘ligini butunlay to‘sib qo‘ya olmasa, bunday tutilish qisman tutilish bo‘ladi. Bulardan tashqari, Quyosh tutilishining halqasimon tutilish nomli turi ham kuzatiladi. Bunday tutilishda, Oy gardishi, Quyosh yuzasini to‘liq to‘sib qo‘ya olmaydi, balki, uning ichida, kichikroq diametrli qoramtir doira shaklida namoyon bo‘ladi. Bunda, Oy gardishi atrofida, halqa ko‘rinishidagi Quyosh nurlarining yorqin shu’lalari taralib turadi. Bunday Quyosh tutilishi, Oy orbitasining elliptikligi tufayli Oyning yerdagi kuzatuvchiga nisbatan ko‘rinish burchagining, o‘zgarishlari natijasida, ya’ni. Oyning Yerga nisbatan joylashuv masofasi uzoqligidan, kuzatuvchiga nisbatan, Oy gardishi, Quyosh gardishidan kichik diametrga ega bo‘lishi tufayli sodir bo‘ladi.

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.

Halqasimon tutilish, Oyning Yerga nisbatan joylashgan masofasi va Yerning Quyoshga nisbatan joylashgan masofasi, o‘rta masofalarda (ya'ni, apogey va perigey, aposeleniy va pereseleniy nuqtalaridan o‘rtacha masofalarda harakatlanganida) bo‘lgan vaqtlarda kuzatiladi.

Yil davomida Yerda 2 tadan 5 tagacha Quyosh tutilishi sodir bo‘lishi mumkin. Ularda to‘liq tutilish yoki, halqasimon tutilishlar soni ikkitadan ko‘p bo‘lmaydi, qolganlari esa faqat qisman tutilish bo‘lishi mumkin. O‘rtacha olganda, bir asr davomida, Yerda 237 tagacha Quyosh tutilishlari sodir bo‘lishi mumkin, ulardan, 160 tasi qisman, 63 tasi to‘liq va 14 ta halqasimon tutilishlar bo‘ladi.

Quyosh tutilishi vaqtida, Oyning Yerga tashlagan soyasining koinotdan ko‘rinishi. Xalqaro Kosmik Stantsiyadan turib suratga olingan. Fotosuratda Quyosh tutilishi O‘rta Yer dengizi va Turkiya hududlarida sodir bo‘moqda. Tasvirda Kipr oroli yaqqol ko‘rinmoqda.

Sayyoramizning aynan bir hududida Quyosh tutilishining qayta takrorlanishi ancha noyob hodisa. Aynan bir hududda to‘liq tutilish esa, juda uzoq davriylikda takrorlanadi. Masalan, bizning vatanimiz O‘zbekiston Respublikasi joylashgan geografik hududda, oxirgi marta to‘liq Quyosh tutilishi, bundan 5 asrdan ham ortiqroq vaqt muqaddam, Temuriylar hukmronligi[1] zamonida, aniqrog‘i, 1487 yilning 20-iyulida sodir bo‘lgan. O‘sha tutilish vaqtida, Quyosh tutilishi, Shimoliy Muz Okeanining Shimoliy Amerika sohillaridan boshlanib, Islandiya oroli, Oq dengiz, Ural orqali, hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoli, Orol dengizi, markaziy Qizilqum, Samarqand, Buxoro shaharlaridan o‘tgan. Tutilish Farg‘ona vodiysi orqali, hozirgi Uyg‘ur Muxtor o‘lkasiga borganida nihoyasiga yetgan. To‘liq tutilish hodisasini, Movarounnahr munajjimlari va aholisi, 2 daqiqa va 55 soniya mobaynida kuzatishga muvaffaq bo‘lishgan. Taassufki, ushbu tutilish haqida, tarixiy manbalarda hozircha birorta ilmiy, yoki, oddiy qayd topilganicha yo‘q (tutilish Ulug‘bek zamonida bo‘lganida bormi...). O‘shandan buyon, O‘zbekiston hududida birorta to‘liq Quyosh tutilishi hodisasi kuzatilmagan. Yurtimiz hududidagi navbatdagi Quyosh tutilishi esa, 2060 yilning 30-aprelida kutilmoqda. Nasib etsa, o‘sha to‘liq tutilish hodisasini, Qoraqalpog‘iston Respublikasining janubiy tumanlari, Xorazm viloyati, Navoiy viloyati, Buxoro viloyatining shimolidan so‘ng, qo‘shni Qozog‘iston Respublikasining Janubiy Qozog‘iston viloyati, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida hamda, Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida kuzatish imkoni bo‘ladi.



1487 yildagi to‘liq Quyosh tutilishi yo‘lagi



2060 yil 30-aprelda O‘zbekiston hududida Quyoshning to‘liq tutilishi yo‘nalishi (xarita markazidagi ko‘k egri chiziq, boshqa ko‘k chiziqlar, to‘liq Quyosh tutilishini, qizil chiziqlar esa, halqasimon tutilishi yuz beradiga hududlarni ko‘rsatmoqda, xarita 2041-2061 yillar Quyosh tutilishlari uchun. ©NASA).

[1] Bu davrda Movorounnaxrda Sulton Ahmad Mirzo (1451-1494), Far’gona va Toshkentda esa, Mirzo Boburning otasi Umarshayx Mirzo davlat boshqaruvida bo‘lishgan.

2060 yildagi to‘liq Quyosh tutilishi, Toshkent vaqti bilan, 30 aprel, soat 15:25 da, qisman tutilish orqali boshlanadi. Ya’ni aynan shu vaqtda, Oy Quyosh diskini o‘ng tomondan o‘roq shaklida, asta sekin to‘sib qo‘ya boshlaydi.

To‘liq tutilish esa, Toshkent vaqti bilan soat 16:33 da boshlanib, u 1 daqiqa va 38 soniya davom etadi. Soat 16:35:26 da to‘liq tutilish yakunlanib, Quyosh diskining o‘ng tarafi asta-sekinlik bilan yorisha boshlaydi va soat 17:37 ga kelib, Quyosh tutilishi yakunlanadi. Tutilish vaqtida, Oyning Yerga tashlagan ko‘lankasi kengligi 222 km ni tashkil qiladi, bu vaqtda Oy, Yerdan 350206 km masofada bo‘lib, uning Yerdagi kuzatuvchiga nisbatan ko‘rinadigan diametri, Quyoshning ko‘rinadigan diametridan 1.066 marta kattaroq ko‘rinadi. Shuning uchun, Oy diski, Quyoshni to‘liq to‘sib qo‘yadi va qorong‘ulik tushadi. Oy soyasi tushgan hududlardan qaralganda, osmonda yulduzlar, sayyoralarni ko‘rish va Quyosh tojini kuzatish mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda esa, 2060 yil 30 apreldagi to‘liq Quyosh tutilishi hodisasi, bizning hududlarimizgacha avval Braziliyaning shimoliy-sharqiy sohillaridan boshlanadi va markaziy Atlantika orqali, g‘arbiy va shimoliy Afrika davlatlari - Kot d’Ivuar, Gana, Nigeriya, Niger, Chad, Liviya, Misrning shimoliy-g‘arbiy chekkasidan, Orta Yer dengizining sharqiy qismi, Kipr oroli, Turkiya, Armaniston, Ozarbayjon va Kaspiy dengizining markaziy qismi orqali o‘tib keladi. O‘zbekiston hududidan keyin, Qirg‘izistonning shimoliy viloyatlari hamda, sharqiy Turkiston (Shinjon-Uyg‘ur muxtor o‘lkasi) orqali, Xitoyning markaziga borganda, to‘liq tutilish yakunlanadi (xaritaga qarang). Quyosh tutilishining maksimal fazasi, 28º shimoliy kenglik va 20,9º sharqiy uzunlikda, ya’ni, Liviya davlati hududida sodir bo‘ladi (xarita markazidagi yashil yulduzcha). Bu vaqtda Quyosh gorizontdan 76º yuqorida joylashib, azimut 154º ni tashkil qiladi.



2060 yil 30 aprel Quyosh tutilishi sxemasi. Markazdagi ko‘k chiziq, to‘liq tutilish sodir bo‘ladigan hududlari ko‘rsatmoqda. Yashil chiziqlar, qisman tutilish hodisasini kuzatish mumkin bo‘lgan hududlar chegarasini ifodalaydi. © Espenak&Meeus

...Agarda siz Quyoshning to‘liq tutilishi hodisasini kuzatmoqchi bo‘lsangiz va buning uchun 2060 yilni kutishni istamasangiz, quyidagi jadval asosida mos vaqt va joy tanlashingiz mumkin:

XXI asr davomida kuzatiladigan Quyoshning to‘liq tutilishlari jadvali.

Sana	Turi	Kattaligi[1]	Muddati	Kengligi[2]	Ko‘rish mumkin bo‘lgan hududlar.
21.06. 2001	To‘liq	1.050	4 daqiqa 57 soniya	200 km	***T***: Angola, Zambiya, Zimbabve, Mozambik, Madagaskar; ***Q***: Janubiy Amerika, Afrika
04.12. 2002	To‘liq	1.024	2 daqiqa 4 soniya	87 km	***T***: Angola, Botsvana, Zimbabve, Mozambik, Avstraliya; ***Q***: Afrika, Antarktida, Avstraliya, Indoneziya,
23.11. 2003	To‘liq	1.038	1 daqiqa 57 soniya	495 km	***T***: Antarktida; ***Q***: Avstraliya, Yangi Zelandiya, Chili, Argentinaning janubi
29.03. 2006	To‘liq	1.052	4 daqiqa 7 soniya	104 km	***T***: Braziliya, Gana, Togo, Benin, Nigeriya, Niger, Liviya, Turkiya, Gruziya, shimoliy Kavkaz, Qozog‘iston; ***Q***: Shimoliy va markaziy Afrika, Markaziy Osiyo, Yevropa.
01.08. 2008	To‘liq	1.039	2 daqiqa 27 soniya	237 km	***T***: Grenlandiyaning shimoli, Rossiya markazi, Mongoliya; ***Q***: Shimoliy Yevropa, Osiyo, Shimoliy Muz Okeani orollari.
22.07. 2009	To‘liq	1.080	6 daqiqa 39 soniya	258 km	***T***: Hindiston, Butan, Myanma, Bangladesh, janubiy Xitoy; ***Q***: janubiy-sharqiy Osiyo, Koreya, Yaponiya, Filippin.
11.07. 2010	To‘liq	1.058	5 daqiqa 20 soniya	259 km	***T***: Chili va Argentina janubiy hududlari, Polineziya; ***Q***: Janubiy Amerikaning g‘arbi, Fransuz Polineziyasi.
13.11. 2012	To‘liq	1.05	4 daqiqa 2 soniya	179 km	***T***: Avstraliya, Yangi Zelandiya; ***Q***: Janubiy Amerikaning janubiy-sharqi, Tinch okeani janubi, Antarktida yarim oroli.
20.05. 2015	To‘liq	1.045	2 daqiqa 47 soniya	463 km	***T***: Farer orollari, Shpitsbergen, Shimoliy qutb; ***Q***: Yevropa, Markaziy Osiyo, Grenlandiya, g‘arbiy Rossiya.
09.03. 2016	To‘liq	1.045	4 daqiqa 9 soniya	155 km	***T***: Indoneziya, Mikroneziya, Marshall orollari; ***Q***: Janubiy-sharqiy Osiyo, Koreya, Yaponiya, Kuril orollari, Kamchatka, Gavayi, Alyaska, Tinch okeani.

[1] Ya’ni, Yerdagi kuzatuvchiga nisbatan, Oyning ko‘rinadigan diametrining, Quyosh gardishiga nisbatan ko‘rinish kattaligi.
[2] Yerga tushadigan Oy soyasining kengligi.

21.08. 2017	To‘liq	1.031	2 daqiqa 40 soniya	115 km	***T***: AQSH markaziy shtatlari; ***Q***: Shimoliy va markaziy Amerika, Karib havzasi, Chukotka, Islandiya, Grenlandiya, Britaniya orollari, Portugaliya.
02.07. 2019	To‘liq	1.046	4 daqiqa 33 soniya	201 km	***T***: Argentina, Chili; ***Q***: Janubiy Amerika, Galapagos, Pasxa oroli, Polineziya.
14.12. 2020	To‘liq	1.025	2 daqiqa 10 soniya	90 km	***T***: Argentina, Chili, Kiribati, Polineziya; ***Q***: Janubiy Amerika, Afrikaning janubiy-g‘arbi, Antarktida.
04.12. 2021	To‘liq	1.037	1 daqiqa 54 soniya	419 km	***T***: Antarktida; ***Q***: Afrikaning janubi, Atlantikaning janubiy hududlari.
08.04. 2024	To‘liq	1.057	4 daqiqa 28 soniya	198 km	***T***: Meksika, AQSHning markaziy shtatlari, Kanada sharqi; ***Q***: Shimoliy va markaziy Amerika.
12.08. 2026	To‘liq	1.039	2 daqiqa 18 soniya	294 km	***T***: Arktika, Grenlandiya, Islandiya, Ispaniya; ***Q***: Shimoliy Amerika. Afrikaning g‘arbi, Yevropa.
02.08. 2027	To‘liq	1.079	6 daqiqa 23 soniya	258 km	***T***: Marokash, Ispaniya, Jazoir, Liviya, Misr, Saudiya Arabistoni, Yaman, Somali; ***Q***: Sahroi Kabir, yaqin sharq, janubiy-g‘arbiy Osiyo.
22.06. 2028	To‘liq	1.056	5 daqiqa 10 soniya	230 km	***T***: Avstraliya, Yangi Zelandiya; ***Q***: Janubiy-sharqiy Osiyo, Hind okeani janubi.
25.11. 2030	To‘liq	1.047	3 daqiqa 44 soniya	169 km	***T***: Botsvana, JAR, Avstraliya; ***Q***: Afrikaning janubi, Hind okeani janubi, Antarktida.
30.03. 2033	To‘liq	1.046	2 daqiqa 37 soniya	781 km	***T***: Rossiya sharqi (Chukotka, Kamchatka) Alyaska; ***Q***: Shimoliy Amerika.
20.03. 2034	To‘liq	1.046	4 daqiqa 9 soniya	159 km	***T***: Nigeriya, Kamerun, Chad, Sudan, Misr, Saudiya Arabistoni, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Xitoy; ***Q***: Afrika shimoli, Yevropa, yaqin sharq.
02.09. 2035	To‘liq	1.032	2 daqiqa 54 soniya	116 km	***T***: Xitoy, Koreya yarimoroli, Yaponiya; ***Q***: Uzoq sharq, Tinch okeani shimoli.
13.07. 2037	To‘liq	1.041	3 daqiqa 58 soniya	201 km	***T***: Avstraliya, Yangi Zelandiya; ***Q***: Tinch okeani janubi.
26.12. 2038	To‘liq	1.027	2 daqiqa 18 soniya	95 km	***T***: Avstraliya, Yangi Zelandiya, Tinch okeani janubi; ***Q***: Janubiy-sharqiy Osiyo, Antarktida.
15.12. 2039	To‘liq	1.036	1 daqiqa 51 soniya	380 km	***T***: Antarktida; ***Q***: Janubiy Amerika.
30.04. 2041	To‘liq	1.019	1 daqiqa 51 soniya	72 km	***T***: Angola, Kongo, Uganda, Somali, Keniya; ***Q***: Braziliya, Ekvatorial Afrika, yaqin sharq.
20.04. 2042	To‘liq	1.061	4 daqiqa 51 soniya	210 km	***T***: Malayziya, Indoneziya, Filippin; ***Q***: Janubiy-sharqiy Osiyo, Avstraliya.
09.04. 2013	To‘liq	1.01	-	-	***T***: Chukotka; ***Q***: Shimoliy qutb, Rossiya va Kanada Tundrasi.
23.08. 2044	To‘liq	1.036	2 daqiqa 4 soniya	453 km	***T***: Grenlandiya, Kanada, AQSH shimoliy-g‘arbi; ***Q***: Osiyo shimoli, Shimoliy Amerika g‘arbi.
12.08. 2045	To‘liq	1.077	6 daqiqa 6 soniya	256 km	***T***: AQSH janubi, Dominikana, Gaiti, Venesuela, Fransuz Gvianasi, Surinam, Braziliya shimoli; ***Q***: Shimoliy, markaziy va Janubiy Amerika, Afrika g‘arbi.
02.08. 2046	To‘liq	1.053	4 daqiqa 51 soniya	206 km	***T***: Braziliya, Angola, Namibiya sharqi, Botsvana, JAR, Svaizelend, Mozambik; ***Q***: Afrika janubi.
05.12. 2048	To‘liq	1.044	3 daqiqa 28 soniya	160 km	***T***: Chili, Argentina, Namibiya, Botsvana; ***Q***: Janubiy Amerika, Afrika janubiy-g‘arbi.
30.03. 2052	To‘liq	1.047	4 daqiqa 8 soniya	164 km	***T***: Meksika, AQSH, Tinch va Atlantika okeanlari markazi; ***Q***: Janubiy Amerika, Karib havzasi, Shimoliy Amerika.
12.09. 2053	To‘liq	1.033	3 daqiqa 4 soniya	116 km	***T***: Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Saudiya Arabistoni, Indoneziya; ***Q***: Afrika, Yevropa, Osiyo qit'alari bo‘ylab.
24.07. 2055	To‘liq	1.036	3 daqiqa 17 soniya	202 km	***T***: Afrikaning janubidagi barcha davlatlar; ***Q***: Afrika, Antarktida.

05.01. 2057	To‘liq	1.029	2 daqiqa 29 soniya	102 km	***T***: Atlantika va Hind okeanlari janubi; ***Q***: Afrika janubi, Antarktida.
26.12. 2057	To‘liq	1.035	1 daqiqa 50 soniya	355 km	***T***: Antarktida; ***Q***: Avstraliya.
11.05. 2059	To‘liq	1.024	2 daqiqa 23 soniya	95 km	***T***: Ekvador, Peru, Braziliya, Tinch okeani markaziy qismi; ***Q***: Amerika materigi.
30.04. 206	To‘liq	1.066	5 daqiqa 15 soniya	222 km	***T***: Kot d'Ivuar, Gana, Togo, Benin, Nigeriya, Niger, Chad, Liviya, Misr, Turkiya, Armaniston, Ozarbayjon, Kaspiy dengizi, O‘zbekiston, Qozog‘iston janubi, Qirg‘iziston, Sharqiy Turkiston; ***Q***: butun, Afrika, sharqiy Yevropa, g‘arbiy Osiyo.
20.04. 2061	To‘liq	1.048	2 daqiqa 37 soniya	539 km	***T***: Qozog‘iston, Rossiya; ***Q***: Kavkaz, O‘rta Osiyo, Sibir,
24.08. 2063	To‘liq	1.075	5 daqiqa 49 soniya	252 km	***T***: Xitoy, Mongoliya, Yaponiya; ***Q***: Uzoq sharq, Sibir, Tinch okeani shimoliy-sharqi.
12.08. 2064	To‘liq	1.049	4 daqiqa 28 soniya	184 km	***T***: Chili, Argentina; ***Q***: Janubiy Amerika, Meksika, Karib havzasi, Antarktida.
17.12. 2066	To‘liq	1.042	3 daqiqa 14 soniya	152 km	***T***: Avstraliya, Yangi Zelandiya; ***Q***: Tinch okeani janubi, Antarktidaning Tinch okeani sohili.
31.05. 2068	To‘liq	1.011	1 daqiqa 6 soniya	152 km	***T***: Avstraliya, Yangi Zelandiya; ***Q***: Hindiston, Hindixitoy, Malay arxipelagi, Antarktida.
11.04. 2070	To‘liq	1.047	4 daqiqa 4 soniya	168 km	***T***: Shri-Lanka, Myanma, Tailand, Laos, Vetnam, Filippin; ***Q***: Janubiy-sharqiy Osiyo, Alyaska, Kanada.
23.09. 2071	To‘liq	1.033	3 daqiqa 11 soniya	116 km	***T***: Meksika, Kolumbiya, Venesuela, Gayana, Surinam, Braziliya, Fransuz Gvianasi; ***Q***: Janubiy va Shimoliy Amerika, g‘arbiy Afrika.
12.09. 2072	To‘liq	1.056	3 daqiqa 13 soniya	732 km	***T***: Sibir; ***Q***: butun Osiyo, sharqiy Yevropa, Grenlandiya.
16.01. 2075	To‘liq	1.031	2 daqiqa 42 soniya	110 km	***T***: Chili, Argentina, Paragvay, Braziliya. ***Q***: Yangi Zelandiya, Antarktida.
06.01. 2076	To‘liq	1.034	1 daqiqa 49 soniya	340 km	***T***: Antarktida; ***Q***: Avstraliya, Janubiy Amerika.
22.05. 2077	To‘liq	1.029	2 daqiqa 54 soniya	119 km	***T***: Avstraliya; ***Q***: Hindiston, Hindixitoy, Malay arxipelagi, Antarktida.
11.05. 2078	To‘liq	1.07	5 daqiqa 40 soniya	232 km	***T***: Meksika, AQSH; ***Q***: Amerika materigi.
01.05. 2079	To‘liq	1.051	2 daqiqa 55 soniya	406 km	***T***: AQSH, Kanada, Grenlandiya; ***Q***: Amerika materigi.
03.09. 2081	To‘liq	1.072	5 daqiqa 33 soniya	247 km	***T***: Markaziy Yevropa, Turkiya, Suriya, Iroq, Quvayt, Qatar, BAA, Saudiya Arabistoni, Ummon; ***Q***: Shimoliy Afrika, Yevropa, Osiyo.
24.08. 2082	To‘liq	1.045	4 daqiqa 01 soniya	163 km	***T***: Indoneziya, Papua-Yangi Gvineya, ; ***Q***: Hindiston, Hindixitoy, Malay arxipelagi, Avstraliya, Antarktida.
27.12. 2084	To‘liq	1.04	3 daqiqa 04 soniya	146 km	***T***: Hind va Atlantika okeanlarining janubiy qismlari, ; ***Q***: Afrika janubi, Avstraliya, Antarktida.
11.06. 2086	To‘liq	1.017	1 daqiqa 48 soniya	86 km	***T***: Namibiya, Botsvana; ***Q***: Afrika janubi, Janubiy Amerika.
21.04. 2088	To‘liq	1.047	3 daqiqa 58 soniya	173 km	***T***: Mavritaniya, G‘arbiy Sahroi Kabir, Mali, Jazoir, Tunis, Gretsiya, Turkiya, Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy; ***Q***: Shimoliy Amerika, Yevropa, Afrikaning shimoli, Osiyo.
04.10. 2089	To‘liq	1.033	3 daqiqa 14 soniya	115 km	***T***: Xitoy, Tinch okeani markaziy qismi; ***Q***: Osiyo, Avstraliya.
23.09. 2090	To‘liq	1.056	3 daqiqa 36 soniya	463 km	***T***: Kanada, Grenlandiya, Buyuk Britaniya, Fransiya; ***Q***: Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrika shimoli.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

15.08. 2091	To‘liq	1.022	1 daqiqa 38 soniya	236 km	***T***: Antarktidaning Tinch okeani sohillari; ***Q***: Avstraliya, Yangi Zelandiya.
27.01. 2093	To‘liq	1.034	2 daqiqa 58 soniya	119 km	***T***: Avstraliya; ***Q***: Janubiy-sharqiy Osiyo, Yangi Zelandiya, Antarktida.
16.01. 2094	To‘liq	1.034	1 daqiqa 51 soniya	329 km	***T***: Antarktida; ***Q***: Janubiy Amerika, Yangi Zelandiya.
02.06. 2095	To‘liq	1.033	3 daqiqa 18 soniya	145 km	***T***: Namibiya, Botsvana, Mozambik, Zambiya, Madagaskar; ***Q***: Afrika janubi.
11.05. 2097	To‘liq	1.054	3 daqiqa 10 soniya	339 km	***T***: Alyaska, Chukotka; ***Q***: Osiyo, Yevropa va Shimoliy Amerikaning shimoli.
14.09. 2099	To‘liq	1.068	5 daqiqa 18 soniya	241 km	***T***: Kanada, AQSH, markaziy Atlantika; ***Q***: Janubiy va Shimoliy Amerika, g‘arbiy Afrika.
04.09. 2100	To‘liq	1.04	3 daqiqa 32 soniya	142 km	***T***: Ekvatorial Afrika, Madagaskar; ***Q***: Afrika, Antarktida.

Jadvalga izoh: 6-ustundagi «***T***» belgisi, Quyoshning to‘liq tutilishini kuzatish mumkin bo‘lgan hududlarni, «***Q***» belgisi esa, tutilishni qisman kuzatish mumkin bo‘lgan hududlarni ifodalaydi.

Jadvalda XXI asr uchun faqat to‘liq tutilishlar sanalari va joylari keltirildi. Bulardan tashqari, XXI asr davomida, 72 marta halqasimon tutilish, hamda, 77 marta qisman, shuningdek 7 marta gibrid Quyosh tutilishlari sodir bo‘ladi. Quyosh tutilishlarining umumiy soni esa, asr davomida, 224 tani tashkil qiladi. Eng ko‘p Quyosh tutilishlari, 2011, 2029, 2047, 2065, 2076 va 2094 yillarda sodir bo‘ladi. Bu yillarning har birida, 4 martadan Quyosh tutiladi. XXI asrdagi, davomiyligi eng uzoq to‘liq Quyosh tutilishi esa, 2009 yilning 22 iyulida, Yaponiyaning Kagosima prefekturasi hududida kuzatilgan – to‘liq tutilish davomiyligi o‘shanda, 6 daqiqa va 39 soniyani tashkil etgan edi.

XXI asrdagi eng uzoq to‘liq Quyosh tutilishi – 22.07.2009. Yaponiya, Kagosima. ©JAXA



2001-2020 yillar orasida Quyosh tutilishlari xaritasi. ©NASA



2020-2040 yillar orasida Quyosh tutilishlari xaritasi. ©NASA



2040-2060 yillar orasida Quyosh tutilishlari xaritasi. ©NASA

Quyoshning fizik parametrlari.

Quyoshdan chiqqan yorug'lik to'lqinlari 8 daqiqa va 20 soniyada Yerga yetib keladi. Quyida Quyoshning asosiy astrofizik parametrlari keltirilgan:

- Diametri: ≈1392000 kilometr;
- Ekvatorial radiusi: ≈695510 kilometr;
- Ekvator aylanasi uzunligi: ≈4370000 kilometr;
- Massasi: $1.9891 \cdot 10^{27}$ tonna (332982 Yer massasi);
- Hajmi: $1.4 \cdot 10^{18}$ tonna km^3;
- Sirti: $608.7 \cdot 10^{10}$ km^2;

- Yerga eng yaqin masofasi: 147100000 km (yanvarda);
- Yerdan eng uzoqlashgan masofasi: 152100000 km (iyulda);
- O'rtacha zichligi: 1409 kg/m^3;
- Markaziy qismi zichligi: 150 000 kg/m^3 atrofida;
- Sirtidagi erkin tushish tezlanishi: 273.98 metr/soniya;
- Ikkinchi kosmik tezlik: 617.7 km/soniya;

- Yer atmosferasi chegarasida Quyosh diski markazining ravshanligi: $2.48 \cdot 10^9$ kd/m^2;
- Sirtining o'rtacha ravshanligi (yer atmosferasidan tashqarida kuzatilganda): $1.98 \cdot 10^9$ kd/m^2;
- Yerning quyoshdan yoritilganligi (atmosfera tashqarisida): 127000 lyuks;
- Yer sirtining Quyoshdan yoritilganligi: 100000 lyuks;

- Quyosh doimiysi: $1.36 \cdot 10^3$ Vt/m^2 yoki ($1.95 \frac{kal}{sm^2 \cdot min}$);
- Quyoshning umumiy nurlanish quvvati: $3.82 \cdot 10^{23}$ kVt;
- Yer tushadigan Quyosh nurlanishi quvvati (o'rtacha): $2 \cdot 10^{14}$ kVt*;

- Nurlanish natijasida Quyosh massasining kamayib borishi: $4 \cdot 10^6$ t/soniya;
- Quyoshning ko'rinadigan yulduz kattaligi: −26.74;
- Quyoshning Yerni o'z orbitasida tutib turuvchi tortish kuchi: $3.5 \cdot 10^{19}$ kN yoki, ($3.6 \cdot 10^{21}$ kgk);
- Sirtidagi ikkinchi kosmik tezlik: $6.18 \cdot 10^{15}$ metr/soniya;

- Quyosh o'z o'qi atrofidagi aylanishida ekvatoridagi chiziqli tezligi: 2.025 km/soniya;
- Quyosh ekvatoridagi siderik aylanish davri: 25 kun, 9 soat, 7.2 daqiqa;
- Quyosh ekvatoridagi sinodik aylanish davri: 25 kun, 6 soat, 36 daqiqa;

- Markaziy qismidagi harorat : $1 \cdot 10^7 - 1.5 \cdot 10^3$ Kelvin;
- Markaziy qismidagi bosim: $3.9 \cdot 10^{10}$ MPa yoki, $4 \cdot 10^{11}$ kg/sm^2;

- Ekliptika tekisligiga nisbatan og'ishi: 7.25º;
- Galaktika tekisligiga nisbatan og'ishi: 67.23º;
- Quyoshning Galaktika markazi atrofida aylanish orbitasi bo'ylab harakatlanish tezligi: ≈250 km/soniya;
- Quyoshning Galaktika markazi atrofida aylanish orbitasi bo'ylab Bir marta aylanib chiqish davri: ≈200 million yil;
- Quyoshdan Galaktika markazigacha bo'lgan masofa: ≈10 000 parsek;
- Taxminiy yoshi: ≈4.59 milliard yil;
- Ko'rinadigan yulduz kattaligi (V): $-26{,}74^m$;
- Mutloq yulduz kattaligi: 4,83m;
- Spektral sinfi: G2V;

* Quyoshdan yerga keladigan nurlanish energiyasining yarmisiga yaqini Yer atmosferasining yuqori qatlamlarida qayta akslanadi.

Quyoshda eng ko'p tarqalgan kimyoviy elementlar.

Quyoshda hozirgacha 70 dan ortiq kimyoviy elementlar mavjudligi aniqlangan. Ulardan Geliy dastavval Quyoshda, keyin esa Yer sharoitida kashf etilganligi bilan qiziqdir. Quyidagi jadvalda, Quyoshda mavjudligi aniqlangan kimyoviy elementlar va ularning ulush qiymatlari keltirilgan.

Kimyoviy element	1-manba[1]		2-manba[2]	
	1 000 000 dagi ulushi	% hisobida	1 000 000 dagi ulushi	% hisobida
Vodorod	745 000	74.5	734600	73.46
Geliy	237 000	23.7	248500	24.85
Kislorod	8 990	0.899	7700	0.77
Uglerod	3 900	0.39	2900	0.29
Temir	1321	0.1321	1600	0.16
Neon	1200	0.12	1200	0.12
Azot	870	0.087	900	0.09
Kremniy	830	0.083	700	0.07
Magniy	720	0.072	500	0.05
Oltingugurt	380	0.038	400	0.04

OY

Oy - Yerning yagona tabiiy yo'ldoshi. Quyosh tizimidagi tabiiy yo'ldoshlar ichida kattaligi bo'yicha 5 o'rinda turadi. Yerdagi kuzatuvchi uchun Oyning ko'rinadigan yulduz kattaligi —12,71^m, ya'ni Oy, ravshanligi bo'yicha Quyoshdan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi osmon jismidir. Oyning yerni yoritish ko'rsatkichi 0,25 - 1 lyuksni tashkil qiladi. Oy Yerdan tashqaridagi inson qadami yetgan yagona astronomik obyektdir.

Oyda atmosfera deyarli yo'q. Oyning Quyosh bilan yoritilmagan tarafidagi yuza qismida, gazlar miqdori $2{,}0 \cdot 10^5$ zarracha/m^3 dan ortmaydi. Quyosh chiqib, sirtni qizdira boshlagach, Oy guruntining qizishi natijasida undan gazlarning ajralib chiqishi sodir bo'ladi va zarrachalar miqdori biroz ko'payadi. Atmosferaning mavjud emasligi, Oy sirtida keskin haroratlar farqiga sabab bo'ladi va u kunduzi +120 ºC gacha isiydi. Kechasi esa –170 ºC gacha tushib ketadi.

Oy sirti esa, fanda Regolit deb yuritiladigan jismlar – yupqa chang qatlami va meteorit zarbalari natijasida hosil bo'ladigan tog' jinslari parchalarining aralashmalaridan iborat bo'lgan moddadan iborat. Regolit qalinligi bir necha santimetrlarda, o'nlab metrlargacha bo'lishi mumkin. Oyning ichki tuzilishi esa, taxminan 68 - 107 km qalinlikdagi qobiq (yoki po'stloq), tashqi va o'rta mantiya, quyi mantiya (atenosfera), hamda, yadrodan iborat.

Oyda magnit maydoni mavjud emas.

Oydan turib Yerning ko'rinishi, Yerdan Oyning ko'rinishiga nisbatan, 13.5 marta kattaroq ko'rinadi. Yerdan qaytgan nurlarning Oyni yoritish darajasi esa Oydan qaytgan nurlardan Yerning yoritilganligidan deyarli 50 marta kuchli bo'lib, Yerning Oydan ko'rinadigan Yulduz kattaligi –16^m ni tashkil qiladi. Oy, Quyoshdan kelayotgan yorug'likning atiga 7% ni qaytaradi (akslantiradi xolos).

Atmosfera yo'qligi sababli, hatto Quyosh gorizontdan balandda bo'lgan ya'ni, Oydagi kunduz vaqtida ham, osmon qorong'u bo'ladi. Oy kunduzida ham yulduzlar va boshqa sayyoralarni kuzatish mumkin.

[1] Eddy J. A New Sun: The Solar Results From Skylab. — NASA, 1979.
[2] The Sun's Vital Statistics. Stanford Solar Center. 2008.

Oyning fizik parametrlari.

- Diametri: 3474 kilometr (0,273 Yer diametri);
- Yuza maydoni: $3.79 \cdot 10^7$ km^2 (0.074 Yer maydoni);
- Katta aylanasi uzunligi: 10979 km;
- Hajmi: $2195.3 \cdot 10^7$ km^3 (0.020 Yer hajmi);
- Massasi: $7.35 \cdot 10^{19}$ tonna (0.0123 Yer massasi);
- O‘rtacha zichligi: 3340 kg/m^3 ;

- Oy sirtidagi erkin tushish tezlanishi: 1.623 metr/soniya^2;
- Oy sirtidagi birinchi kosmik tezlik: 1.680 km/soniya;
- Oy sirtidagi ikkinchi kosmik tezlik: 2.375 km/soniya;

- Yer atrofidagi orbitasi bo‘ylab aylanib chiqish davri: 27 kun, 7 soat, 43 daqiqa, 11.5 soniya;
- O‘z o‘qi atrofida aylanib chiqish davri: 27 kun, 7 soat, 43 daqiqa, 11.5 soniya;
- Oyning orbita bo‘ylab harakatlanishining o‘rtacha tezligi: 1.023 km/soniya;
- Oydagi kunning davomiyligi: 29 kun, 12 soat, 44 daqiqa, 2.7 soniya;
- Oyning yerdan ko‘rinmaydigan qismi: 41%;
- Yerdan Oygacha bo‘lgan o‘rtacha masofa: 384 400 kilometr;
- Yerdan eng uzoqlashadigan masofasi: 406 740 kilometr;
- Yerga eng yaqinlashadigan masofasi: 356 410 kilometr;
- To‘lin Oydan yerga tushadigan yoritish: 0.25 lyuks;
- Osmon sferasidagi ko‘rinadigan harakati: bir kunda 12°9` ;
- Oy ekvatorining ekliptikaga nisbatan og‘ishi: 1°32.5`
- Oy ekvatorining orbitaga nisbatan og‘ishi: 6°41`;
- Sirtidagi tungi harorat: −170 °C gacha;
- Sirtidagi kunduzgi harorat: +130 °C gacha;
- Apogey: 405 696 km; 0,0027 a. b.
- Perigey: 363 104 km; 0,0024 a. b.
- Katta yarim o‘qi (α): 384 399 km; 0,00257 a. b.
- Orbita ekstsentrisiteti: 0,0549;
- Peritsentr argumenti: 8.85 yilda 1 aylanish.
- Albedo: 0.12
- Ko‘rinadigan yulduz kattaligi: −2,5/−12,9 To‘lin oy vaqtida: −12,74



Apollon-17 Astronavtlari olgan fotosuratlar asosidagi Oy yuzasinining panoramasi

Oyda eng ko'p uchraydigan kimyoviy elementlar.

Kimyoviy element	% *	%**	%***
Kislorod	40.0	54	40.5
Kremniy	19.2	20	20
Temir	14.3	5.1	13.7
Kalsiy	8.0	10.3	9.2
Titan	5.9	0.28	1.9
Alyuminiy	5.6	12.5	8.7
Magniy	4.5	5.7	5.3
Natriy	0.33	0.26	0.32
Kaliy	0.14	0.05	0.12
Xrom	0.02	0.11	0.20

Oy odamlarni qadimdanoq o'ziga jalb qilib kelgan va munajjimlarning doimiy kuzatuvida bo'lgan. Eramizdan avvalgi II asrda yunon olimi Gipparx, Oy orbitasining ekliptikaga nisbatan og'ishini aniqlagan. Gipparx kuzatuvlari asosida Klavdiy Ptolomey «Almagest»da qayta ko'rib chiqilgan va rivojlantirilgan. Teleskop kashf etilganidan keyin, 1651 yilda Jovanni Richiolli tarixda birinchi marta Oy xaritasini tuzdi. Aynan Richiolli Oydagi yirik qoramtir joylarni birinchi bo'lib «Dengizlar» deb atagan shundan buyon oydagi botiqliklar va yirik kraterlar Oy dengizlari deb ataladi. Richiolli bunday fikrga kelishiga sabab, u Oyning qoramtir rangda ko'ringan chuqurliklarini suv bilan to'la dengizlar, yorqin qismlarini esa, quruqliklar deb o'ylagan. Lekin Xorvatiyalik astronom Rujer Boshkovich Oy atmosferasi mavjud emasligini isbotlab berdi. Bunday holatda esa oyda suv mavjud bo'lishi nazariy jihatdan mumkin bo'lmaydi. Lekin baribir, Richiollining an'anasi yashovchan bo'lib chiqdi. Richiollining o'zi Oydagi «dengiz»larga buyuk olimlarning nomini berish an'anasini ham boshlab bergan.

Oyni tadqiq qilish XIX asrda fotografiya ixtiro qilinganidan keyin yangi sur'atlarda rivojlandi. Fotosuratlar asosida, Oyni yanada mufassal tadqiq qila boshlandi. Oyning dastlabki mukammal fotosuratlarini 1852 yilda Uorren de la Ryu va 1865 yilda Lyuis Rezerfordlar olishgan. 1881 yilda esa Pyer Jansen Oyning birinchi fotografik atlasini tuzdi.

Lyuis Rezerford olgan oyning fotosurati. 1865 yil.



Oyga yetib borgan birinchi kosmik apparat «Лунаход-1»

XX asrda koinotni zabt etish erasi boshlanishi bilan, Oy haqidagi bilimlar ancha mukammallashdi. Kosmik apparatlar tufayli, ming yillar davomida barcha munajjimlarning qiziqtirib kelgan Oyning Yerdan ko'rinmaydigan teskari tomonini ilk marotaba ko'rishga muvaffaq bo'lindi. Oyga maxsus apparatlar uchirila boshladi. Ulardan eng birinchisi «Луна-1» bo'lgan. U 1959 yilning 13 sentyabrida Oyga yetib borgan. Oyning teskari tomonining dastlabki fotosuratini «Луна-3» apparati 1959 yilda Yerga yuborgan. Oyni tadqiq qilish jarayoning tezlashuviga XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan «sovuq urush» siyosiy holati ham katta ta'sir qilgan. XX-asrning 60-yillarida AQSH hukumati, sobiq ittifoqning Oyni tekshirish borasida ancha ilgarilab ketganligidan xavotirga tushib, o'zining maxsus Oyni tadqiq qilish milliy dasturini ishlab chiqdi. Prezident Jon Kennedi, Oyga AQSHlik astronavt 1970 yilgacha albatta yetib boradi deb bayonot berdi. Oyga uchuvchili apparat yuborilishi oldidan bir nechta tayyorlanish bosqichlari o'taldi. «Reynjer» 1961–1965 yillarda Oy sirtini batafsil fotosuratlarga tushirdi; «Surveyer» yumshoq qo'nish va joyni o'rganish ishlarini; «Lunar orbiter» esa joyning sirtini mukammal o'rganish ishlarini bajardi. Nihoyat, 1969 yilning 20 iyulida Apollon-11 Oy kemasi bortida astronavtlar Nil Armstrong va Edvin Oldrinlardan iborat ekipaj Oy sirtida yumshoq qo'nishni amalga oshirib, Oyga qadam qo'ygan birinchi insonlarga aylanishdi.

---

* Ushbu ma'lumotlar «Appolon-11» oy stansiyasi keltirgan 22.77 kg Oy tuprog'ining kimyoviy tahlili natijasida keltirilgan.
** Ushbu ma'lumotlar «Луна-20» oy stansiyasi materik qismidan keltirgan Oy tuprog'ining kimyoviy tahlili natijasida keltirilgan.
*** Ushbu ma'lumotlar «Луна-16» oy stansiyasi dengiz qismidan keltirgan Oy tuprog'ining kimyoviy tahlili natijasida keltirilgan

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Nils Armstrong oy sirtida olgan birinchi fotosurat.



Edvin Oldrin Oy sirtida. 1969 yil 21 iyul.

Oydan turib Yerning ko'rinishi. Apollon-8 olgan fotosurat.

To'lin oy.

Apollon dasturi oxirgi marta 1972 yilda bajarilganidan so'ng, to'xtatildi. SSSRga tegishli «Лунаход» seriyasidagi oy apparatlari 1970-76 yillarda Oy sirtida ish olib borib, ko'plab ma'lumotlarni yig'di va Yerga yetkazdi. 1976 yilda «Лунаход-24» Yerga Oy tuprog'i namunasi bilan qaytgach, Oyni tadqiq qilish ishlari birmuncha so'ndi. Keyingi Oy apparati - «Hiten» faqat oradan 14 yil o'tib, 1990 yilda Yaponiya tomonidan uchirildi. Undan keyin esa ikkita apparatlar Clementina (1994) va Lunar Prospector (1998) uchirilgan. Hozirgi vaqtga kelib, Oyni tadqiq qilish ishlariga, Rossiya, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyadan tashqari, 2007 yildan, Xitoy Xalq Respublikasi o'zining «Chane-1» va «Chane-2» apparatlari, hamda, 2008 yildan boshlab Hindiston «Chandryan-1/2» apparatlari orqali qo'shilgan. XXI asr Oyni tadqiq qilish ishlari asosan Oy orbital zondlari va robot texnikasiga suyanadi. Xususan, Yaponiyaning «Kaguya» Oy zondi, asosan robotlar faoliyatiga asoslanadi. Bundan tashqari, bugungi kunda Oyni tekshirish va o'zlashtirish borasida xususiy korporatsiyalar ham ish boshlab yuborishgan. Masalan, Google kompaniyasi o'zining Oyga sayohat uyishtirishni maqsad qilgan Google Lunar X-PRIZE dasturi haqida e'lon qilgan. Shuningdek, ayrim davlatlarda kelajakda, Oyda Oy tabiiy resurslarini o'zlashtirish bo'yicha bazalar qurilishi va Oyga turistik sayohatlar (Oy turizmi) uyishtirishni maqsad qilgan loyihalar mavjud.

QUYOSH TIZIMI.

Markaziy yulduz – Quyosh va uning atrofida aylanuvchi 8 ta sayyora va ularning tabiiy yo‘ldoshlari, shuningdek, 5 ta karlik sayyora va ularning tabiiy yo‘ldoshlari, asteroidlar, kometalar va ho kazo tabiiy osmon jismlarida iborat sistema. Quyosh tizimi, bundan taxminan 4.57 milliard yil avval, gaz-chang bulutining gravitatsion siqilishi natijasida yuzaga kelgan degan faraz mavjud.

Quyosh tizimining asosiy massasi, markaziy obyekt – Quyoshda jam bo‘lgan: 99,866 %. Quyosh tizimining to‘rtta kichik ichki sayyoralari – Merkuriy, Venera, Yer va Mars, asosan silikat va metallardan tashkil topgan, qattiq jism xususiyatiga ega sayyoralardir. Ularni Yer guruhi sayyoralari sifatida umumlashtiriladi. To‘rtta tashqi sayyoralar – Yupiter, Saturn, Uran, Neptun – massasi va hajmiga ko‘ra, yer guruhi sayyoralaridan bir necha o‘n barobar katta bo‘lib, ular asosan gazsimon moddalardan tashkil topgan, bu guruh sayyoralarni «Gaz Gigantlari» sifatida umumlashtirib yuritiladi. Gaz gigantlaridan Yupiter va Saturn, Quyosh tizimi sayyoralari ichida eng kattalari bo‘lib, ular asosan geliy va vodoroddan iborat. Ikki chetki sayyoralar Uran va Neptun esa, geliy va vodoroddan tashqari, metan hamda, is gazidan ham iboratdir. Ushbu ikki sayyora «muzlagan gigantlar» sifatida ta’riflanadi. Sakkizta sayyoradan oltitasi va shuningdek uchta karlik sayyora, tabiiy yo‘ldoshlarga ega. Tashqi sayyoralarning barchasida, sayyora atrofini o‘rab turuvchi halqalar sistemasi mavjud.

Quyosh tizimida, kichik o‘lchamlardagi osmon jismlari bilan to‘lgan ikkita o‘xshash hudud mavjud: birinchisi, Mars va Yupiter sayyoralari orbitalari orasidagi fazoda joylashgan Asteroidlar belbog‘i; hamda, ikkinchisi, Neptun orbitasidan tashqarida joylashgan transneptun obyektlardan iborat osmon jismlari hududidir. Asteroidlar belbog‘ida, tuzilishiga ko‘ra, Yer guruhi sayyoralariga yaqin bo‘lgan, asosan silikat va metallardan tarkib topgan osmon jismlari harakatlanadi. Ulardan eng yiriklari – karlik sayyora Serera, asteroidlar – Pallada, Vesta, Gigeyalardir. Transneptun obyektlar esa, asosan muzlagan holatdagi suv, metan va ammiakdan, shuningdek tog‘ jinslariga o‘xshash jinslardan tarkib topgan osmon jismlaridir. Transneptun obyektlarning eng yiriklari – Pluton, Sedna, Makemake, Haumea, Kvavar, Ork hamda Eridalardir. Bulardan tashqari Quyosh tizimi tarkibiga, Yer atrofi asteroidlari, sayyoralarning kvazi-yo‘ldoshlari, troyanlar, kentavrlar va kosmik changdan iborat mayda osmon jismlarini ham kiritiladi. Ushbu osmon jismlarning aksariyati, muayyan orbita yoki aylanish qonuniyatlarga ega bo‘lmay, ochiq fazoda betartib harakatlanishi bilan ajralib turadi.

Quyosh tizimi, Somon Yo‘li galaktikasi tarkibiga kiradi.

Quyosh tizimi tarkibiga kiruvchi aksariyat jismlar – sayyoralar va karlik sayyoralar, amalda bitta tekislikda – ekliptika tekisligida harakatlanadi. Biroq kometalar hamda, koyper belbog‘idagi obyektlarning aksariyati, ekliptikaga nisbatan katta burchak ostida og‘ish bilan aylanadi. Quyosh tizimidagi deyarli barcha sayyoralar va boshqa obyektlar, bir xil yo‘nalishda – soat strelkasiga qarama-qarshi yo‘nalishda (Quyoshning shimoliy yarim shariga nisbatan olganda) aylanadi. Biroq, teskari yo‘nalishda aylanuvchi obyektlar ham mavjud, masalan Galley kometasi orbitasi shunday. Eng katta burchak tezlikka Merkuriy sayyorasi ega. U 88 Yer kecha-kunduzi mobaynida, Quyosh atrofini bir marta to‘liq aylanib chiqib ulguradi. Eng uzoq sayyora – Neptun esa, 165 yer yilida bir marta Quyoshni aylanib chiqadi.

Sayyoralarning aksariyati, o‘z o‘qi atrofida ham, Quyosh atrofida aylanish yo‘nalishida aylanadi. Istisno holati faqat Venera va Uran sayyoralarining o‘z o‘qi atrofida aylanish yo‘nalishlaridir. Venera o‘z o‘qi atrofida, boshqa sayyoralarga nisbatan teskari – g‘arbdan sharqqa qarab aylansa, Uran esa, shimoldan janubga qarab aylanadi.

Quyosh tizimini modellashtirish va matematik tenglamalar yordamida uning qonuniyatlari ifodalashga bo‘lgan ko‘plab urinishlar mavjud (masalan Titsius-Bode qonuniyati). Biroq hozirgacha ularning birortasi to‘liq isbotini topmagan. Quyosh tizimining aksariyat modellarida, sayyoralar orasidagi masofa, teng oraliqlar bilan ifodalanadi. Biroq amalda, sayyoraning Quyoshdan uzoqlashish tartibida, uning o‘zidan keyingi sayyoragacha bo‘lgan masofasi, o‘zidan avvalgisigacha bo‘lgan masofaga nisbatan kattalashib boradi.

Quyosh tizimidagi obyektlarning orbitalari Kepler qonunlariga asosan ifodalanadi. Sayyoralarning orbitalari, aylana shakliga juda yaqin shakldagi ellipslardir. Biroq, kometalar va koyper belbog‘i hududidagi obyektlarning aksariyatining orbitalari, keskin cho‘zinchoq shaklga ega.

Quyosh tizimining chetki qismi sifatida uzoq yillar mobaynida Pluton orbitasi qarab kelingan edi. Biroq, XX asrning so‘nggi yillarida va XXI asr boshida olib borilgan tadqiqotlar, Quyosh tizimining chegaralari

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

o‘ylanganidan ancha keng ekanligini ko‘rsatib berdi. Xususan, Pluton orbitasi tashqarisida joylashgan Quyosh atrofida aylanuvchi Koyper belbog‘i va uning hududida joylashgan o‘lchami asteroidlardan va hatto Plutondan ham katta osmon jismlari – Kvavar, Ork, Sedna, Makemake va ho kazolarning aniqlanishi, keyinchalik esa, Tarqoq disk va unda transneptun obyektlar ichida hozircha aniqlanganlar orasida eng yirik osmon jismi – Erida karlik sayyorasining kashf etilishi, Quyosh tizimi chegarasi haqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerakligini namoyon etdi. Bugungi kunda, Quyosh tizimining chegarasi qayerda ekanligi haqida aniq dalil va faktlar mavjud emas. Hozircha bildirilayotgan ilmiy farazlarga ko‘ra, Quyosh tizimining chegarasini aniqlash ikkita faktorga – Quyosh shamolining uzil-kesil so‘nishi va uning butunlay to‘xtab, yulduzlararo modda bilan to‘qnash kelishi joyi, hamda, Quyoshning tortish kuchining butunlay yo‘qolish darajasiga tushishi sifatida qaraladi. Bunday faraziy fazoviy hudud, fanda geliopauza deb ataladi. Taxminlarga ko‘ra, geliopauza Pluton orbitasidan to‘rt barobar naridagi masofada joylashgan va u yulduzlararo fazoning boshlanish nuqtasi bo‘lishi kerak. Quyoshning o‘zidan boshlab, geliopauzagacha bo‘lgan ulkan fazoviy hudud, ya’ni, Quyoshning tortish kuchi ta’sirga ega bo‘lgan fazo – Geliosfera deb ataladi. Hozirda faqat «Voyajer-1» kosmik apparatigina geliopauzani kesib o‘tgan. Shuningdek 2027 yilda «Voyajer-2» va keyinroq «Yangi gorizontlar» kosmik apparatlari, geliopauzani kesib o‘tishi va yulduzlararo fazoga chiqishi kutilmoqda.



Quyosh tizimi (klassik tasvirlanishi).

Qurollanmagan ko‘z bilan, tungi osmonda, Mars, Yupiter va Saturn sayyoralarini kuzatish mumkin. Merkuriy va Venera sayyoralarini ham qurollanmagan ko‘z bilan kuzatish mumkin, faqat bu sayyoralarni ma’lum qisqa vaqt mobaynida – Quyoshning botishidan keyingi va chiqishidan biroz avvalgi soatlarda kuzatish imkonli bo‘ladi xolos. Binokl yoki kichikroq teleskop yordamida, Yupiterning eng katta to‘rt tabiiy yo‘ldoshlarini (Galiley yo‘ldoshlarini) va Saturnning Titan yo‘ldoshini, shuningdek, Uran va Neptun sayyoralarini kuzatish mumkin. Shuningdek, kometalarning Quyoshga yaqinlashgan davrida ularni, qurollanmagan ko‘z bilan kuzatish imkoni paydo bo‘ladi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

SAYYORALAR

Quyosh tizimining katta sayyoralari.

(umumiy jadval)

Parametr	Birlik	Sayyoralar							
		Merkuriy	Venera	Mars	Yupiter	Saturn	Uran	Neptun	Pluton[1]
Ekvatorial diametri	***km***	4878	12104	6792.4	142984±2	120536±4	51118	49528±4	2306
Ekvatoridagi erkin tushish tezlanishi	***m/soniya²***	3.72	8.87	3,711	24.79	10.44	8.87	11.15	0.658
Ekvatorining orbita tekisligiga nisbatan og‘ish burchagi		0°	−5°	23°59`	3°4`	26°73`	97.77°	44°	?
Hajmi (Yer hajmiga nisbatan)		0.055	0.857	0.151	1318	769	50	42	0.08
Sirtidagi ikkinchi kosmik tezlik	***km/soniya***	4.25	10.46	5.03	59.5	35.5	22.5	23.5	5
Massasi (tabiiy yo‘ldoshlarisiz)	***tonna***	$3.260 \cdot 10^{20}$	$4{,}8685 \cdot 10^{24}$	$6.418 \cdot 10^{20}$	$1{,}8986 \cdot 10^{27}$	$5.6846 \cdot 10^{23}$	$8{,}6832 \cdot 10^{25}$	$1.043 \cdot 10^{23}$	$5.50 \cdot 10^{21}$
O‘rtacha radiusi	***km***	2420	6051,8 ± 1	3389.5	69 911 ± 6	60400	23800	22200	2750
O‘rtacha zichligi	***kg/m³***	5520	5220	3933	1326	680	1270	1636	2030±0.6
O‘z o‘qi atrofida aylanish davri		88 kun	243.2 kun	24 soat, 37 daqiqa, 22 soniya	9 soat, 50 daqiqa, 30 soniya	10 soat 14 daqiqa	10 soat 42 daqiqa	15 soat 43 daqiqa	6 kun 9 soat
Quyosh atrofida aylanish orbitasi bo‘ylab harakatining o‘rtacha tezligi.	***km/soniya***	47.83	34.99	24.65	13.05	9.64	6.80	5.43	4.8
Quyosh atrofida to‘liq aylanish davri		88 kun	224.7 kun	1.88 yil	11.86 yil	29.46 yil	84.01 yil	164.79 yil	248.9 yil
Quyoshdan o‘rtacha masofasi	***mln.km***	57.91	108.21	227.94	778.3	1429.3	2875.03	4504.4	5900
Sayyora sirtidagi gravitatsiya		0.38	0.90	0.38	2.64	1.16	1.17	1.20	0.06
Tabiiy yo‘ldoshlari soni		–	–	2	67	62	27	14	5
Yer massasiga nisbati		0.546	0.815	0.107	317.8	95.28	14.56	17.28	0.9
Yerdan eng uzoq masofasi	***mln.km***	~217	~260	~400	~965	~1650	~3153	~4682	~7527
Yerga eng yaqin masofasi	***mln.km***	82	38	56	591	1199	2586	4309	4280
Yerning o‘rtacha radiusiga nisbati		0.38	0.96	0.53	11.2	9.47	3.73	3.49	0.43

[1] Pluton sayyorasi, kashf qilingan 1930 yildan to 2006 yilgacha, Quyosh tizimidagi odatiy (klassik) sayyora sifatida qaralgan. Xalqaro Astronomiya Ittifoqining XXVI assambleyasi qaroriga asosan, 2006 yildan e’tiboran Pluton sayyorasi Quyosh tizimidagi katta sayyoralar safida emas, balki karliklar sayyoralar safiga kiritildi. Shuning uchun unga tegishli ma’lumotlar ustuni alohida rang bilan ajratib ko‘rsatildi.

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.

MERKURIY ☿

Merkuriy («Messenjer» kosmik apparati olgan fotosurat)

Merkuriy – Quyoshga eng yaqin joylashgan sayyora. Uni qadimgi rimliklar savdo ma'budi – Merkuriy nomi bilan atashgan. Bu sayyora insoniyatga qadimdan ma'lum. O'lchamlari bo'yicha katta sayyoralari ichidagi eng kichik sayyora hisoblanadi.

Merkuriy va Quyosh orasidagi masofa – 58 million kilometrni tashkil qiladi. Quyosh atrofida bu sayyora 88 kunda to'liq aylanib chiqadi. Merkuriyni fazoda 28° gacha yetuvchi nisbatan katta elongatsiyalar vaqtida kuzatish mumkin. Quyoshga o'ta yaqinligi, hamda, juda kichik o'lchamlari tufayli, Merkuriy uzoq vaqtgacha kam o'rganilgan sayyora bo'lib qolavergan. Faqat 1965 yilga kelib, radiolokatsiya usullarini qo'llash natijasida Merkuriyning o'z o'qi atrofida aylanish davri hisoblab topildi. U 58.65 kun, ya'ni sayyoraning Quyosh atrofida aylanish davrining 2/3 qismiga teng ekan. Bu degani, Merkuriydagi kunduz davomiyligi – Quyosh sutkasi 176 kun davom etishini anglatadi. Merkuriyning aylanish burchagi uning orbita tekisligiga nisbatan deyarli perpendikulyar. Merkuriyning akslantirish xususiyati – albedo[1] juda kichik bo'lib, taxminan 0.07 ni tashkil qiladi. Quyoshning zenitdagi vaqtida sayyora sirtining harorati 620 K gacha, tungi qutblarining harorati esa 110 K atrofida bo'ladi. Merkuriy sayyorasining ko'rinadigan yulduz kattaligi 1,9 dan 5,5 gacha qiymatlarda o'zgarib turadi.

Merkuriy sirtining issiqlik xususiyatlari oy regolitinikiga o'xshash. Umuman olganda Merkuriy tashqi ko'rinishi jihatidan oyga juda o'xshab ketadi. O'ta siyrak bo'lgan sayyora atmosferasi tashqi meteorit bombardimonlariga deyarli qarshilik qilmaydi. Shu tufayli sayyora yuzasi kraterlar bilan to'la. Ulardan eng kattasi – Kaloris krateri bo'lib, uning diametri 1300 km. ba'zi kraterlardagi qora lavalarning mavjudligi, sayyora o'z tarixining ilk davrlarida kuchli, intensiv ichki vulqonlar girdobida bo'lganligidan dalolat beradi.

Merkuriy atmosferasi o'ta siyrak. Uning zichligi Yer atmosferasining 620 km balandlikdagi zichligidan ham kichik. Merkuriy atmosfera tarkibida vodorod, geliy, hamda kislorodning, shuningdek inert gazlar, xususan, neon va argonning kichik miqdorlari aniqlangan. Bunday gazlar, sayyora gurunti tarkibidagi radioaktiv moddalarning parchalanishi natijasida ajralib chiqqan bo'lishi mumkin. Merkuriyda kuchsiz magnit maydoni mavjudligi aniqlangan. Merkuriy magnit maydonining kuchlanganligi qiymati Yernikiga nisbatan kichik bo'lsa, ammo Marsnikidan katta.

Sayyoraning o'rtacha zichligi Oynikiga nisbatan ancha katta - 5.427 g/sm^3, ya'ni, yerning zichligiga deyarli teng. Merkuriy 500 – 600 kilometrdan iborat kuchli silikat qobiqqa va 50% miqdordagi temir yadroga ega ekanligi haqida gipoteza mavjud. Sayyoraning tabiiy yo'ldoshlari yo'q. Merkuriy nisbatan kam o'rganilgan sayyoradir, faqat 2009 yilga kelibgina sayyora sirtining taxminiy xaritasi tuzildi. Bu jarayonda asosan «Mariner-10» hamda, «Messenjer» kosmik apparatlari orqali olingan tasvirlardan foydalanildi.

Merkuriyning paydo bo'lishi haqida bir necha farazlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalgani, Merkuriyning bir paytlar Veneraning tabiiy yo'ldoshi bo'lganligi, biroq, ma'lum sabablarga ko'ra undan «qochib» ketganligidir. Bu farazni Merkuriy orbitasining katta ekstsentrisiteti bilan izohlaydilar.

Merkuriy haqida ilk ma'lumotlar qadimgi Bobilliklarga tegishli «Mul apin» astrologik jadvallarida uchraydi. Bu jadvallarni Ossuriyalik munajjimlar ishlab chiqishgan bo'lib, ularda Merkuriy «Sakrovchi sayyora» deb nomlangan. Qadimgi Yunonistonda esa, Merkuriyni Στίλβων («Stilbon») va Ἑρμάων («Germaon») deb atashgan. «Germaon» - ma'bud Germesning ismining o'zgartirilgan shakli bo'lib, keyingi davr yunon qo'lyozmalarida bu sayyora «Apollon» nomi bilan ham atalgan. Xitoyliklar esa merkuriyni «Chen-Sin» (辰星) - Tong yulduzi deb atashgan. Qadimgi Xitoy munajjimlarining birning qo'lyozmasida Merkuriyning sinodik aylanish davri 115,91 kun deb qayd qilingan. Qadimgi hindlarda esa, mazkur sayyora ma'bud Budxa nomi bilan atalgan. Maya hindulari esa Merkuriyni 4 ta boyqush timsolida tasvirlashgan.

[1] Albedo – Osmon jismlarining (masalan, sayyorlar, tabiiy yo'ldoshlar, meteorlar va ho kazo) tashqaridan kelayotgan yorug'likni qaytarish xususiyatini ifodalovchi fizik kattalik.



ash-Shatirning qo'lyozmalaridagi Merkuriyning orbital harakarti modeli

Eramizning V asriga taalluqli hind astronomik jadvali «Surya-sidxatta»da Merkuriyning Quyoshdan uzoqligi masofasi hayratlanarli darajadagi aniqlikda ifodalangan: 2420 km. Hozirgi zamon o'lchamlariga ko'ra esa, bu masofa 2439,7. Farq atiga 1% dan ham kam.

O'rta asrlarda esa arab munajjimlari Merkuriyning Quyosh atrofidagi harakati jadvalini tuzib chiqishdi. Dastavval Andalusiyalik Az-Zarkaliy Merkuriyning geotsentrik orbitasining deferantini hisoblab chiqib, uning ovalsimon ekanligini aniqladi. XII asrda esa Ibn Badja Merkuriyning Quyosh diskidan o'tishi jarayonini kuzatdi. Ibn ash-Shatir esa, Merkuriyning Quyosh atrofida aylanishi taxminiy modelini tasvirladi.

O'rta asrlar Yevropasida merkuriyni kuzatish unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan. Xususan Nikolay Kopernik, Merkuriyni biror marta ham o'zi kuzata olmagani, asarlarida esa boshqa astronomlarning xulosalariga tayanganligini taassuf bilan qayd qiladi. Bunga sabab esa Kopernik yashagan Boltiqbo'yi hududining ko'pincha bulutli bo'lishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari Merkuriy Yevropa kengliklarida sahardagi yoki shomdagi shafaq vaqtida qisqa muddat ko'rinadi xolos. Merkuriyni kuzatishning eng qulay vaqtlari uning elongatsiya davrlaridir.

Teleskop kashf etilgach, u orqali birinchi bo'lib, albatta uning kashfiyotchisi – Galileo Galiley Merkuriyni kuzatdi. 1631 yilda Pyer Gassendi Merkuriyning Quyosh diskidan o'tishi jarayonini dastlabki teleskopik kuzatuvlarini qayd qildi. Bungacha esa Iogann Kepler Merkuriyning Quyosh diski bo'ylab o'tishi vaqtini aniq hisoblab chiqarib bergan edi. 1639 yilda Jovanni Zulli, Merkuriyning orbital fazalarini Oy va Veneraniki bilan o'xshash ekanligini aniqladi.

Yerdan qaraganda, bir sayyoraning boshqa bilan to'silib qolishi juda kamdan-kam kuzatiladi. Venera ning Merkuriyni to'sib qo'yishi tarixda faqat bir marta – 28 may 1737 yilda Qirollik Grinvich rasadxonasi astronomi Jon Bevis tomonidan kuzatilgan. Ushbu hodisa navbatdagi marta 2133 yilning 3-dekabrida yuz beradi.

Merkuriyning Quyosh diskidan o'tishi

Merkuriyning orbital ko'rsatkichlari	
Perigeliy	46 001 210 km; 0,30749909 a.b.
Afeliy	69 816 900 km; 0,46669733 a.b.
Katta yarim o'q (**α**)	57 909 068 km; 0,38709893 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,20563069;
Siderik aylanish davri	87,969 kun;
Sinodik aylanish davri	115,88 kun;
Orbital tezligi (***v***)	47,87 km/soniya
O'rtacha anomaliya (M_0)	174,795884°
Peritsentr argumenti	29,124279°
Yo'ldoshlari	Yo'q. (aniqlanmagan)
Merkuriyning fizik ko'rsatkichlari	
Ekvatorial radiusi	2439,7 km;
Sirt yuzasi (***S***)	$7{,}48\cdot10^7$ yoki, 0,147 yer sirti
Hajmi (***V***)	$6{,}083\cdot10^{10}$ km³; 0,056 yer hajmi
Massasi (***m***)	$3{,}33\cdot10^{23}$kg; 0,05527 yer massasi
O'rtacha zichligi (***ρ***)	5,427 gr/sm³
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	3,7 m/soniya²
O'qining og'ish burchagi	2,11′ ± 0,1′
Albedo	0,142 (Bond); 0,068 (geometrik)
Ko'rinadigan yulduz kattaligi	$-2{,}6^m$ dan $+5{,}7^m$ gacha

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

VENERA ♀

Venera – Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha ikkinchi va Yerga eng yaqin sayyora. Venera Quyosh tizimidagi sayyoralar orasida ayol ismi bilan ataladigan yagona sayyora bo‘lib, u qadimgi Rim Panteoni Muhabbat ma’budasi sharafiga shunday atalgan. Venera insoniyatga qadimdan ma’lum. Uning fizik jihatdan yerga o‘xshashligi tufayli, «Yerning singlisi» deb ham ataladi.

Quyoshdan o‘rtacha uzoqligi 108 million kilometr (0,723 a. b.). Quyosh atrofida to‘liq aylanib chiqish davri 224.7 kun. Venera Yerga 40 million km gacha yaqinlashib kelishi mumkin, va bu degani Quyosh tizimidagi barcha boshqa sayyorlar ichida Yerga eng yaqin keladigan sayyora bu aynan – Venera hisoblanadi. Sinodik davri 583.92 kunga teng. Veneraning eng yaxshi ko‘rinadigan vaqtlari elongatsiya davrlariga to‘g‘ri keladi. Quyoshdan burchak masofasi 48° dan ortmagani uchun elongatsiya vaqtlaridagi ko‘rinish yoki shom oqqan paytda, yoki, tong otar chog‘ida paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham Venerani «Tong yulduzi» deb atashadi. Venera – yerdan ko‘rinadigan osmon jismlari orasida Quyosh va Oydan keyingi eng yorqin osmon jismi hisoblanadi.

Venera diametri Yer diametrining 95% qismiga teng va 12104 km tashkil qiladi. Massasi Yer massasining 81.5% qismi - $4{,}8685 \cdot 10^{24}$ tonna. O‘rtacha zichligi – 5220 kg/m^3. Sirtidagi erkin tushish tezlanishi 8.87 m/soniya^2 (Yernikiga nisbatan 90%). Veneraning o‘z o‘qi atrofida aylanish davrini hisoblash uzoq vaqtgacha imkonsiz bo‘lib, bunga sayyorani o‘rab turgan qalin bulutli qatlam mone’lik qilar edi. Faqat radiolokatsiya usullarini qo‘llash natijasida Veneraning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri 243.2 kunga teng ekanligi va u Yer va boshqa sayyorlarga nisbatan teskari tarafga aylanishi ma’lum bo‘ldi. Aylanish o‘qining orbita tekisligiga nisbatan og‘ish burchagi deyarli 90°.

Sayyoraning atmosferasi mavjudligini, uning Quyosh diski bo‘ylab o‘tish jarayonini kuzatgan M. Lomonosov 1761 yilda aniqlagan. XX asrda olib borilgan spektral tahlil natijalariga ko‘ra Venera atmosferasining 97% qismini CO gazi tashkil qilishi aniqlandi. Shuningdek, Venera atmosferasida 2% miqdorda azot va boshqa inert gazlar, hamda 0.1% miqdorda suv bug‘lari, shuncha miqdorda kislorod mavjudligi aniqlangan. Venera atmosferasidagi CO gazi va suv bug‘lari, issiqxona effekti hodisasini sodir qiladi. Ushbu ikki gaz Veneraning o‘ta qizigan sirti chiqarayotgan infraqizil nurlarni kuchli yutuvchi xususiyatiga ega va shu tufayli sayyora sirtidagi harorat 500°C gacha qiziydi. Sayyora sirtini bizdan to‘sib turuvchi qalin bulutlar qatlami taxminan 49 – 68 km balandlikdagi yengil tuman ko‘rinishida bo‘lib, ochiq koinotdan qaralganda uning ekvatoriga parallel qatlamlar tarzida ko‘rinadi. Ushbu bulutlarning tarkibi suvda erigan oltingugurt kislotasi tomchilaridan iborat deb taxmin qilinadi. Sayyora sirtining yoritilganligi, Yerdagi bulutli, quyoshsiz kunni eslatadi. Sayyoraning bulutlar balandligida 100 metr/soniya tezlikdagi doimiy shamollar esib turadi.



Veneraning Quyosh diskidan o‘tishi haqidagi Lomonosov qo‘lyozmalari. 1761 yil

Sayyora sirtidagi atmosfera bosimi 9 MPa bo‘lib, uning zichligi yer atmosferasinikidan 35(!) marotaba katta. Venera atmosferasining yuqori qatlamlari (5500 km balandliklarda) deyarli to‘liq vodoroddan iborat. Radiolokatsiya yordamida Venera sirtida ham xuddi Oy va Merkuriydagi kabi kraterlar mavjudligi va ularning diametri 35 – 150 km gacha ekanligi aniqlandi. Lekin Venera sirti Oy va Merkuriynikidan ko‘ra ancha tekis. Unda 1500 km gacha cho‘zilgan botiqliklar, tog‘ tizimlari, Vulqon va havzalar mavjud.

Venera tabiiy yo‘ldoshlarga ega emas.



Veneraning Quyosh diskidan o‘tishi

Veneraning orbital ko‘rsatkichlari	
Perigeliy	107476259 km; 0,71843270 a.b.
Afeliy	1089421090 km; 0,72823128 a.b.
Katta yarim o‘q (***α***)	108208930 km; 0,723332 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,0068;
Siderik aylanish davri	224,698 kun;
Sinodik aylanish davri	583,92 kun;
Orbital tezligi (***v***)	35,02 km/soniya
Peritsentr argumenti	54,85229°
Yo‘ldoshlari	Yo‘q. (aniqlanmagan)
Veneraning fizik ko‘rsatkichlari	
O‘rtacha radiusi	6051,8 ± 1,0 km;
Sirt yuzasi (***S***)	$4{,}60 \cdot 10^{8}$ yoki, 0,902 yer sirti
Hajmi (***V***)	$9{,}38 \cdot 10^{11}$ km³; 0,857 yer hajmi
Massasi (***m***)	$4{,}8685 \cdot 10^{24}$kg; 0,815 yer massasi
O‘rtacha zichligi (***ρ***)	5,24 gr/sm³
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	6.52 m/soniya²
O‘qining og‘ish burchagi	2,11′ ± 0,1′
Albedo	0.65
Ko‘rinadigan yulduz kattaligi	−4.7
Sirtidagi o‘rtacha harorat	737 K (464°C)
Atmosfera bosimi	9.2 MPa (92 bar)
Venera atmosferasi tarkibi:	
Karbonat angidrid (CO_2)	~96.5%
Azot (N_2)	~3.5%
Oltingugurt dioksidlari (SO_2)	~0,015 %
Argon (Ar)	~0,007 %
Suv bug‘lari (H_2O)	~0,002 %
Is gazi (CO)	~0,0017 %
Geliy (He)	~0,0012 %
Neon (Ne)	~0,0007 %
Uglerod-oltingugurt oksidi (OCS)	Qoldiqlari
Ftorovodorod (HF)	Qoldiqlari
Xlorovodorod (HCl)	Qoldiqlari

Venera sirti panoramasi

MARS ♂

Xabbl kosmik teleskopi yordamida olingan Mars fotosurati. 2001 yil, 26-Iyun.

Mars – Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha to‘rtinchi sayyora. Qadimgi Rimliklarning urush ma’budi Aresning nomi bilan atalgan. Mars ham Merkuriy va Venera singari insoniyatga qadimdan ma’lum.

Yulduzli osmonda u qizil rangdagi jimirlamaydigan nuqta ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uning yorqinligi vaqti-vaqti bilan birinchi kattalikdagi yulduzlarning yorqinligidan ham ortiq bo‘lib yarqiraydi. Mars davriy ravishda Yerga 57 mln km gacha masofada yaqinlashib keladi.

Fizik parametrlariga ko‘ra Mars Yer guruhi sayyoralari turkumiga mansub. Diametriga ko‘ra u Yer va Venerada deyarli ikki marta kichik. Sayyora gaz qobig‘i – atmosfera bilan o‘ralgan bo‘lib, Mars atmosferasining zichligi Yernikiga nisbatan ancha siyrak. Marsning eng chuqur botiqliklarda ham atmosfera zichligi yer sirtidagi atmosferasi zichligidan 100 barobar kichik. Shunga qaramay Mars atmosferasida bulutlar mavjud. Ochiq kunda Mars osmoni pushti rangda bo‘ladi. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra Mars atmosferasi Yer atmosferasidan tubdan farq qiladi va u 95.3% CO_2 gazi, 2.7% Azot, 1.6% Argon gazlaridan iborat. Kislorod esa faqat 0.013% ekanligi aniqlangan. Bulardan tashqari, spektral tahlil yordamida Mars atmosferasida Ksenon, Neon, hamda Kriptonlar ham mavjudligi aniqlangan. Bulutsiz Mars osmoni Yernikiga nisbatan ancha shaffof va u ultrabinafsha nurlarini ham o‘tkazib yuboradi.

Marsning bir marta o‘z o‘qi atrofida aylanib chiqishi uchun 24 soat 39 daqiqa 35 soniya vaqt ketadi. Marsning Quyosh atrofida bir marta to‘liq aylanib chiqish davri esa 686.9 kun. Ya’ni Yer yilining 1.9 qismiga to‘g‘ri keladi. Sirtida harorat 290K gacha qiziydi. Qutblarda esa qishki mavsumlarda 150K gacha pasayadi. Marsda ham Yerdagi singari fasllar almashinuvi ro‘y beradi. Buni kuzatishlardagi Mars «qalpog‘i» - qutblardagi muzliklarning erib kichrayishi yoki aksincha, uning qarama-qarshisidagi muzlikning kattalashuvidan aniqlash mumkin. Mars qutblaridagi ushbu muzliklar, Mars atmosferasi tarkibidagi CO_2 gazining muzlashi natijasida qattiq fazaga o‘tishidan hosil bo‘ladi.

Mars haqidagi dastlabki astronomik kuzatishlar qayd qilingan yozma manbalar eramizdan avvalgi 3.5 ming yilliklarga tegishli Bobilliklarning astronomik jadvallari va ierogliflari hisoblanadi. O‘rta asrlarda hind va musulmon sharqi munajjimlari Marsning o‘lchamlarini va undan Yergacha bo‘lgan masofa hisoblab chiqishgan XVI asrga kelib Nikolay Kopernikning geliotsentrik modeli asosida Iogann Kepler Marsning ekliptik orbitasining aniq keltirib chiqardi. Marsni kuzatish, teleskop kashf etilgach yana jadallashdi. 1659 Yilda Franchesko Fontanna teleskopik kuzatishlar asosida Mars sirtini tasvirini chizdi. 1660 yilda Dominik Kassini Marsning qutblarini aniqlab, tasvirga tushirdi. 1888 yilda Jovanni Skiaparell Mars sirtidagi alohida detallarga nom berishni boshladi: Adriatika, Kimmeriya, Feniks kabi dengizlar nomlarini aynan u bergan. XIX asrga kelib Marsni o‘rganish yana yangi bosqichga kirdi. Bu davrda Marsda kanallarning mavjudligi haqidagi xabar asnosida, Marsda hayot bor yoki, yo‘qligini aniqlash bo‘yicha tekshirishlar avj oldi. Koinotni zabt etish erasidan avvalgi davr astronomlari ichida Marsni tadqiq qilganlardan Persival Louell, Slayfer, Antoniadi, Leddi, Vokulyer, Tixovlarning izlanishlari ko‘p samara keltirdi. Lekin baribir, Marsni nisbatan mukammal tadqiq qilish, unga tomon 1960 yillarda «Fobos», «Deymos», «Mariner», «Viking», «Mars Global Surveyor» kabi fazoviy dasturlarning uchirilishidan keyin boshlandi.

1965 yilda «Mariner-4» Marsga yetib borgunicha, ko‘plab tadqiqotchilar Marsda suyuq holatdagi suv mavjud degan taxminda edilar. Bu tasavvur asosan, Mars sirtidagi va qutblaridagi mavsumiy o‘zgarishlarning vizual tahliliga asoslangan edi. Mariner orqali olingan ma’lumotlar esa, suyuq suv haqidagi tasavvur beruvchi rang o‘zgarishlari ko‘z aldanishi – optik illuziya ekanligini tasdiqladi. Marsda suv qadim zamonlarda bo‘lgan bo‘lishi mumkin. 1975 yilda Mars relyefining xaritasi tuzildi. Mars gurunti namunalarining tekshiruvlarida temir va kremniyning oksidlari aniqlandi. Mars tuprog‘ida oltingugurt (sulfatli birikmalar ko‘rinishida) miqdori Yer qobig‘idagidan ancha marta ko‘p. Mars sirtida vulqonlar harakatidan ham, meteoritlar zarbasidan

ham hosil bo‘lgan kraterlar mavjud. Mars relyefining eng yuqori va eng chuqur qismlari farqi 20 km ni tashkil qiladi.

2008 yil 31 iyul kuni NASAning «Feniks» fazoviy apparati Marsda muz parchasini topdi.

2009 yildan buyon Mars orbitasida uchta orbital tadqiqot apparatlari – «Mars Odissey», «Mars Ekspress» va «Marsni tekshirish yo‘ldoshi» ishlab turibdi. Mars sirtida esa «Opportyuniti» va «Kuryositi» Marsaxodlari ishlamoqda. Shuningdek Mars sirtida avval ishlab, hozirda faoliyatdan to‘xtagan apparatlar mavjud.

Marsni yerdan turib qurollanmagan ko‘z bilan ham yaqqol ko‘rish mumkin. Uning ko‘rinadigan yulduz kattaligi $-2{,}91^m$ gacha yetadi.

Marsning ikkita tabiiy yo‘ldoshi – Fobos va Deymos mavjud.

Marsning tabiiy yo‘ldoshlari:

№	Tabiiy yo‘ldosh nomi	Sayyora sirtidan o‘rtacha uzoqligi (ming km.)	Aylanish davri (kun)	Diametri yoki o‘lchamlari (km)	Ochilgan yili	Kashf etgan olim
1	Fobos	9.37	0.32	25x21x19	1877	A.Xoll
2	Deymos	23.52	1.26	15x12x11	1877	A.Xoll

Deymos

Fobos

Marsning orbital ko‘rsatkichlari	
Perigeliy	$2{,}06655 \cdot 10^8$ km; 1,381 a.b.
Afeliy	$2{,}49232 \cdot 10^8$ km; 1,666 a.b.
Katta yarim o‘q (***α***)	$2{,}2794382 \cdot 10^8$ km; 1,523662 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,0933941;
Siderik aylanish davri	686,98 kun; 1,8808476 yil.
Sinodik aylanish davri	779,94 kun;
Orbital tezligi (***v***)	24,13 km/soniya
Peritsentr argumenti	286,46230°
Yo‘ldoshlari	2
Marsning fizik ko‘rsatkichlari	
O‘rtacha radiusi	3389,5 km;
Sirt yuzasi (***S***)	144 371 391 yoki, 0,283 yer sirti
Hajmi (***V***)	$1{,}6318 \cdot 10^{11}$ km³; 0,151 yer hajmi
Massasi (***m***)	$0{,}64185 \cdot 10^{24}$ kg; 0,107 yer massasi
O‘rtacha zichligi (***ρ***)	3933 kg/m³; yoki 0,714 yer zichligi;
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	3,711 m/soniya²; (0,378 g)
O‘qining og‘ish burchagi	25,1919°
Albedo	0,250 bond; 0,150 geometrik albedo
Ekvatorial aylanish tezligi	868,22 km/soat
Sirtidagi ikkinchi kosmik tezlik	5,03 km/soniya; 0,45 yer
Atmosfera bosimi	0,4-0,87 kPa
Mars atmosferasi tarkibi:	
Karbonat angidrid (CO_2)	95,32 %
Azot (N_2)	2,7 %
Kislorod (O_2)	0,13 %



Mars sirti panoramasi. 2005 yilning 23-25 noyabr kunlari «Husband Hill» hududida «Spirit» marsaxodi suratga olgan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

YUPITER ♃

Yupiterning Xabbl teleskopidan olingan fototasviri. 2010 yil iyun oyi.

Yupiter Quyosh tizimidagi eng katta sayyora. Quyoshdan uzoqlashish tartibida beshinchi va Yerga nisbatan Quyoshdan 5.2 marta uzoqroq masofada harakatlanadi. Yupiter Quyosh atrofida deyarli 12 yilda bir marotaba to‘liq aylanib chiqadi. Uning ekvatorial diametri Yernikidan 11,2 marta katta bo‘lib, 142984±2 km ni tashkil qiladi. Yupiterning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri, boshqa sayyorlarga nisbatan eng kichik bo‘lib, ekvatorida 9 soat, 50 daqiqa va 30 soniyani, o‘rta kengliklarida esa, 9 soat, 55 daqiqa va 40 soniyani tashkil qiladi. Shu tarzda Yupiter ham xuddi Quyosh singari qattiq jism kabi aylanmay balki, turli qismlarida turlicha aylanish tezligi hosil qiladi. O‘ta tezkor aylanishi tufayli bu sayyora qutblarida katta siqilish va zichlikning ortishi paydo bo‘ladi. Yupiter massasi Yer massasidan 318 barobar katta. O‘rtacha zichligi esa 1.326 gr/sm^3 bo‘lib, Quyoshning o‘rtacha zichligiga yaqin qiymat hisoblanadi. Yupiterning aylanish o‘qi uning orbitasiga deyarli perpendikulyar – burchak 87°. Ekvatoridagi erkin tushish tezligi 24.79 m/s^2.

Yerdan kuzatilganida Yupiterning yorqinligi, Oy va Veneradan keyingi uchinchi eng yorqin osmon jismi bo‘lib, buyuk qarama-qarshilik vaqtlarida uning ko‘rinadigan yulduz kattaligi –2,94^m gacha yetadi. Yupiter yerdan eng uzoqlashganida esa, uning yulduz kattaligi −1,61^m gacha xiralashishi mumkin. Yer va Yupiter orasidagi masofa 588 milliondan 967 million km gacha bo‘lgan masofada o‘zgarib turadi. Sayyoraning Quyoshdan o‘rtacha uzoqligi 778,57 million km (5.2 a.b.).

Mazkur sayyoraning ekvator tekisligining orbita tekisligiga nisbatan og‘ishi atiga 3,13° bo‘lganligidan, bu sayyorada fasllar almashinuvi bo‘lmaydi.

Yupiterning katta qizil dog‘i. Voyajer-1 dan oilngan fotosurat. 1979 yil, 1-mart.

Yupiterning sirti katta hajmdagi bulutlar qatlami bilan o‘rab olingan. Yaqqol ko‘zga tashlanadigan manzaralardan biri – ulkan qizil dog‘ bo‘lib, u XVII asrdan buyon olimlar nigohida. Qizil dog‘ 1644 yilda Robert Gukning kuzatishlari orqali ilk marta aniqlangan edi. Qizil dog‘ning o‘lchamlari 35000 ga 14 000 km radiuslardagi ovalsimon shakl bo‘lib, sayyoraning janubiy tropik va janubiy mo‘tadil kengliklari o‘rtasida joylashgan. Qizil dog‘ shakli va rangi vaqt bo‘yicha davriy o‘zgarib turadi. Masalan, uning XX asr boshidagi o‘lchamlari XXI asr boshidagidan deyarli ikki barobar katta bo‘lgan. Katta qizil dog‘ o‘ziga xos uzoq yashovchi ulkan uyurma bo‘lib, u soat miliga qarshi yo‘nalishda aylanib, 144 yer soatida bir marta to‘liq aylanib chiqadi.



Yupiterning katta (yuqorida) va kichik (quyuroqda) qizil dog‘lari. 2008 yilda Xabbl teleskopidan oilngan fotosurat.

Ulkan qizil dog‘dan tashqari, hozirgi vaqtda (2000 yildan buyon) Yupiterda yana bir qizil dog‘ – kichik qizil dog‘ ham paydo bo‘lgan. U 1938 yili Yupiterning 30° janubiy kengligida paydo bo‘lgan uchta ovalsimon oq dog‘larning (uyurmalar) o‘zaro bir-biriga yaqinlashib, oxiri, avvaliga 1998 yilda ikkitasining, keyinchalik, 2000 yilda uchinchisining ham avvalgi ikkitasiga birlashib ketishidan hosil bo‘ldi. 2005 yilda esa bu uyurma ham qizil tusga kira boshladi va u endilikda kichik qizil dog‘ deb yuritilmoqda. 2006 yilda katta va kichik qizil dog‘lar bir-biriga o‘ta yaqin masofada yaqinlashib keldi. Ko‘pchilik olimlar ularning o‘zaro birlashib ketishini taxmin qilishgan edi. Biroq, dog‘lar, o‘zaro urinma bo‘yicha teginib, qayta uzoqlasha boshladi.

Yupiter atmosferasi 89.8% vodorod va 10.2% geliydan iborat. Metan 0.2% va ammiak 0.1% ulushlarda bo‘lib, kam miqdorda etan, atsetilen, fosfen, va suv bug‘lari mavjudligi aniqlangan. Yupiter atmosferasi qalin va quyuq bulutlar qatlami bilan qoplangan. Yupiter bulutlari ammiakning kristallangan va shabnamlangan ko‘rinishlaridan iborat. Yupiterning atmosferasida ham yer atmosferasidagi singari, Ekzosfera, Termosfera,



Yupiterning atmosferasi tuzilishi

stratosfera, tropopauza va troposferalarni ajratish mumkin. Yerdan farqli ravishda, Yupiter atmosferasida mezosfera va Mezopauza mavjud emas. Atmosferaning yuqori qatlamlari harorat juda baland. Sayyora atmosferasidan ichkarilagani sari, tropopauzagacha harorat pasayib boradi. Termosferada Yupiter o‘z nurlanishining eng katta qismini yo‘qotadi. Aynan Termosferada, Yupiterning ionosferasi va qutb yog‘dusi shakllanadi.

Atmosfera qatlami 1000 km dan iborat bo‘lib uning eng quyi qatlamlarida toza gaz qavatidan keyin qalin bulutli qatlamni teleskoplarda ko‘rish mumkin. Suyuq molekulyar holatdagi vodorod qatlami 24000 km. Bu qatlamda bosim 300 GPa, harorat esa 11000 K gacha yetadi. Keyin esa, suyuq metall vodorod qatlami bo‘lib, u 42000 km qalinlikda va o‘z ostida kichik o‘lchamli temir-silikatli yadroni saqlaydi. Yadro radiusi 4000 km atrofida. Yadro va metall vodorod qatlami chegaralarida harorat 30 000 K gacha yetib boradi.

Yupiter chiqaradigan issiqlik miqdori uning Quyoshdan oladigan issiqlik energiyasi miqdoridan ikki barobar ko‘proq. Bunga sabab esa, sayyoraning doimiy ravishda ammo sekinlik bilan (yiliga 1 mm) siqilib borayotganligidan bo‘lishi mumkin.

Sayyoraning magnit maydoni murakkab bo‘lib, yaxshi o‘rganilmagan. U ikki qismdan iborat: dipolli maydon Yupiterda 1.5 mln km masofagacha tarqaladi va ikkinchisi – nodipolli magnit maydoni magnitosferaning qolgan qismini egallaydi. Hozirgi vaqtda olimlar, Yupiter magnit maydoni nafaqat dipol va nodipolli maydonlar, balki, kvadrupol, oktupol va boshqa garmonikalarga ham egaligi haqida ilmiy farazlarni ilgari surishmoqda. Yupiter sirtidagi magnit maydon kuchlanganligi 10 – 15 ersted bo‘lib, Yernikidan deyarli 20 barobar kuchli. Yupiterning magnit qutblari yerning magnit qutblariga nisbatan teskari joylashgan.



Yupiterning magnit maydoni sxemasi



Yupiterning Galiley kashf etgan eng katta tabiiy yo‘ldoshlari.

Hozirda Yupiterning 67 ta tabiiy yo‘ldoshi aniqlangan bo‘lib, quyosh tizimi sayyoralari orasida bu eng katta ko‘rsatkich hisoblanadi. Yupiter yo‘ldoshlari ikki turkumga – ichki va tashqi yo‘ldoshlarga tasniflanadi. Ulardan eng kattalarini – Io, Gannimed, Yevropa va Kallistoni 1610 yilda Galileo Galiley kashf etgan edi. Bu yo‘ldoshlar va sayyoraga eng yaqin masofadagi Amalteya yo‘ldoshi Yupiter ekvatori tekisligidagi fazoda harakatlanishadi.

Yupiterning eng katta, ya’ni, Galiley yo‘ldoshlari ichida, eng qiziqarlisi bu – Yevropa hisoblanadi. Chunki bu yo‘ldoshda, xuddi yerdagi kabi ulkan ummon mavjud bo‘lib, uning chuqurligi 90 km gacha yetadi. Yevropa ummonining hajmi, Yerdagi dunyo okeani hajmidan ancha katta. Olimlarning fikricha, Yevropadagi ummonda, bir hujayrali organizmlar uchun yetarli darajada hayot sharoiti mavjud bo‘lishi mumkin ekan. Yevropaning sirti qalin muz qatlami va undagi keng yo‘l-yo‘l chiziqlar bilan o‘ziga xosdir.

Io esa, astronomlarni o‘ta faol vulqonlari bilan o‘ziga jalb etadi. Ioda butun quyosh tizimidagi eng faol vulqonlar mavjud bo‘lib, yo‘ldosh sirti, vulqon chiqindi jinslari bilan qoplangan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.



Yupiter Galiley yo'ldoshlarining Yer va Oy bilan taqqoslanishi

Gannimed esa, nafaqat Yupiterdagi, balki, butun quyosh tizimidagi tabiiy yo'ldoshlar ichida eng kattasi hisoblanadi. Uning sirti kraterlar bilan qoplangan va ulkan yoriqlar – daralar mavjud.

Kallistoda ham uning sirti ostida joylashgan ummon borligi taxmin qilinadi. Bunga ayrim ishoratlar mavjud bo'lib, ular orasida, Kallistoning kuchli magnit maydonini biror bir o'ta o'tkazgich suyuqlik hosil qilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Galiley yo'ldoshlarining o'ziga xosligi shundaki, ular, doimo sinxron ravishda, Yupiterga faqat bir tarafi bilan yuzlangan holatda harakatlanishadi. Undan tashqari, bu yo'ldoshlarning o'z sayyorasidan uzoqlashishi tartibida zichligining kamayib borishi ham xarakterli. Masalan, Io — 3,53 g/sm³, Yevropa— 2,99 g/sm³, Gannimed — 1,94 g/sm³, Kallisto esa — 1,83 g/sm³ o'rtacha zichlikka ega. Bu ko'rsatkich, yo'ldoshdagi suv miqdoriga bog'liq bo'lib, masalan Ioda u deyarli yo'q, Yevropada 8%, Gannimed va Kallistoda esa ularning massasining deyarli yarmini tashkil qiladigan miqdorni egallashi ilmiy farazlarda ilgari surilgan.

Yupiterning qolgan yo'ldoshlari ancha kichik o'lchamlarda bo'lib, qoyasimon notekis shakllardagi jismlardir. Kichik yo'ldoshlar ichida eng qiziqarlilari bu Metida va Adrasteya bo'lib, ular radiusi 128 ming kilometrlik orbita bo'ylab, sayyorani 7 soat ichida to'liq aylanib chiqadi va bu Yupiter yo'ldoshlari ichida eng tez aylanadiganlaridir. Yupiter yo'ldoshlarining nomi «e» bilan yakunlanadiganlari, qolganlariga nisbatan teskari yo'nalishda harakatlanishadi. Masalan Ananke, Karme, Sinope va Pasife shunday yo'ldoshlardandir.

Yupiterning barcha yo'ldoshlari tizimining umumiy diametri 124 million km ni tashkil etadi. Olimlarning fikricha uzoq o'tmishda Yupiterning yo'ldoshlari yana ham ko'p bo'lgan bo'lishi mumkin. Ulardan aksariyati ulkan sayyoraning ulkan gravitatsiya ta'sirida sayyora sirtiga qulab tushgan bo'lishi mumkin ekan.

Yupiter ekvator tekisligida sirtidan 50000 km masofada joylashgan siyrak halqasi mavjud. Halqaning eni 1000 km atrofida. Bu halqani 1979 yilda «Voyajer-1» tomonidan aniqlangan.

Yupiterning tabiiy yo'ldoshlari:

№	Tabiiy yo'ldosh nomi	Sayyora sirtidan o'rtacha uzoqligi (ming km.)	Aylanish davri (kun)	Diametri yoki o'lchamlari (km)	Ochilgan yili	Kashf etgan olim
1	Io	421.6	1.77	3680	1610	G.Galiley
2	Yevropa	670.9	3.55	3100	1610	G.Galiley
3	Gannimed	1070	7.16	5300	1610	G.Galiley
4	Kallisto	1880	16.69	4840	1610	G.Galiley
5	Amalteya	181	0.5	140x260	1892	E. Barnard
6	Gimaliya	11470	250.6	120	1904	Ch.Perrayn
7	Elara	11780	260.1	120	1905	Ch.Perrayn
8	Pasifeya	23300	735*	40	1908	F.Melott
9	Sinope	23700	758*	22	1914	S.Nikolson
10	Lisiteya	11710	260	22	1938	S.Nikolson
11	Karme	22350	692*	24	1938	S.Nikolson
12	Ananke	20700	617*	20	1951	S.Nikolson
13	Leda	11100	240	10	1974	Ch.Kouell
14	Metida	127.96	0.29	49	1979	S.Sinott
15	Adrasteya	129.8	0.27	25	1979	D.Danielson
16	Fiva (Teba)	221.9	0.67	110	1980	S.Sinott
17	Femisto	7393216	129.87	8	2000	

* Boshqalarga nisbatan teskari yo'nalishda aylanadi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

18	S/2000 J 11	17144873	287.93	4	2000	
19	Karpo	17144873	458.62	3	2003	
20	S/2003 J 12	17739539	482.69	1	2003	
21	Evporie	19088434	538.78*	2	2002	
22	S/2003 J 3	19621780	561.52	2	2003	
23	S/2003 J 18	19812577	569.73	2	2003	
24	S/2011 J 1	2010100	580.7	1	2011	
25	S/2002 J 2	20307150	588.82	1	2010	
26	Telksinoe	20453753	597.61*	2	2004	
27	Evante	20464854	598.09*	3	2002	
28	Gelike	20540266	601.40*	4	2003	
29	Ortozie	20567971	602.62*	2	2002	
30	Iokaste	20722566	609.43*	5	2001	
31	S/2003 J 16	20743779	610.36*	2	2003	
32	Praksidike	20823948	613.9*	7	2001	
33	Garpalike	21063814	624.54*	4	2001	
34	Mneme	21129786	627.48*	2	2003	
35	Germippe	21182086	629.81*	4	2002	
36	Tione	21405570	639.8*	4	2002	
37	Gerse	22134306	672.75*	2	2003	
38	Etne	22285161	679.64*	3	2002	
39	Kale	22409207	685.32*	2	2002	
40	Taygete	22438648	686.67*	5	2001	
41	S/2003 J 19	22709061	699,12*	2	2003	
42	Xaldene	22713444	699.33*	4	2001	
43	S/2003 J 15	22720999	699.68*	2	2003	
44	S/2003 J 10	22730813	700.13*	2	2003	
45	S/2003 J 23	22739654	700.54*	2	2004	
46	Erinome	22986266	711.96*	3	2001	
47	Ayode	23044175	714.66*	4	2003	
48	Kallixore	23111823	717.81*	2	2003	
49	Kalike	23180773	721.02*	5	2001	
50	Kalliroe	23214986	722.62*	9	2000	
51	Evridome	23230858	723.36*	3	2002	
52	S/2011 J 2	23267000	726.8*	1	2011	
53	Pazife	23307318	726.93*	2	2002	
54	S/2010 J 1	23314335	724.34*	2	2010	
55	Kore	23345093	776.02*	2	2003	
56	Killene	23396269	731.1*	2	2003	
57	Evkelade	23483694	735.2*	4	2003	
58	S/2003 J 4	23570791	739.29*	2	2003	
59	Gegemone	23702511	745.5*	3	2003	
60	Arxe	23717051	746.19*	3	2002	
61	Isonoe	23800647	750.13*	3	2001	
62	S/2003 J 9	23857808	752.84*	1	2003	
63	S/2003 J 5	23973926	758.64*	4	2003	
64	Sponde	24252627	771.6*	2	2002	
65	Avtonoe	24264445	772.17*	4	2002	
66	Megaklite	24687239	792.44*	5	2001	
67	S/2003 J 2	30290846	1077.02*	2	2003	

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Yupiterning orbital ko‘rsatkichlari	
Perigeliy	$7{,}405736 \cdot 10^8$ km; 4,950429 a.b.
Afeliy	$8{,}165208 \cdot 10^8$ km; 5,458104 a.b.
Katta yarim o‘q (***α***)	$7{,}785472 \cdot 10^8$ km; 5,204267 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,048775;
Siderik aylanish davri	4332,589 kun; 11,8618 yil
Sinodik aylanish davri	398,88 kun;
Orbital tezligi (***v***)	13,07 km/soniya;
Peritsentr argumenti	275,066°
Yo‘ldoshlari	67
Og‘ishi	1,03° ekliptikaga nisbatan; 6,09° quyosh ekvatoriga nisbatan.
Yupiterning fizik ko‘rsatkichlari	
O‘rtacha radiusi	69 911 ± 6 km;
Ekvatorial radiusi	71 492 ± 4 km;
Qutb radiusi	66 854 ± 10 km;
Sirt yuzasi	$6{,}21796 \cdot 10^{10}$
Hajmi (***V***)	$1{,}43128 \cdot 10^{15}$ km³;
Massasi (***m***)	$1{,}8986 \cdot 10^{27}$ kg;
O‘rtacha zichligi (***ρ***)	1,326 gr/sm³
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	24,79 m/soniya² ; (2,535 g)
Sirtidagi ikkinchi kosmik tezlik	59,5 km/soniya;
Ekvatorial aylanish tezligi	12,6 km/soniya; 45 300 km/soat;
Aylanish davri (***T***)	9,925 soat.
O‘qining og‘ish burchagi	3,13°
Albedo	0,343 bond ; 0,52 geometrik albedo.
Ko‘rinadigan yulduz kattaligi	−4.7
Sirtidagi o‘rtacha harorat	737 K (464°C)
Atmosfera bosimi	9.2 MPa (92 bar)
Yupiter atmosferasi tarkibi:	
Atmosfera bosimi	20-220 kPa;
Balandlik shkalasi	27 km;
Vodorod (H_2)	89,8±2,0 %
Geliy (He)	10,2±2,0 %
Metan (CH_4)	~0,3 %
Ammoniy (NH_4^+)	~0,026 %
Vodorod deyterid (HD)	~0,003 %
Etan (CH_3—CH_3)	0,0006 %
Suv	0,0004 %
Shuningdek muzlagan holatdagi, ammoniy, suv, ammoniy gidrosulfidi (NH_4SH) aniqlangan.	

SATURN ♄



Saturn Quyosh tizimidagi sayyoralar ichida kattaligi bo‘yicha ikkinchi, Quyoshdan uzoqlashish tartibida oltinchi sayyora bo‘lib, Quyosh atrofida to‘liq aylanib chiqish davri 29.46 yil ni tashkil qiladi. Bu sayyora, quyosh tizimidagi qurollanmagan ko‘z bilan ham ko‘rib bo‘ladigan 5 ta sayyoraning biri bo‘lib, uning ko‘rinadigan yulduz kattaligi birinchi yulduz kattaligidan ham yorqinroqdir. Garchi ekvatorial diametri Yupiternikidan ozgina kichik bo‘lsa hamki, massasiga ko‘ra Yupiterdan ancha farq qiladi – deyarli uch barobar. O‘rtacha zichligi juda kichik – 0.7 gr/sm^3. Kichik zichlik shu bilan izohlanadiki, bu gigant sayyora asosan vodorod va geliydan tashkil topgan bo‘lib gaz gigantlari turkumiga kiradi. Lekin uning sirtidagi bosim ham Yupiterdagidek katta emas. Saturnning ekvatorial radiusi 60300 km, qutb radiusi esa 54400 km ni tashkil qiladi. Uning massasi Yernikidan deyarli 95 marta katta, lekin uning o‘rtacha zichligi esa, 0.69 g/sm^3 bo‘lib, quyosh tizimi sayyoralari ichidagi, o‘rtacha zichligi, suvning o‘rtacha zichligidan kichik bo‘lgan yagona sayyoradir. Sirtidagi erkin tushish tezlanishi 10.44 m/soniya^2. Saturn quyosh atrofida 29.5 yilda bir marta to‘liq aylanib chiqadi. Undan quyoshgacha bo‘lgan masofa 1430 million km, yoki, 9.58 a.b. ni tashkil qiladi. Orbita bo‘ylab aylanish tezligi 9.69 km/soniya.

Spektral tahlil yordamida Saturn atmosferasida bir necha xil molekulalar aniqlandi. Saturn bulutlari aftidan sayyoradagi eng qattiq jismlar bo‘lsa kerak. Saturndagi atmosferada metan gazi erish haroratiga yaqin −184 °C sharoitda bo‘ladi. Saturn atmosferasi 96,3 % vodorod va 3,25 % geliydan iborat. Bundan tashqari etan, fosfen, ammiak va boshqa gazlarning aralashmalari aniqlangan. Saturn atmosferasining yuqori qatlamlari kuchli ammiak bulutlaridan iborat. Quyi atmosfera qatlamlarida esa ammoniy gidrosulfid (NH_4SH) bulutlari aniqlangan. Saturn atmosferasida tezligi 500 m/soniyagacha yetadigan kuchli dovullar esishi qayd etilgan. Saturnda ham Yupiterdagidek o‘ziga xos, ko‘zga darhol tashlanadigan tashqi dog‘lar kuzatiladi. Ulardan biri ulkan oq oval har 30 yilda bir marta paydo bo‘ladi.

Saturnda ham magnitosfera mavjud ekanligini ilk marta 1979 yilda «Pioner-11» fazoviy apparati orqali kashf etilgan edi. Saturn magnit maydoni va Quyosh shamoli uchrashadigan chegara Saturndan 20 radius masofada joylashgan.



Saturn, uning halqasi va sayyoraning Yer bilan taqqoslanishi.

Teleskop orqali kuzatilganda dastlab ko‘zga tashlanadigan yaqqol manzara Saturn ekvatori bo‘ylab uni o‘rab turgan halqa bo‘lib, undan tashqari, xiraroq rangdor dog‘larni ham ko‘rish mumkin. Saturn halqasini 1610 yilda Galileo Galiley kashf qilgan edi. Bu Quyosh tizimidagi eng hayratlanarli hodisalardan biri bo‘lib, halqa Saturnni butun ekvator tekisligi bo‘yicha qurshab olgan va sayyora sirtiga umuman yaqin kelmaydi. Saturn halqasi, oraliqlarini fazo bo‘shlig‘i ajratib turuvchi bir necha konsentrik halqalardan iborat. Ularni lotin alifbosidagi harflar bilan belgilanadi. Sayyora sirtidan eng chetki bo‘lgan tashqi – A halqa, ikkinchi va eng yorqin B halqa, ichki halqa – C, hamda, Saturn sirtiga eng yaqini, va undan alohida holatda ko‘rish mushkul bo‘lgan D halqalardan iborat. Shuningdek, deyarli shaffof bo‘lgan D′ halqa ham aniqlangan. Saturnning barcha halqalari sayyora atrofida aylanadi. Ichki halqalar tashqi halqalardan ko‘ra kattaroq tezlik bilan aylanishi ma’lum. Halqalar tekisligi Saturn ekvatori tekisligiga nisbatan deyarli mos keladi va orbita tekisligiga esa 27° burchak ostida og‘ish bilan, doimiy ravishda sayyora gravitatsiyasi ta’sirida turadi. Ular asosan 1-3 sm o‘lchamdagi son

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.



Saturnning tabiiy yo'ldoshlari. O'rtada Enselad, o'ngda yirik planda Reya va uning ortidan Mimas ko'rinmoqda. «Kassini» kosmik zondi 2011 yilda olgan fototasvir

sanoqsiz mayda tabiiy yo'ldoshlardir. Zamonaviy ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, halqalarning kengligi 3.5 km atrofida. Halqalarning umumiy tashqi diametri 275 000 kilometrni tashkil qiladi.

Saturnning tabiiy yo'ldoshlari mavjudligi haqida 1609 yilda dastlabki bo'lib uni teleskop orqali kuzatgan Galileo Galiley fikr yuritgan edi. Uning kuzatishlarida Saturn yagona yaxlit osmon jismi emas, balki o'zaro tutashgan jismlardek taassurot uyg'otganini yozadi. Lekin Galileyning o'zi Saturnning yo'ldoshlarini topa olmadi. 1659 yilda Xristian Gyugens yanada kuchliroq teleskop yordamida, Galiley kuzatgan hodisa aslida Saturnning halqalari ekanligini aniqlaydi. Shu yilning o'zida u Saturnning eng yirik tabiiy yo'ldoshi – Titanni ham kashf etdi. 1675 yildan boshlab Kassini ham Saturnni jiddiy o'rganishga kirishdi. U Saturn halqasi yaxlit bo'lmay, balki o'zaro bir-biridan aniq ajralib turuvchi alohida halqalardan iborat ekanligini aniqladi. Shuningdek Kassini Yapet, Tefiya, Diona va Reya tabiiy yo'ldoshlarini kashf qildi. 1789 yilda U.Gershel Saturnning yana ikkita tabiiy yo'ldoshini aniqladi – Mimas va Enselad. Keyinchalik Britaniyalik bir guruh olimlar tomonidan Giperion kashf etildi. 1899 yilda esa, Uilyam Pikering yana bir tabiiy yo'ldosh – Febani kashf qildi. Febaning o'ziga xosligi shunda ediki, u Saturn bo'ylab, sinxron aylanmasdan balki 500 kundan ziyod muddatda, teskari yo'nalishda harakatlanadi. 1944 yilda Jerard Koyper Saturnning tabiiy yo'ldoshi – Titanda atmosfera mavjudligini aniqladi. Bu Quyosh tizimidagi tabiiy yo'ldoshlar orasida atmosferaga ega bo'lgan yagona va noyob yo'ldosh hisoblanadi. XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida Saturnga yetib borgan kosmik apparatlar yordamida ushbu gaz gigantining yana bir necha o'nlab tabiiy yo'ldoshlari aniqlandi. 2009 yilda sayyoraga eng yaqin tabiiy yo'ldosh, diametri 300 metrlik S/2009 S-1, halqaga tashlagan soyasi orqali sezib qolindi. 2013 yilda Saturnning hozircha so'nggi tabiiy yo'ldoshi – Egeon tasnifga kiritildi. U 2008 yilda «Kassini» fazoviy apparatini tomonidan G halqasini o'rganish vaqtida kashf etilgan edi. Keyinchalik uni ancha avvalgi tasvirlarda ham mavjud bo'lib, faqat nazardan chetda qolganligi qayd etildi.

Hozirgi kunda Saturnning jami 62 ta tabiiy yo'ldoshi ma'lum.

Saturnning tabiiy yo'ldoshlari:

№	Tabiiy yo'ldosh nomi	Sayyora sirtidan o'rtacha uzoqligi	Aylanish davri (kun)	Diametri yoki o'lchamlari (km)	Ochilgan yili	Kashf etgan olim
1	Mimas	185600	0.94	500	1789	U. Gershel
2	Enselad	238100	1.37	600	1789	U. Gershel
3	Tetis (Tefiya)	294700	1.89	1000	1684	J. Kassini
4	Diona	377400	2.74	800	1684	J. Kassini
5	Reya	527100	4.52	1500	1672	J. Kassini
6	Titan	1221900	15.95	5500	1655	X. Gyugens
7	Giperion	1464100	21.28	400	1848	J. Bond
8	Yapet	3560800	79.33	1500	1671	J. Kassini
9	Feba	12944100	550.4*	300	1899	U. Pikering
10	Yanus	151500	0.75	350	1966	O. Dolfyus
11	Atlas	137670	0.6	49	1980	R. Terril
12	Prometey	139400	0.61	140	1980	Kollins
13	Pandorra	141700	0.63	110	1980	Kollins
14	Epimetey	151430	0.69	140	1980	Fauten
15	Telesto	294660	1.89	24	1980	Rentsema

* Boshqalarga nisbatan teskari yo'nalishda aylanadi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

16	Kallipso	294700	1.89	30	1980	Paku
17	Yelena	377400	2.74	36	1980	J. Lekasho
18	Pan	133600	0.57	20	1990	
19	Imir	23040000	1315.4	18	2000	
20	Piliak	15200000	686.9	22	2000	
21	Tarvos	17983000	926.2	15	2000	
22	Idjirak	11124000	451.4	12	2000	
23	Suttung	19459000	1017	7	2000	
24	Kiviok	11111000	449.2	16	2000	
25	Mundilfari	18685000	952.6	7	2000	
26	Albioriks	16182000	738.5	32	2000	
27	Skadi	15541000	728.2	8	2000	
28	Erripo	17343000	871.2	10	2000	
29	Siarnak	17531000	895.6	40	2000	
30	Tryum	20474000	1094	7	2000	
31	Narvi	19007000	1004	7	2003	
32	Metona	194000	1.010	3	2004	
33	Pallena	211000	1.140	4	2004	
34	Polidevk	377400	2.740	4	2004	
35	Dafnis	136500	0.594	7	2005	
36	Egir	20735000	1116.5	6	2004	
37	Befind	17119000	834.8	6	2004	
38	Bergelmir	19338000	1006	6	2004	
39	Bestla	20129000	1084	7	2004	
40	Farbauti	20390000	1086	5	2004	
41	Fenrir	22453000	1260	4	2004	
42	Fornot	25108000	1490.9	6	2004	
43	Xati	19856000	1039	6	2004	
44	Girokkin	18437000	932	8	2006	
45	Kari	22118000	1233.6	7	2006	
46	Logi	23065000	1312.0	6	2006	
47	Skoll	17665000	878.3	6	2006	
48	Surt	22707000	1297.7	6	2006	
49	Anfa	197700	1.037	2	2007	
50	Yarnaksa	18600000	942	6	2006	
51	Greyp	18105000	905	6	2006	
52	Tarkek	17920000	895	7	2007	
53	Egeon	167500	0.80812	0.5	2008	
54	S/2004 S 7	19800000	1103	6	2005	
55	S/2004 S 12	19650000	1048	5	2005	
56	S/2004 S 13	18450000	906	6	2005	
57	S/2004 S 17	18600000	986	4	2005	
58	S/2006 S 1	18981000	970	6	2005	
59	S/2006 S 3	21132000	1142	6	2006	
60	S/2007 S 2	16560000	800	6	2007	
61	S/2007 S 3	20518500	1100	5	2007	
62	S/2009 S 1	117000		0.3	2009	

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Saturnning orbital ko‘rsatkichlari	
Perigeliy	1 353 572 956 km; 9,048 a.b.
Afeliy	1 513 325 783 km; 10,116 a.b.
Katta yarim o‘q (***α***)	1 433 449 370 km; 9,582 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,055 723 219;
Siderik aylanish davri	10 759,22 kun; 29.46 yil.
Sinodik aylanish davri	378,09 kun;
Orbital tezligi (***v***)	9.69 km/soniya
Peritsentr argumenti	336,013 862°
Og‘ishi	2,485 240°
Yo‘ldoshlari	62
Saturnning fizik ko‘rsatkichlari	
Ekvatorial radiusi	60 268 ± 4 km;
Qutb radiusi	54 364 ± 10 km;
Sirt yuzasi (***S***)	$4{,}27 \cdot 10^{10}$ km^2 ;
Hajmi (***V***)	$8{,}2713 \cdot 10^{14}$ km^3;
Massasi (***m***)	$5{,}6846 \cdot 10^{26}$ kg; 95 yer massasi
O‘rtacha zichligi (***ρ***)	0.687 g/sm^3;
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	10.44 m/soniya^2;
O‘qining og‘ish burchagi	26.73°
Albedo	0,342 bond; 0,47 geometrik albedo
Ekvatorial aylanish tezligi	9.87 km/soat
Sirtidagi ikkinchi kosmik tezlik	35.5 km/soniya;
Ko‘rinadigan yulduz kattaligi	+1.47 dan −0.24 gacha
Sirtidagi harorat	1 bar sathda 134 K 0.1 bar sathda 84 K
Saturn atmosferasi tarkibi:	
Vodorod (H_2)	~96 %
Geliy (He)	~3 %
Metan (CH_4)	~0,4 %
Ammiak (NH_3)	~0,01 %
Vodorod deyterid (HD)	~0,01 %
Etan	0,000 7 %
Shuningdek muzlagan holatdagi, ammoniy, suv, ammoniy gidrosulfidi (NH_4SH) aniqlangan.	



Saturn yaqinidan turib olingan Yer sayyorasining fototasviri. «Kassini» fazoviy apparati 26-iyul, 2013 yil.

URAN - ♅



Uran – Quyosh tizimidagi tartib bo‘yicha yettinchi, hajmi bo‘yicha esa Yupiter va Saturndan keyingi uchinchi sayyoradir. Uran sayyorasini tungi osmonda qurollanmagan ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi va shu tufayli uzoq asrlar davomida mazkur sayyora haqida odamlar bilishmagan. Uranni 13-mart, 1781 yilda ingliz astronomi Uilyam Gershel kashf etdi. Gershelning kashfiyotiga qadar ham Uranni boshqa olimlar ham kuzatishgani ma’lum, lekin ular har safar bu sayyorani oddiy yulduz sifatida qabul qilaverishgan. Masalan, uni 1690 yilda Jon Felmstid 6 marta kuzatib, biroq uni Buzoq yulduz turkumiga mansub 34-yulduz sifatida qayd etadi. 1750-1769 yillar orasida farang astronomi Pyer Sharl le Monyer ham Uranni 12 marta kuzatib, baribir uni yulduz sifatida qabul qiladi. Umuman olganda Gershelgacha bo‘lgan vaqtda Uran 21 marta astronomlarning teleskopi obyektivida namoyon bo‘lgan. biroq uning Quyosh tizimidagi tartib bo‘yicha yettinchi sayyora ekanligini aynan Uilyam Gershel hammadan avval fahmladi.

O‘sha vaqtlarda Gershel yulduzlar parallaksini aniqlash uchun olib borilayotgan umumiy kuzatuvlarda ishtirok etayotgan edi. Buning uchun u o‘z konstruksiyasi asosida maxsus teleskop yasab, Buyuk Britaniyaning Bat shahridagi «Nyu King strit» ko‘chasi, №19-uyda joylashgan o‘z hovlisidagi bog‘da doimiy kuzatish olib borar edi. 13-mart 1781 yilda u Uranni ilk marta ko‘rishga muvaffaq bo‘ldi. biroq bu haqda Gershel faqat bir yarim oydan keyin – 26 may kuni ma’lum qildi. Dastlabki ma’lumotlarida Gershel ham Uranni avvaliga kometa deb o‘ylagan. Biroq 17-martdagi kuzatish natijasiga ko‘ra, «kometa» (ya’ni, Uran) o‘z vaziyatini o‘zgartirgan edi. Gershel teleskop linzasining optik kuchini o‘zgartirib ko‘rish orqali, uning haqiqatan ham yulduz emas, balki kometa ekanligiga ishonch hosil qildi. Biroq keyingi kuzatuvlardan keyin, kometaning na dumi na kallasi yo‘qligi, kometa esa dum va kallasiz bo‘lmasligini e’tirof etib, demak bu osmon jismi, quyosh atrofida aylanuvchi sayyora ekanligiga amin bo‘ldi. Bu haqda Qirollik Jamiyatiga bergan axborotida Gershel Yevropaning boshqa astronomlarining kuzatishlari natijasini ham ilova qilib o‘tib, o‘zi ochgan osmon jismi, xuddi Yer, Mars va boshqa ma’lum sayyoralar singari, Quyosh atrofida aylanishi, ya’ni u Quyosh tizimining yettinchi sayyorasi ekanligini bayon qildi. Qirol Georg III, buyuk astronomning ulkan kashfiyotini munosib mukofotladi va unga umrining oxirigacha har oyda 200 funt-sterling nafaqa tayinladi. Bunga javoban Gershel, yangi ochilgan sayyorani qirol Georg III sharfiga, Georg III sayyorasi deb nomlash taklifini ilgari surdi. Boshqa bir astronom, Fransiyalik J. Laland bu sayyorani, uni ochgan inson sharafiga Gershel sayyorasi deb nomlashni ham taklif etdi. Uran nomini esa olmon astronomi Iogann Bode taklif qilgan bo‘lib, u qadimgi an’ana – sayyoralar nomini afsonaviy ma’budlar nomi bilan bog‘lab atashni davom ettirishni ilgari surdi. Uran qadimgi yunon afsonalaridagi osmon ma’budi bo‘lib, Bode o‘rtaga tashlagan mantiqqa ko‘ra, Saturn – Yupiterning otasi bo‘lsa, demak, yangi sayyorani Saturnning otasi nomi bilan bog‘lash kerak edi. Bu sayyoraning nomi Uran sifatida rasman qayd etilishi 1823 yildan boshlangan bo‘lsa-da, biroq, «Georg» va «Gershel» nomlari amalda yana 70 yilgacha qo‘llanilib keldi. Sayyorani Uran deb nomlanishini oxir oqibat, «Qirollik Dengiz Solnomasi» nashriyotining 1850 yildagi nashrlarida aynan Uran nomi bilan atalishi orqali rasmiy hujjatlarda mustahkamlandi. Nomlanishiga ko‘ra Uran, sayyorlar ichidagi, nomi qadimgi Rim afsonalaridan emas, balki yunon afsonalaridan kelib chiqqan yagona sayyoradir.

Uran – gigant sayyoralar turkumiga mansub. Uning diametri Yernikidan 4 barobar katta: 53000 km. Quyoshdan uzoqligi 19.1914 a.b. (2.8 milliard km).

Uran sirtiga oid biror bir ma’lumot olish juda mushkul. Sababi teleskop kuzatuv maydoniga nisbatan sayyoraning kuzatuv burchak o‘lchamlari juda kichik. Shu tufayli Uranning tadqiq qilish ishlari murakkab bo‘lib, shu jumladan, aylanish qonuniyatlari ham to‘la o‘rganilgan emas. Bu sayyora yerga nisbatan 14,5 marta og‘irroq. Uning ko‘rinadigan yulduz kattaligi $+5{,}6^m$ dan $+5{,}9^m$ gacha o‘zgarib turadi. Bu qurollanmagan ko‘z uchun chegaraviy qiymat (taxminan $+6^m$) ga yaqin bo‘lib, ochiq tungi osmonda ham uni teleskopsiz ko‘rish o‘ta mushkul. Uranni qurollanmagan ko‘z bilan ko‘rish faqat buyuk qarama-qarshilik vaqtlaridagina imkonli bo‘ladi.

Uranning ekvator tekisligining orbita tekisligiga nisbatan og‘ishi 97,86°, ya’ni sayyora retrograd ravishda – boshqa barcha sayyoralardan farqli ravishda o‘z o‘qi atrofida sharqdan g‘arbga emas, balki, shimoldan janubga qarab aylanadi. Bunday g‘ayrioddiy ekvator qiyaligi yoritilishning ham g‘aroyib sharoitlarini keltirib chiqaradi. Ma’lum mavsumlarda Quyosh nurlari qutblarga tik tushadi. Qutb tuni va qutb kuni esa, sayyoraning tor ekvator hududidan tashqari deyarli barcha qismini butunlay qoplaydi. Uran Quyosh atrofida 84 yilda bir marta to‘liq aylanib chiqadi. Undagi qutb kuni va tuni roppa-rosa 42 yildan davom etadi. Faqat ekvator tekisligidagina Quyosh Uranning o‘z o‘qi atrofida aylanishiga mutanosib davriy ravishda chiqib, botib turadi. Uranning Quyosh zenitda turgan qismlarida ham harorat -215°C (bu ko‘rinadigan Uran bulutlarining harorati) ni tashkil qiladi. Uran qutblaridan biriga 42 yil Quyosh nurlari tik tushishini inobatga olsak, Uranning qutblari, ekvatoridan ko‘ra ko‘proq energiya qabul qilishi kerak bo‘ladi, biroq, amaliy kuzatuvlarda uranning ekvatorial hududlari baribir qutblaridan ko‘ra iliqroq ekan. Bunday hodisani keltirib chiqish sababi hozircha ma’lum emas.

Sayyora atmosferasida, bilvosita belgilarga ko‘ra, molekulyar vodorod (83±3%) va geliy (15±3%) juda ko‘p miqdorni tashkil qiladi. Shuningdek Uran atmosferasida metan taxminan 2.3% bo‘lib, undan tashqari, ammiak, suv bug‘lari va oltingugurt – vodorod birikmalarining o‘ta kam miqdorlari aniqlangan. Uran atmosferasining yuqori qatlamlarida metilatsetilen (CH_3C_2H), diatsitilen (C_2HC_2H) hamda etan (C_2H_6) qoldiqlari mavjud ekan.

Uranning o‘rtacha zichligi, Saturn va Yupiternikidan kattaroq: 1.58 gr/sm^3. Olimlar buning sababi sifatida Uran yadrosida o‘g‘ir elementlar markazlashganligidan degan taxminni ilgari surmoqdalar.

Uranning yana bir ajoyib xususiyatlaridan biri, 1977 yilda kashf etilgan halqalaridir. Bu sayyoraning halqalari mavjud ekanligi Uilyam Gershelning 1789 yilga oid qaydlarida ham mavjud edi, biroq, keyingi avlod astronomlaridan birortasi qaytib Uran halqalarini ko‘rishmagan. Lekin, 1977 yilning 10-mart kuni AQSHlik bir guruh astronomlar, Uran atmosferasini o‘rganish maqsadida, uni SAO 158687 yulduzi qoplab oladigan vaqtni poylash asnosida tasodifan kashf etishgan. O‘shanda Uranning 9 ta halqasi borligi aniqlangan edi. Voyajer-2 ning Uranga yaqinlashgan vaqtida yerga yuborgan fotosuratlari orqali, Uranning yana ikkita halqasi ochilgan bo‘lib, 2005 yilda esa, «Xabbl» fazoviy teleskopi yordamida yana 2 ta avval ma’lum bo‘lmagan halqalar topildi. Shunday qilib, hozirgacha bu gigant sayyorani o‘rab turgan 13 ta halqalar tizimi fanga ma’lum.

Urannning halqalar tizimi. Eng chetdagi eng yorqin halqa – ε halqasi.

Uran halqalari qoramtir jismlar tashkil qiladi va u Saturn halqalaridan farqli ravishda, juda ham ingichka. Uran halqasi faqat sayyora ortidagi yulduzlar ravshanligini kuchli so‘ndirilganda ko‘rish mumkin. Chunki uning tashkil qiluvchi jismlar yorug‘likni o‘zida deyarli akslantirmaydi. Halqa sayyora sirtidan 1.6 – 1.85 Uran radiusi masofasida harakatlanadi.

Uran o‘ziga xos bo‘lgan magnitosferaga ega. Sayyoraga Voyajer-2 yetib borguniga qadar, uning magnitosferasi haqida hech qanday ma’lumotlar mavjud emas edi. 1986 yilda olingan ma’lumotlar asosida olib borilgan tahlillarga ko‘ra, Uran magnitosferasi uning aylanish o‘qiga nisbatan 59° burchak ostida joylashgan ekan. Amalda magnit dipoli sayyora markazidan janubiy qutb tomonga 1/3 Uran radiusi masofasida joylashgan. Bunday g‘ayrioddiy geometriyaga ko‘ra, sayyora magnit maydonining kuchlanganligi o‘ta asimmetrik bo‘lib, u janubiy yarim sharda 0.1 Gauss, shimolda esa 1.1 Gaussga tenglashadi.

Uran butun quyosh tizimidagi sayyoralar ichida eng sovuq iqlimga ega. U hatto o‘zidan keyingi Neptun va Plutondan ham sovuqroq. Bunday iqlim sharoitining sababi sifatida, sayyoraning nisbatan kam ichki issiqlikka ega ekanligi ko‘rsatiladi. Uran atmosferasi tropopauzasida 49 K (–224 °C) harorat qayd etilgan va bu barcha sayyoralar ichida rekord past ko‘rsatkichdir.

Uran ham Saturn va Yupiter singari ko‘p sonli tabiiy yo‘ldoshlar tizimiga ega. Hozirgacha Uranning 27 ta tabiiy yo‘ldoshi aniqlangan. An’anaga ko‘ra, Uran yo‘ldoshlariga Shekspir va Aleksandr Poup asarlari qahramonlari nomi berish qabul qilingan. Ulardan dastlabki ikkitasi – Titaniya va Oberonni Uran kashfiyotchisining o‘zi – Uilyam Gershel 11-yanvar, 1787 yilda ochgan edi. Yana ikkitasi – Ariel va Umbrielni 1851 yilda Uilyam Lassel kashf etgan. Bu vaqtda Uran yo‘ldoshlariga hali nom berilmagan edi. Ular sayyoradan uzoqlashish tartibida rim raqamlari bilan Uran I ÷ Uran IV tarzida ifodalanar edi. Lassel

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

kashfiyotlaridan keyin, 1852 yili Uilyam Gershelning og'li Jon Gershel o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan Uranning 4-ta tabiiy yo'ldoshga nom berdi. Mirandani esa 1948 yilda Jerard Koyper kashf etgan bo'lib, qolgan yo'ldoshlarni 1985 yildan keyin, unga Voyajer-2 yaqinlashgandan so'ng va yerdagi kuchli teleskoplardan foydalanilib ochilgan. Masalan 1986 yilda Voyajer-2 yuborgan tasvirlar asosida Uranning 10 ta yangi tabiiy yo'ldoshlari aniqlandi. 1997 yilda esa sayyoradan ancha olisda harakatlanadigan yana 9 ta tabiiy yo'ldoshlari topildi. 2001 yilda, Voyajer-2 yuborgan fotosuratlarni qayta tahlil qilish jarayonida, ilgari nazardan chetda qolgan yana bir tabiiy yo'ldosh – Perdita kashf etildi. Xabbl teleskopi yordamida esa 2003 yili yana ikkita kichik yo'ldosh – Kupidon va Mab aniqlangan bo'lsa, 2003 yilning o'zida, Uranning hozirgacha ma'lum tabiiy yo'ldoshlaridan oxirgisi – Margarita qayd etildi.

Uranning tabiiy yo'ldoshlari:

№	Tabiiy yo'ldosh nomi	Sayyora sirtidan o'rtacha uzoqligi (ming km.)	Aylanish davri (kun)	Diametri yoki o'lchamlari (km)	Ochilgan yili	Kashf etgan olim / kosmik apparat
1	Ariel	192	2.52	1157±1	1851	U.Lassell
2	Umbriel	267	4.14	1169±5	1851	U.Lassell
3	Titaniya	438	8.71	1577±3	1787	U.Gershell
4	Oberon	586	13.46	1522±5	1787	U.Gershell
5	Miranda	130	1.41	471.6	1948	J. Koyper
6	Kordeliya	49.75	0.33	42±6	1986	Voyajer-2
7	Ofeliya	53.77	0.38	46±8	1986	Voyajer-2
8	Bianka	59.16	0.44	54±4	1986	Voyajer-2
9	Kressida	61.77	0.46	82±4	1986	Voyajer-2
10	Dezdemona	62.65	0.47	68±8	1986	Voyajer-2
11	Julyetta	64.63	0.49	106±8	1986	Voyajer-2
12	Portsiya	66.10	0.51	140±8	1986	Voyajer-2
13	Rozalinda	69.93	0.56	72±12	1986	Voyajer-2
14	Belinda	75.33	0.62	90±16	1986	Voyajer-2
15	Pek	86	0.76	162±4	1985	Voyajer-2
16	Kupidon	74.8	0.618	~18	2003	Xabbl
17	Perdita	76.4	0.63	30±6	1986/2001	Voyajer-2
18	Mab	97.7	0.92	~25	2003	Xabbl
19	Fransisko	427.6	267.12**	~12	2001	
20	Kaliban	723.1	579.39**	~98	1997	
21	Stefano	800.4	677.48**	~20	1999	
22	Trinkulo	850.4	748.83**	~10	2001	
23	Sikoraksa	1217.9	1285.62**	~190	1997	
24	Margarita	1434.5	1654.32	~11	2003	
25	Prospero	1625.6	1962.95**	~30	1999	
26	Setebos	1741.8	2196.35**	~30	1999	
27	Ferdinand	2090.1	2805.51**	~12	2001	

** Teskari yo'nalishda aylanuvchi tabiiy yo'ldoshlar.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Uranning eng yirik tabiiy yo‘ldoshlai. Chapdan: Miranda, Ariel, Umbriel, Titaniya, Oberon.

Kashf etilishi	
Kashf etgan olim	Uilyam Gershel
Kashf etilgan joy	Bat shahri, Buyuk Britaniya.
Kashf etilgan sana	13-mart, 1781 yil
Kashf etish usuli	To‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatuv
Uranning orbital ko‘rsatkichlari	
Perigeliy	2 748 938 46 km; 18,375 518 63 a.b.
Afeliy	3 004 419 704 km; 20,083 305 26 a.b.
Katta yarim o‘q (***α***)	2 876 679 082 km; 19,229 411 95 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,044 405 586;
Siderik aylanish davri	30 685,4 kun; 84.01 yil.
Sinodik aylanish davri	369,66 kun;
Orbital tezligi (***v***)	6,81 km/soniya;
Peritsentr argumenti	96,541318°
Og‘ishi	0,772556°
Yo‘ldoshlari	27
Uranning fizik ko‘rsatkichlari	
Ekvatorial radiusi	25 559 km;
Qutb radiusi	24 973 km;
Sirt yuzasi (***S***)	$8{,}1156 \cdot 10^9$ km^2 ;
Hajmi (***V***)	$6{,}833 \cdot 10^{13}$ km^3;
Massasi (***m***)	$8{,}6832 \cdot 10^{25}$ kg; 14.6 yer massasi
O‘rtacha zichligi (***ρ***)	1,27 g/sm^3;
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	8,87 m/soniya^2;
O‘qining og‘ish burchagi	97,77°
Albedo	0,300 bond; 0,51 geometrik albedo
Ekvatorial aylanish tezligi	2,59 km/soniya
Sirtidagi ikkinchi kosmik tezlik	21,3 km/soniya;
Ko‘rinadigan yulduz kattaligi	+5.9 dan +5.32 gacha
Sirtidagi harorat	1 bar sathda 76 K 0.1 bar sathda 49 K
Uran atmosferasi tarkibi:	
Vodorod (H_2)	83±3 %
Geliy (He)	15±3 %
Metan (CH_4)	2,3 %
Shuningdek muzlagan holatdagi, ammiak, suv, ammoniy gidrosulfidi (NH_4SH), aniqlangan.	

NEPTUN - Ψ



Neptunning "Voyadjer-2" olgan fotosurati. 25 avgust 1989 yil.

Neptun – Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha sakkizinchi, massasi bo‘yicha uchinchi (17.2 Yer massasi), diametri bo‘yicha esa to‘rtinchi (3.9 Yer diametri) o‘rinda turuvchi sayyora. 2006 yildan e’tiboran, Quyosh tizimining eng olis sayyorasi hisoblanmoqda. U noodatiy tarzda kashf etilgan. Galileyning qo‘lyozmalaridagi tasvirlarga qaraganda, Neptunni birinchi bo‘lib aynan Galileo Galiley kuzatgan bo‘lishi ehtimoli katta. Lekin u Neptunni sayyora ekanligini xayoliga ham keltirmagan, aksincha uni, Yupiter ortidagi qo‘zg‘almas yulduzlardan biri deb o‘ylagan. Galiley kuzatishlar olib borgan 1612 yilning dekabrida, Neptun orqaga tisarilgandek harakat boshlagan, bunday harakat, Yerning o‘z orbital harakati natijasida tashqi sayyoralarni quvib o‘tganida kuzatiladi. Lekin, uning harakati Galileyning kuchsiz teleskopi seza olishi uchun yetarli darajada bo‘lmagan. Shu tufayli Galiley Neptunni ochgan ilk olim deb hisoblanmaydi.

Oradan 169 yil vaqt o‘tib Uilyam Gershel Uran sayyorasini kashf qildi. 1821 yilda esa Aleksis Buvar Uranning orbital harakati jadvallarini ishlab chiqdi va chop ettirdi. Buvar jadvallari Yevropa astronomlari orasida keng tarqaldi. Astronomik kuzatuvlarda ulardan foydalanish ko‘lami ortdi. Biroq, ko‘p o‘tmay Buvar jadvallariga nisbatan shubha paydo bo‘la boshladi. Uran, Buvar hisoblagan trayektoriyadan og‘ib, anomal harakat qilayotganligi aniqlandi. Xususan ingliz astronomi T.Xassi o‘zining kuzatishlarida Uranning belgilangan orbitadan og‘ayotganini aniq hisoblab chiqardi. Xassi 1834 yilda Parijda, Buvar rasadxonasida mehmon bo‘ldi va Uran orbitasidagi anomaliyalarni muhokama qildi. Buvar Xassining mazkur anomaliyalarni Urandan ham keyinroqda joylashgan sakkizinchi sayyoraning gravitatsion ta’siri natijasi bo‘lsa kerak degan farazini qabul qildi va jadvallarni, anomal o‘zgarishlar asosida muvofiqlashtirib chiqdi. Bu vaqtlarda Neptunni ko‘ra oladigan kuchli teleskoplar mavjud bo‘lmagan. Shuning uchun Neptun harakati qonuniyatlarini va uning fizik parametrlarini Uranga qilayotgan gravitatsion ta’siri qiymatlaridan kelib chiqib, toza matematik yo‘l bilan hisob-kitob qilish zarur edi. Bunday favqulodda mushkul matematik masalani Buvar va Xassi ilgari surgan sakkizinchi sayyora haqidagi g‘oya paydo bo‘lgach, oradan 9 yil o‘tib, 1843 yilda ingliz astronomi Jon Kuch Adams, va farang astronomi Urban Leverye bir-biridan mustaqil ravishda hal qilishdi. Ular Uran orbitasi anomaliyalari asosida sakkizinchi sayyoraning fazodagi taxminiy joylashuv nuqtasini sof matematik usulda hisoblab chiqarishdi.

Leveryening hisob-kitoblariga tayangan holda, Berlin rasadxonasi mutaxassisi I.Galle va uning talaba-shogirdi Genrix d’Arre tomonidan 1846 yilning 23 sentyabr kuni Neptun sayyorasini avvaldan taxmin qilingan joyda kuzatishga muvaffaq bo‘ldi. Ular taxminan 1 soatcha davom etgan qidiruvdan so‘ng, Leverye hisoblaridan atiga 1° koordinata farqi bilan, koinotda Neptunni aniq ko‘rishga muvaffaq bo‘lishdi.

Neptun kashf etilgan dastlabki davrlarda uni shunchaki «Urandan keyingi sayyora», yoki, «Leverye sayyorasi» deb atashgan. Gallening o‘zi «Yanus» nomini ilgari surgan, Angliyada esa, «Okean» nomini taklif etishgan.

Bu o‘ziga xos olamshumul kashfiyot edi. Sababi, Neptunning toza matematik usulda kashf etilishi, birinchidan Butun olam tortishish qonunining o‘ta aniq va to‘g‘ri ifodalanganligini isbotlasa, ikkinchidan, qadimdan saqlanib kelgan yetti sayyora haqidagi tushunchaga[1] barham berdi. Qolaversa, Neptun inson aql zakovati mahsuli natijasida, jisman ko‘rinishidan ham avval, fazoviy harakati qonuniyatlari kashf etilgan ilk osmon jismi edi.

Neptunning Quyoshdan uzoqligi 30.1 astronomik birlik. Quyosh atrofidagi orbitasi bo‘ylab aylanish davri 164 yil 288 kun. Shunday qilib, Neptun ochilganidan buyon faqat bir marotaba – 2011 yilning 12 iyul kunida Quyosh atrofini to‘liq aylanib chiqdi, ya’ni Neptun yili to‘ldi. Neptunning diametri 50 200 km, o‘rtacha zichligi esa, 2.3 gr/sm^3. Bunday ko‘rsatkichlariga ko‘ra Neptun – gigant sayyoralar turkumiga mansub bo‘lib,

[1] Teleskop kashf etilgunicha yashagan qadimgi zamon munajjimlari koinotda faqat yettita sayyora mavjud deb ishonishgan. Bular faqat tungi osmonda qurollanmagan ko‘z bilan ko‘rib bo‘ladigan sayyoralar edi.

uning asosini vodorod va geliy elementlari tashkil qiladi. Hisoblashlarga ko‘ra Neptun markazida og‘ir yadro mavjud bo‘lib, uning tarkibi, taxminan silikatlar hamda, og‘ir metallardan iborat ekan.

Neptun atmosferasining tarkibiga ko‘ra, molekulyar vodorod va geliy asosiy ulushni egallaydi, shuningdek, kam miqdordagi metan mavjudligi aniqlangan. Neptun kosmik apparatlar obyektivida moviy rangda namoyon bo‘ladi. Buning sababi asosan metan gazi hisoblanadi.



Neptunning Voyajer-2 yuborgan fototasviri.

Neptun atmosferasida butun Quyosh tizimidagi eng kuchli po‘rtana va bo‘ronlar yuz beradi. Ba’zi fikrlarga ko‘ra ularning tezligi 2100 km/soatgacha yetar ekan. 1989 yilda Voyajer-2 kosmik apparati tomonidan Neptun atmosferasida oq dog‘ – Yupiterning qizil dog‘iga o‘xshash hodisani qayd etdi. Bu yuqoridagi Neptun bo‘ronlari haqidagi fikrni tasdig‘i sifatida qarala boshladi. Neptunning atmosfera qatlamlaridagi harorat -220°C ni tashkil qiladi. Biroq uning yadrosida esa 5400°K gacha issiqlik bo‘lishi mumkin ekan. Neptunni kuzatishlardagi aniqlangan ajablanarli hodisalardan biri, uning Quyoshdan oladigan issiqlik miqdoriga nisbatan, o‘zi ko‘proq issiqlik miqdori chiqarishidir. Buni olimlar Neptun yadrosida termoyadro reaksiyalari borsa kerak degan faraz bilan izohlashgan.

O‘z o‘qiga nisbatan og‘ish burchagi Yer va Marsnikiga yaqin, ya’ni 28,32° bo‘lganligidan, Neptunda fasllar almashinuvi jarayoni yuz beradi. Neptun fasllari har 40 yilda bir almashadi. Neptun fasllari almashinuvi uning albedo qiymatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Urandan farqli ravishda Neptun kuchli ichki issiqlik manbaiga ega. U o‘zi quyoshdan oladigan energiyaga nisbatan 161% ko‘p miqdorda ichki issiqlik ishlab chiqaradi. Buning sababi sifatida olimlar, sayyora yadrosining kuchli radiogen qizishini keltirishmoqda.

Neptunda ham ko‘p sonli tabiiy yo‘ldoshlar tizimi, hamda, juda ingichka va xira halqalar mavjudligi, Voyajer-2 tomonidan olingan tasvirlar orqali aniqlandi. Neptun halqasi asosan silikatlar bilan qoplangan uglerodli materiallardan tashkil topgan, muzlagan mayda jismlardan iborat. Hozirgacha Neptunning 5 ta halqasi aniqlangan.



Neptun yo‘ldoshi Tritonning Voyajer-2 yuborgan fototasviri. 1989 yil.

Tabiiy yo‘ldoshlarning eng kattasi – Tritonni, Neptunning o‘zi kashf etilishidan 17 kun o‘tib, Uilyam Lassel ochgan. «Triton» nomini Kamil Flammarion 1880 yilda fanga tavsiya etgan edi. Biroq, Neptunning 2-yo‘ldoshi Nerida ochilguniga qadar Triton nomi rasmiy qo‘llanilmay, u faqat «Neptun yo‘ldoshi» sifatida yuritilgan. Triton, Quyosh tizimidagi tabiiy yo‘ldoshlar ichida o‘z atmosferasiga ega bo‘lgan uchta tabiiy yo‘ldoshdan biridir (Io va Titan bilan birgalikda). U ham teskari yo‘nalishda va spiralsimon orbita bo‘ylab aylanadi. Olimlarning fikricha aslida Triton Neptunning haqiqiy tabiiy yo‘ldoshi bo‘lmay, balki uzoq o‘tmishda Neptun tomonidan «tutib olingan» bo‘lishi ham mumkin ekan. Neptunning ikkinchi yo‘ldoshi Nereida 1949 yilda golland olimi Jerard Koyper tomonidan kashf etilgan. Keyingi yo‘ldoshlarni esa 1989 yilda Neptunga Voyajer-2 ning tashrifidan so‘ng aniqlandi. 2002-2003 yillar davomida Neptunning yana 5 ta yangi tabiiy yo‘ldoshi qayd etildi. Sakkizinchi sayyoraning hozircha oxirgi – 14 tabiiy yo‘ldoshi, «Xabbl» teleskopidan 2004-2009 yillar davomida olingan fotosuratlari asosida, 2013 yilda aniqlangan bo‘lib, unga hali nom berilganicha yo‘q (vaqtinchalik nomi - S/2004 N 1).

Neptun quyosh tizimidagi eng kam o‘rganilgan sayyoralardan biridir. Unga hozircha faqat bir marta – Voyajer-2 kosmik apparatigina yetib borgan. Yanada yangi va batafsil ma’lumotlarni balki keyingi avlod fazoviy apparatlari yetkazishar.

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.

Neptunning tabiiy yo'ldoshlari:

№	Tabiiy yo'ldosh nomi	Sayyora sirtidan o'rtacha uzoqligi (ming km.)	Aylanish davri (kun)	Diametri yoki o'lchamlari (km)	Ochilgan yili	Kashf etgan olim / kosmik apparat
1	Triton	354	17*	4000	1846	U.Lassell
2	Nereida	5570	5	300	1949	J.Koyper
3	Nayada	48	0.296	50	1989	Voyajer-2
4	Talassa	50	0.312	80	1989	Voyajer-2
5	Despina	52.5	0.333	180	1989	Voyajer-2
6	Galateya	62	0.429	150	1989	Voyajer-2
7	Larissa	73.6	0.554	190	1989	Voyajer-2
8	Protey	117.6	1.121	420	1989	Voyajer-2
9	S/2004 N 1	105.3	0.96	18	2013	«Xabbl» teleskopi
10	Galimeda	15728	1879.71	48	2002	
11	Psamafa	46695	9115.9	28	2003	
12	Sao	22422	2914	44	2002	
13	Laomedeya	23571	3167.85	42	2002	
14	Neso	48387	9374	60	2002	

Kashf etilishi	
Kashf etgan olim	Urban Leverye Iogann Galle
Kashf etilgan joy	Berlin, Germaniya
Kashf etilgan sana	23-sentyabr, 1846 yil
Kashf etish usuli	Matematik hisob-kitob
Neptunning orbital ko'rsatkichlari	
Perigeliy	4 452 940 833 km; 29,76607095 a.b.
Afeliy	4 553 946 490 km; 30,44125206 a.b.
Katta yarim o'q (***α***)	4 503 443 661 km; 30,10366151 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,011214269;
Siderik aylanish davri	60 190,03 kun; 164,79 yil.
Sinodik aylanish davri	367,4 kun;
Orbital tezligi (***v***)	5,4349 km/soniya;
O'rtacha anomaliya (***M_o***)	267,767281°
Peritsentr argumenti	265,646853°
Og'ishi	1,767975°
Yo'ldoshlari	14

Neptuning fizik ko'rsatkichlari			
Ekvatorial radiusi	24 764 ± 15 km;	Albedo	0, 0,29 bond;
Qutb radiusi	24 341 ± 30 km;	Ekvatorial aylanish tezligi	2,59 km/s-ya
Sirt yuzasi (***S***)	$7{,}6408 \cdot 10^9$ km^2 ;	Sirtidagi ikkinchi kosmik tezlik	23,5 km/s-ya
Hajmi (***V***)	$6{,}254 \cdot 10^{13}$ km³;	Ko'rinadigan yulduz kattaligi	$8{,}0\text{-}7{,}78^m$
Massasi (***m***)	$1{,}0243 \cdot 10^{26}$ kg;	**Neptun atmosferasi tarkibi**	
O'rtacha zichligi (***ρ***)	1,638 g/sm^3;	Vodorod (H_2)	80±3,2 %
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	11,15 m/soniya^2;	Geliy (He)	19±3,2%
O'qining og'ish burchagi	28,32°	Metan (CH_4)	1,5±0,5 %

* Boshqalarga nisbatan teskari yo'nalishda aylanadi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

KARLIK SAYYORALAR

XX asrning oxirgi yillarida va XXI asrning boshida Quyosh tizimining chetki qismida ko'plab yirik osmon jismlari kashf etildi. Ular orasida Kvavar, Sedna va ayniqsa Erida alohida diqqatga sazovordir. 2005 yilning 5-yanvar kuni kashf qilingan Eridaning massasi, shu choqqacha Quyosh tizimining eng chetki sayyorasi hisoblanib kelinayotgan Pluton massasidan ham ≈21% ga yirikroq bo'lib chiqdi. Shu tufayli XAI sayyoralar va asteroidlarning tasniflanishini qayta ko'rib chiqish masalasiga duch keldi. 2006 yil Pragada bo'lib o'tgan XAIning XXVI Bosh Assambleyasida «sayyora», «asteroid» tushunchalariga rasmiy ta'rifni tasdiqladi va shuningdek, fanga yangi «***Karlik sayyora***» tushunchasini kiritdi. Unga ko'ra, *Quyosh atrofida davriy aylanadigan; gravitatsiya kuchlari ta'sirida gidrostatik muvozanatini saqlab tura oladigan; va shar shakliga yaqin shaklga ega bo'lgan; ayni vaqtda, biror bir katta sayyoraning tabiiy yo'ldoshi bo'lmagan; o'z orbitasida hokimlik qila olmaydigan (ya'ni, tevarak-atrofini boshqa osmon jismlaridan «tozalay»*[1] *olmaydigan) osmon jismi Karlik sayyora deb ataldi*.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu tushuncha va ta'rif hamon astronom olimlar o'rtasida munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, karlik sayyora tushunchasi uchun, bu nomga da'vogar osmon jismini Merkuriy yoki Oyga nisbatan taqqoslash orqali, soddaroq tasniflash tizimi qulayroq bo'lar ekan. XAI tomonidan hozirda 5 ta karlik sayyora rasman e'tirof etilgan: Pluton, Serera, Makemake, Erida, Haumea. Olimlarning fikricha Koyper belbog'i hududida yana 200 tagacha karlik sayyoralar bo'lishi mumkin ekan.

Quyidagi jadvalda XAI tomonidan rasman e'tirof etilgan karlik sayyoralar haqida ma'lumotlar keltirilgan. (2014 yil 1-yanvar holatiga).

Nomi	**Serera**	**Pluton**	**Haumea**	**Makemake**	**Erida**
KSM bo'yicha raqami	1	134340	136108	136472	136199
Quyosh tizimidagi hududi	Asteroidlar belbog'i	Koyper belbog'i	Koyper belbog'i	Koyper belbog'i	Tarqoq disk
Diametri (km) yoki o'lchamlari	975×909	2360±20	1960×1518×996	1500×1420	2326±12
Massasi *(kg)*	$9{,}5\cdot10^{20}$	$1{,}305\cdot10^{22}$	$4{,}2\cdot10^{21}$		$\sim1{,}67\cdot10^{22}$
Ekvatorial radiusi (o'rt) *km*	471	1148.07	~750		~1300
Hajmi *	0.0032	0.053	0.013	0.013	0.068
Zichligi (t/m^3)	2.08	2.0			2.5
Ekvatoridagi erkin tushish tezlanishi	0.27	0.60			~0.68
Birinchi kosmik tezlik (*km/soniya*)	0.51	1.2			
Orbita radiusi *a.b.*	2.5-2.9	29.66-49.30			37.77-97.56
O'z o'qi atrofida aylanish davri (*kun*)	0.3781	-6.38718			
Quyosh atrofida aylanish davri (*yil*)	4.599	248.09			557
O'rtacha orbital tezligi (*km/soniya*)	17.882	4.666			3.437
Orbita ekstsentrisiteti	0.08	0.24880766			0.44177
Orbitasining og'ish burchagi	10.587°	17.14175°			44.187°
Ekvator tekisligining orbita tekisligiga nisbatan qiyaligi	4°	119.61°			
Sirtidagi o'rtacha harorat (K)	167	40			30
Tabiiy yo'ldoshlari soni	0	5	2	0	1
Kashf qilingan sanasi	01.01.1801	18.02.1930	28.12.2004	31.03.2005	05.01.2005

[1] Bu o'rinda, osmon jismining o'z gravitatsiyasi evaziga, o'z yaqin atrofidagi kichikroq jismlarni tortib yoki itarish orqali, o'z hududida katta ta'sirga ega bo'lishi nazarda tutilmoqda.

* Yerning hajmiga nisbatan

Shunisi qiziqki, karlik sayyoralar ichida faqat Pluton katta sayyoralar safidan, karliklar turkumiga qayta tasniflangan. Ya'ni, maqomi (toifasi) pasaytirilgan. Qolganlari esa, aksincha, oddiy asteroidlar turkumidan chiqarilib, amalda yangi maqomga ko'tarilgan. Ushbu beshta karlikdan tashqari, diametri 600 km atrofida bo'lgan yana ko'plab osmon jismlari, xususan Ork, Sedna, Kvavar, Varuna, Salatsiya, Iksion kabilar karlik sayyora maqomiga ega bo'lishga nomzod hisoblanadi. Undan tashqari, Plutonning tabiiy yo'ldoshi sifatida qarab kelinayotgan Xaron uchun ham XAI maxsus rezolyutsiya tayyorlamoqda. Agar bu rezolyutsiya qabul qilinsa, Xaron ham karlik sayyoralar safiga kiritilishi mumkin. Chunki Xaron: o'lchamlariga ko'ra, karlik sayyoralar talabiga to'la javob beradi; shuningdek uning Pluton bilan barisentri, Pluton ichida joylashgan nuqtada emas, balki, Pluton bilan o'zaro ta'sir kuchlari markazida joylashgan fazoviy nuqtada joylashgan. Umuman olganda, Xaronni Plutonning tabiiy yo'ldoshi sifatida emas, balki, Pluton-Xaron qo'shsayyorasi sifatida qarovchilar ham yo'q emas.



Quyosh tizimidagi karlik sayyoralarning, Yerning tabiiy yo'ldoshi - Oy bilan taqqoslash diagrammasi

Quyida karlik sayyoralarning ba'zilari bilan tanishib chiqamiz.
Avvalo, uzoq vaqt (76 yil) davomida, Quyosh tizimidagi 9-sayyora sifatida qaralgan Pluton haqida batafsil:

PLUTON - ♇

* * *

OCHILISHI TARIXI

Nyuton mexanikasi qonuniyatlariga ko'ra izlanishlar olib borgan astronom olim Urban Leverye, Uran orbitasidagi anomaliyalarga asoslanib, o'sha vaqtlarda hali noma'lum bo'lgan sayyora – Neptunning mavjud ekanligini ilmiy bashorat qilgan edi. 1846 yilda Neptun, Leverye ko'rsatib bergan joyda haqiqatan ham kashf qilindi. Biroq, keyingi kuzatishlar, Uranning orbital trayektoriyasiga Neptundan boshqa yana bir osmon jismi ham jiddiy ta'sir qilayotganligini ko'rsatardi. Bu esa olimlar va jamoatchilik orasida yirik Transneptun osmon jismi, ya'ni to'qqizinchi sayyoraning ham mavjud ekanligi haqidagi fikrlarning rivojlanishiga olib keldi. Natijada, 1906 yilda, Bostonlik millioner astronom Persival Louell tomonidan, shartli ravishda «X-sayyora» deb nomlangan keng ko'lamli loyiha ishlab chiqilib, to'qqizinchi sayyorani qidirish ishlari boshlab yuborildi. Persival Louellning o'zi 1894 yilda «Louell» Rasadxonasini tashkil etib, uni shaxsiy mablag'i evaziga moliyalashtirib kelayotgan edi. 1909 yilda Louellning o'zi hamda astronom Uilyam Pikeringlar tomonidan, «X-sayyora»ning joylashuvi taxmin qilingan ba'zi hisob kitoblar ishlab chiqildi. Qidiruv ishlari Persival Louellning vafoti yuz bergan 1916 yilgacha davom etdi. Aslida, Louell rasadxonasi 1915 yilning 15 mart kunida ilk marta Plutonning fototasvirini olishga muvaffaq bo'lgan ekan. Biroq, tasvirning sifatining o'ta yomonligi tufayli, rasadxona xodimlari bu haqida o'zlari bilmay qolishgan.

Persival Louell vafot etgach, uning xotini tomonidan sud orqali da'vo qilingan million dollarli meros mojarosi tufayli, Louell laboratoriyasi faoliyati uzoq muddatga to'xtab qoldi. Faqat 1929 yilga kelibgina «X-sayyora»ni qidirish ishlari qayta jonlantirildi. Bu vaqtga kelib, rasadxona direktori Melvin Slayfer, «X-sayyora»ni qidirish ishlarini, Kanzaslik 23 yoshli astronom Klayd Tomboga (1906 – 1997) topshirdi. Klayd Tombo, koinotning «X-sayyora» joylashgan bo'lishi mumkin bo'lgan qismini ikki hafta davomida fotosuratga olib borib, keyin, tasvirlardagi o'z joyini o'zgartirgan obyektni aniqlash usuli bilan yangi sayyorani qidirishga kirishdi. U o'z tekshirishlari uchun blink-komporatordan foydalandi. Unda kadrlarning tezkor o'rin almashtirish imkoniyati bo'lib, bu tufayli, tasvirdagi o'z joyini o'zgartirayotgan osmon jismining harakat illuziyasi namoyon bo'lar edi. Deyarli bir yil olib borilgan kuzatuvlardan so'ng, 1930 yilning 18 fevral kuni, Tombo, 23-29 yanvar kunlari olingan fotokadrlarni tekshirish asnosida, harakatlanayotgan Transneptun obyektni aniqladi. 13 mart kuni, Tombo qo'shimcha ilmiy dalillarni o'rganib chiqqach, kashfiyot haqida Garvard kolledji rasadxonasiga telegramma yo'lladi.

Yangi sayyora kashf etilgani haqidagi xabar bilan, tez orada butun dunyo gazeta va jurnallari, radio efirlari ko'plab chiqishlar qilishdi. Bu orada, sayyoraga nom berish masalasi ham yuzaga chiqdi. Dastavval, rasadxonaning marhum egasi sharafiga, uning bevasining taklifi bilan «Persival» sayyorasi deb nomlash taklifi

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

bildirildi. Biroq, bir muddatdan so‘ng Louell xonim, endi o‘z ismini taklif qiladi boshladi. O‘sha vaqtlarda butun dunyo gazetalari yangi sayyora haqida bong ura boshlashgan edi va u haqida deyarli barcha savodli kishilar xabar topib ulgurishgandi. Xususan «Tayms» nashrini, ertalabki nonushta ustida mutolaa qilib o‘tirgan Oksford universiteti kutubxonachisi Fokoner Meydan, bu haqida 11 yoshli nabirasi Venetsiya Berniga hikoya qilib beradi. Venetsiya nafaqat astronomiya, balki qadimgi yunon va Rim mifologiyasidan ham ancha xabardor qiz bo‘lib, uning fikriga ko‘ra bunday sovuq va qorong‘u joydagi sayyora uchun qadimgi yunon yer osti ma’budining, qadimgi Rim varianti – Pluton eng mos kelar edi. Meydan nabirasining taklifini universitetdagi hamkasbi – Gerbert Ternerga yetkazadi. Terner o‘z navbatida bu haqida bu xabarni AQSHlik hamkasblariga telegraf orqali yo‘llaydi. Yangi sayyoraga rasman Pluton nomi 24 mart 1930 yilda berildi. Buning uchun– «Minerva», «Kronos» va «Pluton» variantlari uchun Louell rasadxonasi xodimlari ovoz berishdi. «Minerva» - allaqachon asteroidlardan biriga berilgan nomligi uchun, «Kronos» esa, badxulq xodim (Tomas Jefferson Jekson Si) tomonidan taklif etilgani boisidan qabul qilinmadi. Tanlangan rasmiy Pluton – 1930 yilning 1-may kuni ilmiy jamoatchilikka ma’lum qilindi. Plutonning astronomik ramzi P va L harflaridan tuzilgan monogramma bo‘lib, u shuningdek, sayyorani aniqlash va kuzatish ishlarining moliyalashtiruvchisi – Persival Louellning ism-sharifi bosh harflariga ham mos keladi.

* * *

QIZIQARLI FAKTLAR

- Plutoning kashf etilishi, XX asrning 30-yillari uchun olamshumul hodisa bo‘lgan edi. Shu tufayli, Uolt Disney kompaniyasining «Mikki Maus» multfilmlarida ilk marta 1930 yilda paydo bo‘lgan multqahramon – kuchukka ham Pluto (Plutonning inglizcha talaffuzi) nomi berilgan. Shuningdek, kimyogar olim D.Siborg, ham, Uran va Neptunning kashf etilganidagi[1] kabi, o‘zi kashf etgan kimyoviy elementni Pluton sharafiga «Plutoniy» deb nomlagan.

- Plutonga oid yana bir qiziq fakt: 2006 yilda XAI ning qaroriga ko‘ra Pluton katta sayyoralar safidan chiqarilgach, ingliz tili norasmiy nutqida yangi fe’l – «Plutonlamoq» («to pluto») paydo bo‘ldi. Bu fe’l, biror narsani yoki shaxsni, yuqoriroq maqomdan, pastroq maqomga tushirishni ifodalaydi. Masalan, harbiy unvoni pasaytirilgan zobit haqida, «plutonlandi» iborasi qo‘llanilishi mumkin.

- 2009 yilda Klayd Tombo tug‘ilib o‘sgan Illinoys shtati senati, maxsus qaror chiqarib, XAI va boshqa rasmiy tashkilotlarning har qanday ta’riflashidan qat’iy nazar, Illinoys uchun Pluton doimo katta sayyora maqomida qolaverishini qonunan tasdiqlab qo‘ydi. 2009 yildan boshlab, har yili Illinoysda, 13-mart Pluton kuni deb e’lon qilindi.

- Xitoy, Yapon, Koreys va Vetnam tillarida, Pluton sayyorasi «Yer osti podshosining yulduzi» (冥王星) tarzida aytiladi. Bunday nomlanish, Venetsiya Berni taklif etgan nomning mahalliy variantidir.

- Klayd Tomboning tavalludining 100 yilligi munosabati bilan, 2006 yilda Plutonga uchirilgan «Yangi Gorizontlar» kosmik apparati bortida olimning 1 unsiya (≈30 gramm) xoki mazkur osmon jismi tomon uchirilgan.

- 2178 yilda Pluton kashf etilganidan buyon ilk marta Quyosh atrofini to‘liq aylanib chiqadi. Ya’ni Pluton yili to‘ladi.

[1] Bu sayyoralar kashf etilganidan bir oz vaqt keyinroq, kimyo fanida ham, yangi kashf qilingan kimyoviy elementlar uchun, mazkur sayyoralar sharafiga, «Uran» va «Neptuniy» nomlari berilgan edi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Pluton (**Pluto 134340**) – Transneptun osmon jismi bo‘lib, Quyosh tizimidagi eng yirik karlik sayyora hisoblanadi. Quyosh atrofida aylanayotgan osmon jismlari ichida massasiga ko‘ra 10 o‘rinda turadi. 1930 yildan 2006 yilgacha Plutonni Quyosh tizimining katta sayyoralari qatorida, odatiy (mumtoz) sayyora sifatida qaralgan. Biroq, Hozirda esa, Pluton karlik sayyoralar turkumiga kiritilgan. Koyper belbog‘idagi ko‘plab osmon jismlari singari, Pluton ham asosan tog‘ jinslaridan tarkib topgan. Plutonning Quyoshdan o‘rtacha uzoqligi 39.53 a.b. ni tashkil qiladi. Plutonning ravshanligi 15-kattalikdagi yulduzlarniki bilan bir xil. Ya’ni, qurollanmagan ko‘z bilan ko‘rib bo‘ladigan eng xira yulduzlarning yorqinligidan ham 4000 marotaba xira bo‘lib, uni faqat kuchli teleskoplardagina kuzatish mumkin. Pluton o‘z ekliptika tekisligiga nisbatan 17° burchak ostida og‘ish holatda aylanadi. Bu sayyoraning Quyosh atrofida to‘liq aylanib chiqish muddati 247.69 yil. Pluton orbitasi trayektoriyasi g‘ayrioddiy ellips bo‘lib, perigeliyda u Quyoshga Neptundan ham yaqinroq masofaga 29,6 a.b gacha (≈4.4 mlrd km) yaqinlashadi. Quyoshdan eng uzoqlashgan nuqtasida (Afeliy) esa, masofa 49,3 a.b. (≈7.4 mlrd km) gacha yetadi. Ekliptika tekisligiga nisbatan og‘ish burchagining kattaligi tufayli Neptun va Pluton orbitalari o‘zaro kesishmaydi. Neptun Quyosh atrofida uch marta aylanib chiqishga ulgurgan vaqtda, Pluton endigina ikkinchi aylanishni yakunlagan bo‘ladi. Ya’ni Neptun va Pluton o‘zaro 3:2 orbital rezonansda bo‘ladi. Natijada Neptun va Pluton hech qachon 17 a.b. dan yaqinroq masofaga yaqinlashmaydi. Biroq Pluton, Uranga 11 a.b. masofagacha yaqinlashib kelishi mumkin.



Pluton orbitasi davriy ravishda Neptun orbitasi ichkarisiga kiradi.

Perigeliyda Quyosh nurlari Plutongacha 241 daqiqada, afeliyda esa, 402 daqiqada yetib boradi. Pluton yaqinidan turib yerga radiosignal yuborgan kosmik apparatning tarqatgan radioto‘lqinlari, qabul qiluvchigacha 8 daqiqada yetib keladi.

Pluton sirtidagi harorat, eng kam sovigan hududlarida ham – 230 °C sovuqni tashkil qiladi. Atmosferasining yuqori qatlamlarida esa, – 170 °C atrofida. Uning atmosferasida o‘ta siyrak azot qatlami, metan va inert gazlar aralashmasi mavjud. Sirti esa, muzlagan metandan iborat qor qatlami bilan qoplangan. Termodinamik tadqiqotlar natijasida olingan umumiy nisbatga ko‘ra, Pluton atmosferasi 99% azot, ≈0.98% uglerod monooksid, va 0.1% metandan iborat bo‘lishi mumkin ekan. Yorug‘likning yutilishi hodisasiga asoslanib olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Pluton atmosferasi bosimi 0.15 Pa (Yer atmosferasining atiga 1/700 000 qismi) atrofida ekan.

Pluton (chapda quyidagi kattaroq obyekt) va Xaron (o‘ngda yuqorida) «Xabbl» teleskopi olgan fototasvir

Plutonning birinchi tabiiy yo‘ldoshi – Xaron 1978 yilda astronom Jeyms Kristi tomonidan ochilgan. Xaron o‘z sayyorasi – Plutonga nisbatan yorqinroq, lekin, unga shunchalik yaqin masofada aylanadiki, fotokadrlarda u Pluton bilan o‘zaro birlashib ketganday tasavvur uyg‘otadi. Faqat aylanish davriga qarab, Plutonning goh o‘ng, goh chap tarafidan do‘ppayib bo‘rtib chiqib turgan chetlarini kuzatish orqali, Xaron haqida ma’lumotlar olingan. «Xabbl» teleskopi orqali olingan ma’lumotlarga qaraganda, Xaronning diametri taxminan 19628-1964 km deb baholandi. Pluton-Xaron barisentri Plutondan tashqarida joylashgan. Shunisi qiziqki, Pluton va Xaron bir-biriga faqat bir tarafi bilan yuzlanib turadi. Ya’ni Plutonning bir yarim sharida Xaron hech qachon botmaydi, ikkinchi yarim sharida esa, Xaron hech qachon ko‘rinmaydi. Pluton-Xaron massalar nisbati 1:8 ni tashkil qiladi (taqqoslash uchun Yer va Oyning massalar nisbati 1:81). Shu kabi parametrlarga ko‘ra, olimlar orasida Xaronni Plutonning tabiiy yo‘ldoshi sifatida emas, balki, ularni Pluton-Xaron qo‘shsayyorasi sifatida e’tirof etish haqidagi g‘oyalar mavjud.

Xaron uzoq vaqt mobaynida Plutonning yagona tabiiy yo‘ldoshi sifatida qarab kelinayotgan edi. Biroq, koinotga «Xabbl» teleskopining chiqarilishidan so‘ng, uning yordamida Plutonning yana to‘rtta tabiiy

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

yo'ldoshi aniqlandi. Ulardan dastlabki ikkitasi 2005 yil 15 may kuni kashf etilgan bo'lib, ularga vaqtinchalik nomlar - S/2005 P1 va S/2005 P2 biriktirilgan edi. 2006 yilning 26 iyun kuni XAI bu ikki tabiiy yo'ldosh uchun «Nikta» (S/2005 P1) va «Gidra» (S/2005 P1) nomlarini berdi. Nikta Plutondan taxminan 50000 km, Gidra esa, 65000 km masofada aylanadi. Taxminiy hisoblashlarga ko'ra, Niktaning diametri 46 km, Gidraniki esa 61 km. Bu ikki tabiiy yo'ldoshning massasi Xaron massasining 0.3% qismini, Plutonning esa 0.03% qismini tashkil etadi.

«Xabbl» teleskopi yordamida 2011 yilda Plutonning yana bir tabiiy yo'ldoshi - S/2011 (134340) 1 aniqlandi va unga keyinchalik (2013 yil iyul) «Kerber» nomi berildi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, Kerberning diametri 13-34 km atrofida ekan. 2012 yilning iyul oyida, Plutonning tartib bo'yicha 5-tabiiy yo'ldoshi ham kashf qilindi va u S/2012 (134340) 1 shartli nomi bilan qayd etildi. 2013 iyulidan u rasman «Stiks» nomi bilan yuritilmoqda. Stiks Plutondan taxminan ≈47000 km masofada aylanadi va uning diametri 15-24 km atrofida.

Plutonning tabiiy yo'ldoshlari:

№	Tabiiy yo'ldosh nomi	Sayyora sirtidan o'rtacha uzoqligi (ming km.)	Aylanish davri (kun)	Diametri yoki o'lchamlari (km)	Ochilgan yili	Kashf etgan olim / kosmik apparat
1	Xaron	19 571 ± 4	6,387230	1212 ± 3	1978	Jeyms Kristi
2	Nikta	48 675 ± 120	24,856 ± 0,001	~46	2005	«Xabbl» teleskopi
3	Gidra	64 780 ± 90	38,206 ± 0,001	~61	2005	«Xabbl» teleskopi
4	Kerber	59 000	32,1 ± 0,3	~13-34	2011	«Xabbl» teleskopi
5	Stiks	≈47000	19	~15-24	2012	«Xabbl» teleskopi

Kashf etilishi	
Kashf etgan olim	Klayd Tombo
Kashf etilgan joy	Louell rasadxonasi, AQSH
Kashf etilgan sana	18-fevral, 1930 yil
Kashf etish usuli	Kuzatuv
Plutonning orbital ko'rsatkichlari	
Perigeliy	29,65834067 a.b.
Afeliy	49,30503287 a.b.
Katta yarim o'q (***α***)	39,48168677 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,24880766;
Siderik aylanish davri	90 613,3055 kun; 248,09 yil.
Sinodik aylanish davri	366,73 kun;
Orbital tezligi (***v***)	4,666 km/soniya;
Peritsentr argumenti	113,76329°
Og'ishi	17°,14175′
Yo'ldoshlari	5
Plutonning fizik ko'rsatkichlari	
Ekvatorial radiusi	≈1153 km;
Qutb radiusi	≈1153 km;
Sirt yuzasi (***S***)	$1{,}795 \cdot 10^7$ km^2;
Hajmi (***V***)	$6{,}39 \cdot 10^9$ km^3;
Massasi (***m***)	$(1{,}305 \pm 0{,}007) \cdot 10^{22}$ kg;
O'rtacha zichligi (***ρ***)	2,03 ± 0,06 g/sm^3;
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	0,658 m/soniya^2;
O'qining og'ish burchagi	119,591 ± 0,014°
Albedo	0,4
Ekvatorial aylanish tezligi	0,01310556
Sirtidagi birinchi kosmik tezlik	1,229 km/soniya;
Ko'rinadigan yulduz kattaligi	13.65 gacha;
Sirtidagi o'rtacha harorat	–230 °C

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

SERERA



Sereraning «Xabbl» teleskopidan olingan tasviri.

Serera (**1 Ceres**) – Asteroidlar belbog'ida joylashgan, Yerga eng yaqin karlik sayyora. Serera 1801 yilning 1-yanvar tunida Italiyalik astronom, Palermo universiteti olimi Juzeppe Piatssi tomonidan kashf qilingan. Mars va Yupiter orasida biror bir sayyora mavjud bo'lishi haqidagi g'oya ilk marta olmon astronomi Iogann Elert Bode tomonidan bildirilgan bo'lib, u Titsius-Bode qonuniyatiga asoslangan edi. 1781 yilda Uilyam Gershel Uranni kashf etgach, uning orbital radiusi mazkur qonuniyatga mos bo'lib chiqdi. Shunga ko'ra astronomlar, Quyoshdan 2.8 a.b. masofada ham biror sayyora bo'lishi kerak degan fikr bilan, qidirish ishlarini boshlab yuborishdi. Buning uchun, Frans Ksaver fon Tsax boshchiligida, 24 nafar astronom mutaxassisdan iborat guruh tuzilib, ular tinimsiz kuzatuvlar olib borishga kirishishdi. Biroq, ularning barcha urinishlari zoye ketdi. Ulardan mustaqil ravishda, Palermo rasadxonasida kuzatuv olib borayotgan Piatssi, burj yulduzlari katalogidagi 87-yulduzni qidirish ishlari davomida, Sererani tasodifan ko'rib qoladi. Piatssi avvaliga uni kometa deb o'ylaydi va bu haqida Berlinga, Iogann Bodega xat orqali ma'lum qiladi. Tez orada, Piatssining o'zi, bu osmon jismi, aynan Mars va Yupiter orasidagi sayyora ekanligini fahmlab qoldi va bu haqida, endilikda, to'laroq ma'lumot va qiymatlar bilan batafsil xat yozib, ham Bodega, ham, Parijlik olim Jerom Lalandga yo'lladi. Piatssining ma'lumotlaridan kelib chiqib, mashhur matematik olim Karl Fridrix Gauss, Sereraning orbitasini hisoblab chiqdi. uning natijalariga ko'ra, 1801 yilning dekabr oyida fon Tsax, rasmiy ravishda yangi sayyora – Sereraning kashf etilganligini e'lon qildi.


DELLA SCOPERTA
DEL NUOVO PIANETA
CERERE FERDINANDEA
PALERMO
1802
NELLA STAMPERIA REALE.

Juzeppe Piatssining Sereraning kashf etilishi haqidagi risolasining muqovasi. Palermo, 1802 yil

Yangi sayyoraga nom berishda avval, uning kashfiyotchisi Piatssi «Serera Ferdinandea» (Ceres Ferdinandea) nomini, ya'ni qadimgi Rim dehqonchilik va hosildorlik ma'budining nomi bilan, Sitsiliya qiroli Fernandea III ning o'zaro biriktirilgan shaklidagi nomni berishni taklif qildi. Biroq, olimlarning muzokaralaridan so'ng, Fernandea ismi boshqa mamlakatlar, ayniqsa, Sitsiliya bilan diplomatik sovuqchilikka ega davlatlar tomonidan qabul qilinmaydi degan mulohazaga ko'ra, undan voz kechildi va oddiy qilib, «Serera» nomi qoldirildi. 1803 yilda kashf etilgan yangi kimyoviy element ham Sereraning sharafiga «Seriy» deb nomlandi.

Serera bir necha bor ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan: u kashf etilgan ilk davrda Quyosh tizimining odatiy sayyorasi sifatida qaralgan va tegishli katalog va darsliklarga kiritilgan. Biroq, ko'p o'tmay, 1802 yildayoq uni asteroid sifatida qayd etilgan va to 2006 yilgacha shu maqomda bo'lgan. Bu davr mobaynida Serera koinotdagi eng katta asteroid sifatida qaralgan. XAI 2006 yildan e'tiboran Sererani karlik sayyora sifatida e'tirof etdi.

Serera orbitasi, Pluton va Merkuriylarnikiga nisbatan ancha barqaror. Uning Quyoshgacha bo'lgan masofasi, perigeliyda 2,54 a.b. va afeliyda 2.98 a.b. ni tashkil qiladi. Orbita ekstsentrisiteti 0.08. Quyosh atrofida to'liq aylanib chiqish muddati 4.9 yil. Serera bir kecha-kunduzi 9 soat va 44 daqiqani tashkil qiladi. Yer va Serera o'rtasidagi o'rtacha masofa ~263,8 million km.

~950 km diametrga ko'ra, Serera, asteroidlar belbog'idagi eng yirik obyekt hisoblanadi va belbog'dagi obyektlar umumiy massasining 32% qismini tashkil qiladi. Serera o'z xususiyatlariga ko'ra ba'zi sayyoralarning tabiiy yo'ldoshlaridan ancha katta. Uning shakli ham sferik shaklga ancha yaqin bo'lib, uning yuzasida suv muzlari va ba'zi minerallarning gidratlari aniqlangan. «Gershel» teleskopi esa, Sererada suv bug'lari mavjudligini qayd etdi. shuningdek, olimlar, bu karlik sayyoraning ichki qatlamlarida suvli okean mavjud bo'lishi mumkinligini ham istisno etishmagan.

Yerdagi kuzatuvchi uchun Sereraning ko'rinadigan yulduz kattaligi 6.7 dan 9.3 yulduz kattaligigacha o'zgarib turadi. Bu Sereraning eng yorqin ravshanlikka ega bo'lgan vaqtlarida ham, uni qurollanmagan ko'z bilan ko'rib bo'lmasligini bildiradi. 2008 yilda olib borilgan o'lchash ishlarining uchta eng aniq qiymatlariga ko'ra, Sereraning massasi $9{,}4 \cdot 10^{20}$ kg, o'rtacha zichligi esa 2,077 gr/sm^3. Serera sirtidagi o'rtacha harorat 167 K (−106 °C) ni tashkil qiladi. Harorat perigeliyda 240 K (−33 °C) gacha chiqishi mumkin.

Sereraning Kashf etilishi	
Kashf etgan olim	Juzeppe Piatssi
Kashf etilgan joy	Palermo, Italiya
Kashf etilgan sana	1-yanvar, 1801 yil
Kashf etish usuli	Kuzatuv
Sereraning orbital ko'rsatkichlari	
Perigeliy	2,5465 a.b. ; 381 028 000 km;
Afeliy	2,9842 a.b. ; 446 521 000 km;
Katta yarim o'q (***α***)	2,7653 a.b. 413 767 000 km;
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,07934;
Siderik aylanish davri	1680,5 kun; 4.6 yil.
Orbital tezligi (***v***)	17,882 km/soniya;
O'rtacha anomaliya	27,448°
Peritsentr argumenti	2,825°
Og'ishi	10,585°
Yo'ldoshlari	-
Sereraning fizik ko'rsatkichlari	
Ekvatorial radiusi	487,3 ± 1.8 km;
Qutb radiusi	454,7 ± 1.6 km;
Hajmi (***V***)	$6{,}39 \cdot 10^9$ km^3;
Massasi (***m***)	$9{,}43 \pm 0{,}07 \cdot 10^{20}$ kg;
O'rtacha zichligi (***ρ***)	2,077 g/sm^3;
Ekvatoridagi erkin tushish tezligi (***g***)	0,27 m/soniya^2;
O'qining og'ish burchagi	~3°
Albedo	0,090 ± 0,0033;
Ko'rinadigan yulduz kattaligi	6.7 dan 9.32 gacha;
Mutloq yulduz kattaligi	3,36 ± 0.02
Sirtidagi o'rtacha harorat	–167 K (−106 °C)

Yer, Oy va Sereraning taqqoslanishi.

ERIDA

Erida (**136199 Eris**) – karlik sayyoralar ichida eng yirigi. U kashf etilgan 2005 yilda, Quyosh tizimining 10-sayyorasi sifatida ham baholangan. Biroq 2006 yildan boshlab u karlik sayyoralar turkumiga kiritildi. Erida Transneptun obyekt va Plutoid hisoblanadi. Uni ilk marta Kaliforniya Texnologiya universiteti olimlari Maykl Braun, Chedvik Truxilo va Devid Rabinovitslardan iborat ilmiy guruh tomonidan, 2005 yilning 5-yanvar kuni, Samuel Oushin teleskopidan olingan 21-oktyabr 2003 yilga tegishli fotosuratlarni tahlil qilish jarayonida aniqlangan. Bir necha oylik kuzatuv va tahlillardan so‘ng, kashfiyot haqida 2005 yilning 29-iyul kuni e’lon qilindi.

Unga dastlab 2003 UB_{313} shartli nomi berilgan edi. Erida dastavval 10-sayyora deb hisoblangani uchun, unga astronomiya an’analariga muvofiq, qadimgi Rim va Yunon mifologiyasiga oid nom berishga qaror qilishdi. Ilmiy guruh rahbari Maykl Braunning o‘zi unga «Prozerpina» - ya'ni, Plutonning xotinining ismini berishni taklif qilgan. Undan tashqari «Zena», «Persefona» va «Lailo» variantlari ham ko‘rib chiqilgan. Oxir oqibatda, Braunning o‘zi, qadimgi yunon janjal va adovat ma’budasining nomi – Eridani (Ἔρις) tanlashni ma’qul ko‘rdi. XAI bu nomni 2006 yilning 6-sentyabr kuni rasman e’tirof etdi va ertasi kuni 7-sentyabrda Eridani karlik sayyoralar safiga kiritdi.

Erida orbitasi, astronomik arxiv fotosuratlarini 1954 yilgacha qayta tahlil qilish orqali, jiddiy o‘rganib chiqilmoqda. Biroq, uning harakat qonuniyatlarini yuqori aniqlikda o‘rnatishga ko‘plab sabablar to‘sqinlik qilmoqda. Ulardan biri Eridaning o‘z orbitasidagi juda sekin harakati bo‘lsa, uning ko‘rinish kattaligi ham juda xira ekanligi kuzatuvlarni qiyinlashtiradi. Eridaning ko‘rinadigan yulduz kattaligi $18{,}7^m$ (taqqoslash uchun, Plutonda bu ko‘rsatkich 15^m). Eridaning Quyoshdan o‘rtacha masofasi 68,05 a.b. (10,18 milliard km), biroq, uning orbitasi o‘ta cho‘zinchoqligidan (ekstsentrisiteti 0,435), Erida Quyoshdan eng uzoqlashgan paytda, 97,63 a.b. gacha (14,61 milliard km) va eng yaqinlashganida esa, 38,46 a. b. (5,75 milliard km) masofani egallaydi. Erida Quyosh atrofida 581 yilda to‘liq bir marta aylanib chiqadi. «Xabbl» teleskopidan olingan ma’lumotlar asosida, Eridaning diametri 2400±100 km atrofida deb baholandi. Eridaning massasi, uning tabiiy yo‘ldoshi borligiga ko‘ra aniqlandi va Plutondan vaznliroq bo‘lib chiqdi: $(1{,}67\pm0{,}02)\cdot10^{22}$ kg; bundan kelib chiqadiki, uning o‘rtacha zichligi ham $2{,}52\pm0{,}05$ g/sm^3 bo‘lishi mumkin. Eridaning o‘z o‘qiga nisbatan og‘ish burchagi va o‘z o‘qi atrofida aylanib chiqish muddati (erida sutkasi) hozircha noma’lum. Stefan-Boltsman qonuniga asoslanib ishlab chiqilgan natijalarga ko‘ra, Erida sirtidagi o‘rtacha harorat, −253 °C atrofida ekan.

Eridaning hozircha yagona tabiiy yo‘ldoshi – Disnomiya 2005 yilning 10-sentyabr kuni S/2005 (2003 UB_{313}) 1 vaqtinchalik nomi bilan aniqlangan. Tabiiy yo‘ldoshga rasmiy nom - (136199) Eris I Disnomiya 2005 yilning 13-sentyabr kuni biriktirildi. Disnomiya – yunon afsonalaridagi ma’buda Eridaning qizining nomidir. U Eridadan 37000 km masofada harakatlanadi va o‘z sayyorasini taxminan 16 kunda aylanib chiqadi.

Kashf etilishi			
Kashf etgan olim	Maykl Braun, Chedvik Truxilo, Devid Rabinovits		
Kashf etilgan joy	Kaliforniya, AQSH		
Kashf etilgan sana	5-yanvar, 2005 yil		
Eridaning orbital ko‘rsatkichlari			
Perigeliy	38,463527 a.b.		
Afeliy	97,631354 a.b.		
Katta yarim o‘q (***α***)	68,047441 a.b.		
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,43475424;		
Siderik aylanish davri	205 029 kun; 561,34 yil.		
Orbital tezligi (***v***)	3,436 km/soniya;		
Peritsentr argumenti	150,862297°		
Og‘ishi	43,824120°		
Yo‘ldoshlari	1 (Disnomiya)		
Eridaning fizik ko‘rsatkichlari			
Sirt yuzasi (***S***)	≈17 950 000 km^2;	Albedo	0.96
Massasi (***m***)	$(1{,}67\pm0{,}02)\cdot10^{22}$ kg;	Ko‘rinadigan yulduz kattaligi	$18{,}7^m$;
O‘rtacha zichligi (***ρ***)	$2{,}52\pm0{,}05$ g/sm^3;	Mutloq yulduz kattaligi	$-1{,}19\pm0{,}3$
Ikkinchi kosmik tezlik	1,384 km/soniya;	Sirtidagi o‘rtacha harorat	20 K (−253 °C)

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

MAKEMAKE

Makemake (**136472 Makemake**) – kattaligi jihatdan uchinchi o‘rinda turuvchi karlik sayyora. Transneptun obyekt va Plutoid hisoblanadi. Uni ilk marta Kaliforniya Texnologiya universiteti olimlari Maykl Braun, Chedvik Truxilo va Devid Rabinovitslardan iborat ilmiy guruh tomonidan, 2005 yilning 31-mart kuni, aniqlangan. 2005 yilning 29-iyul kuni, uning kashf etilganligi haqidagi xabar rasman e’lon qilindi. Unga dastlabki shartli nom 2005 FY_9 Tarzida biriktirilgan edi. Uni ochgan ilmiy guruh rahbarining taklifiga ko‘ra, yangi obyekt Pasxa oroli mahalliy aholisi afsonalariga asoslanib Makemake deb nomlandi. XAI uni 136472 raqam bilan, 7-sentyabr 2006 yilda karlik sayyoralar turkumiga kiritdi. Makemake nomi esa rasman 18-iyul, 2008 yilda tasdiqlangan.

Makemake orbitasi arxiv fotosuratlari orqali 1955 yilgacha qayta tekshirilgan. Makemake orbitasi ekstsentrisiteti 0,162, katta yarim o‘qi esa 45,44 a.b. (6,8 milliard km). Makemake orbitasi ekliptika tekisligiga nisbatan 29° burchak ostida og‘gan. Quyoshga eng yaqinlashganda 38,05 (5.69 milliard km) va eng uzoqlashganda 52,82 a.b. (7.9 milliard km) masofada bo‘ladi. Ya’ni Makemake Quyoshga Plutondan ham yaqinroq masofaga kelishi mumkin, biroq u hech qachon Neptun orbitasi ichiga kirmaydi.

Makemakening mutloq yulduz kattaligi $-0{,}44^m$; ko‘rinadigan yulduz kattaligi 2012 yilda $16{,}9^m$ ni tashkil etdi. Makemake Quyosh atrofini 306 yilda bir marta to‘liq aylanib chiqadi. Uning o‘lchamlari va boshqa fizik xususiyatlari aniq ma’lum emas. Uning sirtidagi o‘rtacha harorat, albedoga ko‘ra aniqlangan va u 29 K (−244 °C) atrofida deb taxmin qilinadi. Makemakening tabiiy yo‘ldoshlari mavjud emas (aniqlanmagan).

Kashf etilishi	
Kashf etgan olim	Maykl Braun, Chedvik Truxilo, Devid Rabinovits
Kashf etilgan joy	Kaliforniya, AQSH
Kashf etilgan sana	31-mart, 2005 yil
Makemakening orbital ko‘rsatkichlari	
Perigeliy	38,050866 a.b.
Afeliy	52,82173 a.b.
Katta yarim o‘q (***a***)	45,436301 a.b.
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,16254481;
Siderik aylanish davri	111867 kun; 306,28 yil.
Orbital tezligi (***v***)	4,419 km/soniya;
Peritsentr argumenti	296,534594°
Og‘ishi	29,011819 °
Yo‘ldoshlari	Yo‘q (aniqlanmagan)
Makemakening fizik ko‘rsatkichlari	
Sirt yuzasi (***S***)	~6 300 000 km^2;
Massasi (***m***)	$\sim 3 \cdot 10^{21}$ kg;
O‘rtacha zichligi (***ρ***)	1,7±0.3 g/sm^3;
Ikkinchi kosmik tezlik	~0,75 km/soniya;
Albedo	0,77±0,03
Ko‘rinadigan yulduz kattaligi	16,7;
Mutloq yulduz kattaligi	−0,44
Sirtidagi o‘rtacha harorat	30—35 K

HAUMEA

Haumea (**136108 Haumea**) – kattaligi jihatdan to‘rtinchi o‘rinda turuvchi karlik sayyora. Transneptun obyekt va Plutoid hisoblanadi. Uni ilk marta, bir biridan mustaqil ravishda Andalusiya Astrofizika instituti olimi Xose Luis Ortis hamda talaba Pablo Santos-Sanzlardan iborat Ispaniyalik ilmiy guruh, hamda, Kaliforniya Texnologiya universiteti olimlari Maykl Braun, Chedvik Truxilo va Devid Rabinovitslardan iborat ilmiy guruhlar kashf qilishgan. AQSHlik guruh Haumeani 6-may, 2004 yildagi fotosuratlar asosida, 2004 yilning 28-dekabrida kashf qilgan edi. Biroq, ilmiy guruh rahbari Maykl Braun, avvaliga to‘la ishonch hosil qilish uchun, qo‘shimcha dalillarni o‘rganishga kirishdi. U 2005 yilning 7-iyuliga yangi osmon jismining kashf qilingani haqida ma’ruza-e’lon tayyorlagan edi. Lekin oilaviy sabablarga (shu kuni Braun qiz farzand ko‘rgan edi) ko‘ra bu chiqishni keyinga surishga majbur bo‘lgan. Bu orada, Ispaniyalik astronom olim va talaba, Kaliforniyadagi tadqiqotlardan mutloq bexabar holda, Serra-Nevada rasadxonasidagi 36-santimetrli teleskop yordamida Haumeani kashf etishdi. Ular olgan ma’lumotlar Malyorka universitetida qayta tekshirib, tasdiqlangach, ispanlar o‘z kashfiyotlari haqida 2005 yilning 29 – iyul kuni e’lon qilishdi.

Dastavval, bu obyektga shartli nom sifatida 2003 EL_{61} biriktirildi. AQSH guruhi bu obyektga «Santa» (Santa Klaus) degan om berishgan. Chunki u nasroniylarning milod bayramidan keyin kashf qilingan edi. Ispanlar esa unga, Iberiya bahor ma’budasining nomi - «Ataetsina»ni taklif qilishdi. 17-sentyabr, 2008 yilda, Devid Rabinovits taklif etgan nom – Haumea (Gavay orollari xalqlarining hosildorlik ma’budasi) rasman tasdiqlandi va Haumea Quyosh tizimining karlik sayyoralari safiga kiritildi.

Haumea orbitasi ham arxiv fotosuratlari asosida 1955 yilga qadar qayta tekshirilgan. U ekliptikaga nisbatan 28,2° burchak ostida og‘gan. Orbita ekstsentrisiteti 0,1975. Orbitasining katta yarim o‘qi, 42,98 a.b. (6,43 milliard km). Haumeadan Quyoshgacha eng uzoq masofa 51,47 (7.7 milliard km), eng yaqinlashganida esa, 34,49 (5.16 milliard km). Haumeaning Quyosh atrofida to‘liq aylanib chiqish davri 281,8 yil.

Haumeaning massasi uning tabiiy yo‘ldoshlariga ko‘ra aniqlangan va u $(4{,}004\pm0{,}040)\cdot10^{21}$ kg ni(Pluton massasining taxminan 38% qismi) tashkil qiladi. O‘rtacha zichligi taxminan 2,6-3,34 gr/sm^3 atrofida. Haumeaning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri va orbita tekisligiga nisbatan og‘ish burchagi hozircha noma’lum.

2005 yilda Haumeaning ikkita tabiiy yo‘ldoshi – Xiiaki ((136108) Haumea I Hi‘iaka) va Namaka ((136108) Haumea II Namaka) aniqlangan. Ular haqida ma’lumotlar juda taqribiy va hozircha Xiiaki ~350 km diametrga ega va Haumeadan 49,9 ming km masofada, 48,9 kunda aylanib chiqishi hisoblangan. Namaka esa, 18 kunda Haumeani aylanib chiqadi va uning o‘lchamlari Xiiakiga nisbatan deyarli ikki barobar kichik.

Kashf etilishi			
Kashf etgan olim	Maykl Braun, Xose Luis Ortis		
Kashf etilgan joy	Kaliforniya, AQSH / Andalusiya, Ispaniya		
Kashf etilgan sana	28-dekabr, 2004 yil / 25-iyul 2005 yil.		
Haumeaning orbital ko‘rsatkichlari			
Perigeliy	34,494401 a.b.		
Afeliy	51,475447 a.b.		
Katta yarim o‘q (***a***)	42,98492 a.b.		
Orbita ekstsentrisiteti (***e***)	0,1975233;		
Siderik aylanish davri	102937 kun; 281,83 yil.		
Orbital tezligi (***v***)	4,484 km/soniya;		
Peritsentr argumenti	240,582838°		
Og‘ishi	28,201975°		
Yo‘ldoshlari	2 (Xiiaki, Namaka)		
Haumeaning fizik ko‘rsatkichlari			
Sirt yuzasi (***S***)	$2\cdot10^7$ km^2;	Albedo	0,84
Massasi (***m***)	$\sim(4{,}006\pm0{,}04)\cdot10^{21}$kg;	Ko‘rinadigan yulduz kattaligi	$17{,}3^m$;
O‘rtacha zichligi (***ρ***)	~2,6-3,3 g/sm^3;	Mutloq yulduz kattaligi	$0{,}02^m$;
O‘rtacha radiusi	~718 km;	Sirtidagi o‘rtacha harorat	50 K (-223 °C)

KICHIK SAYYORALAR – ASTEROIDLAR

(951) Gaspara asteroidi. 1991 yilgi tasvir.

Asteroidlar – juda kichik o‘lchamlardagi mitti sayyoralardir. Ular asosan Mars va Yupiter orbitalar orasidagi, «Asteroidlar belbog‘i» deb yuritiladigan fazoda harakatlanadilar. Asteroidlarning o‘lchamlari bir necha yuz kilometrlargacha bo‘lishi mumkin. Eng kichik asteroidlarning diametri 1 km atrofida bo‘ladi. Asteroidlarda atmosfera mavjud bo‘lmaydi.

1781 yilda Uilyam Gershel Uran sayyorasini ochdi. Uranning Quyoshdan uzoqligi Titsius-Bode qonuniyatiga muvofiq kelardi. Agar haqiqatan ham Titsius-Bode qonuniyati butun Quyosh tizimida amal qilsa, demak, Mars va Yupiter oralig‘ida ham qandaydir sayyora bo‘lish zarur edi. Shuni inobatga olib, XVIII asrning 90-yillarida Frans Ksaver, 24 nafar astronom olimdan iborat ishchi guruh tuzib, Quyoshdan taxminan 2.8 a.b. masofada, ya’ni, Mars va Yupiter oralig‘idagi sayyorani qidirish ishlarini olib bordi. Biroq fan tarixidagi dastlabki asteroid – «Serera» tasodifan, 1801 yil, 1 yanvarda, Ksaver ishchi guruhiga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan Italiyalik astronom Piatssi tomonidan kashf etildi. Bu yangi yuz yillikning birinchi tuni edi. Keyingi uch asteroid, Pallada, Vesta, va Yunona 1801-1807 yillar orasida kashf etildi. Vestadan keyin uzoq vaqt astronomik kuzatuvlar besamar ketib, boshqa asteroid koinotda yo‘q degan fikrga ham kelib qolindi. Keyingi, navbatdagi asteroid topilgunicha esa 38 yil vaqt o‘tdi. Uni Karl Lyudvig Xenke topdi va «Asteya» deb nomladi. Xenke salkam 2 yildan so‘ng «Gebu» asteroidini ham aniqladi. Shundan so‘ng astronomlar yana faol ravishda yangi asteroidlarni qidirishga tushdilar. Shundan so‘ng, ya’ni, 1845 yildan boshlab, har yili kamida bitta asteroid kashf etib kelinmoqda. Bu jarayonda faqat 1945 yil istisno bo‘lib, mazkur yilda fanda birorta ham yangi asteroid qayd qilinmagan.

1891 yilda Maks Volf asteroidlarni topishning yangi usulini joriy etdi. Unga ko‘ra kuzatuvda o‘sha davrning ilg‘or texnologiyasi – fotokadrlarni ketma ket solishtirish usuli qo‘llanilardi, Volfning o‘zi (323)Bryusiyadan boshlab naq 248 ta asteroid kashf etdi. Volfgacha esa kuzatuvlar faqat vizual usulda olib borilar edi. Shu tufayli Volfgacha kashf etilgan asteroidlarning umumiy soni 300 dan oshmagan.

Shuni ta’kidlash kerakki, 2007 yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Astrofizika institutining Maydanak rasadxonasi ilmiy guruhi tomonidan, O‘zbekiston mustaqilligi davridagi dastlabki yangi asteroid kashf etildi. Uni Prezident Islom Karimovning taklifiga ko‘ra «Samarqand» deb nomlandi. «Samarqand» kichik sayyorasining tartib raqami - 210271

Hozirgi vaqtga kelib, asteroidlarning umumiy soni 1 000 000 dan 1 900 000 gacha atrofida deb baholanadi. 2013 yil yanvar holatiga ko‘ra 97 853 768 ta diametri 1 km dan ortiq obyekt (ularning hammasini ham asteroid deb bo‘lmaydi, bunday obyektlarning ko‘pchiligi meteoroidlardir) aniqlangan va ulardan 600 853 tasining orbitalari aniq hisoblanib, maxsus tartib raqami berilgan. 17 620 asteroid esa rasmiy nomlanishga ega. Barcha asteroidlarning umumiy vazni, Yer vaznining mingdan bir qismidan ham kichik.

«Asteroid» atamasini fanga Uilyam Gershel kiritgan bo‘lib, u yunoncha «ἀστεροειδής» - «yulduzsimon» degan ma’noni anglatadi. Gershelning bunday nomlanish berishiga, asteroidlarning teleskopdan qaralgan, koinotda xuddi yulduzlar singari nuqtaviy disk shaklida ko‘rinishi sabab bo‘lgan. Shakllangan an’anaga ko‘ra, muayyan va tartibli orbitaga ega asteroidlarga ayollar ismi, Orbitasida ma’lum tartibsizliklari bor asteroidlarga esa erkaklar nomi berilar edi. Keyinchalik bu an’anaga rioya qilinmay qo‘yilgan. Hozirda asteroidlarning hammasi ham o‘z nomiga ega emas: asteroidlar ichida faqat orbitasi to‘liq o‘rganilgan va harakat trayektoriyasi aniq hisob kitob qilinganlariga nom beriladi. Orbitasi aniq hisoblanmagan asteroidga faqat uning ochilgan vaqtini ifodalovchi tartib raqami biriktiriladi. Masalan 1950DA – 1950 yilning fevral oyining birinchi yarmida ochilgan birinchi asteroid. Bir yilda 24 ta yarimoy bo‘lgani uchun, lotin alifbosida esa 26 harf bo‘lgani sababli, I (Bir soniga o‘xshash bo‘lgani uchun) va Z harflari belgilashda foydalanilmaydi. Asteroidga to‘liq nom berilganidan keyin, uning nomi oldida tartib raqami ko‘rsatilgan holatda yoziladi, masalan (1)Serera, (8)Flora.

Ko‘plab asteroidlar orbitasining katta yarim o‘qi Quyoshdan 2.2 – 3.6 a.b. masofaga to‘g‘ri keladi. Ular o‘ziga xos «Asteroidlar belbog‘i»ni tashkil qiladi. Eng katta aylanish orbitasiga esa, Xiron asteroidi ega bo‘lib, u Saturn va Uran orbitalari oralig‘ida aylanadi. Perigeliyda bu asteroid Saturn orbitasi ichiga ham kirib qoladi.

Ba'zi asteroidlarning orbitasi esa, kichik cho'ziqliklarga ham ega, masalan Ikar nomli asteroid Merkuriy orbitasigacha suqilib kirishi mumkin. Barcha asteroidlarning orbitalari, katta sayyoralarning gravitatsion ta'siri ostida o'zgarishlarga duchor bo'lib turadi. Agar asteroid katta sayyoralarning biriga (masalan Yupiter yoki Saturn, Mars kabi) o'ta yaqin kelib qolsa, o'sha sayyora gravitatsiyasi ta'sirida, uning orbitasi keskin o'zgarishi mumkin.

Asteroidlarning kelib chiqishi borasida bir necha ilmiy farazlar mavjud. Ulardan eng mashhuriga ko'ra, Asteroidlarning asosiy markazlashgan hududi – Mars va Yupiter orbitalari oralig'ida qachonlardir Faeton (uni Olbers sayyorasi ham deb atashadi) nomli ulkan sayyora mavjud bo'lgan va u qandaydir falokatli sababga ko'ra, parchalanib ketgan. Mazkur sabab Faetonning yirik tashqi osmon jismi bilan (masalan kometa yoki boshqa bir sayyora bilan) to'qnashib ketganligi bo'lishi yoinki, boshqa kuchlar, masalan Yupiterning tortish kuchi yoki ichki termoyadro portlashlari natijasida kelib chiqqan bo'lishi mumkin ekan.

Asteroidlar haqida ba'zi ma'lumotlar

Eng yirik asteroidlar:

№	Asteroid yo'ldosh nomi	Quyoshdan o'rtacha uzoqligi (a.b.)	Aylanish davri (yil)	Diametri (km)	Ramzi[1]
1	Serera[2]	2.77	4.60	1003	⚳
2	Pallada	2.77	4.61	608	⚴
4	Vesta[3]	2.36	3.63	538	⚶
10	Gigiya	3.15	5.59	450	
31	Evfrosinya	3.16	5.62	370	
704	Interamniya	3.06	5.40	350	
511	Davida	3.19	5.69	323	
65	Kibela	3.42	6.35	309	
52	Yevropa	3.10	5.45	289	
451	Patientiya	3.06	5.37	276	

Yerga davriy yaqinlashib turadigan asteroidlar:

№	Asteroid yo'ldosh nomi	Quyoshdan o'rtacha uzoqligi (a.b.)	Aylanish davri (yil)	Diamteri (km)	Yerga eng yaqin kelgan masofasi (mln. km.)
-	Germes	1.29	1.47	1	0.6
-	Adonis	1.97	2.76	0.3	1.5
1620	Geografos	1.24	1.39	3	2
-	Apollon	1.49	1.81	1	3
1566	Ikar	1.08	1.12	1	6
1221	Amur	1.92	2.67	2	15
433	Eros	1.46	1.76	23	23

[1] Asteroidlar kashf etila boshlagan ilk davrlarda, qadimgi astronomiya an'analariga ko'ra asteroidga maxsus ramz berilgan. Biroq, asteroidlarning juda ko'pligini u paytlar olimlar tasavvur qilishmagan. Shu tufayli keyinchalik asteroidlar sonining ortishi bilan ramz biriktirish an'anasi tartib bo'yicha 37 asteroiddan keyin to'xtab qolgan. Mazkur sababga ko'ra, faqat eng avval kashf etilga asteroidlargina o'z maxsus astronomik ramziga ega.

[2] Serera 2006 yilgacha eng katta asteroid deb hisoblar edi. 2006 yil 24 avgustdagi Xalqaro astronomiya ittifoqining qaroriga ko'ra u kichik sayyora – karlik sayyora deb qayta tasniflandi va asteroidlar turkumidan chiqarildi.

[3] Vesta – Asteroidlar ichida qurollanmagan ko'z bilan kuzatish mumkin bo'lgan yagona obyekt.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

KOMETALAR

Heyl-Boll Kometasi

Kometalar (yunoncha κομήτης, komḗtēs – dumli, baroq, hurpaygan ma'nolarida) Quyosh tizimidagi eng g'aroyib obyektlardan bo'lib, odatda yorqin yumaloq yadro – kalla qismi va unga ergashuvchi dumi bor bo'lgan osmon jismi sifatida gavdalanadi. Kometalar Quyoshga 4-5 a.b. masofagacha yaqinlashganidagina kuzatilishi mumkin bo'la boshlaydi. Kometaning yadrosi, ya'ni kallasi muzlagan holatda bo'lib, u quyosh atrofida davriy, lekin, juda ajoyib orbita bo'ylab aylanadi. U davriy ravishda quyoshga juda yaqin keladi va undan o'ta uzoqlashadi. Kometa yadrosi Quyoshga 4 a.b. masofaga yaqinlashib kelganida, uning muzlagan jismini quyosh nurlari qizdira boshlaydi. Undan, gaz va changlar ajralib chiqib, quyoshning yoritishi natijasida, qorong'u osmonda ko'zga yaqqol ko'rina boshlaydi. Kometa atmosferasi quyosh shamoli, quyosh yorug'ligi bosimi va kometaning ilgarilanma harakati ta'sirida uzluksiz ochiq fazoga sochilib boradi va bu kometaning dumini keltirib chiqaradi. Kometa kallasi va dumi aniq chegaralarga ega bo'lmaydi. U yadroning hajmi va kometaning quyoshga yaqinlashish darajasiga ko'ra, uzunlashib boradi. Kometa kallasi va dumining o'lchamlari ajralib chiqayotgan gaz va changlarning intensivligiga chambarchas bog'liq.

Kometa kallasining ko'ndalang kesimi bir necha yuz kilometrlargacha bo'lishi mumkin. 1680 yilgi kometa va 1811 yilgi yorqin kometada bu ko'rsatkich 1 000 000 km dan ham ziyod bo'lgan. Dum uzunligi esa 300 million kilometrgacha cho'zilgan bo'lib, bu yerdan quyoshgacha bo'lgan masofadan 2 barobar kattadir!

Kometa dumlari 3 toifaga tasniflanadi: I-toifa: quyoshga qarama qarshi to'g'ri yo'nalgan dum; II-Toifa: kometa orbital harakatiga ko'ra qiyshayadigan dum; III-toifa esa, to'g'ri chiziqli tekis dum. Quyoshga va Yerdagi kuzatuvchi nisbatan fazodagi holatiga ko'ra, kometaning dumlari ba'zan noto'g'ri shaklda ko'rinishi mumkin. Bunda anomal dumlar deb ataladigan ko'z aldanishi kelib chiqadi. Kometa dumining qurollanmagan ko'z bilan ko'rinadigan qismi taxminan 10 million kilometr atrofida bo'ladi.

Quyoshgacha masofa (a.b.)	Kometa yadrosi diametri (km)
0.3	20
0.5	100
1	200
2	100
3	30

Kometa yadrosi esa – muzlab qolgan gaz molekulalari va kichik o'lchamlardagi toshsimon jinslardan tarkib topadi. Kometa yadrosi shunchalik kichik bo'ladiki, uning sirtidagi og'irlik kuchi, yerdagidan o'n minglab marta kichik bo'ladi. Yadroning o'lchamlari quyoshga yaqinlashgan sari kichrayib boradi:

Kometa yadrosining o'rtacha diametri esa 10 km atrofida bo'ladi.

Deyarli barcha kometalarning kallasidagi nurlanishlardan 2-3 atomli neytral molekulalar paydo bo'lishi aniqlangan. Kometalarda atomar kislorod, vodorod va uglerod mavjudligi spektral tahlil yordamida aniqlangan. 1974 yilda esa, kometadan radionurlanishlar qayd etilgan.

Kometalar ham Quyosh tizimining a'zolari hisoblanishadi. Ular o'ta cho'zinchoq ellpis orbitalar bo'ylab harakatlanadilar. 100 dan ortiq qisqa davriylikdagi kometalar mavjud bo'lib, ular quyoshga bir necha yildan tortib, o'n yillab muddatda yaqinlashib keladilar va qaytib uzoqlashadilar. Har bir yaqinlashuvda bunday kometa o'z yadrosining ma'lum qismidan mahrum bo'ladi. Ko'plab kometalarning orbitasining katta radiusi, Quyosh tizimi sayyoralarining umumiy kesimi diametridan ham ming marotaba katta bo'ladi. Bunday kometalar Quyoshga million yillardagina qayta yaqinlashadilar. Bu kabi kometalarning davriyligini aniqlashning imkoni yo'q. Davriyligi va orbital ellips radiusi katta bo'lgan kometalarning orbitasi, ular quyoshdan uzoqdaligida, yaqin masofadagi yulduzlar ta'siri ostida o'zgarishlarga uchraydi. Umuman olganda esa, barcha kometalarning quyoshga har yaqinlashuvida, yo'l-yo'lakay sayyoralar gravitatsiyasi ta'sirida orbital o'zgarishlarga duchor bo'lishadi. Agar kometa gigant sayyoralar yaqinidan uchib o'tsa, uning orbital yo'nalishi keskin o'zgarishga uchrashi mumkin. Bunday hollarda esa, to'qnashuv ehtimoli ham katta bo'ladi. Masalan shunday hodisalardan biri 1993 yilda Yupiter sayyorasi va Shumeyker-Levi kometasining to'qnashuvi bo'lgan. Shumeyker-Levi kometasi Yupiter yaqinidan uchib o'tayotib, ushbu gigant sayyoraning

gravitatsiyasi ta'sirida, uning ichiga qulab, parchalanib ketgan edi. Shuningdek, Merkuriy, Oy, va Marsdagi ba'zi yirik kraterlar mazkur osmon jismlarining kometalar bilan to'qnashishi natijasida kelib chiqqan degan farazlar ham mavjud. Quyosh tizimidagi umumiy kometalar soni taxminan 2.5 millionta. Shu paytgacha 600 dan ziyod kometa tizimli kuzatilgan. Ulardan 325 tasi Quyoshga ko'p marotaba yaqinlashib kelib turadi. Bir yil davomida esa o'rtacha 7-10 ta kometa quyoshga yaqinlashib kelib-ketib turadi. Shu paytgacha kuzatilgan kometalar ichida eng uzoq davriylikka ega kometa bu – Grigg Mellish kometasi bo'lib, u 164 yilda qaytadi. Bu kometa 1742 yilda ilk marta kuzatilgan edi. Shu vaqtgacha Grigg Mellish kometasining 2 marta Quyoshga qaytgani kuzatildi. Bu kometa quyoshdan eng uzoqlashganida 29.8 a.b. gacha yiroqlashib ketadi. Quyoshga eng yaqin kelishida 0.92 a.b. gacha masofaga yaqinlashadi. Orbita qiyaligi 110°.

Shuningdek, ma'lum va mashhur kometalardan yana biri – Galley kometasining qaytishi fan tarixida 30 marta kuzatilgan bo'lib, u haqidagi dastlabki ma'lumot eramizdan avvalgi 466 yilga tegishli. Galley kometasi 76.029 yilda Quyoshga qaytadi. Uning eng uzoqlashish masofasi 17.8 a.b. va eng yaqinlashish masofasi 0.59 a.b. Orbita qiyaligi 162°.

Kometalar ichida eng tez qaytish davriyligiga Enke-Baklund kometasi ega. Bi kometaning davriyligi 3.302 yilga teng. Mazkur kometa 1786 yildan buyon naq 51 marta kuzatilgan. Uning eng uzoqlashgandagi quyoshgacha bo'lgan masofasi 2.21 a.b. , yeng yaqinlashganidagi esa 0.34 a.b. ni tashkil qiladi. Orbita qiyaligi 12°.

METEORITLAR

Meteoritlar Yerga sayyoralararo fazodan qulab tushuvchi tosh yoki temir jinslaridan tarkib topgan osmon jismlarining parchalaridir. Meteoritning yerga tushishi yorug'lik ajralib chiqishi, tovush va mexanik effektlari hamrohligida kechadi. Osmonda yorqin olovli shar hosil bo'ladi va uning dumi, undan har tarafga tarqalayotgan uchqunlari kuzatiladi. Tunda bolid yuz kilometrgacha bo'lgan yon atrofni yoritishi mumkin. Meteorit kelib urilishi natijasidagi zarba to'lqini, gurunt va inshootlarning sezilarli darajadagi tebranishlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Eng katta Meteorit - temir jinsidan tarkib topgan Gobi deb nomlangan bo'lib, u g'arbiy Afrikadan 1920 yilda topilgan, massasi 60 tonnani tashkil qiladi. Odatda Meteoritning massasi bir necha yuz grammlardan ortmaydi, nisbatan kattalari 1-2 kilogramm atrofida bo'ladi. Meteorit yerda mavjud kimyoviy elementlardan tarkib topgan bo'ladi. Bu elementlar, xuddi yerdagi singari o'zaro birikmalar hosil qilishi mumkin.

Yig'ilgan ma'lumotlarga ko'ra, aksariyat hollarda meteoritlar kichik sayyoralar – asteroidlarning parchalaridan iborat bo'lar ekan. Ular o'zaro to'qnashib, yanada maydaroq bo'laklarga parchalanib ketadi va Yer gravitatsiyasi ta'sirida bi parchalar, yerga qulay boshlaydi. Atmosferaga kirishi bilanoq, mazkur Meteoritlar havo molekulalari bilan ishqalanish natijasida yonishga uchraydi va shu tufayli yorqin shu'la paydo bo'ladi. Yer shariga har yili 500 dan ortiq sondagi Meteorit tushishlari kuzatiladi. Ularning aksariyati odatda okeanlarga va kimsasiz yerlarga qulaydi. Lekin, ba'zan yirik aholi turar joylariga ham Meteorit tushishlari kuzatiladi. Masalan 2013 yilning 14 fevralida Rossiya Federatsiyasining Chelyabinsk shahriga kutilmaganda katta o'lchamdagi meteorit kelib tushdi va sezilarli talafotlarni keltirib chiqardi.

Yerda yil davomida davriy meteorit yomg'irlari ham kuzatilib turadi.

Asosiy meteorit yomg'irlari va ularning manbalari bilan quyidagi jadvalda tanishishingiz mumkin:

Meteorit yomg'iri	Eng ko'p meteorit tushadigan sana	Soatiga dona	Manbai
Kvadrantida	3 – yanvar	40	
Lirida	22 – aprel	15	Tetcher kometasi
η Akvarida	5 – may	20	Gelley kometasi
δ Akvarida	28 – iyul	20	
Perseida	12 – avgust	50	Svift-Tattl kometasi
Orionida	22 – oktyabr	25	Gelley kometasi
Taurida	3 – noyabr	15	Enke kometasi
Leonida	17 – noyabr	15	Tempel-Tattl kometasi
Gemnida	14 – dekabr	50	Asteroid 3200 Faeton
Ursida	23 - dekabr	20	Tattl kometasi

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

YULDUZLAR.

Yulduz – Quyosh singari tabiatga ega bo‘lgan o‘ta ulkan va nihoyatda katta massali gaz sharidir. Quyosh ham G spektral sinfiga mansub bo‘lgan oddiy yulduzdir. Nazariyaga ko‘ra, yulduzlar, gaz-chang muhitining (asosan vodorod va geliydan) gravitatsion siqilishi natijasida vujudga keladi. Yulduzlar ichkarisidagi harorat millionlab kelvinlarda, sirtidagi harorat esa minglab kelvinlarda o‘lchanadi. Ko‘plab yulduzlardagi energiya, yulduzning markaziy qismlarida kechuvchi va asosan o‘ta yuqori haroratlarda vodorodning geliyga aylanishi bilan kechuvchi termoyadro reaksiyalari hosil bo‘ladi. Odatda yulduzlarni, butun olamning eng asosiy obyektlari deb qaraladi. Sababi aynan yulduzlarda insonlarga ma’lum tabiiy olamning asosiy massasi mujassamlashgan.

Hulkar tarqoq yulduz to‘dasi

Quyoshga eng yaqin yulduz Sentavrning Proksimasidir. U Quyoshdan 4.2 yorug‘lik yili masofada joylashgan. Qurollanmagan ko‘z bilan, yerning har ikkala yarim sharlarida o‘rtacha 3000 tadan, jami 6000 gacha yulduzlarni ko‘rish mumkin.

Yulduzlarning ko‘plab xossalari SI birliklarida ifodalansa-da, biroq, ayrim hollarda boshqa birliklardan foydalanishga ham yo‘l qo‘yiladi. Masalan, yulduzgacha bo‘lgan masofani ifodalash uchun ***yorug‘lik yili*** yoki ***parsek*** qo‘llaniladi, chunki bu o‘rinda ***km*** dan foydalanish raqamlarning nihoyatda yiriklashib ketishi bilan noqulaylik tug‘diradi. Yulduzlarning ravshanligi ham $\frac{erg}{soniya}$ birligida (SGS birligi) ifodalanadi. Yulduzning massasi, ravshanligi va radiusi odatda, Quyoshning shu o‘lchamlari bilan nisbatlarda ifodalanadi.

Quyosh massasi: $M_{\odot}=1.9891\cdot10^{30}$ kg;
Quyosh ravshanligi: $L_{\odot}=3.827\cdot10^{26}$ Vt;
Quyosh radiusi: $R_{\odot}=6.960\cdot10^{8}$ m.

Qadimgi zamonlardan o‘rta asrlargacha olimlar yulduzlarni asosan osmon sferasidagi joylashivi hamda, nurining yorqinligiga qarab tasniflashgan. Yulduz turkumlari ma’lum xayoliy shakllarda tasavvur qilinib, ularga, nom berishgan. Ma’lum yulduz turkumining yilning qaysi qismida, osmonning qaysi tarafida joylashishiga qarab, taqvimlar va ho kazo (masalan, tole’nomalar) tuzishgan. Dengizchilik rivojlanishi bilan okeanlarda orientir olishda ham yulduzlarning joylashuviga qarab yo‘l tutishgan. Biroq bularning barchasida yulduzlarning faqat juda oz xossalari qayd etilar edi



Gertsshprung–Rassel diagrammasi

Yulduzlarning hozirgi zamon tasniflanishi (klassifikatsiyasi) XIX asrda spektral tahlil usullari kashf etilganidan keyin paydo bo‘lgan. Yulduzlar birinchi navbatda spektrdagi yutilish va nurlanish chiziqlariga qarab, undan tashqari, mutloq yulduz kattaligi; jimirlashining mavjudligi, yoki o‘zgaruvchanligi; hamda o‘lchamlariga ko‘ra, ma’lum bir sinflar va guruhlarga biriktiriladi.

XX asr boshlarida astronomlar Gertsshprung va Rassel, turli xil yulduzlar uchun «mutloq yulduz kattaligi» – «spektral sinf» diagrammasini tuzib chiqishdi. Mazkur diagrammmada yulduzlarning aksariyat qismi ingichka egri chiziq bo‘ylab joylashgan edi. Keyinchalik *Gertsshprung–Rassel diagrammasi* nomini olgan bu ilmiy manba, yulduzlarning ichkarisida borayotgan jarayonlarni tushunish va tadqiq qilish uchun o‘ziga xos kalitga aylandi. U tufayli, yulduzlarning ma’lum siflarga ajratish uchun, ma’lum tamoyillarga asoslangan nazariy tushuntirishlar maydonga chiqdi. ma’lum bo‘lishicha,

yulduzlarning barcha xilma-xilligi, ularning xossalariga ko‘ra (masalan, kimyoviy tarkibi va massasi kabi), mazkur yulduzning ayni vaqtdagi egallab turgan evolyutsion bosqichini ifodalar ekan.

Hozirgi paytda yulduzlarni katalog yoki matnda ifodalash uchun o‘zga xos kodlash tizimi qo‘llaniladi. Bunda birinchi o‘rinda, yulduzning asosiy spektral sinfini ifodalovchi harf-kodi (agar spektral sinf aniq ma’lum bo‘lmasa, u tegishli bo‘lgan spektral diapazon, masalan O-B ko‘rinishida) yoziladi. Keyin arab raqamlari bilan spektral guruhi, keyin esa rim raqamlari bilan uning ravshanligi (Gertsshprung–Rassel diagrammasidagi joylashgan hududining raqami) yoziladi. Oxirida esa qo‘shimcha ma’lumotlar kodi qayd etiladi. Masalan bizning yulduzimiz – Quyosh G2V sinfiga ega.

Aksariyat yulduzlar, shu jumladan bizning Quyoshimiz ham asosiy izchillik sinfiga mansubdir. Asosiy izchillik sinfi – yulduzning evolyutsion nuqtai nazardan Gertsshprung–Rassel diagrammasidagi o‘z hayotining katta qismini o‘tkazadigan joyidir. Bu vaqtda yulduzdagi energiya sarfi, uning ichkarisida borayotgan termoyadro reaksiyalari hisobiga to‘ldirib boriladi. Yulduzning asosiy izchillik vaqtidagi hayoti davomiyligi, geliydan og‘irroq bo‘lgan elementlarning (metalllashuv) massasi va ulush miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Yulduzlarning zamonaviy tasniflanishi (uni Garvard tasnifi ham deyiladi) Garvard rasadxonasida 1890 – 1924 yillarda tuzib chiqilgan.

Sinf	Harorat, K	Haqiqiy rangi	Ko‘rinadigan rangi	Asosiy belgilari
O	30000 – 60000	moviy	Moviy	Geliy, ionlashgan geliy, vodorod, ko‘p marta ionlashgan Si, C, N moddalarining xira chiziqlari.
B	10000 – 30000	Oqish-moviy	Oqish-moviy va oq	Geliy va vodorodning yutilish chiziqlari, H, K Ca II ning xira chiziqlari.
A	7500 – 10000	Oq	Oq	Kuchli balmer seriyasi, H, K Ca II chiziqlari F tomonga kuchayadi, F sinfiga yaqin joylarda metallarning chiziqlari paydo bo‘la boshlaydi.
F	6000 –7500	Sarg‘ish-oq	Oq	Kuchli H, K Ca II chiziqlari, metallar chiziqlari, vodorod chizig‘i xiralashib boradi, Ca I chizig‘i paydo bo‘ladi, Fe, Ca, Ti chiziqlari paydo qilgan G yo‘lagi paydo bo‘ladi va kuchayib boradi.
G	5000 – 6000	Sariq	Sariq	H va Ca II chiziqlari intensiv, ko‘p sonli metallar chiziqlari, vodorod chizig‘i xiralashishda davom etadi, CH va CN molekulalari yo‘laklari paydi bo‘ladi.
K	3500 – 5000	Zarg‘aldoq	Sarg‘ish-zarg‘aldoq	Metallar chiziqlari va G yo‘lak intensiv. Vodorod chizig‘i deyarli sezilmaydi. TiO yutilish chizig‘i paydo bo‘ladi.
M	2000 – 3500	Qizil	Zarg‘aldoq-qizil	TiO va boshqa molekulalar chiziqlari intensiv. G yo‘lak xiralashadi, metallar chiziqlari sezilarli darajada.

Yulduzlar kattaligi, kimyoviy tuzilishi va yoshiga ko‘ra Jigarrang va Oq karliklar, Qizil gigantlar, yangi va o‘ta yangi yulduzlar, uzun va qisqa davrli sefeida, giperyangi yulduzlar, hamda neytro yulduzlari turlariga bo‘linadi. Undan tashqari kelib chiqishiga ko‘ra bir xil bo‘lgan va bir yo‘nalishda harakatlanayotgan yulduzlar, o‘ziga xos yulduz to‘dalarini tashkil qilishadi. Bunday yulduz to‘dalaridagi yulduzlar odatda, bir birlariga gravitatsion ta’sir o‘tkazadi. Olimlar, qadim zamonlardan to Nyuton asrigacha yulduzlarni koinotda bir tekis joylashgan (taqsimlangan) degan fikrda bo‘lishgan. Nyuton davrida ham shunday fikr saqlanib qolgan edi. Biroq, yulduzlarning koinotda tarqalganligi bir tekis bo‘lmay balki ular koinotning ma’lum qismlarida to‘dalar tashkil qilishini ilk marta ingliz astronom olimi Uilyam Gershel aniqlagan edi. Gershelning o‘zi yulduz to‘dalarini avvaliga yulduz to‘plami deb atagan, keyinroq to‘da atamasiga o‘tilgan. XIX asrda yulduz to‘dalari ikki xil sinfga ajratilgan edi – sharsimon va tarqoq. Keyinchalik bu sinflar qatoriga uchinchisi – yulduz assotsiatsiyalari kiritildi.

Sharsimon yulduz to‘dalarida asosan o‘zining so‘nggi evolyutsion bosqichini yashayotgan oq karlik va, sfeida, neytron yulduzlari to‘planadi. Sharsimon to‘dalarning odatiy yoshi 10 milliard yil atrofida, ularning diametrlari 20 dan 100 parsekkacha bo‘lishi mumkin.

Tarqoq yulduz to‘dalarida esa, yulduzlar, kuzatuvchiga nisbatan bir xil masofada va bir yo‘nalishda harakatlanayotgan bir necha yulduzlar to‘plamidir. Ularni o‘rganish juda mushkul. Tarqoq yulduz to‘dalari

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

sharsimon to‘dalarga nisbatan koinotda ko‘proq tarqalgan. Ulardan eng taniqlilari – pleyada va giada yulduz to‘dasidir. Bunday to‘dalar quyoshga ancha yaqin masofalarda joylashgan. Masalan, giyada to‘dasiga quyoshdan masofa 40 parsekni tashkil qiladi.

Yulduz assotsiatsiyalari esa nisbatan yosh yulduzlardan iborat bo‘lib, boshqa yulduz to‘dalaridan o‘z o‘lchamlariga ko‘ra farq qiladi. Assotsiatsiya yulduz to‘dalari odatda molekulyar gaz bilan bog‘langan bo‘ladi.

Umuman olganda bizning galaktikamiz – Somon Yo‘lida 200 milliarddan ortiq yulduzlar mavjud. Yer sharining har ikkala (janubiy va shimoliy) yarim sharlarida kuchli teleskoplardan qaraganda shunchalik ko‘p yulduzlar ko‘rinadiki, ularga nom berishdan ma’no qolmaydi. Olimlaring fikricha, hozirgacha tuzilgan yulduzlar kataloglarida, galaktikamizdagi yuolduzlarning atiga 0.1% qismi kiritilgan ekan xolos. Teleksopda kuzatiladigan yulduzlar soni hozirgacha sanalgan ham nomlangan ham emas.

Shunga qaramay, qorong‘u osmonda, teleskopsiz ham oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan yulduzlar va yulduz turkumlarining eng ravshan va kattalari, qadimdanoq har bir xalqlarda o‘ziga xos nomga ega bo‘lgan. Masalan o‘zbek xalqida ham, katta ayiq, qutb yulduzi, sarv, oqqush va ho kazo.

Uranometria asarida mashhur olmon astronomi Bayer (1572–1625) yulduz turkumlaridagi yulduzlarning ravshanligining kamayib borishi tartibida, yunon alifbosi bilan belgilashni joriy qilgan edi. Masalan, α bilan belgilangan yulduz, o‘z yulduz turkimining eng yorqin yulduzi, β-esa undan keyingi yorqinlikka ega yulduzdir. Masalan, Quyoshga eng yaqin bo‘lgan Sirius yulduzini α–Canis Majoris (katta itning α–si) yoki qisqartirib α–CMa deb belgilagan. Bayer Yunon harflari yetmay qolgan o‘rinlarda Bayer lotin harflaridan foydalanishni boshlagan. Bayerning o‘zi, o‘zi joriy etgan belgilash usulidan ko‘p marta istisnolar bilan, doim ham foydalanmagan. Biroq uning usuli keyingi davr astronomlari uchun yaxshi qo‘llanma bo‘li qoldi.

Shuningdek ingliz qirollik astronomi Jon Flemstid (1646–1719) yulduzlarning yarqirashiga bog‘liq bo‘lmagan tasniflash usulini joriy etdi. Uning usulida yulduz turkumidagi yulduzlar, meridianni kesib o‘tish taribida raqamlab belgilangan. Masalan Arktur yulduzi (u α-Volopas) 16-Bootes kabi belgilangan.

Ba’zi yulduzlarga, ularning xususiyatlarini ilk marta bayon qilib bergan astronomlarning nomi berilgan, masalan, Barnard yulduzi AQShlik astronom E.Barnard (1857–1923) sharafiga, Kapteyn yulduzi esa, golland astronomi Ya.Kapteyn (1851–1922) sharafiga nomlangan.

Zamonaviy yulduz haritalari va kataloglarida asosan yulduzlarning qadimiy nomlari va Bayer usulidagi belgilanishlari keltiriladi. Quyidagi jadvalda eng taniqli yulduzlarning qisqacha bayoni keltirilgan:

№	Belgilanishi	Nomi	Yulduz turkumi	Ko‘rinadigan yulduz kattaligi	Yergacha bo‘lgan masofasi (yorug‘lik yili)	Izoh
1	⊙	Quyosh		−26,72	8,32 ± 0,16 Yorug‘lik daqiqasi	Quyosh tizimi markazi
2	Sentavr α^C	Sentavr proksima	Sentavr	+11,09	4,225	Quyoshga eng yaqin yulduz.
3	Katta itning α-si	Sirius	Katta ayiq	−1,43	8,58	Ko‘z bilan ko‘rinadigan eng yorqin yulduz.
4	Kichik ayiqning α-si	Qutb yulduzi	Kichik ayiq	+1,97	431,4	O‘ta muhim navigatsin yulduz, shimolni ko‘rsatadi.
5	Kilning η-si	—	Kil	+6,21	7000—8000	Gipergigant. Eng yorqin yulduzlardan biri, quyoshdan taxminan 5 mln marta yorqinroq.
6	Chayon α-si	Antares	Chayon	+1,06	604	Yerga eng yaqin va eng yirik yulduzlardan biri.
7	HIP 87937	Barnard yulduzi	Ilon eltuvchi	+9,53	5,963	Eng katta tezlikka ega yulduz
8	PSR B1919+21	—	Tulkicha	?	2283,12	Eng birinchi bo‘li aniqlangan pulsar (1967 yil)

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.



Yulduzlarning o'lchamlari haqida tasavvur uchun taqqodlash modeli.

1. Merkuriy < Mars < Venera < Yer;
2. Yer < Neptun < Uran < Saturn < Yupiter;
3. Yupiter < Volf 359 < Quyosh < Sirius;
4. Sirius < Polluks < Arktur < Aldebaran;
5. Aldebaran < Rigel < Antares < Betelgeyze;
6. Betelgeyze < μ Sefey < VV Sefey < VY Katta ayiq.

LOVA: (IZOHLAR VA QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR)

Titsius-Bode qonuniyati

Titsius-Bode qonuniyati (shuningdek Bode qonuni nomi bilan ham ma'lum) – sayyoralarning Quyoshdan uzoqlashish tartibi, ya'ni Quyoshgacha bo'lgan masofalarining (orbitalarning o'rtacha radiusini) ifodalovchi empirik formula.

Qonuniyat I.D. Titsius tomonidan 1766 yilda taklif etilgan va I.E. Bodening ilmiy ishlari tufayli mashhur bo'lib ketgan. U quyidagicha keltiriladi: D_i=0,3,6,12... ketma-ketlikdagi har bir elementga 4 qo'shiladi va natijani 10 ga bo'linadi. Hosil bo'lgan qiymat ***i***-sayyora orbitasining o'rtacha radiusiga teng bo'ladi. Ya'ni:

$$D_i = \frac{D_i + 4}{10}$$

D_i – ketma-ketlikda, birinchi sondan tashqari, keyingi sonlar geometrik progressiyani tashkil qiladi. Ya'ni, $D_{-1}=0$; $D_i=3\cdot 2^i$, $i \geq 0$. Aynan shu formulani boshqacharoq yozish mumkin: $R_{-1}=0.4$; $R_i=0.4+0.3\cdot 2^i$
Shuningdek, fanda boshqacha ta'rif ham mavjud: Har qanday sayyoradan eng ichki sayyoragacha (Merkuriy) bo'lgan masofa, o'zidan avvalgi sayyoradan eng ichki sayyoragacha bo'lgan masofadan ikki barobar katta. Ya'ni:

$$R_i - R_{merkuriy} = 2\cdot(R_{-1} - R_{merkuriy})$$

Quyosh tizimi katta sayyoralari uchun Titsius-Bode qonuniyatiga binoan hisoblash natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Sayyora	i	k_i	Orbita radiusi (a.b.)			$\frac{R_i - R_{merkuriy}}{R_{i-1} - R_{merkuriy}}$
			qoida bo'yicha	amalda	Qoidaga muvofiqmi?	
Merkuriy	–1	0	0.4	0.39	☑	
Venera	0	1	0.7	0.72	☑	
Yer	1	2	1	1	☑	1.825
Mars	2	4	1.6	1.52	☑	1.855
Asteroidlar belbog'i	3	8	2.8	O'rtacha 2.2÷3.6	☑	2.096 (Serera orbitasi bo'yicha)
Yupiter	4	16	5.2	5.2	☑	2.021
Saturn	5	32	10	9.54	☑	1.9
Uran	6	64	19.6	19.22	☑	2.053
Neptun	Qonuniyatga mos kelmaydi			30.6	☒	1.579
Pluton	7	128	38.8	39.5	☑	2.078 (Uranga nisbatan)
Erida	8	256	77.2	67.7	☑	

Bu jadvalda $k_i = \frac{D_i}{3}$ = 0,1,2,4... Ko'rinib turibdiki, qonuniyatga aksariyat sayyoralar hamda, asteroidlar belbog'i ham muvofiq kelmoqda. Yagona istisno holati – Neptun, unga muvofiq kelmaydi, aksincha, katta sayyoralar turkumidan chiqarib yuborilganiga qaramay, Plutonning orbita radiusi, bu qonuniyatga to'la mos keladi.

Titsius o'zining qoidasini ta'riflab bergan vaqtda, o'sha payda fanga ma'lum barcha sayyoralarning joylashuvi mazkur qoidaga mos kelar edi. Faqat unda beshinchi sayyora o'rni bosh bo'lib, shu sababli bu qoidaga ko'pchilik olimlar katta ahamiyat berishmagan. 1781 yilga kelib Uran sayyorasining kashf etilishi, bu qoidaga bo'lgan qiziqishni orttirib yubordi. Uranning Quyoshgacha bo'lgan masofasi, Titsius formulasiga 98% aniqlikda mos kelar edi. Mazkur olamshumul kashfiyotdan so'ng, Bode, Mars va Yupiter oralig'ida joylashishi lozim bo'lgan 5-chi sayyorani qidirishga hamma astronomlarni chorladi. Koinotning, aynan qoidaga muvofiq qismida, 1801 yilda Serera kashf etildi. Bu voqea astronomlar orasida Titsius-Bode qoidasiga bo'lgan ishonchni orttirib yubordi va bu ishonch to Neptun sayyorasi kashf etilgunicha saqlanib

keldi. Mars va Yupiter orasida Sereradan tashqari yana ko‘plab asteroidlar mavjud ekanligi aniqlangach, bu joyda qadimda katta bir sayyora (Faeton) bo‘lganligi va uning qandaydir sababga ko‘ra parchalanib ketishi natijasida, shunday asteroidlar to‘dasi hosil bo‘lganligi haqidagi g‘oyalar ilgari surila boshladi. XX asrning 60-yillarida astronom Stenli Dermott, Titsius-Bode qonuniyatini

$$T(n)=T(0)\cdot C^{n},\ n=1,2,3...$$ (bu yerda T - orbital davr (kun))

tarzida biroz umumlashtirib, Yupiter, Saturn va Uran sayyoralarining tabiiy yo‘ldoshlari tizimi uchun tadbiq qilib ko‘rdi. Uning natijalari, mazkur gigant sayyoralarning tabiiy yo‘ldoshlar tizimi uchun katta aniqlik bilan o‘rinli bo‘lib chiqdi:

Yupiterning tabiiy yo‘ldoshlari tizimi uchun:

T(0)=0.444; C=2.03

Tabiiy yo‘ldosh		n	Qoidaga ko‘ra	Amalda
Jupiter V	Amalteya	1	0.9013	0.4982
Jupiter I	Io	2	1.8296	1.7691
Jupiter II	Yevropa	3	3.7142	3.5512
Jupiter III	Ganimed	4	7.5399	7.1546
Jupiter IV	Kallisto	5	15.306	16.689
Jupiter VI	Gimaliya	9	259.92	249.72

Saturnning tabiiy yo‘ldoshlari tizimi uchun:

T(0)=0.462; C=1.59

Tabiiy yo‘ldosh		n	Qoidaga ko‘ra	Amalda
Saturn I	Mimas	1	0.7345	0.9424
Saturn II	Enselad	2	1.1680	1.3702
Saturn III	Tetis	3	1.8571	1.8878
Saturn IV	Diona	4	2.9528	2.7369
Saturn V	Reya	5	4.6949	4.5175
Saturn VI	Titan	7 8	11.869 18.872	15.945
Saturn VIII	Yapet	11	75.859	79.330

Uranning tabiiy yo‘ldoshlari tizimi uchun:

T(0)=0.488; C=2.24

Tabiiy yo‘ldosh		n	Qoidaga ko‘ra	Amalda
Uranus V	Miranda	1	1.0931	1.4135
Uranus I	Ariel	2	2.4485	2.5204
Uranus II	Umbriel	3	5.4848	4.1442
Uranus IV	Oberon	4	13.463	12.286

Shuningdek, Titsius-Bode qonuniyatini ekzosayyoralarga tadbiq qilish bo‘yicha, 2013 yili Avstraliya Milliy Universiteti olimlari Timoti Boverd hamda Charlz Laynviver tomonidan olib borilgan tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, tanlab olingan 27 ta ekzosayyoralar tizimidan 22 tasi uchun Titsius-Bode qonuniyati Quyosh tizmidagidan ko‘ra yanada aniqroq bajarilar ekan. Yana 2 ta ekzosayyora tizimi uchun qonuniyat Quyosh tizimidagi bilan deyarli bir xil, qolganlari uchun esa unchalik ham mos kelmaydigan darajada ekan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Koyper belbog‘i

Pluton kashf etilganidan so‘ng, ko‘plab olimlar, uning o‘zi joylashgan hududdagi yagona osmon jismi emasligi va Neptun orbitasidan narida, yana ko‘plab shu kabi kichik o‘lchamlardagi jismlar mavjud bo‘lishi ehtimolini ta’kidlashgan. Ulardan biri, Leonard Frederik, 1930 yilning o‘zidayoq, Pluton – bu hududdan topiladigan osmon jismalri seriyasidan faqat dastlabkisi bo‘lishi mumkin degan edi. 1943 yilda Britaniyalik astronom Kennet Edjvort, o‘zining Quyosh tizimining paydo bo‘lishi haqidagi farazlari yuzasidan, uning chetki qismi juda tarqoq bo‘lib, sayyoralar hosil bo‘lishi uchun yetarli zichlikka ega bo‘lmaganligi va shu tufayli, bu hududda nisbatan kichik o‘lchamlardagi osmon jismlari hosil bo‘lgan bo‘lishi mumkin deb ta’kidladi. 1951 yilda astronom Jerard Koyper, Quyosh tizimining ilk paydo bo‘lish bosqichlarida, uning chetki qismida, mayda osmon jismlaridan iborat o‘ziga xos disk hosil bo‘lganligini, biroq u hozirgacha saqlanib kelgan bo‘lishi ehtimoli juda kam deb baholagan edi. 1992 yilning 30-avgustida astronomlar Devid Juitt va Jeyn Lu Gavay universitetidagi Mauna-Kea teleskopi orqali, ilk marta KBO larni aniqlashga muvaffaq bo‘lishdi.

Koyper belbog‘i (uni ba’zan Edjvort – Koyper belbog‘i ham deb ataladi) – Quyosh tizimining Neptun orbitasidan (Quyoshdan 30 a.b.) boshlab, Quyoshdan 55 a.b. gacha bo‘lgan masofasi. Tashqi tuzilishidan Asteroidlar belbog‘ini eslatadi, biroq Koyper belbog‘i, Asteroidlar belbog‘idan taxminan 20 barobar eniga kattaroq va massasi ham 20 – 200 barobar ortiqroq. Koyper belbog‘i, Astronomik masshtablarda qaralganda, juda kichik osmon jismlaridan tashkil topgan bo‘lib, ularni tashkil qiluvchilar asosan tog‘ jinslari, metallar va muzlagan holdagi metan, ammiak va suvdan tarkib topgan. Yaqin koinotning bu qismida, hozircha uchta karlik sayyora – Pluton, Makemake va Haumea aniqlangan. Undan tashqari, Plutonning yo‘ldoshi, Xaron, karlik sayyora maqomiga da’vogar osmon jismlari – Ork, Iksion, Varuna va Kvavarlar ham Koyper belbog‘ining katta jismlari hisoblanadi. Quyosh tizimidagi ikkita tabiiy yo‘ldosh – Saturnning Febasi va Neptunning Tritoni ham shu hududda paydo bo‘lgan degan farazlar mavjud.

Koyper belbog‘ida joylashgan osmon jismlari – Koyper Belbog‘i Obyektlari (KBO) deb yuritiladi. U kashf etilgan 1992 yildan buyon, KBO lar soni mingdan ortib ketdi. Koyper belbog‘i kashf etilgan ilk vaqtlarda, u Quyoshga davriy yaqinlashadigan qisqa davrli kometalarning manbai deb qaralgan edi. Lekin, keyingi kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, Koyper belbog‘i dinamik nuqtai nazardan ancha barqaror ekan. Kometalarning manbai esa, geliosferaning chetki qismi – tarqoq disk yoki Oort buluti bo‘lishi mumkin ekan.



Transneptun hududda Koyper belbog‘i va tarqoq disk

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Xalqaro Astronomiya Ittifoqi

Xalqaro Astronomiya Ittifoqi ramzi

Xalqaro Astronomiya Ittifoqi (XAI) – butun jahon bo‘yicha astronomik jamiyatlarni birlashtiruvchi xalqaro ilmiy tashkilot. XAI, osmon jismlarining rasmiy va xalqaro nomlanishi, tasniflanishi va shu kabi o‘zaro muvofiqlik va standartlashtirishni talab etuvchi astronomik masalalar yuzasidan qaror va yechimlar chiqaruvchi eng oliy xalqaro tashkilot sifatida tan olingan.

XAI dastavval, 1887 yilda «Osmon Xaritasi» loyihasi yuzasidan, koinotning fototasvirlarini qayta ishlash a yulduzlar xaritasini tayyorlash ishlari jarayonida faoliyat olib borgan fotografik astronomiya hay’ati asosida shakllangan. Rasman esa, 1919 yilda Belgiyaning Bryussel shahrida ta’sis etilgan. XAI – a’zo davlatlar (turli xil astronomik akademiyalar hamda, tegishli muassasalar timsolida) hamda, mustaqil professional astronom olimlar ishtirokida faoliyat yuritadi. Ittifoqqa 73 ta a’zo davlat va 10886 nafar mustaqil astronomlar a’zo. Ittifoq idorasi tarkibiga «Astronomik telegrammalar markaziy idorasi» va «Kichik sayyoralar markazi» faoliyat yuritadi. Bu tashkilotlar Smitson astrofizika rasadxonasida joylashgan. Ittifoq tarkibida shuningdek 50 dan ortiq muvofiqlashtiruvchi kengashlar va Ijroiya Qo‘mitasi mavjud. Ittifoqning joriy va tashkiliy ishlari, ishchi guruhlar va ishchi hay’at tomonidan yuritib boriladi. XAI har 3-4 yilda (faqat, 1939-1945 yillardagi, II-jahon urushi davrida assambleya chaqirilmagan), a’zo davlatlardan birining hududida Bosh Assambleyaga yig‘iladi va astronomiyaning dolzarb masalalari yuzasidan olib borilayotgan ishlar bo‘yicha hisobotlar, xulosa, qaror va yechimlar berib boradi. Shuningdek XAI, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlar uchun astronomiya sohasida ilmiy va amaliy ko‘mak berib kelmoqda.

XAI, o‘zi kabi turdosh fanlar ittifoqlari bilan birgalikda, Xalqaro Ilm-Fan kengashi (Parij) tarkibiga kiradi.

Shu davrgacha XAI 28 marta Bosh Assambleyaga yig‘ilgan (*jadval*):

Assambleya	Yil	Mezbon
I	1922	Rim, Italiya
II	1925	Kembridj, Angliya
III	1928	Leyden, Gollandiya
IV	1932	Kembridj, AQSH
V	1938	Parij, Fransiya
VI	1938	Stokgolm, Shvetsiya
VII	1948	Syurix, Shveytsariya
VIII	1952	Rim, Italiya
IX	1955	Dublin, Irlandiya
X	1958	Moskva, SSSR
XI	1961	Berkli, AQSH
XII	1964	Gamburg, Germaniya
XIII	1967	Praga, Chexoslovakiya
XIV	1970	Brayton, Angliya
XV	1973	Sidney, Avstraliya
XVI	1976	Grenobl, Fransiya
XVII	1979	Monreal, Kanada
XVIII	1982	Patras, Gretsiya
XIX	1985	Dehli, Hindiston
XX	1988	Baltimor, AQSH
XXI	1991	Buenos-Ayres, Argentina
XXII	1994	Gaaga, Gollandiya
XXIII	1997	Kioto, Yaponiya
XXIV	2000	Manchester, Angliya
XXV	2003	Sidney, Avstraliya
XXVI	2006	Praga, Chexiya
XXVII	2009	Rio-de-Jeneyro, Braziliya
XXVIII	2012	Pekin, Xitoy
XXIX	2015	Gonolulu, Gavayi, AQSH

XAIning bosh assambleyalarida qabul qilgan eng muhim qarorlari:

1. 1922 yildagi I bosh assambleyada 88 ta yangi yulduz turkumlari chegaralari belgilandi va qator eski tizimdagi yulduz turkumlari chegaralari soddalashtirildi. Yulduz turkumlarining yakuniy chegaralari 1928 yilda uzil-kesil tasdiqlandi.
2. 1930 yilda XAIning qarori bilan Pluton sayyora sifatida tan olindi.
3. 1958 yilgi X Bosh Assambleyada eski koordinatalar tizimi o‘rniga yangicha – «Galaktik koordinatalar tizimi» joriy etildi.
4. 2006 yildagi XXVI Bosh Assambleya sayyora va karlik sayyora tushunchalariga ta’rif berdi va uning qarori bilan, Pluton sayyoralar safidan chiqarilib, karlik sayyoralar safiga kiritildi.
5. 2008 yil, 11 iyun kuni XAI, fanga yangi tushuncha «Plutoid» ni joriy qildi.
6. 2009 yil Xalqaro Astronomiya yili deb e’lon qilindi.

Astronomiyaga oid terminlar:

Plutoid

Plutoid - Transneptun osmon jismi bo‘lib, Neptun orbitasidan tashqarida, Koyper belbog‘i va Quyosh tizimi chegaralarida harakatlanuvchi kichik sayyora. Dastlab, Plutoid sifatida Pluton va Erida kiritilgan edi. Keyinroq, XAIning qarorlariga ko‘ra, Makemake va Haumea ham bu turkumga kiritildi, Serera karlik sayyorasi Plutoid hisoblanmaydi, chunki, u Neptun orbitasi tashqarisida emas, balki, Asteroidlar belbog‘ida harakatlanadi.

Yulduz kattaligi

Yulduz kattaligi ikki xil: ko‘rinadigan yulduz kattaligi va mutloq yulduz kattaligi. Osmon jismining Yerdagi kuzatuvchiga ko‘rinayotgan yorqinligini ifodalaydi. Mutloq yulduz kattaligi esa, obyektning kuztuvchiga nisbatan 10 parsek masofada joylashgan bo‘lgan taqdirda qanday yorqinlikka ega bo‘lishini ifodalaydi. Mutloq kattalik, ko‘rinadigan kattalikdan farqli ravishda, turli xil yulduzlarning yorqinligini taqqoslash imkonini beradi. Chunki uning qiymati uchun masofa standart 10 parsek qilib belgilanadi. Mutloq yulduz kattaligi ***M*** va ko‘rinadigan yulduz kattaligi ***m*** harflari bilan belgilanadi.

Transneptun obyekt

Transneptun obyekt - TNO, Neptun orbitasidan tashqarida joylashgan barcha osmon jismlariga nisbatan ishlatiladigan umumiy nom.

Perisentr (Perigeliy; Perigey)

Yunoncha peri (περί) – «yaqinida», «atrofida» ma’nolarida. Osmon jismi orbitasining markaziy obyektga nisbatan eng yaqin joylashgan nuqtasi. Quyosh tizimidagi sayyoralar, va boshqa obyektlar orbitasining Quyoshga eng yaqin nuqtasi - Perigeliy. Sayyora mazkur nuqtada bo‘lgan vaziyatda, Quyoshga eng yaqin kelgan hisoblanadi. Venera atrofidagi orbitalar uchun Veneraga eng yaqin nuqta – Perigesperiy. Oy va sun’iy yo‘ldoshlar uchun Yer atrofida aylanish orbitasidagi, Yerga eng yaqinlashgan masofasi – Perigey (yunoncha περίγειος – «yer yaqinida»). Oy atrofidagi orbitalar uchun Periseleniy.



Perisentr

Aposentr (Afeliy; Apogey)

Yunoncha apo (από) «–dan» qo‘shimchasi ma’nosida. Osmon jismi orbitasining markaziy obyektga nisbatan eng uzoq joylashgan nuqtasi. Quyosh tizimidagi sayyoralar, va boshqa obyektlar orbitasining Quyoshdan eng uzoq nuqtasi – Afeliy. Sayyora mazkur nuqtada bo‘lgan vaziyatda, Quyoshdan eng uzoqlashgan hisoblanadi. Venera atrofidagi orbitalar uchun Veneraga eng yaqin nuqta – Apogesperiy. Oy va sun’iy yo‘ldoshlar uchun Yer atrofida aylanish orbitasidagi, Yerga eng yaqinlashgan masofasi – Apogey (yunoncha απόγεια – «yerdan»). Oy atrofidagi orbitalar uchun aposeleniy.



Aposentr

Katta yarim o‘q

Ellipsning markazi va ikkita fokusidan o‘tuvchi, eng katta diametrining teng yarmi. Ya’ni ellips markazidan chiqib uning eng uzoq chtigacha boradigan to‘g‘ri chiziq. Uni ellipsning katta radiusi deb ham atash mumkin. Astronomiyada (osmon mexanikasi), markaziy obyekt (Quyosh) atrofida aylanuvchi osmon jismining, markaziy obyektdan o‘rtacha masofasini ifodalaydi. Bunda, sayyora va yulduz o‘rtasidagi o‘rtacha masofa nazarda tutulgani bois, katta yarim o‘q, markaziy va orbital obyektning massalar

markaziga nisbatan emas, balki, geliotsentrik tizimga keltirilgan holatda qaraladi. Quyosh tizimidagi obyektlar uchun katta yarim o‘q, Keplerning uchinchi qonuni bilan ifodalanadi:

$$\frac{T_2^1}{T_2^2} = \frac{a_1^3}{a_2^3}$$

bu yerda: ***T*** – orbital davr (yil); va ***a*** – katta yarim o‘q (a.b.)

Orbita ekstsentrisiteti

Quyosh tizimidagi obyektlarning orbitalari

Ellipsning ekstsentrisiteti katta va kichik yarim o‘qlarning quyidagi nisbati orqali aniqlanadi:

$$e = \sqrt{1 - \frac{b^2}{a^2}}$$

bu yerda: ***b*** – kichik yarim o‘q, ***a*** – katta yarim o‘q.

Siderik aylanish davri

Quyosh tizimidagi obyektlarning Quyosh atrofida bir marta to‘liq aylanib chiqish davri. Siderik aylanish davrini shuningdek yil deb ham ataladi. Masalan, Merkuriy yili, Yupiter yili va ho kazo. Biroq bu tushunchadagi yilning ma’nosini, fasllar alamashinuvi jarayoni davri takrorlanuvchi tropik yil tushunchasi bilan adashtirmaslik kerak. Tropik yil va Siderik aylanish davri orasidagi farq, sayyoraning o‘z o‘qiga nisbatan qanday burchak ostida og‘ganligi bilan aniqlanadi.

Osmon jismlarining siderik aylansih davrlari	
Osmon jismi	Siderik davri
Merkuriy	87,969 kun
Venera	224,698 kun;
Yer	365,256366004 kun; 365 kun, 6 soat, 9 daqiqa, 10 soniya
Mars	686,98 kun; 1,8808476 yil.
Yupiter	4332,589 kun; 11,8618 yil
Saturn	10 759,22 kun; 29.46 yil.
Uran	30 685,4 kun; 84.01 yil.
Neptun	60 190,03 kun; 164,79 yil.
Pluton	90 613,3055 kun; 248,09 yil.
Serera	1680,5 kun; 4.6 yil.
Erida	205 029 kun; 561,34 yil.
Makemake	111867 kun; 306,28 yil.
Haumea	102937 kun; 281,83 yil.
Oy	27.322 kun

Sinodik aylanish davri

Oy yoki Quyosh tizimidagi biror bir sayyoraning, yerdagi kuzatuvchiga nisbatan, Quyosh bilan ketma-ket ikki marta tutashishi orasidagi davr. Bunda, sayyoralarning Quyosh bilan tutashishi, aniq belgilangan muddatlarda, chiziqli tarzda yuz beradi. Ikkita sayyoraning (ulardan biri uchun biz Yerni qabul qilamiz) sinodik va siderik aylanisg davrlarining nisbati – S quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\frac{1}{S} = \frac{1}{Z} - \frac{1}{T} \quad (tashqi\ sayyoralar\ uchun)$$

$$\frac{1}{S} = \frac{1}{T} - \frac{1}{Z} \quad (ichki\ sayyoralar\ uchun)$$

Bu yerda, ***Z*** – Yerning siderik aylansih davri (1 yil);
T – sayyoraning siderik aylanish davri.

Quyosh tizimidagi sayyoralarning sinodik aylanish davri (Yerga nisbatan)

Sayyoralarning sinodik aylansih davrlari	
Sayyora	Sinodik davri (yil)
Merkuriy	0.317
Venera	1.599
Mars	2.135
Yupiter	1.092
Saturn	1.035
Uran	1.012
Neptun	1.006
Pluton	1.004

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Ichki sayyora

Orbitasi Yer va Quyosh orasidagi fazoda joylashgan sayyoralar. Ya'ni Venera va Mekuriy.

Tashqi sayyora

Orbitasi Yerdan ham Quyoshdan ham uzoqlashish tartibida joylashgan sayyoralar. Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, barcha karlik sayyoralar.

Orbital tezlik

Osmon jismining orbital tezligi, uning barisentr, odatda, massasi kattaroq jism atrofida aylanish tezligi. Sayyoralar, karlik sayyoralar, asteroidlar uchun Quyosh atrofida aylanish tezligi, tabiiy va sun'iy yo'ldoshlar uchun o'z sayyorasi atrofida aylanish tezligi. Ellipssimon orbita bo'ylab harakatlanayotgan osmon jismi uchun orbital tezlik ***v*** quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\sqrt{\frac{\mu}{\rho}(1+2\varepsilon\cos\theta+\varepsilon^2)}$$

bu yerda:

- **μ** - gravitatsiya parametri; μ= G(M+m), bunda, ***G*** – gravitatsiya doimiysi, ***M***-markaziy jism massasi, ***m***-aylanuvchi jism massasi;
- **ρ** - fokus parametri; ellip va giperbola uchun: $\frac{b^2}{a}$;
- **ε** - ekssentrisitet; ellips uchun 0<ε<1; parabola uchun ε=1; giperbola uchun ε>1;
- **θ** - haqiqiy anomaliya.

Orbital tezlikni yana quyidagi formula orqali topish mumkin:

$$v=\sqrt{2(\frac{\mu}{r}+\epsilon)}$$

bunda:

μ - gravitatsiya parametri; ***r*** – markaziy jism va aylanuvchi jism orasidagi masofa; ***ϵ*** – solishtirma orbital energiya.

Quyosh tizimidagi osmon jismlarining orbital tezliklari[1]	
Osmon jismi	Orbital tezlik
Merkuriy	47,87 km/soniya;
Venera	35,02 km/soniya;
Yer	29.783 km/soniya;
Oy[2]	1.023 km/soniya;
Mars	24,13 km/soniya;
Yupiter	13,07 km/soniya;
Saturn	9.69 km/soniya;
Uran	6,81 km/soniya;
Neptun	5,4349 km/soniya;
Pluton	4,666 km/soniya;
Serera	17,882 km/soniya;
Erida	3,436 km/soniya;
Makemake	4,419 km/soniya;
Haumea	4,484 km/soniya;

Albedo

Albedo – Osmon jismlarining (masalan, sayyorlar, tabiiy yo'ldoshlar, meteorlar va ho kazo) tashqaridan kelayotgan yorug'likni qaytarish xususiyatini ifodalovchi fizik kattalik.

[1] Jadvalda osmon jismlarining o'z orbitalaridagi o'rtacha tezliklari keltrildi. Osmon jismining o'rbital tezligi, uning orbitasi shakluiga ko'ra, perigeliyda maksimal va affeliyda minimal darajaga ega bo'ladi. Masalan, Yerning Quyosh atrofida aylanish tezligi, perigeliyda 30.27 km/soniya; affeliyda esa 29.27 km/soniyani tashkil qiladi.

[2] Oyning Yer atrofida aylanish orbitasidagi tezligi.



Astronom olimlar va fazogirlar:

Klayd Tombo

Klayd Tombo

Klayd Tombo 4-fevral, 1906 yilda AQSHning Illinoys shtatida, ijaraga yer olib dehqonchilik qiluvchi fermer oilasida tug‘ilgan. 12-yoshidan boshlab astronomiya bilan jiddiy qiziqib shug‘ullana boshlagan. O‘rta maktabni tugallagach, keyingi ta’limni olish uchun mablag‘i yetmaganligi bois, mustaqil shug‘ullanishga majbur bo‘lgan. U o‘zining yasama teleskopida Oy va Marsning tasvirlarini olib, Louell rasadxonasiga yuborgan. Rasadxonadagi yuqori malakali astronomlarning hayratiga sabab bo‘lgan bu fototasvirlar, o‘zining aniqligi va sifati tufayli, Tombo ushbu nufuzli rasadxonaga ishga taklif etilgan. Aynan Louell rasadxonasida, 1930 yilning 18 fevral kuni, Klayd Tombo o‘zining eng olamshumul kashfiyoti – Pluton sayyorasini kashf qildi. Shuningdek u, Plutonni qidirish ishlari mobaynida, yangi kometa va yuzlab ilgari fanga noma’lum bo‘lgan asteroidlarni ham ochdi. Tombo 1932 yilda Kanzas universitetiga o‘qishga kirib, 1936 yilda bakalavr diplomiga ega bo‘ldi. U 1943 yilgacha Louell rasadxonasida ishladi. 1943-45 yillarda esa, Arizona kollejida, 1945-46 yillarda esa Kaliforniya universitetida dars berdi. 1946 yildan boshlab Las-Krus laboratoriyasida, 1955 yildan boshlab esa, Nyu-Meksiko universitetida ishladi. 1965-yilda Nyu-Meksiko universiteti professori, 1973 yildan esa faxriy professor unvonlariga ega bo‘ldi. Klayd Tombo Plutonni ochganligi uchun maxsus medal (Uilyam Gershel tasviri tushirilgan) va Buyuk Britaniya Qirollik ilmiy jamiyatining Astronomiya uyushmasi tomonidan maxsus oltin medal bilan taqdirlangan. Tombo 1934 yilda Patrisiya Edisonga uylangan va umrining oxirigacha o‘z oilasiga sodiq yashagan. U o‘zidan bir o‘g‘il, bir qiz qoldirgan. Klayd Tombo 1997 yilda Nyu-Meksiko shtatidagi, Las-Kruses shahrida olamdan ko‘z yumgan. Tomboga oid qiziq ma’lumot: o‘rta maktabni bitiruv oqshomida, sinfdoshlari u haqida dastxat-esdaliklar kitobiga «U yangi olamlarni kashf etadi» degan qaydni qoldirishgan ekan.

Juzeppe Piatssi


Juzeppe Piatssi

Juzeppe Piatssi (italyancha: Giuseppe Piazzi) 1746 yilning 16 iyulida Italiyaning Ponte-Valentina shahrida tug‘ilgan. Rim va Turin shaharlarida ilohiyot va falsafadan ta’lim olgan. 1764 yilda Teatin ordeniga (Milan) a’zo bo‘lgan. 1780 yildan boshlab Sitsiliyada yashay boshlagan va o‘zini butunlay astronomiyaga bag‘ishlagan. Shu yilning o‘zida u Palermo universitetida matematika professori unvoniga sazovor bo‘ldi. 1787-1788 yillarda London va Parij shaharlariga ilmiy – ijodiy safar uyushtirib, u yerdagi rasadxonalarning ish jarayoni bilan tanishdi. Vataniga qaytgach, Piatssi, Palermo universiteti qoshida rasadxona tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. uning taklifi va loyihasiga ko‘ra, gertsog Karamaniko moliyalashtirgan rasadxona 1791 yilda qurib bitkazildi. Piatssi o‘zi qurdirgan rasadxonaga, umrining oxirigacha rahbarlik qildi. Bir vaqtning o‘zida u, 1817 – 1826 yillarda u Neapol rasadxonasiga ham rahbarlik qilgan.

Juzeppe Piatssi umri davomida ikki marta yulduzlar katalogini nashr ettirdi. Ulardan birinchisi - «Praecipuarum stellarum inerantium positiones mediae ineunte seculo XIX» - 1803 yilda chop etilgan bo‘lib, unda 6748 yulduzlarning koordinatalari va boshqa muhim astronomik parametrlarini qamrab olgan edi. Aynan shu kitobning qo‘shimcha va tuzatishlar bilan chop etilgan ikkinchi nashri 1814 olam yuzini ko‘rgan bo‘lib, unda 7646 ta yulduz haqida ma’lumotlar berilgan.

Juzeppe Piatssini eng mashhur qilgan kashfiyot bu – Mars va Yupiter orbitalari orasidagi fazoda harakatlanuvchi, fanga ilgari noma’lum bo‘lgan osmon jismi – Sererani ochgani bo‘ldi. Sererani kashf qilgani uchun, Piatssi, 1803 yilda Parij fanlar akademiyasining mukofoti bilan taqdirlangan. U shuningdek 1805 yilda Peterburg fanlar akademiyasining faxriy a’zosi etib saylangan.

Juzeppe Piatssi sharafiga asteroid (1000)Piatssi va Oydagi kraterlardan biri nomlangan. Piatssi 1826 yilning 26 iyulida, Nepaolda vafot etgan.

Nikolay Kopernik[1]


Nikolay Kopernik

Nikolay Kopernik (polyakcha: Mikołaj Kopernik) 1473 yilning 19 fevralida Polshaning Torun shahrida tug‘ilgan. Uyg‘onish davrining yirik matematik, iqtisodchi, kanonik ruhoniysi va astronomi. U fanga, olam tuzilishining geliotsentrik nazariyasini taqdim qilish orqali, tarixda ilk ilm-fan inqilobini amalga oshirgan.

Kopernik, qadimgi astronom olimlardan qolgan, geotsentrik olam tuzilishi haqidagi nazariya haqida mulohaza qilib borib, uning sun’iyligi va o‘ta murakkablashtirib yuborilganligini ta’kidladi. Kopernik, Quyosh Yerning atrofida emas, balki aksincha, Yer va boshqa sayyoralar Quyosh atrofida aylanadi deb ta’kidladi. U o‘zining ta’limoti va g‘oyalarini 1543 yilda Nyurnbergda nashr etilgan «Osmon jismlarining aylanishi haqida» deb nomlangan risolasida bayon etib berdi. U osmon jismlarining barchasining orbitalari umumiy markazga ega ekanligi va bu markaz – Quyosh bo‘lishi lozimligini ta’kidladi. U, Yer olamning markazi emas, u faqat Oy orbitasining markazi va Yer-Oy massalar markazi bo‘lishi, Quyosh va Yer orasidagi masofa, yulduzlargacha bo‘lgan masofadan juda kichik ekanligini ochib berdi. Bu fikrlar, o‘sha vaqtlarda hukmron bo‘lgan olam tuzilishini geotsentrik nazariyasiga mutlaqo zid edi. Shu tufayli Kopernik ta’limoti, cherkov tomonidan qattiq ta’qibga uchragan. Uning asarlari, «Rim ta’qiqlangan kitoblar indeksi»ga kiritilgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan, Kopernik ta’limoti to‘liq o‘z isbotini topdi va fa tarixidagi olg‘a tashlangan eng buyuk qadamlarda biriga aylandi.

Kopernik 1543 yilning 24-may kuni Fromborkda vafot etgan. Kopernik sharafiga, D.I. Mendeleyev kimyoviy elementlar davriy jadvalidagi 112-element «Kopernitsiy» deb nomlangan. Shuningdek, Mars va Oydagi kraterlar, 1972-1981 yillarda faoliyat ko‘rsatgan orbital astronomik rasadxona Kopernik nomi bilan atalgan.

Galileo Galiley[2]


Galileo Galiley

Galileo Galiley (italyancha: Galileo Galilei) 1564 yilning 15 fevralida Italiyaning Piza shahrida tug‘ilgan. Buyuk matematik, fizik, astronom va mexanik olim. U osmon jismlarini kuzatish uchun tarixda ilk bora teleskopdan foydangdan shaxsdir. Ko‘plab astronomik kashfiyotlarni amalga oshirgan. Xususan, Yupiterning eng yirik dastlabki to‘rtta tabiiy yo‘ldoshlarini ochgan. U, Oy ham Yer kabi murakkab relyef tuzilishiga ega ekanligini aniqlagan. Shuningdek Galiley, Quyosh dog‘larini ham ilk kuzatgan olimlardan biridir. Veneraning faza o‘zgarishlarini, Somon yo‘lining esa, yaxlit obyekt bo‘lmay, balki minglab yulduzlardan tashkil topgan ulkan galaktika ekanligini insoniyat dastlab, aynan Galiley kuzatishlaridan keyin ma’lum bo‘ldi.

Galileo Galiley astronomiyadan tashqari, mexanika, gidrostatika va optika sohalarida ham samarali ilmiy ishlar olib borgan. U yangi zamon fizikasining tamal toshini qo‘ygan olimlardan hisoblanadi. Keyinchalik yana ulkan ilmiy kashfiyotlar qilgan yetuk olimlar, xususan Evanjelista Torichelli, Viviani, Kastelli, Boriellilar aynan Galileyning shogirdlaridir.

Hayoti davomida, Kopernikning geliotsentrik nazariyasining eng katta tarafdorlaridan biri bo‘lgan. ilmiy qarashlari tufayli bir necha marta cherkov ta’qibiga duchor bo‘lgan. Umrining so‘nggi yillarini, inkvizitsiya sudining qaroriga asosan, uy qamog‘ida o‘tkazgan.

Galileo Galiley 1642 yilning 8-yanvarida Archetri (Toskaniya) shahrida vafot etgan. Uning sharafiga hozirda, (697)Galileo, Mars va Oyda kraterlar, kosmik zond, geolokatsion sun’iy yo‘ldoshlar tizimlariga Galileo nomlari berilgan.

«U baribir aylanadi!» (Eppur si muove) shaklidagi mashhur iborani aynan Galiley, cherkov inkvizatsiya sudi, uni o‘z g‘oyalaridan voz kechishga majburlayotganida hitob qilgan.

[1] Nikolay Kopernik haqida to‘liq malumotni www.Orbita.Uz saytidan, ushbu havola orqali olishingiz mumkin.
[2] Galileo Galiley haqida to‘liq malumotni www.Orbita.Uz saytidan, ushbu havola orqali olishingiz mumkin.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Mixail Lomonosov

Mixail Lomonosov

Mixail Lomonosov 8-noyabr, 1711 yilda, Rossiyaning Arxangelsk guberniyasi, Denosovka qishlog'ida tug'ilgan. Boshlang'ishlab chiqarish ta'limni mahalliy cherkov rohibidan olgan. 1731 yilda esa, Moskva «Spassk maktabi» ya'ni, Moskva slavyan-yunon-lotin akademiyasiga o'qishga kirgan. Ta'limni muvvafqiyatli tamomlagani uchun, uni 1735 yilda Peterburg fanlar akademiyasi qoshidagi universitetga talabalikka qabul qilinadi. 1736 yilda Lomonosov, fanlar akademiyasining tavsiyasiga binoan, 12 nafar eng iqtidorli talabalar safida, Germaniyaga o'qishga yuboriladi. 1736-39 yillrda germaniyaning Marburg universitetida ta'lim oladi. O'sha yerda o'zi ijarada turgan uyning xo'jayinining qizi Yelizaveta-Xristina Tsilixga uylanadi.

Lomonosov ilmiy faoliyatida asosan, kimyogar, fizik, qomusiy olim bo'lgan. Astronomiya, geologiya, mexanika, geografiya sohalarida ilmiy ishlar olib borgan. Shuningdek, she'riyat, adabiyotshunoslik, tarix hamda, tasviriy san'atga oid ishlari ham ma'lum. Keyinchalik o'z nomi bilan atalgan Moskva universitetining loyihasini ishlab chiqqan. Sankt-Peterburg fanlar akademiyasi a'zosi. Shvetsiya (Stokgolm) va Bolonya fanlar akademiyasining faxriy a'zosi bo'lgan. 1745 yilda Kimyo fanlari professori darajasiga erishgan.

Lomonosovning astronomiya sohasida qilgan eng muhim kashfiyotlaridan biri bu – 1761 yilning 26-may kuni, Venera sayyorasining Quyosh diskidan o'tish jarayonini kuzatishi jarayonida, atmosferaga ega ekanligini aniqlaganligidir. Bu haqida Lomonosov alohida ilmiy risola – «Imperator Sankt-Peterburg fanlar akademiyasida, 26-may 1761 yilda kuzatilgan Veneraning Quyoshdan o'tish hodisasi» ni yozib, uni rus va olmon tillarida chop ettirgan.

Iogann Kepler

Iogann Kepler

Iogann Kepler (nemischa: Johannes Kepler) 1571 yilning 27 dekabrida, Germaniyaning Vayl-der-Shtadt shahrida tug'ilgan. Olmon astronomi, mexanika, optika sohalari mutaxassisi, matematik. Astronomiyaga bo'lgan qiziqishi, unga avvalo 1577 yilda, onasi ko'rsatgan yorqin kometa va 1580 yildagi oy tutilishi hodisalari tufayli paydo bo'lgan. 1589 yilda Maulbronn monastiri qoshidagi o'rta maktabni a'loga tamomlagan. Undagi ilmiy salohiyatni ko'rabilgan shahar ma'muriyati, keyingi, oliy ta'limni olishi uchun maxsus stipendiya ajratgan. 1591 yilda Tyubingen universitetiga o'qishga kirgan. O'sha yillariyoq, Kopernikning olam tuzilishining gelosentrik nazariyasi bilan tanishib, uning yorqin tarafdorlaridan biriga aylanadi.



Keplerning ikkinchi qonuni. Ellipsdagi bo'yalgan hududlarning yuzasi teng va ulardagi yoy masofasini sayyora bir vaqtda bosib o'tadi.

Astronomiya sohasida Keplerning qilgan eng buyuk kashfiyotlaridan biri bu – o'sha vaqtlarda fanga ma'lum bo'lgan sayyoralarning harakat mezonlarini ochib bergani edi. Xususan Kepler, sayyoralar ideal aylana ham, yoki ba'zilar ta'kidlaganidek, epitsikllar asosida ham emas, balki, ellipssimon shakldagi orbita bo'ylab harakatlanishini isbotlab berdi. U sayyoralar harakatiga oid bo'lgan va keyinchalik o'z nomi bilan atalgan uchta fundamental qonuniyatni ochib berdi. Kepler ochgan qonunlarga ko'ra insoniyat ilk bora, sayyoralar Quyosh atrofida aylanishida, uning harakat tezligi Quyoshdan uzoqlashganda va unga yaqinlashganda qanday o'zgarishini va sayyoraning orbita bo'ylab aylanish tezligini qanday hisoblab topishni bilib oldi. Ilm-fanda Kepler «Koinot qonunchisi» maqomi bilan sharaflanadi. Iogann Kepler 1630 yilda Ulm – Regensburg yo'lida vafot etgan.

Uning sharafiga Oy va Marsdagi kraterlar, (1134)Kepler asteroidi, 2009 yilda orbitaga chiqarilgan «Kepler» fazoviy rasadxonasi (asosiy vazifasi, Quyosh tizimidan tashqarida ekzosayyoralarni qidirib topish, NASA ga tegishli) nomlangan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Yuriy Alekseevich Gagarin

Yuriy Gagarin

Yuriy Alekseevich Gagarin 1938 yilning 9-mart kuni, Rossiyaning G'arbiy viloyati (hozirgi Smolensk), Gjat tumanidagi Klushino qishlog'ida tug'ilgan. Rus harbiy uchuvchisi, fazogir. Insoniyat tarixida koinotga parvoz qilgan eng birinchi shaxs.

Gararinning otasi Aleksey Gagarin duradgor, onasi Anna Matveyeva esa, sut fermasida ishlagan. Yuriy Gagarin boshlang'ich ta'limni dastlab, 1941 yilning 1-sentyabrida, Klushino qishlog'idagi o'rta maktabda boshlagan. Biroq 6-oktyabrga kelib Gagarin yashayotgan qishloqni nemis – fashistlar armiyasi bosib oladi barcha soha singari, maktab faoliyati ham to'xtatiladi. 1943 yilda qishloq ozod etilgach, Gagarin yana o'qishni davom ettiradi. U 1949 yilda Gjat o'rta maktabining 6-sinfini tugallab, Lyubertsk hunarmandchilik bilim yurtiga o'qishga kiradi va uni 1951 yilda metall quyuvchi va shakl beruvchi mutaxassis sifatdia a'loga tamomlaydi. 1951 yilning o'zida u Saratov sanoat texnikumiga o'qishga kiradi. 1954 yilning 25–oktyabrida esa, u Saratov aeroklubiga a'zo bo'ladi. U mazkur aeroklubda yuksak natijalarga erishadi va o'zining ilk mustaqil parvozini YaK-18 samolyotida amalga oshiradi. Gagarin Saratov aeroklubini ham a'loga tamomlagan. U, umumiy hisobda 42 soat va 23 daqiqa parvoz qilib, jami 196 marta havoga ko'tarilgan.

1955 yilda Yuriy Gagarin harbiy xizmatga chaqiriladi va u 1955-1957 yillarda harbiy qiruvchi uchuvchi sifatida xizmat o'taydi. 1955 yilning 27 oktyabrida Yuriy Gagarin, Orenburg (o'sha vaqtdagi nomi Chkalov) shahriga, 1-sonli harbiy aviatsiya uchuvchilari bilim yurtiga yo'llanadi. 1957 yilning 25 oktyabrida Gagarin mazkur bilim yurtini ham a'loga tamomlab, Murmansk yaqinidagi, Shimoliy flotga tegishli bo'lgan 169-qiruvchi aviatsiya polkining 122-qiruvchi aviatsiya diviziyasida harbiy xizmat o'tashni boshlaydi. Shu yili Gagarin, Valentina Gorycheva bilan turmush quradi. Ular ikki nafar qiz farzand ko'rishgan.

O'sha vaqtlarda, koinotga insonning uchirilishi borasida ish olib borayotgan ilmiy – texnik guruh rahbari, akademik Korolyov boshchiligida, koinotga parvoz qilishi kerak bo'lgan nomzodlarning aynan harbiy uchuvchilar safidan saralab olinishi kerakligini taklif qilgan edi. Uning taklifiga binoan, avvaliga 20 nafar, keyin esa 6 nafar saralab olingan harbiy uchuvchilar orasidan, koinotga ilk parvoz uchun yakuniy nomzodlar sifatida 3 nafar harbiy uchuvchi – Yuriy Gagarin, German Titov va Grigoriy Nelyubov tanlab olingan edi. Hukumat, mudofaa vazirligi va Korolyov ilmiy guruhu vakillari o'rtasida tor doirada o'tkazilgan so'nggi maslahatlashuvdan keyin, birinchi kosmik parvoz uchun aynan Yuriy Gagarinning nomzodi tasdiqlandi. German Titov esa unga zahira varianti sifatida belgilandi. Parvozdan asosiy maqsad, Korolyovning o'zi tasdiqlagan rejaga ko'ra quyidagicha bo'lgan: «Yerdan 180-230 km balandlikda yer atrofini 1 soat 30 daqiqa mobaynida bir marta aylanib chiqish. Parvozdan maqsad, insoning maxsus jihozlangan kemada, kosmosda bo'la olishini tekshirish, kosmik kemadagi uskunalarning parvoz vaqtidagi holatini tekshirish, kosmik kema va Yer o'rtasidagi aloqani tekshirish, fazogir va fazo kemasining qo'nish uskunalarining ishonchliligiga ishonch hosil qilish».

«Vostok» fazo kemasining maketi

1961 yilning 12-aprel kuni, tonggi soat 09:07 da, Qozog'istonning Boyqo'ng'ir kosmodromidan, Yuriy Alekseevich Gagarin «Vostok-1» fazo kemasida koinotga parvoz qildi. Gagarinning chaqirish taxallusi «Kedr» bo'lgan. Start! Buyrug'i berilishi bilan, Gagarin o'zining mashhur iborasi «Poexali!» («Ketdik!») bilan hitob qilgan edi.

Orbitaga chiqib olgach, Gagarin eng oddiy tajribalarni o'tkazdi: yedi, ichdi, yon daftarga qaydlar qoldirdi. U o'zi xis qilayotgan barcha narsa haqida bort magnitofoniga yozib bordi. Yer atrofida to'liq bir marta aylanib chiqqach, parvozning 108-daqiqasida (soat 10:55:34 da) Gagarin, o'z fazo kemasini Yerga qaytib qo'ndirishga kirishdi. Biroq, qo'nish reja bo'yicha Stalingraddan 110 km (hozirgi Volgograd) masofada emas, balki, unga qo'shni bo'lgan Saratov viloyatidagi Smelovka qishlog'i yaqiniga to'g'ri keldi. Yaqin oradagi harbiy qismning zenit-raketa kompleksi xizmatchilari Gagarinning parashyutda tushib kelayotganligini birinchi bo'lib payqashdi. Qo'nish muvaffaqiyatli amalga oshganidan so'ng, qo'nish joyiga harbiy diviziya xizmatchilari yetb kelishdi va birinchi fazogir insonni harbiy qismga olib ketishdi. O'sha yerdan tuurib, Yuriy Gagarin, berilgan topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilgani

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

haqida, harbiy qo‘mondonlikka axborot berdi. Uning qo‘nish joyining o‘zidayoq, ko‘rsatgan jasorati uchun dastlabki mukofot – «Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish uchun» medali bilan taqdirlandi. Bu esa, Gagarindan boshlab, keyingi barcha fazogirlarga, qo‘nish joyining o‘zida topshirish an’anasiga aylanib qoldi. Ikki kundan keyin 14 apreldayoq, Yuriy Alekseevich Gagarin Sovet ittifoqi qahramoni unvoni bilan taqdirlandi. Shuningdek unga, «Volga» avtomobili, 4-xonali kvartira, hamda 15 000 rubl pul mukofoti topshirildi. Gagarin parvoz qilgan vaqtda harbiy unvoni katta leteynant bo‘lgan. Harbiy qo‘mondonlik, qo‘nish amalga oshgan vaqtning o‘zidayoq unga birdaniga Mayor unvonini berdi. Ya’ni Gagarin, Leteynant bo‘lib uchib, Mayor bo‘lib qo‘ngan. Yuriy Gagarin, jami bo‘lib 40 dan ortiq ichki va xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘lid, ko‘plab mamlakatlar va shaharlarning faxriy fuqarosi, akademiya va oliy o‘quv yurtlarining faxriy akademigi unvonlari bilan taqdirlandi.

Gagarinning parvozdan keyingi hayotining dastlabki 3 yili asosan turli uchrashuvlar, va horijiy davlatlarga xizmat safarlar bilan o‘tdi. 1961 yilning 1-sentyabrida Gagarin, Jukovskiy nomidagi harbiy-uchuvchi-muhandislik akademiyasiga qabul qilindi. 1964 yildan boshlab esa u Fazogirlarni Tayyorlash Markazi boshlig‘ining o‘rinbosari lavozimida ish boshladi. Shu yilning o‘zida Gagarin, kosmonavtlar otryadi komandiri etib tayinlandi. 1966 yilda Yiriy Gagarinni Xalqaro Astronavtika Akademiyasining faxriy a’zosi etib saylashdi.

Yuriy Gagarin yangi turdagi fazo kemalari – «Soyuz»lar bilan ham yana koinotga parvoz qilishga hozirlik ko‘ra boshladi. U shuningdek, yangi turkum qiruvchi samolyotlarining sinovchi-uchuvchisi sifatida, ko‘plab tajriba-sinov ishlarida ishtirok etardi. Shunday sinash uchishlarining birida, 1968 yilning 27 mart kuni, Vladimir viloyatining Kirjach tumani, Novoselyovo qishlog‘i yaqinida, Yiriy Alekseevich Gagarin, MiG-15UTI samolyoti bilan aviahalokatga uchradi va fojiali ravishda vafot etdi.

Hozirda, tarixda birinchi fazogir tug‘ilib o‘sgan Gjat tumani va Gjatsk shahri Gagarin sharafiga, uning nomi bilan ataladi. Dunyo bo‘yicha deyarli barcha shaharlarda, Gagarin ko‘chasi mavjud. Tarixdagi ilk kosmik parvozdan keyingi qo‘nish amalga oshgan Smelovka qishlog‘iga maxsus me’moriy kompleks barpo etilgan. Shuningdek, Yuriy Alekseevich Gagarin sharafiga, uning nomi Oydagi krater va asteroidlardan biriga biriktirlgan.

Gagarin dastlabki kosmik parvozni amalga oshirgan 12-aprel sanasi, butun dunyoda «Kosmonavtika kuni» sifatida keng nishonlanadi.

Uilyam Gershel

Uilyam Gershel

Frederik Uilyam Gershel (inglizcha: Frederick William Herschel) 1738 yilning 15 noyabrida Germaniyaning Gannover shahrida tug‘ilgan. Kelib chiqishiga ko‘ra asli olmon bo‘lgan buyuk ingliz astronom olimi, fizik, shuningdek, bastakor. Uran sayyorasini, uning tabiiy yo‘ldoshlari – Titaniya va Oberronni, shuningdek, Saturnning ikkita yo‘ldoshi – Mimas va Enseladni hamda, infraqizil nurlanishlarni kashf etganligi bilan, hamda, unchalik mashhur bo‘lmagan 4 ta simfoniya basatlaganligi bilan nom qozongan. Gershel shuningdek, Quyosh tizimining Gerkules yulduz turkumi tomonga harakatlanishini aniqlagan. Bundan tashqari, fanga «asteroid» atamasini ham aynan Uilyam Gershel kiritgan.

O‘qish uchun mablag‘i bo‘lmaganligi bois, nemis harbiy orkestriga xizmatga kirishga majbur bo‘lgan. 1755 yilda Polk tarkibida, Angliyaga jo‘natilgan va u yerda xizmatdan voz kechib, Bat shahrida musiqa o‘qituvchisi bo‘lib ishlay boshlagan. Musiqa nazariyasi orqali, matematika, optika va astronomiyaga kirib kelgan. O‘zi mustaqil ravishda shisha sayqallab, teleskoplar tayyorlab savdo qiligan. O‘zi uchun tayyorlagan teleskopida, Bat shahridagi o‘z uyida, 1781 yilning 13-mart kuni Uran sayyorasini kashf etadi va uni qirol Georg III sharafiga «Georg yulduzi» (Georgium Sidus) deb nomlaydi. 1782 yilda Angliya qiroli Georg III Gershelni qirollik astronomi etib tayinlaydi va unga kerakli barcha jihozlar bilan ta’minlangan maxsus rasadxona tuhfa etadi. Uilyam Gershel 1871 yilda, Uran ochganligi sharafiga qirollik Kopli medali bilan taqdirlangan. U o‘z davri uchun eng katta o‘lchamdagi teleskoplar bunyod etganligi, shuningdek tabiatda infraqizil nurlarning mavjudligini kashf qilganligi bilan ham mashhurdir.

Uilyam Gershel 1822 yilning 25-avgustida Bukingemshirda vafot etgan. Uning sharafiga, Oy, Mars va Mimasdagi kreterlar nomlangan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Iogann Bode

Iogann Elert Bode

Iogann Elert Bode (nemischa: Johann Elert Bode) 1747 yilning 19 yanvarida Germaniyaning Gamburg shahrida tug‘ilgan. Olmon astronom olimi. Berlin Fanlar Akademisyasi astronomi lavozimida faoliyat yuritgan. XVII-XIX asrlar astronomlari orasida mashhur bo‘lgan «Berlin astronomiya solnomasi» asoschisi. 1819 yilda chop etilgan Bode muallifligidagi astronomik qo‘llanma[1]da 17240 ta yulduzga tasnif berilganligi bilan nom qozongan. Astronomiyada katta tortishuvlarga sabab bo‘lgan Titsius-Bode qonuniyati hammualliflaridan biri. 1774 yilda, keyinchalik uning sharafiga «Bode galaktikasi» nomi bilan atalgan M81 galaktikasini kashf qilgan. Uilyam Gershel yangi, 7-chi sayyorani kashf qilgach, unga «Uran» nomini berishni aynan Bode taklif qilgan edi. Iogann Elert Bode 1789 yildan boshlab London Qirollik Ilmiy Jamiyati faxriy a’zosi etib saylangan.

Iogann Bode 1826 yilning 23-noyabrida Berlinda vafot etgan. Uning sharafiga, 1923 yilda kashf etilgan asteroid 998(Bode) hamda, Oydagi krater Bode nomi bilan atalagan.

Jerard Koyper

Jerard Koyper

Jerard Piter Koyper (gollandcha: Gerrit Pieter Kuiper) 1905 yilning 7 dekabrida, Gollandiyaning Xerankarspel shahrida tug‘ilgan. Goland va Amerika astronom olimi. 1933-1935 yillarda Garvard universitetida ishlagan. 1948 yilda Uranning tabiiy yo‘ldoshi – Mirandani va 1949 yilda, Neptunning tabiiy yo‘ldoshi – Nereidani kashf qilgan. Shuningdek, Mars atmosferasida CO_2 mavjudligini, hamda, Saturn yo‘ldoshi – Titan o‘z atmosferasiga ega ekanligini aniqlagan. Oyning bir necha mufassal atlaslarining muallifi. Ko‘plab oq karliklar va qo‘shyulduzlarni kashf etgan. Neptun orbitasidan tashqarida joylashgan kichik osmon jismlaridan iborat obyektlar egallagan astronomik hudud «Koyper belbog‘i» uning nomi bilan atalgan.

Jerard Koyper 1973 yilning 23-dekabrida Mexiko shahrida vafot etgan.

Koyepr sharafiga, asteroid 1776(Koyper), Oy, Mars va Merkuriydagi kraterlar uning nomi bilan ataladi. Shuningdek Amerika Astronomiya Jamiyati, uning nomi bilan, ilmiy mukofot ta’sis etgan.

Iogann Daniel Titsius

Iogann Daniel Titsius

Iogann Daniel Titsius (nemischa: Johann Daniel Titius) 1796 yilning 2 yanvarida Sharqiy Prussiyaning Kyonits shahrida tug‘ilgan. Olmon fizigi, matematik va astronom olimi. Leyptsig va Vittenberg universitetlarida faoliyat yuritgan. Quyosh tizmidagi sayyoralarning Quyosh atrofida aylanish orbitalarining o‘zaro masofasining qonuniyatlarini ifodalashni ko‘zda tutadigan empirik qoidani keltirib chiqargan. Keyinchalik bu qoida, Titsius-Bode qonuniyati nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. 32 ta ilmiy qo‘llanma va asarlarning muallifi, 10 ga yaqin ilmiy asarlarni turli tillardan o‘zaro o‘girib, nashr ettirgan.

Iogann Daniel Titsius 1796 yilning 16 dekabrida Vittenbergda vafot etgan.

[1] «Uranographia sive astrorum descriptio» - Berlin, 1819.

Nil Armstrong

Nil Olden Armstrong

Nil Oldin Armstrong (inglizcha: Neil Alden Armstrong) 1930 yilning 5 avgustida AQSHning Ogayo shtati, Ualakoneta shahrida tug‘ilgan. AQSH astronavti, insoniyat tarixida Oyga qadam qo‘ygan birinchi inson, sinovchi-uchuvchi, kosmik muhandis. Ualakoneta shahridagi o‘rta maktabni 1947 yilda tamomlagach, shu yilning o‘zida, Indiana shtati, Vest-Lafayet sharidagi Perdyu universitetining aviatsiya sanoati yo‘nalishiga o‘qishga kiradi. Universitetdagi o‘qishni, oraliq tanaffuslar bilan, 1955 yilgacha davom ettirgan va yakunda, 1955 yili, aviatsiya texnikasi fanlari bo‘yicha bakalavr diplomini qo‘lga kiritgan. Shundan so‘ng, u harbiy xizmatga chaqirilgan va AQSH harbiy havo kuchlari tarkibida, Koreys urushida qatnashgan. Koreys urushidan ikkita oltin yulduz va «Aviatsiya» medali bilan qaytgach, 1958 yilda, tajribaviy kosmik apparati - American X-15 da uchish uchun tanlov bo‘yicha, sinovchi-uchuvchilar safiga kiritildi. Ushbu turkumdagi raketalardagi ilk parvozini 1960 yilda amalga oshirgan Armstrong, 1962 yilga qadar 7 marta, atmosferaning yuqori qatlamlariga raketa parvozlarini amalga oshirdi. 1962 yilda, raketalardagi uchishlarning muvaffaqiyatsiz loyiha ekanligini ta’kidlagan holda loyihani tark etdi va NASAning koinotga uchish uchun olib borayotgan fazogirlar tanloviga ishtirok etish uchun hujjat topshirdi. Shu yili Armstrongni, kosmik parvozlar uchun tayyorlanuvchi kosmonavtlar ro‘yxatining 2-guruhiga qabul qilishdi. Nil Armstrong NASAdagi ilk kosmik parvozini, 1966 yilida, «Ajena-8» fazoviy kemasida amalga oshirdi. Biroq, parvoz, fazo kemasining yo‘nalish belgilovchi tizimlarida kelib chiqqan jiddiy nosozliklar tufayli, ekipaj muddatidan avval yakunlanib, yerga qaytishga majbur bo‘lgan. Ushbu parvoz davomida, Armstrong fazo kemasi kapitani bo‘lib, ikkinchi uchuvchi – Devid Skott bilan birgalikda, ilk bora ikkita fazo kemalari - «Ajena-8» hamda, uchuvchisiz «Jemini» apparatlarining o‘zaro tutashtirish operatsiyasini amalga oshirishgan edi.

1969 yilda Nil Armstrong, Oyga parvoz dasturi doirasida, Apollon-11 Oy kemasining kapitani sifatida, Yerning tabiiy yo‘ldoshiga kosmik parvozni amalga oshirdi. U, hamkasbi Bazz Oldrin bilan birgalikda, Oy sirtiga yengil qo‘nishni amalga oshirishdi va Apollon-11 dan chiqib, Oy yuzasiga qadam bosishdi. Aynan Nil Armstrong birinchi bo‘lib Oyga qadam bosgan edi. U Oyga qadam bosishi bilanoq, quyidagi iborani xitob qilgan; «*Bu bir inson uchun kichik bir qadam, lekin butun insoniyat uchun ulkan sakrashdir*». Nil Armstrong, sherigi Edvin Oldrin bilan birgalikda, Oy yuzasida 2.5 soat bo‘lib, u joyda, ilmiy asbob uskunalarni o‘rnatish, ba’zi oddiy tajribalarni o‘tkazish ishlari bilan shug‘ullanishdi va Oyga AQSH bayrog‘ini o‘rnatishdi.

Nil Armstrong 1971 yilda NASAdan ketishga qaror qildi va 1979 yilgacha, Sinsinatti universitetida dars berdi. So‘ngra u biznes bilan shug‘ullanishga qaror qildi va All Systems, Inc. Firmasini tashkil qildi. Keyingi faoliyatida mashhur astronavt, Milliy Kosmonavtika Qo‘mitasida ham ish olib bordi. U shuningdek, 1986 yildagi Chellenjer shattlining fojiali halokati yuzasidan tekshiruv komissiyasi tarkibida ham ishladi. Armstrong, BBC telekanalining, «BBC: Sayyora» loyihasida ham muntazam ishtirok etgan.

Armstrong, harbiy xizmatda ham, sinovchi-uchuvchilik faoliyatida ham, o‘zining doimo xotiram va o‘ta sovuqqonligi bilan yaqqol ajralib turgani bois, unga «Sovuq kapitan» degan taxallus berilgan ekan. Uning ikki o‘g‘li va bir qiz farzandi bo‘lgan. Oyga birinchi qadam bosgan inson, kundalik hayotda doimo kamtarin bo‘lganligini, safdoshlarining qaydlarida ko‘p uchratish mumkin. U o‘zini, doimo qalam va logarifmik chizg‘ich bilan yuradigan, termodinamikaning ikkinchi qonuni bilan yashaydigan, izlanuvchan muhandis sifatida tasavvur qilishini va har doim shunday bo‘lib qolishini ta’kidlar edi.

Nil Armstrongning Oy sirtidan, Oy kemasiga qaytganidagi tushgan fotosurati. Astronavtning ichki hissiyotlarini yashirmayotgan kamdan-kam holatlaridan biri.

1969 yilda, Oyga parvozdan so‘ng, Prezident Ozodlik medali bilan, 1978 yilda esa, Kosmik medal hamda, Kongress faxri ordeni bilan, 2009 yilda, Oyga parvozning 40 yilligi munosabati bilan, Kongressning Oltin medali bilan taqdirlangan. Armstrong sharafiga, «Apollon-11» qo‘ngan joy yaqinidagi Oy kraterlarining biri, Armstrong krateri deb nomlangan. Shuningdek, asteroidlardan biri - (6469)Armstrong asteroidi nomlangan.

Nil Oldin Armstrong, 2012 yilning 25-avgustida, 82 yoshida, Ogayo shtati, Sinsinatti shahrida vafot etdi. Uning xoki, 2012 yilning 14 sentyabr kuni, Atlantika okeani tubiga dafn etildi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Edvin Oldrin

kichik Edvin Yujin Bazz Oldrin

kichik Edvin «Bazz» Yujin Oldrin (inglizcha: Edwin Eugene Aldrin, Jr) 1930 yilning 20 yanvarida AQSHning Nyu-Jersi shtati, Glen-Ridj sharida tug‘ilgan. AQSH aviatsiya muhandisi, NASA astronavti, AQSH harbiy havo kuchlari iste’fodagi polkovnigi, Fan Doktori. Insoniyat tarixida ilk marotaba Oyga parvoz qilgan «Apollon-11» fazo kemasi ekipaji a’zosi. «Apollon-11»ning Oy moduli - «Burgut»ning uchuvchisi. Oyga qo‘nishni amalga oshirgan ilk fazogir, ekipaj komandiri Nil Armstrongdan keyin, Oyga qadam bosgan ikkinchi inson.

1946 yilda, Monkler sharidagi o‘rta maktabni tamomlagach, Vest-Poyntdagi AQSH harbiy akademiyasiga o‘qishga kirgan. 1951 yilda mazkur akademiyani muvaffaqiyatli tamomlab, harbiy texnika fanlari bakalavri diplomini qo‘lga kiritgan. Shu yili AQSH harbiy havo kuchlariga xizmatga chaqirilib, 1953 yilda, Koreya urushiga safarbar etilgan. Koreys urushidan keyin, Edvin Oldrin, Alabamadagi Maksvell aviatsiya universitetida ofitserlik maktabini o‘tadi va bir qator harbiy bilim yurtlarida, havo janglari bo‘yicha dars berdi. Edvin Oldrin, 1963 yilga kelib, Massachusets texnologiya universitetida, orbitadagi kosmik apparatlarning tutashtirilishini boshqarishga bag‘ishlangan mavzuda doktorlik dissertatsiyani yoqladi va Fan Doktori unvoniga ega bo‘ldi.

1963 yilda Edvin Oldrin NASAga ishga kirdi va fazoga parvoz tartibida navbat bo‘yicha, uchinchi guruh astronavtlar safiga qo‘shildi. Dastlabki vaqtlarda u «Jemini-5»ning parvozi vaqtida, aloqa operatori bo‘lib ishladi. «Jemini-9» ekipajining fojiali halokatidan so‘ng, uning guruhi, «Jemini-9» uchun ikkinchi (zahira guruhi) guruhga, navbatda tayyorlanayotgan «Jemini-12» uchun esa, asosiy ekipajga aylandi. Edvin Oldrin, koinotga ilk parvozini aynan «Jemini-12»da, ikkinchi uchuvchi sifatida, 1966 yilning 11-15 noyabr kunlari amalga oshirdi. 1967 yilda, Edvin Oldrinni, «Apollon» dasturi doirasida, Oyga parvoz uchun mo‘ljallanayotgan uchuvchili fazo kemalari astronavtlari ro‘yxatiga kiritildi. U avval, «Apollon-8» uchun zahira ekipaji tarkibida bo‘ldi. 1969 yil da, «Apollon-11» uchun asosiy ekipaj safida, uning Oy moduli uchuvchisi sifatida Oyga parvoz qildi. Oyga uchish va Yerga qaytishdan iborat 8 kun 18 soat vaqt, hamda, Oy sirtida o‘tkazilgan 2.5 soat muddatda, Oldrin ko‘plab aerokosmik tadqiqotlarni o‘tkazdi va fazo kemalarini boshqarish bo‘yicha muhim tajribalarni qayd qilib bordi. Muvaffaqiyatli parvoz va Yerga qaytishdan so‘ng, Prezident Ozodlik medali, Aviatsiya sanoati medali va boshqa nufuzli mukofotlar bilan taqdirlandi.

Edvin Oldrin 1971 yilda NASAdan ketishga qaror qildi, va uni Kaliforniyadagi sinovchi-uchuvchilar harbiy maktabiga boshliq qilib tayinlashdi. 1972 yil mart oyida esa, Oldrin harbiy xizmatni butunlay tashlab, iste’foga chiqishga qaror qildi. Unda parvoz tayyorgarligidagi yuklamalar va undan keyingi ruhiy holatlar bilan bog‘liq zo‘riqishlar, asab tizimiga ta’sir ko‘rsata boshlagan edi. U xizmatdan bo‘shagach, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ydi va 1972 yildan boshlab, *Research and Engineering Consultants Inc*. Konsalting kompaniyasini tashkil qildi. 1985 yildan e’tiboran, Edvin Oldrin, Shimoliy Dakota universitetidagi, aerokosmik fanlar markazining faxriy professori etib saylandi. Astronavt-professor shuningdek, *Space Adventures* kompaniyasining direktorlar kengashi a’zosi hisoblanadi.

1986 yilda Bazz Oldrin, Yer va Mars orasida, tabiiy gravitatsiya kuchlariga asoslangan tarzda harakatlanuvchi fazoviy mehmonxonalar qurish loyihasi bilan chiqish qilgan. Buning uchun u o‘z muallifligidagi *Cycler* fazo kemalari loyihasini taklif etgan. Edvin Oldrin, 1988 yilda o‘z ismini rasman «Bazz» bilan almashtirdi. «Bazz» – aslida uning taxallusi bo‘lib, oilada uning kichik yoshdagi singlisi, unga aka (inglizcha «brother» so‘zini, «bruzz» va «buzz» tarzida talaffuz qilgan) deb murojaat qilishda, chuchuk talaffuz qilganidan, shunday nom kelib chiqqan ekan.

2002 yildan e’tiboran, esa Edvin Oldrin, AQSHning keyingi yillar uchun kosmik taraqqiyot yo‘nalishini belgilovchi doimiy hay’at a’zosi sifatida saylangan. Oldrin, bir qator mualliflik asarlarini chop ettirgan, xususan uning «Oyda birinchi bo‘lib» (1970), «Yerga qaytish» (1973), «Yerdan kelgan odamlar» (1989), «Qaytish» (2000) va «Oyga parvoz» (2005) kitoblari ilmiy-ommabop janri ixlosmandlari ichida juda mashhur bo‘lgan edi.

Edvin Bazz Oldrin, 4 xil harbiy medallar, shuningdek NASAning turli xil 4 medallari, Kongress oltin medali, hamda ko‘plab fuqarolik va xalqaro ordenlar bilan mukofotlangan. Uning sharafiga Oydagi krater va asteroid, Oldrin nomi bilan ataladi. Oldringa oid yana bir qiziq fakt – uning onasining qizlik familiyasi – Moon ya'ni, Oy bo‘lgan ekan...

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Jovanni Dominik Kassini

Jovanni Dominik Kassini

Dominiko Kassini (italyancha: Giovanni Domenico Cassini) 1625 yilning 8 iyunida, Italiyaning Perinaldo hududida tavallud topgan. Italyan va farang astronomi, hamda, muhandisi. Boshlang‘ich ta’limni Genuya va San-Fruktuoza shaharlarida olgan. 1644-1650 yillarda, Bolonya yaqinidagi Malvaziya rasadxonasida astronom bo‘lib ishlagan hamda, Richcholi va Grimaldilar qo‘l ostida kuzatuvlar olib borgan. 1650-1669 yillarda Bolonya universiteti astronomiya professori. 1669 yilda Fransiyaga ko‘chib o‘tib, 1671 yildan boshlab qirol Lyudovik XIV taklifiga binoan, yangi tashkil qilingan Parij rasadxonasida, rahbar bo‘lib ishlay boshlagan va to umrining oxirigacha ushbu lavozimda faoliyat yuritgan.

Kassini, astronomiya tarixida, o‘ta iqtidorli kuzatuvchi sifatida nom qoldirgan. Xususan u, atmosfera refraksiyasi hodisasining sinuslar qonuniyatiga asoslangan eng dastlabki aniq nazariyasini ishlab chiqqan edi. 1665 yilda, Bolonya rasadxonasida Kassini Yupiterning katta qizil dog‘ini birinchi bo‘lib kuzatgan. Parijda esa, u Saturnning eng katta to‘rt tabiiy yo‘ldoshlari – Yapet, Reya, Diona va Tefiyani kashf qildi. U shuningdek, Saturn halqalarining oraliq bo‘shliqlari mavjudligini, hamda, Yupiter va Saturn sayyoralarining o‘z o‘qi atrofida aylanishin aniqlagan. Yupiter atmosferasining ayrim qismlari o‘zaro nomuvofiqlikda aylanishi (ya'ni, ayrim joylar boshqalariga nisbatan tezroq yoki, sekinroq) ham aynan Kassini ilk bor ta’kidlagan. Kassini, Oy xaritasini tuzgan eng birinchi olimlardan hisoblanadi. Olim 1671-1679 yillarda Oy sirtiga oid kuzatuvlarni olib borgan. Uning muallifligidagi Oy xaritalari 1679 yilda nashr etilgan. 1672 yilda esa, Fransuz Gvianasidan olib borilgan kuzatuvlar natijasida, Mars parallaksiga asoslanib, Yerdan Marsgacha bo‘lgan masofani hisoblab chiqqan. Uning hisoblashlariga ko‘ra, Yer va Mars oraliq masofasi 146 million km tashkil etadi (zamonaviy nisbatan aniq hisoblarga ko‘ra bu masofa 149.6 mln km). Shuningdek aynan Kassini kuzatishlari asosida, Yupiterning yo‘ldoshi Ioning tutilish vaqti, hisob kitoblardagidan doim 22 daqiqaga kechikishi hodisasi tufayli, fan tarixida ilk marta, uning hamkasbi Olaf Remer yorug‘lik tezligini aniqlash ishlarini bajargan edi.

Kassini, ilm-fanda, astronomiyada qanchalik katta yutuqlarni qayd etmasin, biroq ilm-fanda umumiy miqyosda eski tushunchalarning jiddiy tarafdori va himoyachisi bo‘lgan. Xususan u Nyutonning butun olam tortishish qonunlariga, Kepler qonunlariga va Kopernik nazariyalariga doimo raddiya nuqtai nazaridan qaragani ma’lum.

Jovanni Dominik Kassini 1712 yilning 14 sentyabrida Parijda vafot etgan. Hozirda uning sharafiga, Oy va Marsdagi kraterlar, Yapetdagi hudud, asteroid (24101)Kassini astronomik obyektlari, olim nomi bilan ataladi.

Persival Louell

Persivall Louell

Persival Louell (inglizcha: Percival Lowell) 1855 yilning 13 mart kuni, Bostonda tug‘ilgan. Biznesmen, sharqshunos, diplomat, astronom, matematik va millioner. Mars tadqiqotchilaridan biri. Pluton sayyorasining kafsh etilishiga ulkan hissa qo‘shgan, 9-sayyorani (yoki X-sayyora) qidirish ishlarini o‘z hisobidan moliyalashtirgan shaxs. Shuningdek «Arizona» asteroidini kashf qilganligi bilan mashhur. AQSH Fan va San’at akademiyasi faxriy a’zosi, Britaniya sharqshunoslik jamiyati, AQSH, Germaniya, Meksika, Belgiya va Fransiya astronomiya jamiyatlari a’zosi. Massachusets texnologiya universiteti faxriy professori.

1872 yilda, Bostondagi nufuzli o‘rta maktabni tamomlagach, Garvard universitetiga o‘qishga kirgan. Garvardda o‘qishni bitirgach, universitetda qolish haqidagi takliflarni rad etib, Yevropa va Yaqin sharq bo‘ylab safarga chiqqan. Keyin esa, oilaviy meros tekstil fabrikasi va elektr korxonasini boshqaruvida ish olib borgan. 1880 yildan boshlab uzoq sharq madaniyati bilan jiddiy qiziqib qolgan va yapon tilini o‘rganishga kirishgan. 1883 yildan esa, Koreyaning AQSHdagi elchixonasida kotib vazifasida ish olib borgan. 1883-1893 yillarda uzoq sharqqa safarlar uyushtirib, diplomatik munosabatlarda ishtirok etgan va ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

1894 yilda, katta siyosiy obro‘ e’tibor va iqtisodiy imkoniyatlar egasi bo‘lgan Louell, o‘z hayot tarzini butunlay o‘zgartishga qaror qildi. U o‘z diqqatini to‘liq astronomiyaga qaratdi va Arizona shtatidagi Flagstaff hududida o‘z hisobidan rasadxona qurdirib, uni jihozladi. Louell rasadxonasiga o‘z davrining eng ilg‘or astronomlari va yosh tadqiqotchilar jalb etildi. Rasadxonada Louell asosan Mars sayyorasini tadqiq qilish bilan shug‘ullandi. Xususan uning Mars kanallarining kelib chiqishi va Marsda yuksak darajada taraqqiy etgan ongli tamaddun mavjudligi haqidagi g‘oyalari XX asr boshida katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan edi. Persival Louell Marsni tekshirish ishlarini asosan teleskopik kuzatuv natijalarini oddiy qog‘ozga rasm sifatida ishlash bilan olib borgan. Chunki bu vaqtda fototeleskoplar endi-endi paydo bo‘layotgan edi. Louell Marsga oid 15000 dan ortiq rasmni o‘z qo‘llari bilan chizgani ma’lum. Uning Marsni o‘rganish asnosida yozgan, qo‘shni sayyora haqidagi 3 ta kitobi («Mars», «Mars va uning kanallari» hamda, «Mars va undagi hayot»asarlari) o‘sha davrda minglab adadlarda nashr etilgan va eng xaridordir kitoblardan bo‘lgan. 1912 yildan boshlab esa, Louell, Neptundan keyingi sayyorani qidirish ishlarini tashkillashga kirishgan va buning uchun katta mablag‘ ajratgan. Uning ta’biridagi X-sayyorani, afsuski Louellning vafotdan 14 yil keyin, 1930 yilda, aynan Louell rasadxonasidan olib borilgan kuzatuvlar natijasida kashf qilishga muvaffaq bo‘lindi.

Persival Louell, o‘z g‘oyalariga nisbatan berilgan raddiyalarni juda og‘riqli qabul qilar edi. Umrining so‘nggi yillarida u yurak qon-tomir xastaliklarini orttirib oldi. I-jahon urishi boshlanganligi va unga Louellning vatani ham kirganligi haqidagi xabar ayniqsa unga yomon ta’sir ko‘rsatdi. U og‘ir yurak xurujlarini boshidan o‘tkazdi va 1916 yilning 12 noyabr kuni Flagstaffda insult natijasida vafot etdi.

Persival Louell sharafiga, Oy va Marsdagi kraterlarga uning nomi berilgan. Shuningdek, qidiruv ishlarini aynan Louell moliyalashtirgan Pluton karlik sayyorasining ramziy belgilanishidagi ♇ P va L harflari, aynan Louellning ismi sharifining bosh harflariga monand ravishda tanlangan.

Xristian Gyugens

Xristian Gyugens

Xristian Gyugens van Zeylihem (gollandcha: Christiaan Huygens) 1629 yilning 14 aprelida, Gaaga shahrida tug‘ilgan. Golland mexanigi, fizik, matematik, optika ustasi, astronom va ixtirochisi. Gyugens Leyden universitetida matematika bakalavri darajasiga erishgan.

Gyuygensning ishlari asosan optika, mexanika va astronomiya sohalarida katta ahamiyat kasb etgan. Uning ilk ilmiy ishi – 1651 yilda nashr etilgan bo‘lib, u giperbola, doira va ellipslarning kvadraturasini aniqlash masalalariga bag‘ishlangan edi. Xristian Gyugens mayatnikli soatlar ixtirochisi hisoblanib, uning matematik mayatnik va uning asosida ishlovchi soat mexanizmiga bag‘ishlangan risolasi «Mayatnikli soatlar» 1673 yilda nashrdan chiqqan. Bu kitobda shunchaki mayatnikli soatlarning yasalishi va ishlashi tamoyillari haqida so‘z bormay, balki unda, mumtoz mexanikaga oid bir qancha muhim qonuniyatlar ilk marta bayon qilingan asar hisoblanadi. Shuningdek Gyugens, cho‘ntak soatlarining ham ilk ixtirochisi va patent egasi hisoblanadi.

Astronomiyada ham Gyugensning yutuqlari talaygina: U teleskoplarni yanada takomillashtirish borasida jiddiy ishlar olib borib, uning kattalashtirish ko‘rsatkichini 92 barobargacha yetkazgan. Gyugens, o‘zi mukammallashtirgan teleskop orqali, astronomik kuzatuvlar olib bordi va ularning eng yorqin natijalari sifatida, 1655 yilda Saturn halqalarining kashf etilishi va uning tabiiy yo‘ldoshi Titanning ochilshini e’tirof etish kerak. U shuningdek Marsning qutblaridagi muz qalpoqlarini (1672 yilda), hamda, Orion tumanligini birinchi bo‘lib kashf qilgan olimdir. Gyugens Marsning o‘z o‘qi atrofida aylanishini ham nisbatan yaxshi aniqlikda hisoblay olgan. Xristian Gyugensning astronomik kuztuvlari va ularning natijalariga bag‘ishlangan, risolasi – «Kosmik nazariya», 1698 yilda Gaagada lotin tilida nashr etilgan edi. U o‘z astronomik nazariyotiga ko‘ra, boshqa sayyoralarda ham odamlar istiqomat qilishi mumkin deb baholagan. Umuman olganda mazkur risola, Gyugensning shunchaki astronomik tadqiqotlari natijalaridan tashqari, uning butun olam, tamaddun haqidagi g‘oyalari, nazariyalarini o‘z ichiga olgan o‘ziga xos falsafiy-tahliliy ilmiy asar hisoblandi.

Xristian Gyugens 1695 yilning 8 iyul kuni Gaagada vafot etgan.

Gyugens ilm-fanning turli sohalarida o‘ta samarali ish olib borgan olim sifatida o‘zidan sharafli nom qoldirgan. Hozirda, Oy va Marsdagi kraterlar, Oydagi tog‘ cho‘qqisi, (2801)Huygens asteroidi, Titan tomon uchirilgan kosmik zondlar Gyugens nomi bilan ataladi.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Urban Leverye

«Qalam uchida» Neptun sayyorasini kashf qilgan olim – Urban Leverye.

Urban Jan Jozef Leverye (fransuzcha: Urbain Jean Joseph Le Verrier), 1811 yilning 11 mart kuni Sen-Lo shahrida tavallud topgan. Fransuz matematik va astronomi. Neptun sayyorasini kashf etgan olim.

Boshlang‘ich ta’limni o‘z shahrida olganidan so‘ng, Kayenna Politexnika maktabiga o‘qishga kirgan, biroq imtihonlardan topshirmasdan, o‘qishni tashlab, keyinchalik boshqa o‘quv yurti – Parijdagi Buyuk Lyudovik kolledjiga joylashgan. O‘qishni matematikadan oltin medal bilan bitirgach, Stainlas kolledjida matematikadan dars bera boshlagan. 1837 yilda Parij Politexnika maktabiga astronomiya kafedrasiga ishga kirgan. Olim Aragoning taklifiga ko‘ra esa, 1839 yilda Parij rasadxonasida faoliyat boshlagan. Aynan shu yili uning astronomiyaga oid dastlabki asari – «Sayyoralarning yo‘llaridagi asriy o‘zgarishlarning tadqiqi» nomli risolasi nashrdan chiqqan.

U o‘zi mustaqil ravishda kimyo bilan shug‘ullanib, qator tadqiqotlar olib borgan. Biroq, o‘sha davrda Yevropa ilm-fanida eng katta qiziqish bilan o‘rganilayotgan mavzu – Uran orbitasining anomaliyalari va undan keyingi sakkizinchi sayyoraning mavjudligi to‘g‘risidagi bahslar tufayli, astronomiyaga kuchli qiziqish bilan kirib kelgan. Leverye 1842 yilda, Fransua Aragoning taklifiga binoan, Uran orbitasidagi anomaliyalarga ko‘ra, unga ta’siri taxmin qilinayotgan sayyoraning orbitasini va koinotdagi joylashuv nuqtasini matematik usul bilan hisoblash ishlariga kirishdi. Uzoq mehnatdan so‘ng, avval 1845 keyin esa 1846 yilda, Urandan keyingi sayyoraning taxminiy koordinatalari haqidagi hisobotlarni Parij Fanlar Akademiyasiga taqdim qildi. Ayni vaqtda hisobotlaring bir nusxasini Berlin rasadxonasiga, astronom olim Iogann Gallega ham yubordi. Leverye yuborgan matematik hisoblashlar asosida olmon olimi Galle 1846 yilning 23 sentyabrida Neptunni aynan Urban Leverye ko‘rsatgan joyda (juda kichik farq bilan) topishga muvaffaq bo‘ldi. Bu amalda sakkizinchi sayyora – Neptunning kashf etilishi edi. Ushbu xizmatlari uchun Urban Leverye fransuz hukumati tomonidan «Osmon mexanikasi professori» unvoni bilan taqdirlandi. Leveryeni Fransuz Fanlar Akademiyasiga qabul qilishdi. Fransiya qiroli Lyudovik va Prussiya qiroli Filipp, Leveryeni faxriy nishonlar va zodagonlik unvonlari bilan taqdirlashdi. 1854 yildan e’tiboran esa, Urban Leverye Parij rasadxonasining direktori etib tayinlandi. Shuningdek u Qirollik Astronomiya Jamiyatining oltin medallari bilan ikki marta – 1868 va 1876 yillarda taqdirlangan.

Urban Leverye, Neptunning kashf qilinishdagi ishtirokidan tashqari, yana ko‘plab boshqa astronomik tadqiqotlari, xususan, Merkuriyning Quyosh diskidan o‘tishi (1845) va «Faya» kometasining trayektoriyasi hamda, «Leksel» kometasining trayektoriyasi haqidagi ilmiy tekshirishlari (1843), tegishli risolalarda e’lon qilingan.

Uning hayoti va astronomik kuzatishlariga oid asarlari – «Esdaliklar», «Parij rasadxonasi solnomasi» hamda, «Kuzatuvlar» risolalari 1855-1867 yillarda nashrdan chiqqan.

Urban Leverye 1877 yilning 23 sentyabrida Parijda vafot etgan.

Uning sharafiga, Oy va Marsdagi krater, Neptunning halqasi va asteroid (1997)Leverye nomlangan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Kosmik apparatlar:

Mariner-10

Mariner-10 – AQSH tomonidan uchirilgan sayyoralararo kosmik apparat. 1973 yilning 3-noyabrida, Atlas SLV-3D/Centaur D-1A raketa eltuvchisi yordamida, Kanaveral kosmodromidan koinotga parvoz qilgan. Loyiha qiymati 100 million $ baholangan bo‘lib, undan ko‘zlangan asosiy maqsad, Venera va Merkuriy sayyoralarini tadqiq etish bo‘lgan. Mariner-10, ushbu seriyadagi kosmik apparatlarning so‘nggisi bo‘lgan. chunki, undan keyingi uchirilishi ko‘zda tutilgan «Mariner-11» va «Mariner-12», mos ravishda «Voyajer-1» va «Voyajer-2» sifatida qayta nomlanib, tashqi sayyoralar tomonga uchirilgan.

Apparat massasi, uchirish vaqtida 503 kg bo‘lib, uning korpusi 1.4 metrni tashkil qilgan. Mariner-10, har biri 2.7 metr bo‘lgan ikkita quyosh panelidan quvvat olib ishlagan. Uning bortida, ultrabinafsha diapazonda ham tasvirga olish imkoniyatiga ega ikkita kamera o‘rnatilgan edi. Undan tashqari apparat bortida, ultrabinafsha spektrometrlar, infraqizil radiometr, quyosh plazmasi detektori, magnitometrlar mavjud edi.

Mariner-10, «Luna-3» («Луна-3») dan keyingi, gravitatsion manyovrni amalga oshirgan ikkinchi kosmik apparat bo‘ldi. u Venera tortish kuchi ta’siridan, o‘z perigeliysini Merkuriy bilan yaqinlashish uchun foydalandi. U Venera bilan 5770 km gacha yaqinlikka erishgan. Apparat Venera sirti va atmosferasiga oid 300 ga yaqin fotosuratlarni yerga yubordi. Ular tufayli Venera atmosferasining doimiy harakatda ekanligi isbotlandi va Venera atmosferasining dinamik modeli ishlab chiqildi. Mariner-10 dan olingan ma’lumotlar asosida, Veneraning massasi avval hisoblanganidan ko‘ra birmuncha katta aniqlikda qayta o‘lchandi. Shuningdek u Venerada magnit maydoni yo‘qligini aniqlab berdi.

1974 yil davomida, Mariner-10 Merkuriy yaqinidan ikki marta uchib o‘tdi. Dastavval, 29 mart kuni 703 km masofada, keyin, 21-sentyabr kuni 48,069 masofada Merkuriyni tadqiq qildi. Oxirgi marta, 1975 yilning 16 martda 327 km masofadan turib, Merkuriy sirtiga yuzlandi. Bu tadqiqotlar natijasida olingan fotosuratlar va radiografik, spektral ma’lumotlar asosida, Merkuriy sirtining 40-45% qismining xaritasi tuzib chiqildi. Merkuriy sirti ham, xuddi Oydagi kabi kraterlarga to‘la ekanligi ma’lum bo‘ldi. U shuningdek, Merkuriyning tungi (−183 °C) va kunduzgi (+187 °C) haroratlarini o‘lchadi (zamonaviy natijalarga ko‘ra ular mos ravishda −190 va +500 °C). Mariner-10 uzatgan ma’lumotlarga ko‘ra, olimlar, Merkuriyning atmosferasi deyarli yo‘q ekanligi, faqat yupqa geliy qavati mavjudligini aniqladilar. Bu apparat orqali, birinchi marta Merkuriyning magnit maydoni xossalari aniqlandi.

Mariner-10 2008 yilgacha, Merkuriy yaqinidan uchib o‘tgan yagona kosmik apparat bo‘lib qoldi. Undan olingan tasvir va ma’lumotlar, astronomlarga Venera va Merkuriy sayyoralari, Oy va Quyosh haqida qimmatli axborotlarni taqdim etdi.



Messenjer

Messenjer (**ME**rcury **S**urface, **S**pace **EN**vironment, **GE**ochemistry and **R**anging — MESSENGER) – AQSH tomonidan koinotga uchirilgan sayyoralararo avtomatlashtirilgan kosmik apparat. 2004 yilning 3-avgustida, «Delta» 7925H-9.5 raketa eltuvchisi yordamida, Kanaveral kosmodromidan koinotga uchirilgan. 2011 yilning 18 mart kuni apparat Merkuriy orbitasiga yetib bordi. Apparat, Merkuriyning Mariner-10 tasvirga olib ulgurmagan qismini fotokadrlarga muhrlash, sayyoraning kimyoviy tarkibi va sirt yuzasi relyefiga oid ma’lumotlarni olishga mo‘ljallangan edi.

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.

Start paytida Messenjer 1100 kg massaga ega bo‘lib, uning yarmidan ko‘pi (600 kg) yoqilg‘i bo‘lgan. Apparat borti, ikki rejimli yuqori aniqlik ega fotokamera, (Merkuriy sirtining topografik tasvirlari uchun), Rentgen spektrometri, Gamma-spektrometr, Plazma energetik zarrachalari spektrometri, Lazerli balandlik o‘lchagich hamda magnit maydoni xususiyatlarini aniqlovchi magnotometr bilan jihozlangan.

Merkuriyga yetib borish, kosmik apparatlar uchun noqulay hisoblanadi. Shu paytgacha hech bir kosmik apparat, Yerdan Merkuriyga to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchib borgan emas. Messenjer Merkuriyga yetib borgunicha 6 yildan ortiq vaqt sarflandi. Taqqoslash uchun, Plutonga uchirilgan «Yangi gorizontlar» kosmik apparati, 9-yilda mo‘ljalga yetib boradi. Merkuriyga yetib borish uchun esa, ko‘plab murakkab gravitatsion manyovrlarni amalga oshirish kerak. Messenjer, Yer, Venera va Merkuriy gravitatsiya kuchlaridan foydalanib, 6 marta shunday manyovrni amalga oshirgan.

Mariner-3-4

Mariner-4

Mariner-4 – AQSH tomonidan uchirilgan sayyoralararo avtomatik kosmik apparat. 1964 yilning 28-noyabrida, Atlas D Adjena D 289D raketa eltuvchisi yordamida, Kanaveral kosmodromidan koinotga parvoz qilgan. Loyihaning umumiy qiymati 82 million AQSH dollari. Ko‘zlangan asosiy maqsad, Mars sayyorasini tadqiq etish. O‘lchamlari 1,3×2,9 metr. Start vaqtida 260.8 kg vaznga ega bo‘lgan. Apparat ishini 310 Vt quvvatga ega fotoelementlardan iborat generator va akumulyator ta’minlagan. Uning bortida, zaryadlangan zarrachalarni qayd qiluvchi registrator, magnitometr, quyosh plazmasi detektori, Mars sirtini tasvirga olish uchun televizion kamera va boshqa muhim uskunalar o‘rnatilgan. Mariner-4, 1965 yilning 14-15 iyul kunlari, Marsni aylanib chiqdi va uning sirtiga doir fototasvirlarni yerga yubordi. Shunday qilib, Mariner-4, Yerdan tashqarida, boshqa bir sayyorani to‘liq aylanib chiqqan birinchi kosmik apparatga aylandi.



Eksplorer -6

Yer tevarak atrofini o‘rganishga mo‘ljallangan sun’iy yo‘ldosh. AQSH tomonidan 1959 yilning 7-avgustida, Kanaveral kosmodromidan «Tor-Eybl» raketa eltuvchisi yordamida orbitaga chiqarilgan. Sun’iy yo‘ldosh ishini to‘rtta quyosh panellari ta’minlashi zarur bo‘lgan biroq, koinotga chiqqach ularda bittasi ochilmay qolgan. Apparat qisqa va uzun to‘lqinli radiouzatgich, raqamli va analogli television uzatgichlar bilan jihozlangan. Eksplorer-6 tarixda ilk bor Yerni koinotdan turib tasvirga olgan apparat hisoblanadi. Lekin, apparatning elektr ta’minoti o‘ta sust bo‘lganligi (umumiy ta’minot rejalashtirilgan minimumdan atiga 63% ni tashkil qilgan va borgan sari pasayib borgan) sabali tasvir sifati o‘ta yomon edi. Eksplorer-6 tufayli Yer magnit maydoni parametrlari borasidagi ma’lumotlarga aniqliklar kiritildi. 1959 yilning 6 – oktyabriga kelib, Eksplorer – 6 ning elektr ta’minoti tizimi butunlay ishdan chiqdi. shu yilnig oxirida, apparatni Yerdagi Havo Hujumiga qarishi mudofaa raketasining sinovi uchun, nishon sifatida foydalanib, urib tushirishga qaror qilindi. Raketa Eksplorer-6 dan 6.4 kilometr masofada o‘tib ketdi. Eksplorer-6, 1961 yilning 1-iyulida, Yer atmosferasining yuqori qatlamlariga kirib keldi va butunlay yonib ketdi.

Eksplorer-6 suratga tushirgan Yerning ilk fototasviri. 1959 yil.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Voyajer-1

Quyosh tizimi va uning tevarak chegaralarini o‘rganishga mo‘ljallangan avtomatik fazoviy zond. AQSH tomonidan 1977 yilning 5-sentyabrida, Kanaveral kosmodromidan «Titan IIIE» raketa eltuvchisi yordamida orbitaga chiqarilgan. Start vaqtidagi vazni 723 kg. Ta’minot manbai sifatida plutoniy-238 asosida ishlovchi, 3 ta radioizotopli termoelektr generatori qo‘llanilgan. Dastlabki vaqtda, «Voyajer-1»ning asosiy vazifasi, gigant sayyoralar – Yupiter va Saturnni tadqiq qilish sifatida belgilangan bo‘lib, ishchi rejim muddati 5 yil baholangan edi. «Voyajer-1» dastlabki manzil – Yupiter tevaragiga 1979 yilning 1 yanvar kuni yetib bordi va ushbu gigant sayyora yuzasini, uning tabiiy yo‘ldoshlarini fotosuratini yerga yubordi. Ko‘zlangan ikkinchi manzil – Saturnga esa apparat 1980 yilning 13 noyabr kuni yetib bordi. «Voyajer-1» Yupiter va Saturnning mufassal fotokadrlarini olgan eng birinchi kosmik apparatdir. Shuningdek «Voyajer-1» yordamida, ushbu gigant sayyoralarning ilgari fanga ma’lum bo‘lmagan bir necha tabiiy yo‘ldoshlari aniqlandi. «Voyajer-1» belgilangan vazifalarni to‘liq bajarib bo‘lgach, o‘zining ish qobiliyatini 100% saqlab qoldi va uni Quyosh tizimining chetki qismlarini o‘rganish maqsadida, geliosfera chegarasiga yo‘naltirilidi. 1998 yilning 17-fevral kuni «Voyajer-1», o‘sha vaqtgacha, Quyoshdan eng uzoq masofaga yetib borgan fazoviy apparat - «Pioner-10» kosmik zondini quvib o‘tdi va inson tomonidan yaratilgan fazoviy apparatlar ichida Quyoshdan eng olis masofaga uzoqlashgan kosmik apparatga aylandi. «Voyajer-1»ning keyingi maqsadi, Koyper belbog‘i hududini tadqiq qilish va geliopauza chegarasiga yetib borish va u haqidagi axborotlarni yerga uzatish sifatida belgilandi. «Voyajer-1» bu vazifani ham uddalab, keyin geliosferani tark etib, yulduzlararo fazoga chiqib ketsa, u yulduzlararo fazo muhiti haqida ma’lumot uzatgan dastlabki apparatga aylanishi ko‘zda tutilgan edi.

Hozirgi vaqtda, «Voyajer-1» giperbola treaektoriyasi bo‘yicha uchmoqda va endilikda hech qachon Quyosh tizimiga qaytmaydi. 2010 yil iyun oyidan boshlab, «Voyajer-1»ga Quyosh shamolining ta’siri muntazam susayib borayotganligi, demakki, u Quyosh tizimining eng chetki hududlariga yaqinlashayotganligi qayd etilmoqda. 2010 yilning 13 dekabridan e’tiboran, «Voyajer-1»ga Quyosh shamolining ta’siri nolga tenglashgani e’tirof etilgan. Bu vaqtda u startdan boshlab, 116,38 a.b. masofani, ya'ni, 17,41 milliard km yo‘lni bosib o‘tgan edi. 2011 yilning dekabrida, Quyoshdan 119 a.b. masofada, «Voyajer-1» stagnatsiya hududi deb nomlanuvchi fazoga yetib bordi. Bu hudud, yulduzlararo fazodan apparatni ajratib turgan so‘nggi hudud bo‘lib, bu joyda «Voyajer-1» yulduzlararo fazodan kelayotgan yuqori energetik quvvatli zaryadlangan zarrachalar oqimi va bosimining keskin ortishiga duch keldi. Bu hududda magnit induksiyasining qiymati, Quyosh tizimining «Voyajer-1» ortda qoldirgan hududlaridagiga nisbatan, deyarli ikki barobar o‘sdi va magnit maydonining ancha yuqori darajada kuchlanganligi qayd etildi. 2012 yilning 14 iyun kuni, «Voyajer-1» datchiklarida, galaktik va kosmik nurlanishlarning keskin ortganligini, ayni vaqtda esa, Quyoshdan keluvchi zaryadlangan zarrachalar oqimi va miqdorining keskin susayishi qayd etildi. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, olimlar, «Voyajer-1»ning geliosfera va yulduzlararo fazo chegarasiga juda yaqinlashganligi va yaqin oradi, u geliosferani butunlay tark etib, yulduzlararo fazoga chiqib ketishi haqidagi xulosalar kelishdi. 2012 yilning 25-avgust kuni, Quyoshdan 121.7 a.b. masofada, «Voyajer-1» nihoyat gelosferani tark etdi va yulduzlararo fazoga chiqib ketdi. Bu haqida, Nyu-Meksiko universiteti professori Bill Vebber rasmiy bayonot berdi. Biroq, bu haqda NASA raddiya berib, «Voyajer-1» hali geliosferani tark etmaganligi, bu haqdagi yakuniy xulosa, geliosfera va yulduzlararo fazo chegarasida magnit maydoni qutblarining ishorasi o‘zgarishi qayd etilganida berilishini ta’kidlagan. Shunga qaramay, 2013 yilning 12-sentyabr kuni NASA, «Voyajer-1»ning haqiqatan ham, geliosfera chegarasini tark etib, yulduzlarao fazoga chiqqanligini tasdiqladi[1].

Hozirda (2014 yil, 5-may holatiga) «Voyajer-1» Quyoshdan taxminan 127.71 a.b. masofada, 17 km/soniya tezlik bilan harakatlanmoqda va uning ishchi qobiliyati to‘liq saqlanib kelmoqda. Uning bortidagi radioizotopli termoelektr generatorlarining quvvati va ishchi qobiliyati, apparatni yana taxminan 2025 yilgacha hech bo‘lmasa minimal darajada ta’minlay olishi ko‘zda tutilmoqda.

[1] Ron Cowen. Voyager 1 has reached interstellar space. News & Comment. «Nature» jurnali, 12 Sentybr 2013 yil)

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.

«Voyajer-1»ga oid qiziqarli faktlar:

- «Voyajer-1», shu davrgacha inson tomonidan yaratilgan, eng tez harakatlanuvchi mexanizmdir, u hozirda, kamida 17.055 km/soniya tezlik bilan uchmoqda;
- «Voyajer-1» inson tomonidan yaratilgan mexanizmlar ichida eng uzoq masofaga yetib brogan mashina hisoblanadi;
- Taxminan 40000 yildan keyin, «Voyajer-1» Quyoshdan 1 yorug'lik yili masofasiga uzoqlashadi;
- «Voyajer-1» apparati bortida, Yerdan tashqarida bo'lishi mumkin bo'lgan ongli mavjudotlar, o'zga sayyoraliklarga yo'llangan murojaatnoma – oltin disk mavjud bo'lib, unga «Voyajer-1» ni loyihalash vaqtida amalda bo'lgan AQSH prezidenti Jon Kennedining o'zga sayyoraliklarga yo'llagan murojaat-nutqi, Yerning Quyosh tizimidagi joylashuvi koordinatalari, Yerga oid surat va tovushlar, va ho kazo axborotlar yozilgan;
- Yer va apparat orasidagi masofa ssababidan, hozirda «Voyajer-1»dan uzatilgan axborot signallari Yerga 17 soatdan ko'proq vaqtdan keyin yetib kelmoqda.
- Taxminan 285000 yildan keyin, «Voyajer-1» yerdan taxminan 8.6 yorug'lik yili masofasiga, xususan, eng yaqin yulduz – Sirius yulduzigacha yetib borishi mumkin;
- «Voyajer-1»ning amaldagi tezligini inobatga olsak, $m = \frac{m_0 u^2}{c^2}$ formulaga ko'ra, hozirda uning massasi, start vaqtidagidan 1,168 milligrammga ko'proq bo'lishi kerak;
- Ma'lum vaqtlarda, Yer va «Voyajer-1» orasidagi masofa qisqarib va uzoqlashib turadi, chunki, Yerning Quyosh atrofidagi orbitasi bo'ylab aylanish tezligi, «Voyajer-1»ning Quyoshdan uzoqlashish tezligidan kattaroqdir.
- 2017 yil 5-sentyabrda, «Voyajer-1» sartga chiqqanidan buyon, roppa-rosa 40 Yer yili to'ladi.



«Voyajer-1» tomonidan, 40 a.b. masofadan turib olingan Yer sayyorasi fotosurati. 1990 yil.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Apollon dasturi

«Apollon-11»ning «Saturn-5» raketa-eltuvchisidan starti. 1969 yil, 16-iyul.

Apollon – AQSH tomonidan ishlab chiqilgan va Oyga uchish, «Skaylab» orbital stansiyasi, hamda, «Soyuz-Apollon» kosmik tutashtiruvlari uchun qo‘llanilgan, 3-o‘rindiqli fazoviy kema. Boshqaruv moduli, xizmat bo‘limi va Oy modulidan iborat uchta asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Kosmik kemani avvaliga «Saturn-5» raketa-eltuvchisi, yer orbitasiga olib chiqqan. Apollon seriyasidagi kosmik kemalarning asosiy maqsadi, Oyga astronavtlarni eltish bo‘lgan. Apollonlarda, Oyga tomon uchuvchili parvozlar, shuningdek, uchuvchisiz, hamda, Yer atrofi koinotiga, hamda, xalqaro stansiyalarga tutashtirish ishlari bajarilgan. Bu turkum kosmik kema, asosan uch qismdan: dvigatel bo‘limi, astronavtlarni yerga tushirish bo‘limi, hamda, Oy modulidan (qo‘nish va uchish bosqichlari) iborat bo‘lgan. Start vaqtidagi maksimal massasi 47 tonna, ekipaj faoliyat yuritadigan va yashaydigan bo‘lim hajmi 12.7 m^3. Oyda maksimal qolish muddati 75 soat. 1968 yildan 1975 yilgacha jami 15 ta Apollon kosmik kemalari uchirilgan bo‘lib, ularda 38 nafar astronavt parvoz qilgan. 15 ta parvozdan oltitasida – Apollon-11, 12, 14, 15, 16, 17 larda ekipaj (jami 12 nafar astronavt) Oyga qo‘nishga muvaffaq bo‘lgan. Xususan, 1969 yilning 21 iyulida, Apollon-11 ekipaji a’zolari – Nil Armstrong va Edvin Oldrinlar ilk marta Oy yuzasiga qo‘nib, uning sirtiga chiqishga erishgan edilar.

Apollon – hozirgacha uchuvchili kosmik kemalar ichida Yer tevarak orbitasini tark etib, boshqa osmon jismiga uchib borgan va Oy sirtiga yengil qo‘nishni amalga oshirgan yagona kosmik kema hisoblanadi.

Luna-1



«Luna-1»ning kosmonavtika muzeyidagi maketi.

«Luna-1» – Sobiq ittifoq tomonidan ishlab chiqilgan va Oy hamda koinotni tadqiq etish uchun mo‘ljallangan fazoviy apparat. 1959 yilning 2-yanvar kuni, Qozog‘istondagi Boyqo‘ng‘ir kosmodromidan, «Vostok-L» raketa-eltuvchisi yordamida uchirilgan. Maqsadi Oy sirtiga qo‘nish va u joyga SSSR tamg‘asini joylashtirish bo‘lgan. Biroq, loyihalash davomida nazardan chetda qoldirilgan ayrim xatoliklar[1] evaziga, «Luna-1» Oyga qo‘na olmadi, aksincha, u, Oy sirtidan 6000 km masofadan o‘tib ketdi va geliotsentrik orbitaga chiqib ketdi. Shunday bo‘lsa ham, «Luna-1»ning parvozini butunlay muvaffaqiyatsiz deb bo‘lmaydi. Sababi u, eng avvalo, inson qo‘li bilan yasalgan mexanik apparatlar ichida birinchi bo‘lib, ikkinchi kosmik tezlikka erishgan, hamda Quyoshning ilk sun’iy yo‘ldoshiga aylangan dastlabki fazoviy apparat bo‘lgan. O‘z vaqtining ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti nuqtai nazaridan bu juda salmoqli yutuq hisoblangan. «Luna-1» orqali olingan ilmiy natijalar ichida, shularni alohida ta’kidlash o‘rinliki, uning bortiga o‘rnatilgan magnitometr asboblari, Yer sharining radiatsion belbog‘i mavjud ekanligini aniqlashgan edi. Shuningdek, apparat, zarrachalar tutqichi va hisoblagichi apparatlari yordamida esa tarixda birinchi marta, Quyosh shamoli parametrlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchovlarini olishga erishilgan. Apparat bortiga yuklangan 1 kg miqdordagi natriy bug‘larini ochiq koinotga bulut tarzida sochib chiqarish orqali, amaliy tajriba o‘tkazilib, sun’iy kometa effektini hosil qilish bo‘yicha ilmiy tajribalar o‘tkazilgan. Tajriba muvaffaqiyatli chiqib, natriy bulutlari, Yerdan 119500 km masofada, bir necha daqiqa davomida zarg‘aldoq rangda, 6-kattalikdagi yulduzlar singari porlab turgan. Shuningdek, aynan «Luna-1» apparati orqali, Oyda magnit maydoni mavjud emasligi aniqlangan edi.

Apparatning yana boshqa nomlari - «Luna-1D» va «Mechta» dastlabki davrlarda keng ishlatilgan. Apparat hozirda ham Quyosh atrofini aylanib chiqmoqda, uning aylanish davriyligi, ya’ni «Luna-1»ning 1 yili, 450 Yer sutkasini tashkil qiladi. Apotsentrda apparat Quyoshdan 1.315 a.b. masofaga uzoqlashadi va peritsentrda unga 0.9766 a.b. gacha yaqinlashib keladi.

[1] Uchinchi bosqich («E» bloki) dvigateliga buyruq berishda, apparatning koinotdagi joylashgan masofasi va Yerdagi boshqaruv punkti o‘rtasidagi masofada, buyruq signallarining yetib borish muddati e’tibordan chetda qolgan.

Apollon-11

«Apollon-11»ning nishoni.

«Apollon-11» – Apollon seriyasidagi, uchuvchili kosmik kema. 1969 yilning 16-24 iyul kunlari, tarixda ilk marta, bortida inson bilan Oyga parvoz qilgan va Oy sirtiga qo'nish amalga oshirilgan ilk fazo kemasi. Ikkita asosiy moduldan – boshqaruv moduli – «Kolumbiya» va Oy moduli «Burgut»dan iborat bo'lgan. 1969 yil, 16-iyul kuni, Floridadagi, Kennedi kosmik markazining 39A kompleksidan, «Saturn-5» raketa eltuvchisi yordamida fazoga uchirilgan. Start vaqtidagi massasi – 43901 kg. Parvozning umumiy davomiyligi – 8 kun, 3 soat, 18 daqiqa va 8 soniyani tashkil etgan. Kema kapitani – Nil Armstrong, ekipaj a'zolari – Edvin Oldrin (Oy moduli uchuvchisi) va Maykl Kollinz (boshqaruv moduli uchuvchisi). Startdan (13:32) 11 daqiqa, 42 soniyadan so'ng, «Apollon-11», yer sirtidan 190.8 km balandlik masofasida, 7.79 km/soniya tezlikka ega bo'lgan tarzda, Yer tevarak aylana orbitasiga muvaffaqiyatli chiqishga erishdi. Yer atrofida 1.5 aylanish bajarilganidan so'ng, Tinch okeani ustidan uchish vaqtida, «Apollon-11» ikkinchi kosmik tezlikka erishdi va Oyga uchish trayektoriyasiga yo'naldi. Parvozning to'rtinchi kuni, startdan 75 soat 41 daqiqa o'tgan vaqtda, «Apollon-11» Oydan 572 km masofada, Oyning Yerdan ko'rinmaydigan teskari tomoniga o'tdi va 8 daqiqadan so'ng, u 114.1 km aposeleniy va 313.9 km pereseleniyga ega bo'lgan, Oy tevarak-atrofi orbitasiga chiqishga erishdi. Keyinchalik, Oy atrofidagi aylanish orbitasiga tegishli tuzatishlar kiritilganidan so'ng, 13-marta aylanishning so'ngida, «Burgut» va «Kolumbiya» o'zaro ajraldi va «Burgut», astronavtlar bilan birga Oyga qo'nishni amalga oshirishga kirishdi. Qo'nish, Oydagi «Sokinlik dengizi» hududida muvaffaqiyatli amalga oshirildi va astronavtlar «Burgut»ni tark etib, avval Nil Armstrong, undan 15 daqiqa keyin esa, Edvin Oldrin Oy sirtiga chiqishdi. Ular Oyda bir necha amaliy tajribalar o'tkazishdi va Oy guruntidan namunalar yig'ishdi. Shuningdek, Yer bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga chiqib, telemuloqotda va prezident bilan suhbatda bo'lishdi. So'ngra, Oyga ilmiy-tekshirish apparatlari – seysmometr va lazer nur qaytargichi (ko'zgu) o'rnatish ishlarini bajarishdi. Amalga oshirilayotgan barcha ishlarni astronavtlar o'zaro almashinib fotosuratga tushirib borishdi. So'nggi bosqichda esa, astronavtlar o'zlari bilan olib kelgan, kosmonavtlar Yuriy Gagarin, Valentin Komarovlarga tegishli esdalik medallarini Oy sirtiga olib chiqish vazifasini bajarishdi. Ushbu jarayon, halok bo'lgan kosmonavtlar xotirasi hurmati uchun bajarilgan o'ziga xos marosim tarzida bo'lgan. Rejalashtirilgan barcha ishlar yakunlangach, «Burgut»ni tark etishganiga 2 soat 31 daqiqa va 41 soniya bo'lganida, astronavtlarga kemaga qaytish haqida buyruq berildi. Astronavtlar «Burgut»ga qaytgach, endi Yerga tomon parvozga tayyorlana boshlashdi va «Burgut» «Kolumbiya» bilan qayta tutashgach, «Apollon-11» Yerga qaytish trayektoriyasiga yo'l oldi. 22 iyul kuni, «Apollon-11» Oyning tortish kuchidan Yerning tortish kuchi, kuchliroq bo'lgan fazoga kirib keldi va Yerga qo'nish bosqichiga o'tdi. 24 iyul kuni, parvozning 195 soat 3 daqiqasi orta qolgan vaqtda, «Apollon-11» Yer atmosferasining yuqori qatlamlariga kirib keldi va 122 km balandlik masofasida, 11 km/soniya tezlik bilan pastlay boshladi. 3 daqiqadan so'ng, Oyga parvozni muvaffaqiyatli amalga oshirgan qahramon ekipaj bilan birga «Apollon-11», Tinch okeani suvlariga kelib tushdi, va avvaldan tayinlangan AQSH dengiz flotiga tegishli «Xornet» kemasi yordamida, chiqarib olindi va Pirl-Xarbor yaqinidagi Ford oroliga eltildi. Astronavtlar Oydan Yerga qaytib uchgan vaqtdan boshlab 21 kunlik karantin muddatini o'tashdi. Karantin muddatidan 1 kun avval yakunlandi va 11 avgust kuni, bir kunlik dam olishdan so'ng, 12 avgust kuni Oyga uchgan astronavtlarning keng omma bilan telemuloqoti uyishtirildi.

«Apollon-11» ekipaji. O'ngdan chapga: Nil Armstrong, Maykl Kollinz, Edvin Oldrin

Oy moduli – «Burgut» Oy sirtiga qo'nishni amalga oshirmoqda.

Oydagi inson izi. Edvin Oldrin oyoq kiyimi qoldirgan.

Vostok-1

«Vostok-1»ning nishoni.

«Vostok-1» – Vostok seriyasidagi, fazogir-uchuvchili fazo kemasi. Insoniyat tarixida birinchi marotaba, bortida inson – fazogirni Yer tevarak-atrofi orbitasiga olib chiqqan tarixiy kosmik kema. 1961 yilning 12 aprel kuni soat 09:07 da Qozog‘istondagi Boyqo‘ng‘ir kosmodromidan, Vostok 8K72K raketa-eltuvchisi yordamida koinotga uchirilgan. Start vaqtidagi massasi 4725 kg. Korpus diametri 2.2 m, uzunligi 4.4 m. Chaqiruv-taxallusi «Qaldirg‘och». Ekipaj 1 kishidan iborat: kosmik kema uchuvchisi – Yuriy Alekseevich Gagarin, chaqiruv-taxallusi «Kedr». Startdan keyin, belgilangan barcha mexanizmlar to‘g‘ri va o‘zaro muvofiq ishlab, 2-soniydan so‘ng, ikkinchi bosqich dvigateli ajralib chiqdi va «Vostok-1» muvaffaqiyatli ravishda orbitaga chiqarildi. Biroq, «Vostok-1» uchun hisoblangan apogey nuqtasi, nazariy hisoblashlardan jiddiy farqqa ega bo‘lib, u hisob-kitoblardagidan 100 km balandroqda, ya’ni, 302 km bo‘lib chiqdi, perigey esa, 175 km ni tashkil etgan. Orbitaga chiqib olgach, fazo kemasini ma’lum nuqtada to‘xtatish va Yer atrofi orbitasi bo‘ylab aylanishga yo‘naltirish zarur edi. Buni amalga oshirish uchun, avvaldan rejalashtirilgan ravishda, uchinchi bosqich dvigatelini o‘chirishga berilgan radiosignalli buyruq bajarilmay qoldi. Agar fazo kemasi, dvigatel o‘chmay qolib, yana uchishda davom etganida, bunday apogey nuqtasiga ega orbitada aerodinamik tormozlanish jarayoni, 20 kundan 50 kungacha davom etishi mumkin edi. Uchinchi bosqich dvigatelni o‘chirish, zahira mexanizmi sifatida avvaldan tayyorlangan maxsus taymer vositasida avtomatik tarzda amalga oshirildi va «Vostok-1» Yer sayyorasini atrofini aylanishni boshladi. Yerdagi boshqaruv markazida va boshqa ko‘plab davlatlardagi havaskor radioaloqa markazlarida, koinotga qilingan ilk tarixiy parvozdagi «Vostok-1» fazo kemasidan radiosignallar qabul qilindi. Ularda, bort asbob-uskunalarining holati, fazogirning nutqi va fiziologik ahvoli qayd etib borildi. Fazogir Yuriy Gagarin, orbitada eng oddiy amaliy tajribalar o‘tkazdi: u tanovul qildi, ichdi va qog‘ozga qaydlar tushirib bordi. U Yer atrofi orbitasida 1 aylanish amalga oshirgach, parvozning 1 soat 48 daqiqasida, Saratov viloyatining Smelovka qishlog‘i hududiga muvaffaqiyatli ravishda qo‘nishni amalga oshirdi. Umumiy hisobda, «Vostok-1» fazo kemasi, bortida fazogir bilan, Yer atrofi orbitasini to‘liq 1 marta aylanib chiqib, jami 41000 km masofani uchib o‘tdi. «Vostok-1»ning koinotga parvozi, butun insoniyat tamadduni tarixidagi eng olamshumul voqealardan biri, odamzot aql-zakovati va ilm-fanning eng ulkan yutuqlaridan biri sifatida tarixga kirdi.

«Vostok-1»ning modeli.
©Moskva kosmonavtika muzeyi.

Lunaxod-1


Lunaxod-1 modeli.

«Lunaxod-1» – Yerdan tashqaridagi, koinotdagi boshqa osmon jismlari sirtiga qo‘ndirilgan va muvaffaqiyatli ish olib borgan, masofadan boshqariluvchi, ilk fazoviy apparat. 1970 yilning 10 noyabr kuni Qozog‘istondagi Boyqo‘ng‘ir kosmodromidan, «Proton» raketa eltuvchisi yordamida koinotga uchirilgan. Start vaqtidagi massasi 756 kg. Quvvati 185 Vt quyosh batareyalaidan ta’minlangan. Asosiy maqsadi – Oy sirti relyefining o‘ziga xosliklarini o‘rganish, Oydagi, rentgen, radioaktiv va kosmik nurlanishlar darajasini aniqlash, Oy tuprog‘ining kimyoviy tarkibini tekshirish bo‘lgan. 1970 yilning 17 noyabr kuni, «Luna-17» sayyoralararo stantsiyasi yordamida Oy sirtiga, Yomg‘irlar dengizi hududiga eltib qo‘yilgan. Apparat bortiga, ikkita televizion kamera, to‘rtta telefotometr, rentgen spektrometri, rentgen-teleskopi, odometr, radiatsiya detektori va lazer reflektori asboblari o‘rnatilgan. «Lunaxod-1» umumiy hisobda, Oy sirtida 301 kun, 6 soat va 37 daqiqa ish olib bordi va 10540 m masofani bosib o‘tdi. Yerga 25000 dan ortiq fotosurat, 211 panorama kadrlarini yubordi. 25 joyda, Oy guruntining kimyoviy tarkibiga oid tahlillarni olib bordi. U oxirgi marta 1971 yilning 14 sentyabri kuni aloqaga chiqqach, energiya resurslarining butunlay tugashi natijasida ishdan to‘xtadi. Bu muddatning o‘zi rejadagidan 3 barobar ko‘p edi. Apparat ishdan to‘xtagach ham, unga o‘rnatilgan lazer reflektor bilan, Oygacha bo‘lgan masofani aniq o‘lchash ishlarida foydalanib turildi. Biroq, keyinchalik uning aniq joylashuvi bilinmay qoldi va «Lunaxod-1» butunlay ko‘zdan yo‘qoldi. Uni, o‘sha 1971 yildan keyin, ilk marta 2010 yilda, AQSHning Kaliforniya universiteti mutaxassislari Oy sirtida qayta topib olishdi va undagi lazer qaytargichdan akslanish olishga erishishdi.


«Hiten» modeli.

Hiten

«Hiten» (yaponcha ma'nosi «Yulduzli qiz») – Oyni tadqiq qilishga mo'ljallangan, Yaponiyaga tegishli bo'lgan dastlabki kosmik zond. 1976 yilda, «Luna-24» faoliyati to'xtatilganidan keyingi 14 yillik tanaffusdan so'ng, birinchi marta Oyga yuborilgan fazoviy apparat. Start vaqtidagi massasi 143 kg. 1.4 metr diametrli 0.8m uzunlikdagi silindrik shaklga ega bo'lgan. 1990 yilning 24 yanvar kuni, Yaponiyaning Utinoura M1 kosmodromidan Mu-3S-II M-3S2-5 raketa-eltuvchisi yordamida fazoga uchirilgan. Asosiy maqsadi, Oyning gravitatsion maydonini tadqiq qilish, Yer atmosferasida aerodinamik tormozlanish jarayonini o'rganish va Oy tevarak atrofidagi kosmik chang parametrlarini o'lchash bo'lgan. Oy atrofida 10 marta aylanib uchganidan so'ng, 1990 yilning 19 mart kuni, Oy sirti tomonga kichik zond - «*Hagoromo*»ni (yaponcha ma'nosi «*farishta yopinchig'i*») tashladi. «Hagoromo» manzilga yetib borganmi, yo'qmi hech kim bilmaydi, chunki uning radiouzatgichlari darhol ishdan chiqqan edi. «Hiten»ning asosiy maqsadlaridan biri - yer atmosferasi yuqori qatlamlarida aerodinamik tormozlanishni amalga oshirganidan so'ng, uni yana Oyga qayta yo'naltirishga qaror qilindi. Apparat 3 oydan keyin, Oy orbitasiga chiqishga erishdi. 1991 yil 2 oktyabr kuni «Hiten» Oy orbitasida, oyning qat'iy gravitatsion ta'siriga tushib qoldi. 1992 yilning 15 fevralida esa uni Oyning sun'iy yo'ldoshi orbitasiga o'tkazib yuborildi. 1993 yilning 10 aprel kuni esa, Yerdan berilgan buyruqqa ko'ra, «Hiten» Oy sirtiga qulatib yuborildi. Dastlabki yapon zondi koinotda jami bo'lib, 3 yil va 2 oy muddat faoliyat olib bordi.

Chane-1


«Chane-1»

«Chane-1» – Oyni tadqiq qilishga mo'ljallangan *Chinese Lunar Exploration Program* Xitoy dasturining birinchi bosqichiga tegishli bo'lgan yo'ldosh. 2007 yil 24 oktyabrda, Sichan kosmodromidan «Buyuk yurish» nomli raketa-eltuvchisi yordamida Oy orbitasiga chiqarilgan. Massasi 2350 kg. Aylanish dari ~127 daqiqa. Loyiha qiymati 180 mln dollar. Asosiy maqsadi – Oyni tadqiq qilishning keyingi bosqichlari, Oy robotlari va Xitoy astronavtlarini Oyga uchirish uchun zaruriy ilmiy ma'lumotlarni yig'ish; keyingi apparatlarning Oyga qo'nish koordinatalarini aniqlash; Oyning uch o'lchovli topografik xaritasini tuzish; Titan va Temir kimyoviy elementlarining tarqalganlik darajasini, ularni Oyda sanoat miqyosida qazib olish nuqtai nazaridan o'rganish; mikroto'lqinli nurlanish orqali, kimyoviy elementlaring, xususan, geliy-3 ning miqdori Oy ichki chuqurligining ortishi bilan qanday o'zgarishini tekshirish; Oy va Yer orasidagi fazoni, yerning magnitosferasini hamda, Quyosh shamolidagi plazmani o'rganish. Ushbu apparat, o'zodagi bort asboblari yordamida Yerga 1.37 terrabayt axborot yubordi va ular asosida, tarixda birinchi marotaba, Oyning uch o'lchovli xaritasi hosil qilindi. «Chane-1» 2009 yilning 1 martida, o'z xizmat vazifasini bajarib bo'lganligi sababli, Oy sirtiga qulatib yuborish orqali yo'q qilindi.

Chandrayan-1


«Chandrayan-1»

«Chandrayan-1» – Oyni tadqiq qilishga mo'ljallangan Hindistonga tegishli kosmik zond, Oyning sun'iy yo'ldoshi. 2008 yilning 22 oktyabr kuni, PSLV-XL raketa-eltuvchisi yordamida, Shrixarikota kosmodromidan koinotga chiqarilgan. Start vaqtidagi massasi 1304 kg. «Chandrayan-1» yoqlari 1.5 o'chamli kub shaklida bo'lib, bortiga 12 xil asbob-uskunalar, jumladan, Oy mineralogiyasini o'rganishga mo'ljallangan spektrometr, radar, dozimetr, atom analizatori hamda futokameralar o'rnatilgan. Uning asosiy maqsadi, Oy yuzasidan foydali qazilmalar, hamda, muz zahiralarini qidirish va Oy sirtining uch o'lchovli xaritasini tuzishdan iborat. «Chandrayan-1»ning tarkibida, Oyga qo'nishga mo'ljallangan, zarbali-zond mavjud bo'lgan. 2008 yilning 8 noyabr kuni, Hind kosmik apparati, selenosentrik orbitaga muvaffaqiyatli ravishda chiqib keldi va Oy atrofini aylanishni boshladi. 14 noyabr kuni esa, «Chandrayan-1»dan zarba-zondi ajralib chiqib, Oyning janubiy qutbi yaqinidagi Sheklton krateri yaqinida, qattiq qo'nishni amlaga oshirdi. Apparat Oy sirtida 2009 yilning 29 avgustida, ya'ni, Oyga qo'nganidan 312 kun o'tib, aloqada uzildi. «Chandrayan-1» faoliyati davomida olingan asosiy ilmiy natijalar Oy jinslari mineralogiyasi bilan bog'liq bo'lib, xususan, olimlar Oy tuprog'i va jinslari tarkibiga oid qimmatli ma;lumotlarga ega bo'ldilar.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Kaguya

Tanegasima kosmodromidan «Kaguya»ning starti.

«Kaguya» – Oyni tadqiq qilishga mo'ljallangan, Yaponiyaga tegishli ikkinchi kosmik zond, Oyning sun'iy yo'ldoshi. «Kaguya» - Yapon afsonalaridagi, Oy malikasining ismi hisoblanadi. Uning shuningdek ikkinchi nomi – SELENE (inglizcha ***Se**lenological and **En**gineering **E**xplorer* so'zidan). 2007 yilning 14 sentyabrida, Tanegasima kosmodromidan, H-IIA raketa-eltuvchisi yordamida koinotga chiqarilgan. Start vaqtidagi massasi 2914 kg. Yaponiya aerokosmik tadqiqotlar agentligi – JAXA buyurtmasiga ko'ra, NEC Toshiba Space Systems tomonidan ishlab chiqarilgan. Loyiha qiymati 226 million AQSH dollari.

Asosiy maqsadlari – Oyning kelib chiqishi evolyutsion rivojlanishi tarixini o'rganish uchun materiallar yig'ish, Oy sirtiga oid axborotlar to'plash va Oy orbitasida qator radiografik tadqiqotlar o'tkazish bo'lgan. «Kaguya» tarkibiy qismiga, keyinchalik undan ajralib chiqib, mustaqil harakatlana oluvchi qo'shimcha ikkita mini-zondlar *Rstar* va *Vstar* (ularning ikkinchi nomlari – Okina va Oyuna, afsonadagi, Oydan Yerga tushib kelgan Oy malikasini asrab olgan chol va kampirning ismlari).

«Kaguya», Apollon va Lunaxod dasturlari to'xtatilganidan keyingi uzoq tanaffusdan so'ng, Oyga parvozlar jarayonini qayta jonlantirishga sabab bo'lgan kosmik apparat hisoblanadi. Chunki, «Kaguya»dan so'ng ketma ket, Xitoyning «Chane-1/2» apparatlari hamda, Hindistonning «Chandryan-1/2» apparatlari Oyga tomon parvoz qilishdi. Shuningdek, Osiyoning Oyga parvozlari fonida, AQSH ham 2009 yilda Lunar Reconnaissance Orbiter Oy stansiyasini uchirishdi.

«Kaguya» cho'zinchoq parallelepiped shaklidagi konstruksiyaga ega bo'lib, uning bortiga 15 xil turli asbob uskunalar, jumladan, 10 megapikselli infraqizil va oddiy spektral kameralar, Oy sirti kimyoviy elementlarini tekshirish uchun rentgen hamda gamma spektrometrlari, past chastotali radar, lazerli altimetr, magnitometr, Oydan Yerni kuzatish uchun ultrabinafsha teleskopi va HDTV telekamerasi joylashtirilgan edi. «Kaguya» yordamida olingan eng e'tiborga molik ilmiy natijalardan, Oyning Yerdan ko'rinmaydigan tarafidagi tortish kuchining taqsimlanishi xaritasining tuzilganligi (Okina yordamida), shuningdek, Oyning vulqon faolligining bundan allaqachon avval – 2.84 milliard yil muqaddam so'nganligiga oid daliliy qaydlar olindi. Shuningdek «Kaguya» Shekelton krateri tubi haqida axborot yiqqan birinchi apparatga aylandi. Bu joydan olimlar muz topishni taxmin qilishgan edi. «Kaguya» yordamida olingan tasvirlar va topologik o'lchash natijalariga ko'ra, Oyning yanada mukammalroq topografik xaritasini tuzishga erishildi. Koinotni o'zlashtirishga yo'naltirilgan ikkinchi yapon zondi «Kaguya», 2009 yilning 10 iyun kuni, Oy sirtiga qulab tushdi va faoliyatdan to'xtadi.

Voyajer-2



Quyosh tizimining eng olis sayyoralarini hamda, ularning tabiiy yo'ldoshlarini o'rganishga mo'ljallangan, harakatdagi avtomatik fazoviy zond. AQSH tomonidan 1977 yilning 20-avgustida, Kanaveral kosmodromidan «Titan IIIE» raketa eltuvchisi yordamida orbitaga chiqarilgan. Start vaqtidagi vazni 721.9 kg. Ta'minot manbai sifatida plutoniy-238 asosida ishlovchi, 3 ta radioizotopli termoelektr generatori qo'llanilgan. Apparat «Voyajer-1» bilan aynan bir xil. «Voyajer-2» Uran va Neptunga yetib borgan eng birinchi va hozircha yagona apparat hisoblanadi.

Dastlabki vaqtda, «Voyajer-1» kabi «Voyajer-2»ning asosiy vazifasi, gigant sayyoralar – Yupiter va Saturnni tadqiq qilish sifatida belgilangan bo'lib, imkon doirasida, Uran va Neptunga ham uchishni maqsdad qilingan edi. «Voyajer-2» 1979 yilning 9 iyulida, belgilangan maqsad yo'lidagi dastlabki marra – Yupiterga maksimal yaqinlik masofasiga yetib bordi (71.4 ming km). Apparat shuningdek, Yupiterning «Voyajer-1» tadqiq qila olmagan yirik tabiiy yo'ldoshlari – Yevropa va Gannimedni ham yaqindan tasvirga oldi. Bu tasvirlar asosida olimlar, Yevropaning qalin muz qobig'i ostida, ulkan ummon mavjudligi haqidagi taminlarning ilgari surishlariga sabab bo'ldi. Gannimed sirtiga oid tasvirlarga ko'ra, ushbi yo'ldosh, boshqalaridan ko'ra ancha avvalroq vujudga kelganligini aniqlandi. Yupier va uning yo'ldoshlarini tadqiq qilinganidan so'ng, apparat, Yupiter bilan gravitatsion manyovrni amalga oshirish orqali, keyingi marra - Saturnga tomon yo'l oldi va

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

uning tevarak orbitasi yaqiniga 1981 yilning 25 avgust kuni maksimal darajada, ya'ni, 101 ming km gacha yaqinlashishga erishdi. Saturnga yaqinlashish trayektoriyasi, uning yirik tabiiy yo‘ldoshlari – Tefiya va Enselad yaqinidan o‘tib, ular haqida ko‘plab ma’lumotlar yig‘ish imkonini berdi. «Voyajer-2» Saturn bilan ham gravitatsion manyovrni amalga oshirdi va Uran tomon yo‘nalish oldi. Uranga maksimal yaqinlashishga (81.5 ming km) 1986 yilning 24 yanvar kuni erishildi. Shu tarzda «Voyajer-2» Uranga yetib borgan ilk kosmik zondga aylandi. Apparat Yerga Uran va uning yo‘ldoshlari hamda, halqalariga oid minglab fotosuratlarni yubordi. Ushbu ma’lumotlar asosida, Uranning ilgari fanga noma’lum bo‘lgan 11 ta yangi tabiiy yo‘ldoshi, hamda 2 ta halqasi kashf etildi. Shuningdek, Uranning qutblardan faqat bittasi Quyosh tomonidan yoritilgan bo‘lsa hamki, harorat bo‘yicha shimoliy va janubiy qutblarida ko‘rsatkichlar bir xil ekanligini qayd etildi. Bunga ko‘ra olimlar, Uranning ichki issiqlik uzatish mexanizmi mavjudligi to‘g‘risida xulosa qilishlariga sabab bo‘ldi. «Voyajer-2» Uran bilan ham gravitatsion manyovrni amalga oshirdi va chetki sayyora – Neptun tomon yo‘l oldi. Yupiter, Saturn va Uran bilan bajarilgan gravitatsion manyovrlar natijasida, «Voyajer-2»ning Neptungacha bo‘lgan masofani bosib o‘tish vaqtini, Yerdan Neptunga tomon to‘g‘ridan-to‘g‘ri startga nisbatan, 20 yilga qisqartirishga erishildi. 1989 yilning 24 avgust kuni «Voyajer-2» Neptunga 48 nbg km masofagacha yaqinlashishga erishdi va sayyora va uning tabiiy yo‘ldoshlariga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni Yerga uzatdi. Neptunning tabiiy yo‘ldoshlaridan biri – Tritonning tasvirlaridan, olimlar, Quyoshdan bunchalik uzoq va sovuq osmon jismi uchun kutilmagan hodisa – faol geyzerlar harakatini aniqlashdi va ushbu yo‘ldoshning hamon geologik faol ekanligini xulosa qilishdi. «Voyajer-2» yordamida Neptunning ilgari ma’lum bo‘lmagan 6 ta yangi tabiiy yo‘ldoshi kashf qilindi. Neptun tadqiq qilinganidan so‘ng, «Voyajer-2» yana uchishda davom etdi va u geliopauza tomon harkatlana boshladi. 2007 yilning 30 avgust kuni, «Voyajer-2» geliopauzaga kirib kelganligi haqida axborotlar olindi. 2011 yilning 4 noyabr kuni esa, apparatning zahira dvigatellariga o‘tish buyrug‘i uzatildi va buyqruq bajarilgani haqidagi tasdiqqa 10 kundan so‘ng ega bo‘lindi. Ushbu tadbirdan so‘ng, «Voyajer-2»ning quvvat zahiralari yana kamida 10 yilga yetishi taxmin qilinmoqda. Endilikda u, Quyosh geliosferasining chetki hududlari va undagi osmon jismlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. 2012 yilning 30 noyabr kuni «Voyajer-2» Quyoshdan 100 a.b. masofaga uzoqlashdi. Hozirda apparat Quyoshdan taxminan 104 a.b. masofada uchib bormoqda. Taxminan 2027 yilga borib, «Voyajer-2» ham, egizagi «Voyajer-1» kabi geliosferani tark etib, yulduzlararo fazoga chiqib ketishi mumkin. biroq, «Voyajer-1» dan farqli ravisgda, «Voyajer-2» bu vaqtda ishlashda davom etishiga ishonch yo‘q. Chunki apparatning energiya zahiralari bunga imkon bermasligi oydinlashib bormoqda.

«Kassini» tayyorlanish jarayonida.

Kassini

«Kassini» - Kassini-Gyugens fazoviy dasturi doirasida Saturn sayyorasi va uning tabiiy yo‘ldoshlarini o‘rganish maqsadida, 1997 yilning 15 oktyabr kuni NASA tomonidan koinotga uchirilgan kosmik zond. Italyan astronomi Jovanni Kassini sharafiga nomlangan. Loyiha qiymati 3 milliard AQSH dollari. Start vaqtidagi massasi 5710 kg bo‘lib, apparat tarkibiga shuningdek, undan ajralib chiqishi mumkin bo‘lgan «Gyugens» kichik zondi ham kiritilgan. Apparat umumiy uzunligi 6, eni esa 4 metrni tashkil qiladi. Uning elektr energiyasi iste’moli ta’minoti uchun 11 kg plutoniy-238 moddasidan iborat termoelektr generator bilan jihozlangan. «Kassini» bortiga umumiy vazni 336 kg bo‘lgan 12 xildagi ilmiy tekshirish asbob-uskunalari ortilgan bo‘lib, yuqori aniqlikda tele va fotokamera, magnitometr, rentegnografik spektrometrlar shular jumlasidandir. Shuningdek «Kassini» IBM firmasining GVSC 1750A bort-kompyuteri bilan ta’minlangan bo‘lib, ushbu apparatda ilk bor xotira qurilmasi flesh-xotira kartasiga asoslangan tarzda ishlangan (avvalgi kosmik apparatlarda magnit lentasidan foydalanilgan edi). «Kassini», 1998 va 1999 yillarda Venera bilan ikki marta va Yer bilan bir marta gravitatsion manyovrni amalga oshirish orqali, o‘z tezlanishini orttirib oldi va 69000 km/soat tezlik bilan Saturn sari yo‘lga chiqdi. 2000 yil qishida «Kassini» Yupiter yaqinidan uchib o‘tdi va unga oid qimmatli ma’lumotlarni Yerga uzatdi. 2004 yilning 30 iyun kuni «Kassini» belgilangan marra – Saturnga yetib bordi va uning dastlabki sun’iy yo‘ldoshiga aylandi. 2005 yilning 14 yanvar kuni esa, «Kassini» bortidagi «Gyugens» kichik zondi Titan sirtiga qo‘nishga muvaffaq bo‘ldi. Hozirda «Kassini» Saturn orbitasida ishlashda davom etmoqda va uning faoliyati NASA tomonidan avvaliga 2010, keyin esa 2017 yilgacha uzaytirilgan. Yaqin kelajakda «Kassini» Enselad bilan yaqinlashishi maqsad qilingan.

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.



«Xabbl» orbital teleskopi. «Atlantis» fazo kemasi bortidan olingan fotosurati. ©NASA

Xabbl

«Xabbl» - (inglizcha: Hubble Space Telescope, HST) – Yer atrofi orbitasida aylanib harakatlanishda ishlovchi, avtomatik orbital rasadxona. NASA va Yevropa kosmik agentliklarining qo'shma loyihasi. Loyihaning umumiy qiymati avval boshda 400 million AQSH dollari bo'lgan, biroq yakunda bu ko'rsatkich 2.5 milliard dollardan ortib ketgan. Apparat uzunligi 13.3 metr, diametri 4.3 metr. Start vaqtidagi vazni 11 tonna (bortga o'rnatilgan ilmiy-tekshirish asboblari bilan esa, 12 tonnadan ortiqroq). «Xabbl» 1990 yilning 24 aprel kuni, AQSHning Kanaveral kosmodromidan «Diskaveri» STS-31 shatlli yordamida orbitaga chiqarilgan. Orbital tezligi 7500 m/soniya. Yerdan taxminan 569 km masofa balandligida, o'rtacha 96.2 daqiqada bir marta Yer atrofini aylanib chiqadi. Orbita perigeyi 561 km; apogey esa 566 km.

«Xabbl» orbital rasadxonasining asosiy uskunasi bu 2.4 m diametrga ega Richi-Kratyen sistemasidagi teleskop-reflektoridir. Teleskopning fokus masofasi 57.6 metrni tashkil qiladi. Unga asosiy teleskopdan tashqari 48 ta yorug'lik filtriga ega bo'lgan keng burchakli planetar kamera, yuqori aniqlikka ega bo'lgan Goddard spektrografi (ultrabinafsha diapazonda ishlash uchun mo'ljallangan), xira obyektlarni tasvirga olishga mo'ljallangan maxsus kuchaytirilgan telekamera, xira obyektlar spektrografi, yuqori tezlikka ega fotometr, hamda navigatsiya sensorlari joylashtirilgan. Shuningdek, keyingi ekspeditsiyalar chog'ida, astronavtlar tomonidan, teleskopni ish vaqtida ham sozlab borish va nuqsonlarni bartaraf etish imkonini beruvchi COSTAR optik sozlov tizimi o'rnatilgan. Orbital rasadxonaning asosiy maqsadi, astronomik kuzatuvlarning Yer atmosferasi tufayli yuzaga keladigan salbiy ta'sirlardan holi bo'lgan hudud – ochiq koinotda, avtomatik tarzda va Yerdan boshqariladigan ravishda olib borishga erishish hisoblanadi. Rasadxonaning koinotga joylashtirilishi, elektromagnit to'lqinlarning, birinchi navbatda infraqizil diapazondagi to'lqinlarning Yer atmosferasi ta'siridan butunlay holi bo'lgan ochiq fazoning o'zida qayd etish va bu diapazonlarda kuzatuv olib borish imkonini beradi. «Xabbl» orbital rasadxonasi umuman olganda, ko'zga ko'rinadigan nurlar diapazoni va aytib o'tilgan infraqizil diapazondan tashqari shuningdek, ultrabinafsha diapazonda ham ishlaydi. Atmosfera ta'sirlarining mavjud emasligi tufayli, orbital rasadxonaga o'rnatilgan teleskopning sezgirligi va aniqlik darajasi, shuningdek tasvirlarning sifat ko'rsatkichlari, aynan shunday teleskopning Yerdagi nusxalariga nisbatan 7-10 barobar a'loroq sifat ko'rsatkichlariga egadir.

«Xabbl»ning orbitaga chiqarilganidan buyon uning yordamida olingan eng e'tiborga molik quyidagi ilmiy natijalarni qayd etish mumkin:

- 1994 yilda «Xabbl» teleskopi, Shumeyker-Levi kometasining Yupiter bilan to'qnashuvi hodisasini to'g'ridan to'g'ri kuzatish imkonini berdi;
- Uning yordamida, Pluton va Eridaning sirt yuzasiga oid ilk ma'lumotlar olindi ularning xaritalari tuzildi;
- Saturn, Yupiter va Gannimedda ultrabinafsha qutb yog'dulari bo'lishi aniqlandi;
- Quyosh tizimidan tashqaridagi ekzosayyoralar haqida ilk ma'lumotlar olishga erishildi;
- Orion tumanligida, sayyoralar hosil qilishi mumkin bo'lgan disk mavjudligi aniqlandi, galaktikamizdagi ko'plab yulduzlar atrofida, sayyoralar shakllanishi jarayoni davom etayotganligi tasdiqlandi;
- Galaktikalar markazida massasi favqulodda ulkan bo'lgan qora tuynuklar mavjudligi nazariyasining isbotlanishiga ulkan hissa qo'shildi, xususan, qora tuynuk massasi va galaktikaning xossalari o'rtasidagi bog'liqlik haqida ko'plab ilmiy tasdiqlar yig'ildi;
- Kvazarlarni kuzatish natijasida, butun olamning tezlanish bilan kengayayotganligini va olamning yoshi taxminan 13.7 milliard yil ekanligi aniqlandi;
- 1995 yilda, koinotning xira obyektlar joylashgan hududlarini kuzatish natijalariga ko'ra, butun olamning izotropligi haqidagi g'oyalar paydo bo'ldi;
- 2013 yilda, «Xabbl»ning 2004-2009 yillarda tasvirga tushirgan fotosuratlari yordamida, Neptuning avval fanga ma'lum bo'lmagan yangi tabiiy yo'ldoshi aniqlandi.

Yuqoridagilardan tashqari, «Xabbl» yordamida yulduzlar evolutsiyasi, koinotdagi ko'plab tumanliklar, olis hududlardagi galaktikalar haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar yig'ildi. «Xabbl» hozirda ham astronom olimlarga xizmat qilishda davom etmoqda.

Orbital rasadxona shu paytgacha 4 marta kosmik ekspeditsiyalar orqali ta'mirlangan va mukammallashtirilgan bo'lib, uning ish faoliyati 2014 yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

«Yangi gorizontlar» yig'ish jarayonida. ©NASA

Yangi Gorizontlar

«Yangi gorizontlar» - (inglizcha: New Horizons) – NASA tomonidan, «Yangi sarhadlar» dasturi doirasida, 2006 yilning 19 yanvar kuni AQSHning Kanaveral kosmodromidan «Atlas-5» 551 raketa-eltuvchisi yordamida koinotga uchirilgan sayyoralararo avtomatik kosmik zond. Start vaqtidagi vazni 478 kg. Loyiha qiymati 650 million AQSH dollari. Apparat va uning bort asbob uskunalari, 11 kg plutoniy-238 radioaktiv termoelektr generatoridan quvvat oladi. O'lchamlari 2,2×2,7×3,2 metr. «Yangi gorizontlar»ning ishlash muddati 15-17 yilgacha bo'lishi ko'zda tutilgan. Apparat, Pluton atmosferasi va sirt yuzasi tuzilishini tadqiq qiluvchi ultrabinafsha spektrometr, oddiy va infraqizil diapazonlarda ishlovchi yuqori aniqlikdagi yirik planli yoyilma fotokamera, Quyosh shamoli zarrachalarining parametrlarini o'rganuvchi SWAP apparati, energetik zarrachalar spektrometri, Koyper belbog'idagi chang zarrachalarini o'rganish uchun chang detektori, hamda radiospektrometr kabi uskunalar bilan jihozlangan. Shuningdek, «Yangi gorizontlar» bortiga, Plutonni kashf qilgan astronom Klayd Tomboning xoki, hamda NASA o'tkazgan maxsus «Plutonga ismingni yubor» dasturi doirasida 434738 kishining ismi yozilgan disk joylashtirilgan. Yer bilan aloqa esa, ko'plab antennalar va kuchaytirgichlar tizimi orqali ta'minlanadi. «Yangi gorizontlar»ning axborot uzatish tezligi 4.75 Kb/soniya (Yupiter hududida), Plutonga yetib borishda bu tezlik 96 bayt/soniyaga tenglashishi kerak.

Ushbu apparat, kosmik tadqiqotlar erasi boshlanganidan buyon, Yerdan eng katta tezlik bilan uchib chiqqan kosmik zond hisoblanadi. U start vaqtida 16.21 km/soniya tezlik bilan Yerni tark etgan. Biroq hozirda apparatning uchish tezligi 14.95 km/soniyani tashkil qiladi va bu, 70-yillar oxirida uchirilgan «Voyajer-1»ning tezligidan (17.055 km/soniya) past ko'rsatkichdir (Voyajer-1 Saturn bilan bajarilgan gravitatsion manyovr evaziga qo'shimcha tezlanish olgan).

«Yangi gorizontlar»ning asosiy maqsadi – Pluton va uning yo'ldoshlari, xususan Xaronni tadqiq qilish. Shuningdek yo'l-yo'lakay, apparat Yupiterga ham tashrif buyurishi va ushbu gigant sayyora bilan gravitatsion manyovrni amalga oshirishi lozim edi. Bu vazifa 2007 yilning 28 fevralida muvaffaqiyatli uddalandi va «Yangi gorizontlar» Yupiter tortish kuchlari ta'sirida qo'shimcha tezlanish olishga erishdi. Bu jarayonda Yupiter va uning yo'ldoshlariga oid yangi fotosuratlarni Yerga yubordi. 2008 yilning 8 iyun kuni «Yangi gorizontlar» Saturn orbitasini kesib o'tdi. 2009 yilning 29 dekabrida esa mazkur kosmik zond, Yer va Pluton orasidagi masofaning teng yarmini uchib o'tdi. 2010 yilning 30 iyul kuni esa, «Yangi gorizontlar» Neptundan 23 a.b. masofadan uchib o'tish chog'ida, Neptunning va uning tabiiy yo'ldoshlarining yuqori aniqlikdagi fotosuratlarini olib, Yerga uzatdi. Mohiyatan bu amaliyotning maqsadi, apparatning bortidagi asboblar va kameralarning ishlash rejimini tekshirib olish edi. 2011 yil, 18 martda zond Uran orbitasini kesib o'tdi. 2012 yilning 12 fevralida esa u Plutonga 10 a.b. gacha yaqinlashdi. 2013 yil oktyabrida marragacha bo'lgan masofa 5 a.b. ga qisqardi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2014 yilning 25 avgustida «Yangi gorizontlar» kosmik zondi Neptun orbitasini kesib o'tishi lozim. Shundan so'ng, 2015 yilning yanvarida, Plutonni to'g'ridan-to'g'ri kuzatish ishlarini boshlanishi va apparat to'liq ish rejimiga o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Xususan, 2015 yilning 5 mayiga kelib, undan olinishi kerak bo'lgan foto va videomateriallarning sifati «Xabbl» qayd qilayotganlardan yaxshi darajaga o'tishi kerak. 2015 yilning 14 iyul kuni esa, «Yangi gorizontlar» ko'zlangan marra – Plutonga va uning Xaron yo'ldoshiga maksimal yaqinlashishi rejalashtirilgan. Kuzatuv 9 kun mobaynida olib boriladi va umumiy hisobda 4.5 Gb axborot yig'ilishi mumkin. Pluton va uning yo'ldoshlari tadqiq qilinganidan so'ng, imkoniyatga qarab, 2016-2020 yillar davomida «Yangi gorizontlar»ni Koyper belbog'idagi obyektlardan biriga yo'naltirish mumkin. biroq, apparatning energiya zahiralarining juda kamligi bois bu amalga oshishi mushkul bo'lgan vazifa sifatida qaralmoqda. 2026 yilga borib esa, «Yangi gorizontlar»ning ish faoliyati butunlay to'xtashi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, «Yangi gorizontlar» parvozning 80% vaqti davomida energiya resurslarini tejash uchun, bir necha marta «kutish rejimi»ga o'tkaziladi va qolgan 20% muddatda, vaqti-vaqti bilan yana ish rejimiga qaytarilib turiladi. Xususan u 2014 yilning 5 yanvarida «kutish rejimi»dan uyg'otilib, aloqa tizimlari bort asbob-uskunalarining ishlashi sozligi tekshirib olindi va dasturiy ta'minot manbalari yangilandi. 17 yanvar kuni apparat qaytadan «kutish rejimi»ga o'tkazildi. 2015 yilning may oyida esa apparatning «kutish rejimi»dan butunlay chiqarildi va endilikda u to'liq ishchi rejimga o'tgan.

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Енохович А.С – «Справочник по физике». Москва. «Просвещение» 1978.

2. Будько А.И - Весь мир в цифрах и фактах. Универсиальный справочник. Моква. «Рипол Классик» 2001.

3. NASA rasmiy sayti – www.nasa.gov materiallari.

4. Gindikin «Fiziklar va matematiklar haqida hikoyalar».

5. www.planetary.org sayti materiallari.



Mundarija

- UMUMIY MA'LUMOTLAR 3

Astronomiyaga oid shartli belgilar. 3

Astronomiyada qo'llaniladigan masofa birliklari. 4

- YER - 5

Yerning fizik parametrlari. 7

Yerning orbital ko'rsatkichlari. 8

- LITOSFERA 9

Yerning ichki tuzilishi. 9

Yerning turli chuqurlik intervallaridagi zichligi. 9

Yerning ichki qatlamlarida erkin tushish tezlanishi. 10

Yerning turli chuqurliklaridagi bosim. 10

Yerning ichki qatlamlaridagi harorat. 10

Yer qobig'ida kimyoviy elementlarning tarqalishi. 11

- GIDROSFERA 11

Suvning gidrosfera bo'ylab taqsimlanishi. 11

Okean suvlarida eng ko'p tarqalgan kimyoviy elementlar. 12

- ATMOSFERA 12
- QUYOSH - ☉ 13

Quyoshning ichki tuzilishi. 14

Quyosh atmosferasi. 15

Quyosh shamoli. 16

Quyosh magnit maydoni. 16

Quyosh faolligi. 16

Quyosh tutilishlari. 17

XXI asr davomida kuzatiladigan Quyoshning to'liq tutilishlari jadvali. 19

Quyoshning fizik parametrlari. 24

Quyoshda eng ko'p tarqalgan kimyoviy elementlar. 25

- OY 25

Oyning fizik parametrlari. 26

Oyda eng ko'p uchraydigan kimyoviy elementlar. 27

- QUYOSH TIZIMI. 29
- SAYYORALAR 31

Quyosh tizimining katta sayyoralari. 31

- MERKURIY ☿ 32

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

VENERA ♀ 34
- MARS ♂ 36

Marsning tabiiy yo‘ldoshlari: 37
- YUPITER ♃ 38

Yupiterning tabiiy yo‘ldoshlari: 40
- SATURN ♄ 43

Saturnning tabiiy yo‘ldoshlari: 44
- URAN - ⛢ 47

Uranning tabiiy yo‘ldoshlari: 49
- NEPTUN - ♆ 51

Neptunning tabiiy yo‘ldoshlari: 53
- KARLIK SAYYORALAR 54
- PLUTON - ♇ 55

Plutonning tabiiy yo‘ldoshlari: 58
- SERERA 59
- ERIDA 61
- MAKEMAKE 62
- HAUMEA 63
- KICHIK SAYYORALAR – ASTEROIDLAR 64

Asteroidlar haqida ba’zi ma’lumotlar 65

Eng yirik asteroidlar: 65

Yerga davriy yaqinlashib turadigan asteroidlar: 65
- KOMETALAR 66
- METEORITLAR 67
- YULDUZLAR. 68
- LOVA: *(IZOHLAR VA QO‘SHIMCHA MA’LUMOTLAR)* 72

Titsius-Bode qonuniyati 72

Koyper belbog‘i 74

Xalqaro Astronomiya Ittifoqi 75
- *Astronomiyaga oid terminlar:* 76

Plutoid 76

Yulduz kattaligi 76

Transneptun obyekt 76

Perisentr (Perigeliy; Perigey) 76

Aposentr (Afeliy; Apogey) 76

www.Orbita.Uz ma’lumotnomalar markazi.

Katta yarim o'q 76
Orbita ekstsentrisiteti 77
Siderik aylanish davri 77
Sinodik aylanish davri 77
Ichki sayyora 78
Tashqi sayyora 78
Orbital tezlik 78
Albedo 78
- *Astronom olimlar va fazogirlar:* 80
Klayd Tombo 80
Juzeppe Piatssi 80
Nikolay Kopernik 81
Galileo Galiley 81
Mixail Lomonosov 82
Iogann Kepler 82
Yuriy Alekseevich Gagarin 83
Uilyam Gershel 84
Iogann Bode 85
Jerard Koyper 85
Iogann Daniel Titsius 85
Nil Armstrong 86
Edvin Oldrin 87
Jovanni Dominik Kassini 88
Persival Louell 88
Xristian Gyugens 89
Urban Leverye 90
- *Kosmik apparatlar:* 91
Mariner-10 91
Messenjer 91
Mariner-4 92
Eksplorer -6 92
Voyajer-1 93
Apollon dasturi 95
Luna-1 95
Apollon-11 96
Vostok-1 97
Lunaxod-1 97

www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Hiten 98
Chane-1 98
Chandrayan-1 98
Kaguya 99
Voyajer-2 99
Kassini 100
Xabbl 101
Yangi Gorizontlar 102
Adabiyotlar ro'yxati 103



www.Orbita.Uz ma'lumotnomalar markazi.

Muallifdan:

Tungi osmondagi to‘lin Oyga, minglab charog‘on yulduzlar yastanib yotgan Somon yo‘liga, sayyoramiz uzra aniq hisob-kitob bilan almashinib turgan kecha-kunduzga, va umuman olamning qanday qonuniyatlar asosida barqaror turishiga qiziqmagan odam kam bo‘lsa kerak. Bolaligida fazogir bo‘lishni orzu qilmagan o‘g‘il bolalar oz deysizmi...

Sirli koinot, jumboqqa to‘la fazo, hamma zamonlarda ham odamzotni o‘ziga jalb qilib kelgan. Eng qadimgi davrlardayoq odamlar, osmon jismlarining harakatlanishi ma’lum qonuniyatlarga asoslanishini payqab, ular asosida o‘z kundalik yumushlarini, qisqasi o‘z hayot tarzlarini tartibga solishga intilganlar. Shu nuqtai nazardan astronomiya, doimo dolzarb va muhim amaliy fan sifatida, barcha ma’rifatli jamiyatlarda, eng yuksak ilmiy doiralarda markaziy o‘rin tutuvchi fanlardan bir bo‘lib kelgan. XX asrda koinotni inson tomonidan zabt etilishi erasi boshlanishi bilan, ushbu fanning ahamiyati yanada ortdi. Avvaliga Yer orbitasigacha uchgan inson, keyin esa Oyga qadam qo‘ydi. Ilgarilari odamzotning aqliga sig‘magan masofalarga – yaqin va uzoq sayyoralarga avtomatik kosmik apparatlar yubordi. Yillar sayin yangi sayyoralar, galaktikalar va butun boshli olamlarni kashf qilib bormoqda. Yaqin vaqtlar ichida, huddi bir zamonlar, madaniy o‘lkalar aholisi, boshqa qit’alarda koloniyalar tashkil qilganidek, odamzot ham boshqa sayyoralarda o‘z koloniyalarini tashkil qilishi, o‘zga osmon jismlarining tabiiy resurslaridan foydalanishga o‘tishi imkoniyatari, endilikda fantastika turkumiga kiritilmay qo‘ygan. Ishonmaysizmi? Eslab ko‘ring, bundan atiga 60-70 yil muqaddam, odamning Oyga qadam qo‘yishi haqida gapirilganda, bu narsa aynan fantastika deb qaralar edi. Hozirda bu allaqachon amalga oshgan haqiqatdir. Bir vaqtlar, odamozot o‘z qo‘li bilan yasagan apparat Quyosh tizimini butunlay tark etib, yulduzlararo fazoga chiqadi deyilsa, aynan fantastika deb qaralgan. Bugun bunday apparatlar amalda bor va ular bizdan mingalab a.b. masofalarda mukammal ishlab turibdi. Shunday ekan, astronomiya bundan keyin ham butun insoniyat hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy fanlardan biri sifatida doim qadrlanishiga va katta qiziqish bilan o‘rganilishiga ishonchimiz komil.

Shu nuqtai nazardan, www.Orbita.Uz sayti nomidan navbatdagi ma’lumotnoma qo‘llanma – «Astronomiyadan ma’lumotnomalar» elektron kitobini siz aziz oq’uvchilarga taqdim etish bizga katta mamnuniyat bag‘ishlamoqda. Ushbu kitob, astronomiya borasidagi bilimlaringizni oz bo‘lsada boyitishga, ilm-fanga bo‘lgan rag‘batingiz ortishiga, yangidan yangi bilim cho‘qqilarini egallashingizga andak hissa qo‘sha olsa, ish, xo‘jalik faoliyatingizda ozgina bo‘lsa-da ko‘makchi bo‘la olsa, tahririyat o‘z oldiga qo‘ygan muddao hosil bo‘lgan bo‘ladi.

Sayt ma’muriyati, o‘z ilmiy faoliyati davomida mazkur fan ma’lumotlarini, o‘lchov va tahlil natijalarini qayd etgan atoqli olimlar va fan fidoyilarini samimiy hurmat bilan yodga olib, ularga tashakkur izhor etadi…

www.Orbita.Uz sayti Mazkur ma’lumotnoma bo‘yicha taklif, fikr va mulohazalaringizni Muzaffar.Qosimov@gmail.com elektron manziliga yuborishingizni so‘raydi. Imlo xatolari hamda ma’lumotlardagi qiymatlarga bog‘liq noaniqliklarni bizga ma’lum qilsangiz, g‘oyatda minnatdor bo‘lar edik. Tanqidiy nuqtai nazardan bildirilgan fikr va takliflar, ma’lumotnomaning keyingi talqinlarida albatta inobatga olinadi.

O‘qish, mehnat va ijod faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilab:

Muzaffar Qosimov,
www.Orbita.Uz sayti muharriri.